

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYalar VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

Ulfatxon Muhibova

URDU ADABIYATI

Darslik

Toshkent – 2025

Mas'ul muharrir:
filologiya fanlari nomzodi, professor
Muxayyo Abduraxmanova

Taqrizchilar:
PhD M.A. Sharaxmetova, f.f.d. G.I. Xalliyeva

Urdu adabiyoti: darslik. Muhibova U.U. / – T.: 2025. – 174 bet

Ushbu darslik Urdu adabiyoti bo'yicha tayyorlangan o'zbek tilidagi ilk darslikdir. Uning mazmunida urdu adabiyoti shakllangan XII asrdan boshlab undan keyingi davr urdu adabiyoti rivojiga xissa qo'shgan katta katta maktablar va ularning vakillarining ijodi, urda she'riyati va nasri rivojiga o'z ijodi bilan hissa qo'shgan adiblar haqidagi ma'lumotlar, ijodidan namunalar kiritilgan.

Darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti filologik yo'nalishidagi bakalavriat talabalari va adabiyotshunoslik mutaxassisligi magistrantlari, shuningdek, urdu adabiyotiga qiziquvchi barcha o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Mazkur darslik ToshDShU Ilmiy kengashi tomonidan 2025 yil 26 iyundagi 11- sonli bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Muhibova U., 2025

KIRISH SO‘ZI

Urdu tili va adabiyoti Hindistonga islom dinining kirib kelish jarayonlari bilan bog‘liq. 7 asrlarda Hindistonga arab xalifaligi kirib kelgan, lekin ular ko‘p vaqt bu yerda qololmagan. XII asrlarda eronliklar bostirib kirgan va islom dinining tarqalishi tezlasha borgan. Vanihoyat 16 asrda Bobirning Hindistonga kirib kelishi va o‘z saltanatiga asos solishi Hindistonda islom dinining butkul mustahkamlashuviga va musulmonlarning ko‘payib urdu tili va adabiyotining keng rivojlanishiga olib kelgan.

Darslik mazmunida urdu adabiyotining shakllanishidan to XX asr oxirlarigacha bo‘lgan adabiyot tarixi o‘z aksini topgan.

Darslikdan XIII-XV asrlar adabiyoti, Hindistonda urdu tili va adabiyotining vujudga kelishi, Hindistonda forsiyzabon adabiyot va Amir Xusrav va Amir Xasan Dexlaviylar ijodi, urdu adabiyotining ilk namoyandasi Geysudaro Bandanavoz, tasavvuf adabiyoti, Bijopur va Golkonda sultonligi davrida rivojlangan urdu adabiyoti, urdu adabiyotining Lakxnau va Dehli maktablari, XVIII asr Avadh rojaligida urdu adabiyoti, Vali Muhammad Nazir Akbarobodiy, urdu she‘riyatining to‘rt ustuni, 1700-1850 yillar urdu adabiyotining rivoji, G‘olib she‘riyati kabi mavzular o‘rin olgan.

XIX XX asrlar Alligarx ma‘rifatparvarlik harakati. Said Ahmad Xon ta‘sirida shakllangan ma‘rifatparvarlik adabiyoti, Mavlono Ozod, Altaf Xusayn Xoli ijodi, Nasixatli roman va Nazir Ahmad ijodi, Ratannatx Sarshar va Mirza Rusva, romannavisligi, Iqbol she‘riyatida falsafiy qarashlar, Abdul Xalim Sharar, Jo‘sh Malixobodiy, Fayz Axmad Fayz ijodining urdu adabiyoti rivojiga kushgan xissasi.

Roman-epopeya janri va Xo‘ja Ahmad Abbos, zamonaviy urdu nasrida Ahmad Nodim Qosimiy ijodi, Premchand va Krishan Chandar ijodida tanqidiy realizmning rivojlanishi, urdu adabiyotida hikoya janri, Sadat Xasan Manto ijodi kabi mavzular kiritilgan.

Darslikda yuqorida tilga olingan mavzular doirasida urdu adabiyotining rivojlanishiga katta xissa ko‘shgan urdu adabiy maktablar, shu maktablarda ijod qilgan adiblar ijodi haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

Hindistonda urdu tili va adabiyotining shakllanishi

Tayanch soʻzlar va iboralar: islom dini, urdu tili, arab xalifaligi, shoirlar, boburiylar. saroy adabiyoti, musulmon madaniyati, fors tili.

Darsning maqsadi: Hindistonda urdu tili va adabiyotining shakllanish sabablari va uni rivojlantirgan maktablar haqida maʼlumot berish

Ikkinchi ming yillikning boshlariga kelib Hindistonda shunday bir voqealar yuz berdiki, ular Hindistonning iqtisodiy va maʼnaviy jihatdan yangi pogʻonaga koʻtarilishga, yangi-yangi oʻzgarishlarning har soxaga kirib kelishiga sababchi boʻldi. Gupta va Harsha davlatlarining (VI-VII asr) qulashi Hindistonning bir butun davlat sifatida rivojlanish imkoniyatidan mahrum etdi. Hindistonning siyosiy jihatdan kuchsizlashuvi koʻpgina chet mamlakatlardan bosqinchilarning kirib kelishiga qulay sharoit yaratib berdi. Musulmonlarning Hindistonga birinchi bosqinchilik yurishlari VII asrda arab xalifaligining Hindistonning janubiga kirib kelishidan boshlandi. Ular 712 yili Sind boʻyiga kirib kelib, mahalliy xalqning koʻpchilik qismini islom diniga kirishga majbur etadilar. Lekin ular Hindistonda uzoq vaqt boʻlmadilar. Undan keyingi bosqinchilar qatoriga eronliklar, undan soʻng esa Oʻrta Osiyoliklarning kirib kelishi Hindistonda islom dinining mustahkam oʻrnashib olishiga sharoit yaratib berdi. Ushbu yurishlar orqasida albatta ikki mamlakat oʻrtasida savdo va madaniy aloqalar doimiy ravishda saqlanib keldi. Ayniqsa turk shohi Gaznaning XI asrda Hindistonga bostirib kirishi va uning ketidan Oʻrta Osiyolik Boburning Hindistonda yirik bir davlatning barpo etishi Hindistonda Islom dinining toʻla gʻalabasini taʼminladi. Bu davrga kelib, Hindistonda musulmon diniga oʻtganlarning ham soni ancha koʻpchilikni tashkil etib qolgandi. Bobur tashkil etgan moʻgʻullar imperiyasi XVI asrdan to XVIII asrgacha, Hindistonga inglizlar kirib kelishi davrgacha yirik bir davlat sifatida Hindistonning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qoʻshdi. Demak, musulmonlar Hindistonga VII asrdan boshlab kelib XVI asrga kelganda oʻzining katta bir davlatiga ega boʻlib, Hindistonda musulmon adabiyotining shakllanishiga asos soldi.

Musulmon davlatida davlat tili ham, adabiy til ham avvaliga fors tili boʻlib keldi. Keyinchalik sekin asta fors tili mahalliy hind tillari bilan chatisha boshladi va buning natijasida urdu tili shakllana boshladi. Boburiylar imperiyasida Oʻrta Osiyodan kelgan shoir va yozuvchilar

saroyda avval fors tilida ijod etdilar. Bu adabiyot faqat saroy axli uchungina tushunarli bo'lib, oddiy xalq bu adabiyotdan bexabar edi. Saroy tili yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek sekin asta mahalliy xalq tili bilan muomalaga kirishib, u bilan chatisha boshladi.

Musulmonlar kirib kelgan davrda Hindiston janubida ko'pgina mahalliy tillar shakllanib bo'lgan edi. Ular orasida Boburiylar imperiyasi hududida yashovchi xalq asosan kxari bo'lida so'zlashar edi, bu davrdagi adabiy tillar ham hududiga qarab ba'zi yerlarda kxari bo'li, ba'zilarida esa braj hamda yana boshqa bir yerda avadxi tili hukm surar edi. Kxari bo'li va braj tillari asosida keyinchalik bugungi hindi tili hamda avadxi tili asosida esa musulmonlar tili bo'lmish urdu tili shakllanib chikdi. Fors tilining mahalliy tillarga ta'siri asosan yangi so'zlarning kirib kelishi va yangi yozuvning kirib kelishi bilan boshlandi. O'sha davr mahalliy tillari avadxi va kxari bo'liga fors tilining leksik ta'siri sekin asta yozuvning o'zgarishiga ham olib keldi. Musulmonlar Hindistonda yangi til yaratmadilar, faqat mahalliy tilga o'z so'zlari va yozuvlarini kiritib uni sekin asta adabiy jarayonga ham kiritib borib yangi turdagi hind tilini shakllanishiga sababchi bo'ldilar. Islom diniga o'tgan musulmon hindlar o'zlariga mana shu tilni o'zlashtirib, o'zlarini musulmon dini vakili sanab arab yozuvini qabul qiladilar. Natijada arab yozuvida yoziladigan, kxari bo'li, avadxi va fors tillari leksikasi chatishuvidan tashkil topgan yangi bir til vujudga keladi. U avvalom bor og'zaki nutqda, keyinchalik esa yozma adabiyotga ham kirib keladi. Bu tilni mahalliy xalq dastavval so'zlashuvda bozorlarda ishlatgani sababli uni «urdu» tili, ya'ni «bozor tili», «aralash til» nomi bilan ataydilar, vaqt o'tishi bilan urdu so'zi hind musulmonlari tilining nomiga aylanib ketadi. Fors leksikasining ta'siri ayniqsa adabiyotda yozma adabiyot shakllanganidan keyin kuchayadi. Urdu tili avvaliga «rexta», ya'ni «aralash» degan ma'nosida tilning nomi bo'lib kelgan. Keyin bu nom «hindustani» atamasi bilan almashdi. Urdu so'zi esa asosan XVII-XVIII asrdagina adabiy jarayonga kirib keldi.

Yangi tilning keng tarqalishiga ko'pchilik bhakti va sufizm g'oyalarining targ'iboti ham sabab bo'lgan deyдилar. Ushbu ikki diniy harakat hinduizm va islom mutaassibligiga qarshi shakllangan g'oyalar bo'lib, ular jamiyat orasida dinning asl mohiyati yo'qolib, dindagi rasmiyatchilik kuchayib borganini ta'kidlab o'tadilar. Bu borada ular o'z targ'ibotlarini adabiyot vositasida amalga oshirganlar. Bhakti va tasavvuf g'oyalarining keng tarqalishining asosida xalq manfaatlarining himoyasi yotadi. O'z g'oyalarini xalqqa yetkazish uchun kurashayotgan targ'ibotchilar esa xalq tilida ularga murojaat qilishni qulay deb

hisoblaganlar. Ular bu borada bhakti va sufizm uchun zarur bo'lgan mahalliy xalq tillari braj va urdudan foydalanganlar. O'rta asr davrining ko'pgina shoir va yozuvchilari shu davrningetakchi mafkurasiga aylangan bhakti va sufizm g'oyalari ta'siri ostida ijod etganlar. Sufizm g'oyalari na faqat hind adabiyotidan, balki fors adabiyotidan ham kirib kelgan. Chunki, bu davrda butun O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va boshqa bir qancha musulmon davlatlarida tasavvuf ta'limoti rivojlangan bir davr edi, shu bois o'rta asr adabiy merosining asosiy mazmuni tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgandir.

Hindistonga musulmonlarning kirib kelishi nafaqat g'oyaviy yangiliklarga balki til va adabiyotda ham yangi - yangi yo'nalishlar, maktablarning shakllanishiga sababchi bo'ldi. Urdu tili dastavval og'zaki so'zlashuv tili keyinchalik borib esa adabiy til sifatida rivojlana boshladi. Urdu tilining adabiy shakllanishiga asosan ikki maktab faoliyati o'zining katta hissasini qo'shgan. Bu Dehli va Dekan maktablaridir. Urdu adabiyoti dastavval Boburiylar imperiyasi dargohida shakllandi. Ma'lumki, Boburiylar imperiyasi butungi Dehli hududining atroflariga joylashgan bo'lib, uning poytaxti Agra shahri edi. Boburiylar saltanatida fors adabiyoti ta'sirida mahalliy musulmon shoir va yozuvchilari urdu tilida ijod qilishga asos sola boshladilar. Ular fors adabiyoti ta'siri ostida hind adabiyoti mazmunidagi asarlarini yarata boshladilar. Ularning asarlarining g'oyaviy yo'nalishi asosan sufiyona yo'nalishda bo'lib, ular o'z davri muammolarini o'z she'riyati va asarlarida talqin eta boshladilar. Bu davrda saroyda ham undan chetda ham adabiyot asosan ikki tilda ham fors ham urdu tilida shakllana bordi. Saroydan tashqarida esa mahalliy tillar kxari bo'li va avadxi tillarida mahalliy hindlarning adabiyoti yana bir yangi sahifa sifatida davom etardi. Ularning ham asarlarining asosiy g'oyasi bhakti va sufizm g'oyalari bo'lib, bu narsa ikki milliy adabiyotning, ya'ni yangi pog'onada, yangi yo'nalishda rivojlanishiga olib keldi. Shu sabab O'rta asr davri adabiyoti juda rivojlanib ketdi va o'zidan keyin juda boy adabiy meros qoldirdi. Bu davr adabiyoti o'xshash g'oyali, lekin turli yozuvda, ya'ni hindi va urdu tillarida yaratilgan adabiyot sanaladi. O'rta asrda juda ko'p fors tilida ijod etgan hind musulmonlarini yoki bo'lmasa urdu tilida ijod etgan ko'pgina fors yozuvchi va shoirlarining asarlari bilan tanishish mumkin. Shu sabab ikki adabiyot, fors va hind adabiyotlarining sintezi hind adabiyotiga yangi obrazlar, janrlar, g'oyalar kirib kelishini va o'z navbatida fors adabiyotiga ham hind adabiyotidan yangi - yangi syujetlar, obrazlar, qahramonlar va g'oyalar kirib kelishiga sababchi bo'ldi. Bu davrda urdu tilida ijod etgan musulmonlarni yoki hindi tilida ijod etgan

musulmon shoir va yozuvchilarni ham sanab o'tish mumkin. Bular o'z navbatida hindi va urdu adabiyoti sahifalarini boyitib bordilar. Jumladan, musulmon Muhammad Jayasi (XVI asr) o'zining «Padmavat» asarini hindi tilida yaratgan yoki bo'lmasa pandit Diya Shankar Kaul (1811-1843) Nasim taxallusida ijod etgan. Uning urdu tilida yaratgan «Gulzar-e Nasim» («Nasim bog'i») asari XIX asr urdu adabiyotining eng yuksak namunalaridandir.

Ko'pgina forsiyzabon shoir va yozuvchilar o'z traktatlarini o'sha davr tili sanalmish hindavida yaratganlar. O'rta asr tazkirachilaridan ko'pchiligining nomini uchratish mumkin. Bulardan Masud Sad Salmon (1059-1121) hindavida ijod etgan birinchi forsiyzabon shoirlardandir. U Laxorda ko'p yillargacha saroyda kattagina mansabda ishlagan. Lekin chaquv natijasida qamalib o'n to'qqiz yil qamoqda o'tiradi. Mana shu davrda u o'zining asosiy uchta traktatini yaratadi. Biri fors tilida, biri arab va yana bir hindavi tilida yaratilgan. Bu uch devoni, ya'ni she'rlar to'plamidan faqat bittasi fors tilidagisi bizga yetib kelgan. Uning asl nusxasi Tehronda saqlanadi. Asarlaridan ma'lumki, u hind xalqi hayoti, ularning urf-odatleri va muammolarini juda yaxshi bilgan. Salmonning asarlari hind syujetlari bilan bezalgan.

Xo'ja Ashraf Jahongir Sumnani (XII asr) kxari bo'lida nasrda ijod etgan birinchi yozuvchi. U o'zining «Sufiy axloqi» («Axlak-e-tasavvuf») traktatini yaratgan. Ushbu asar falsafiy mazmundagi traktatdir. Sufiy shoirlar sirasiga Shayx Hamiduddin Nagori (1356 vafot etgan) ham kiradi. Uning saqlanib qolgan baytlaridan ma'lumki u mahalliy tilda ijod etgan. Uning baytlarida arab va fors so'zlari ko'p ishlatilgan. Shu sababli bu tilni hindavi deb atashgan. Hindavi tili keyinchalik urdu tili nomi bilan rivojlanadi. Urdu tilining adabiy jihatdan shakllanishiga asos solgan shoir Amir Xusrav Dexlaviydir (1253-1325). Amir Xusrav O'rta Osiyolik turk Sayfuddin Maxmudning farzandidir. U Hindistonga Shaxrisabzdan borgan bo'lib u yerda qolib bir hind ayoliga uylanadi, bu hind ayoldan o'g'il farzand ko'radi. Amir Xusrav sof hind shoiri bo'lgan. U birinchi bo'lib xalq tiliga murojaat qilgan shoirlardan. Uning ijodida hind she'riyatining boy merosi va fors tili she'riyatining go'zal ohangi mujassamlashgan. U o'zi ijod etgan tilni «hindavi» deb nomlagan.

Amir Xusrav asarlarining ko'pgina syujetlari hind syujetlaridir. U o'z asarlarida juda ko'p xalq maqollari, iboralari, matallaridan foydalangan. Uning ijodining o'ziga xos tomoni shundaki, uning she'riyatida ham fors ham hindavi tili bab-barobar ishlatilgan. Bir misrasi fors tilida va bir misrasi hindavida yozilgan she'rlari juda ko'pdir. Hind xalqining urf-

odatlari, maqol va matallari hamda xalq frazeologizmi Xusrav ijodining eng boy va go'zal tomonidir. Bu shundan dalolat beradiki, shoir hind xalqiga qanchalik yaqin bo'lgan va uni sevgan, o'z asarlarida hind obrazlarini sevib yaratgan.

Urdu adabiyotining yetakchi maktablari. (1400-1700yy)

Tayanch iboralar: fors va arab tillari, Bijapur, Irshadnama diniy-mistik g'oyalar, dakxni, Golkonda, Baxmanidlar, dekan maktabi, bhakti, tasavvuf, Sukx Saxela

Darsning maqsadi: Urdu adabiyoti rivojiga katta xotssa qo'shgan urdu tilidagi badiiy asarlarni yaratgan adiblar haqida ma'lumot berish.

Feodal tuzumining inqirozi, tinimsiz bosqinchilik urushlari natijasida Hindistondagi ketma-ket shohlarning almashinuvi natijasida mamlakatning siyosiy va iqtisodiy ahvoli yomonlashib bordi. Dehli saltanati ham har jihatdan sustlashib borar edi. Ayniqsa, 1398 yili Timurning qilgan Hindistonga yurishi mamlakatga juda katta talofot yetkazdi. Oqibatda adabiyot namoyondalari Dehlidan chetlarga qochishga majbur bo'ladilar. Shu bois urdu she'riyati ham chet - chetlarda rivojlanishda davom etadi.

XIII-XIV asrlarda musulmon raxbarlari Dekanga yurish qiladilar. Ular Dekanni Dehliga qo'shib oladilar. Natijada Baxmanidlar va Gujorat davlatlari barpo etiladi. Urdu adabiyoti esa yana janubga qarab yo'l oladi.

Dekandagi musulmon davlatlari na faqat hindular davlatlari bilan balki o'z hukmronliklarini mustahkamlash maqsadida qo'shni musulmon mamlakatlari bilan ham kurasha boshladilar. O'z mustaqilligini ta'minlash maqsadida ular mahalliy musulmonlar bilan til birlashtirishga majbur edilar. Xalq bilan umumiy til topishib ular o'z mavqelarini qutqarmoqchi bo'ladilar.

Shu sababli saroyda fors tili bilan bir qatorda mahalliy til ham ishlatilar edi va uni «dakxni»¹, ya'ni «janubiy» til deb yuritilar edi.

Gujorat va Baxmanidlar davlatidagi ko'pgina ilm axli va ziyolilar Shimoldan kelgan hindavida so'zlashadiganlar edi. Ular ko'p jihatdan shimol an'analarini janubga olib keladilar. Ularning ko'pchilik qismi kelib chiqishi O'rta Osiyo va Erondan bo'lib, o'z milliy an'analariga sodiq shaxslar edi. Ular mahalliy urf-odat va rasm-rusumlarni qabul qila olmas edilar. Lekin, vaqt o'tishi bilan yerlik xalq bilan chatishuv ularni mahalliy

¹ Dakshin – hindi tilidagi janub so'zidan olingan.

anʼanalarga koʻnikishga majbur etadi. Bu yerda eron, turk va hind anʼanalarining chatishuvi yuz beradi. Musulmon raxbarlar koʻp jihatdan musulmon adabiyotining rivojlanishiga yaxshi shart-sharoit yaratib beradilar. Bu adabiyot asosan hindavida yaratilgan.

Shunday qilib, Hindiston janubida urdu adabiyotining rivojlanish markazlari bu janubiy davlatlar boʻlib qoldi. Ular Dehlida shakllangan adabiyotning davomchisi sifatida janubiy urdu adabiyotiga asos soladilar. Bugungi kunda u urdu adabiyotining Dekan maktabi deb nomlanadi. Shimol va janub adabiy aloqalari ham oʻz vaqtida davom etib keldi. Ayniqsa sufizm va bhakti targʻibotchilari bu anʼanalarni saqlanib yanada rivojlanib borishiga katta hissa qoʻshganlar. Bu davr adabiyotining koʻpchilik qismi maʼlumki sufizm va bhakti gʻoyalari bilan sugʻorilgan. Urdu adabiyoti janubda Dekan maktabida sufiyona gʻoyalar asosida rivojlana bordi.

Sufiy gʻoyalari targʻibotchisi Aynuddin Ganj ul Ilm (1306-1396) Gujaratdagi birinchi nasrchilardandir. U keyinchalik Baxmanidlar davlati adabiyoti shakllanishiga katta hissa qoʻshgan. U asosan diniy-mistik gʻoyalar bilan sugʻorilgan asarlar yaratgan. Uning asarlari Dehli saltanatida ham mashxur edi.

Shoir va yozuvchi Xoja Bandanavoz Geysudaroz (1320-1422) mashxur sufiy Nasiruddin Chirogʻning shogirdi, undan keyin esa Chishtining shogirdi boʻlgan. U Dehlida yashagan. Faqat Timur bostirib kirganidan keyin Dehlini tark etib Hindistonda sayoxat qilib yurishga majbur boʻladi. Firozshoh Baxmani taklifiga binoan u Gulbargga borib yashay boshlaydi. Shu yerda u oʻzining nasriy asarlari: «Miraj ul Ashiqin» («Oshiqlar maqoni»), «Xaft asrar» («Etti sir»), «Xidoyatnoma» («Hacixatlar»), «Shikarnama» («Ov haqida hikoya») kabilarini yaratgan. U fors va arab tillarini juda yaxshi bilgan. Uning hindavida yozilgan ushbu asarlarida xalq maqollari, matallari, kinoyali hikoyalarni koʻp uchratish mumkin. Ushbu janrlar yordamida u maʼlum bir sufiyona gʻoyani ochib berishga harakat qiladi. Uning asarlari tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan didaktik asarlardir.

Dekan maktabida Shoh Miranji oʻz ijodi bilan koʻpchilikning hurmatini qozongan shoir va yozuvchidir. Uning nazm va nasrda yaratgan asarlari ham sufiyona gʻoyalari bilan sugʻorilgan boʻlib, oʻz davri talabi muammolarini yorqin tasvirlab bergan. U 1496 yili olamdan oʻtgan. Uning oʻgʻli Shoh Burxoniddin Janam va nabirasi Aminuddin Aʼlolardir. Ularning ijodida masnaviy janri rivojiga yetadi. Ular yaratgan masnaviylar: «Irshadnama» («Nasixatlar»), «Sukx Saxela» («Baxtli Saxela») va boshqalardir. Bu ikki asar Burxoniddin qalamiga mansubdir. Aminuddinning «Muxabbatnoma»si

mistik sevgini kuylovchi asardir. U yaratganga bo'lgan muhabbatni ifoda etib, bilish sirlarini ochib bergan. Ular o'z oldilariga adabiy asar yozishni maqsad qilib qo'ymaganlar. Aksincha, davr talabi bo'lmish sufiyona g'oya tarafdori bo'lib uni o'z asarlarining asosiy bosh g'oyasi qilib oladilar. Bu maqsadda albatta adabiy formalardan keng foydalanadilar. Ular xalqqa yaqin asarlar yaratish, uni xalq ommasi orasida targ'ib etish maqsadida mahalliy dialektlardan ham foydalanadilar. Hind mifologiyasiga murojaat qiladilar. Hind musulmon birligiga chaqiradilar. Barchani yaratgan oldida tengligini asosiy g'oya qilib ko'tarib chiqadilar. Bu esa o'sha davrniig, ayniqsa Hindiston uchun, eng muhim g'oyalaridan bo'lib, bhakti harakati asosida targ'ib qilinib borar edi. Hind adabiyotida ham aynan mana shu g'oyalar o'z davrining muhim g'oyasi sifatida ko'p asarlarda o'z aksini topgan.

Bijapur va Golqondo davlatlarida dastavvval fors tili adabiyot va davlat tili bo'lib keldi. Yozuvchi va shoirlar bu davrda ko'proq fors adabiyotidan ta'sirlanib ijod etdilar. Lekin sekin-asta rivojlanib kelayotgan urdu tilidagi adabiyot fors tilini chetga chiqarib adabiy jarayonga o'zi kirib kela bordi. Yozuvchi va shoirlar endi ikki tilda ijod qila boshladilar.

XV asrda ijod etgan Geysudarozi Abdulla Xuseyni «Sevgi laxzalari» («Pishat ul-ashikin») nomli asarini yaratadi. Bu asar fors shoiri Abdul Qodir Gilanining sevgiga bag'ishlangan asariga javoban yaratilgan asardir.

Urdu tilida ijod etgan Dekan maktabi vakillaridan biri Mulk Qalamidir. U Nizomi Ganjavi hamsasiga kiruvchi «Mahzan al-asrar» («Sirlar hazinasi») asariga javoban o'z asarini yaratgan.

Malik Xushnud o'zining fors tilidagi masnaviylarining tarjimalari bilan urdu adabiyotiga katta hissa qo'shgan. U Amir Xusravning «Xasht Bixisht» («Sakkiz jannat bog'i»), «Yusuf va Zulayxo» asarlarini fors tilidan urdu tiliga o'giradi. Bijapurlik mashhur shoir Rustam ham urdu ham fors tillarida ijod etgan bo'lib u Chand Bardaidek (XII asr) qahramonlik she'riyatini yaratdi. Chand Bardai hind adabiyotida qahramonlik she'riyatining yirik namoyondasi bo'lsa, urdu adabiyoti qahramonlik she'riyatining yirik vakili Rustamidir. Uning «Xavar noma» («Sharq haqida poema») asari fors epik poemasi syujeti asosida yaratilgan. Unda asosan qahramonlik kurashlari tasviri, ma'budlarning qayta - qayta yangi obrazlarda turli karomatlar ko'rsatishi kabi g'ayri tabiiy voqealar tasvirlangan.

Hind va fors adabiyotining chatishmasi urdu adabiyotining sahifalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu chatishmani ayniqsa hind adabiyotiga kirib kelgan yangi- yangi nazm janrlarida ko'rish mumkin.

Bijapur davlatining oxirgi saroy shoirlaridan biri Muhammad Nusrati bo'lib u o'zining go'zal she'riyati uchun «Malik ush - shuaro» («Shoirlar sultoni») unvoniga ega bo'lgan. U 1684 yili olamdan o'tgan bo'lib, umrining asosiy qismi saroy she'riyatiga xizmat qilish bilan o'tgan. Nusrati barcha she'riy janrlarda ijod etgan va ularni to'liq egallagan shoir edi. Uning qalamiga «Guldasta-i ishq» («Ishq guldastasi») nomli g'azallar to'plami, Odil shohga atab yozilgan qasidalar to'plami, «Gulshan ye ishq» («Ishq gulshani») nomli masnavisi hamda «Odil shoh haqida qissa» Hamda «Tarix-e Iskandar» («Iskandar shoh tarixi») kabi tarixiy asarlari ham mashxurdir. Tarixiy asarlari qahramonlik qo'shig'i sifatida yaratilgan, huddi hind adabiyotidagi «virgatxa» («vir» - «qahramon», «git» - «qo'shiq») qo'shiqlaridek.

Bu qo'shiqlarda adabiyot bilan birga tarix ham mavjud bo'lib u tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Qahramonlik qo'shiqlarida Boburiylar imperiyasi davridagi odil shoh va Qutb shohlarning taxt uchun kurashlari, hamda maratxlar bilan bo'lgan taxt uchun kurashlar tasvirlangan. Nusrati ijodi Dekan maktabida shakllangan she'riyat nazariyalarining, qonun- qoidalarining yaqqol namunasi. Unda tabiat tasviri, tarixiy voqealar tasviri hamda o'sha davr turli urf-odatları va an'analarining tasvirini ko'zatish mumkin.

O'sha davr adabiyotida Bijapurlik shoir Ibroxim Odil shoh (1580-1627) ijodi katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa uning «Naoras» («To'qqiz musiqa») asari qadimgi Hindiston qo'shiqlariga taqlid qilib yaratilgan. Bu qo'shiqlarda shoir an'anaviy hind adabiyotidagi Vishnu, Indra, Sarasvati, Ganesha Ganga daryosi ma'budlarini kuylaydi. Hindlarning diniy rasmlarini kuylaydi. Hind an'anasi urdu tilida yaratiladi. Ibroxim Odil shohning qo'shiqlaridagi musiqaviylik va mazmundorlik uning qo'shiqlarini xalq orasida sevimli bo'lishiga sababchi bo'lgan. U sanskrit she'riyati uslublaridan ham ustalik bilan foydalangan. Ibroxim Odil shoh ijodi albatta fors adabiyoti ta'siridan ham xoli emas. Sufiy g'oyalari fors adabiyoti qahramonlariga murojaat qilish, uning ijodiga arab va fors tillari so'zlarining kirib kelishiga asos bo'lgan. «Naoras» asari Dekan maktabining urdu tilidagi dastlabki asarlari qatoriga kirib unda fors - hind adabiyotining chatishuvi mevalarni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Dekanda urdu adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan adiblardan yana biri XVI-XVII asr adabiyoti namoyondasi Muhammad

Quli Qutb (I580-I6II) shoh, Vajaxi (1660 y. Vafoti), G'avvosi va Ibn Nishotilar urdu adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan adiblardir.

Golqonda shohi Muhammad Quli Qutb shoh juda keng dunyoqarashli, o'tkir zehnli hamda she'riyatga qobiliyatli shoh bo'lgan. U siyosat borasida ham juda o'tkir aqli bilan ajralib turar edi. O'z zamondoshlari Akbarshoh va Ibroxim Odil shohlarga o'xshab dinda tenglikni xush ko'ruvchi shohlardan bo'lgan. Uning asarlarida hind musulmon birligiga chaqiriq hamda go'zallik va sufiyona fikrlar ham o'z aksini topgan. U shoh sifatida ham juda xalq sevgan shohlardan bo'lib, uning davrida Golqonda har tomonlama rivojlana boshlaydi. U hind musulmon tengligini faqat so'zda emas amalda o'z siyosatida ham amalga oshirar edi. Jumladan, hindlar bayrami Xolini u o'z mamlakatida juda katta tantana bilan nishonlashni ananaga aylantirgan edi. Uning shohlik qilgan davrida ilm fan, arxitektura va boshqa barcha sohalar o'zining rivojlanish cho'qqisiga yetadi. Uning ko'p she'rlari xalq bayramlariga bag'ishlangan. Masalan, «Basant» nomli she'ri Hindiston bahorini tasvirlab beradi. Hind adabiyotida kuylash an'anaga aylangan sevishganlar mavsumi yomg'ir oyi «barsat» haqida ham ko'pgina she'rlar yozgan. Quli Qutb shoh janubiy Hindiston tillarida ham ijod etgan. U asosan urdu fors va telugu tillarida ijod etgan. Shularning o'zi uning qanchalik keng dunyokarashli, ziyoli va odil shoh bo'lganligidan dalolat beradi. Kuli Kutb shoh Hindistonda birinchi Devon - she'rlar to'plamining muallifidir. U fors adabiyoti she'riy janrlarini ham chuqur egallab ularda ijod etgan juda qobiliyatli shoir va shohdir. Uning devoniga g'azallar, ruboiylar, qasidalar, masnaviy va marsiyalar kiritilgan. Shoir birinchi bo'lib «g'azal-e musalsal», yani «tematik g'azallar» to'plamini yaratadi.

Quli Qutb shoh o'z she'riyatida tabiatga, hind urf-odatlariga, diniy rasm-rusumlariga ko'p murojaat qiladi. Uning asarlarining tili sodda va ravondir. Uning ijodida demokratik g'oyalarni ko'rish mumkin. Shu sabab hind xalqi uni birinchi hind xalq shoiri deb atashadi.

Dekan maktabi shoir va yozuvchilari urdu adabiyotini yanada takomillashib rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Ular yaratgan she'rlar doim bozorlarda, maydonlarda, ko'chalarda xalq tomonidan aytib yurilar edi. Shoirilar ham xalq oldida ko'pincha o'z ijodlarini namoyish etib uni xalq ongiga singishiga sababchi bo'lar edilar.

Hind demokratik g'oyalarini ijodida keng qo'llagan shoirlardan Ibn Nishotining nomini tilga olish mumkin. Uning hayoti oddiy xalq orasida o'tgan. U hech qachon saroyga yoki baland nomlarga intilmagan. U

yaratgan she'riyat faqat o'z dil so'zlari va xalq muammolari bo'lib, ularni she'riyatda ifoda etish uning uchun eng sevimli ish bo'lgan. U o'zining «Pxulban» («Gulshan») nomli asari bilan el og'ziga tushgan shoir. Uni urdu adabiyotining Dekan maktabi she'riyatining durdonasi sifatida baholaydilar. Asar bilan yaqindan tanishish muallifning fors adabiyoti bilan yaqindan tanishligini isbotlaydi. Uning badiiy uslublarini, g'oyalarini va syujetlarini chuqur egallagan shoirdir. Qutb shoh zamondoshi Mulla Vajaxidir. U Golqondaning yirik shoir va yozuvchisidir. Uning masnaviysining qahramonlari Quli Qutb shohdir. Masnaviy «Kutb Mushtari» deb nomlanadi. Vajaxi poemasi lirik va romantik tarixdir. Unda tarixiy voqealar asosida ajoyib bir to'qima syujet yaratilgan. Asar janubiy Hindiston urdu tilining adabiy uslubining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Masnavi odatdagidek Ollohning maqtovi bilan boshlanadi. Kirish so'zi arab va fors leksikalari bilan yozilgan. Keyingi qismlarida sevgi voqealari aks ettirilgan. Ayrim joylarda arab va fors so'zlari o'rnini sanskrit va mahalliy dialekt so'zlari egallagan. Mushtari «Dekanga atalgan gimn» desa ham bo'ladi. O'z yurtiga mehr va sadoqat asarda kuchli ifoda etilgan.

Golqondada nazm bilan bir qatorda nasr ham urdu tilida rivojlana boradi. Vajaxiga shuhrat olib kelgan asosiy asar urdu tilidagi birinchi nasriy asar «Sabras»dir. Bu asar Sulton Abdulla Kutb shoh (1624-1672) talabiga ko'ra yaratilgandir. Bu asar fors tilidagi «Xusn-o dil» asarining qayta ishlanmasidir. Asar fors tilida 1473 yili yaratilgan bo'lib, o'z davrida juda katta shuhrat qozongan. Keyinchalik urdu tilida ham tarjima qilinib, Sabras nomi bilan nashr etilgan.

Asar bosh qahramoni Aql va Ishqdir. Bu ikki kuchli hissiyot o'zaro kurash davomida dunyoviy hissiyotlar kurashi asosida ishq va aqlning kuch qudrati nimalarga qodir ekanligi hamda natijada qay biri kuchli chiqishi mumkinligi masalasini xal qiladi. Aql g'arb hukmdori Ishq esa Sharq podshosi etib tasvirlangan. Aql yurtini g'arb va Ishq yurtini sharqda deb olingan. Ishq farzandi go'zallik va Aql farzandi Yurak olingan. O'g'li o'sgandan keyin Aql uni Badan mamlakatining shohi etib tayinlaydi. U yerda esa dil xayot ichimligi borligini eshitib o'z vakili Nazarga shuni olib kelishni buyuradi. Voqeaga Nomus aralashadi, darvesh Buyuklik, shoh Qaxramonlik (Ximmat) Raqib Go'zallik Zulf, vazir Vaxm va boshqalar aralashib voqealar sekin asta o'z rivoji kulminatsiya va yechimiga boradi. Bu voqealar turli yerlarda, shaharlarda ya'ni Muvaffaqiyat yoki Zuxd (darveshlik shaharchasi) hamda Boylik joylarida voqealar bo'lib utadi. Shu yo'sinda Aql va Ishq o'rtasida kurash borib Aql Ishqqa tan berishga majbur bo'ladi. Lekin Vajaxi Ishq olovi vaqtincha deb hisoblab olov o'chgandan keyin Aql o'z talabasini

qo'lg'a kiritishini tasvirlab bergan. Asar qaxramonlari oxirida Xizr dargohida uchrashadilar va u ularga turli sir asrornlarni ochib so'zlab beradi.

Vajaxi asarda ko'pgina tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tomonlarni ochib bergan. Ishqning bema'ni oloviga, ya'ni nafsga berilish insonni qancha yomonlik va xatolarga yo'l qo'yishiga sababchi bo'ladi, deb xulosa qiladi Vajaxi. Nafsga berilish insonga berilgan juda ko'p yaxshi xislatlarning yo'qolishiga olib keladi - deydi Vajaxi. Vajaxi Aql g'alabasini to'g'ri deb hisoblaydi. Asar boshdan oxirigacha aql qo'shig'idir. Hindistonda turli mayda-mayda davlatlarning taxt uchun kurashlari yuz berib, xalq axvoli iktisodiy va siyosiy jihatidan og'irlashgan bir davrda u aqlni ishga solishni dav'at etish maqsadida ushbu asarini yaratgan. Vajaxi Golqondaning oxirgi shoir va yozuvchilaridandir.

Asarning turk, o'zbek va boshqa bir qancha tillarga tarjimalari mavjuddir. Yevropa tillaridan ingliz va nemis tillariga ham tarjimasi mavjuddir.

Bundan avvalgi nasrda yaratilgan asarlar jumladan, Geysudaroz Sumnanining va boshqa bir qancha adiblarning asarlari asosan sufiyona g'oyadagi traktatlardir. Sufiyona ruhdagi traktatlarning ayrim joylarida sufiy obrazlarni uchratish mumkin, lekin ular badiiy asarlar qatoriga kira olmaydi. Ularda hali urdu tili badiiy til sifatida shakllanib ulgurmagan edi. Unda asosan falsafa, din va boshqa cohalapga oid atamalarni ko'rish mumkin.

XVII asrga kelib Hindistondagi Mo'g'ullar imperiyasi inqirozga yuz tuta boradi. Ular Dekanga ham xujum qilib bu yerdagi tinchlikni buzib, har sohaga zarar yetkaza boshlaydilar. Bundan keyingi davr adabiyotida asosan pessimistik va tragediya diniy-mistik g'oyalar bilan sug'orilgan asarlarning yaratilishini ko'rish mumkin.

Dekan shohliklarini bostirishni boshlagan Akbar ishini Aurangzeb tugatadi. (1658-1707) U Golqondani bosib oladi. Va bu xududni o'z imperiyasiga qo'shib oladi. Urdu adabiyoti markazi yana inqirozga yuz tutadi. Ko'p shoir va yozuvchilar Aurangobodga ko'chib ketadilar. Hindiston janubida urdu tilidagi adabiyot sekin-sekin rivojlanishda davom etadi. Dekan maktabining oxirgi shoiri mana shu yerda ijod qilgan. U Aurangabadi nomi bilan mashxur. Vali Aurangabadi Baba - i rexta yoki Adam - i urdu taxalluslari bilan ham mashxurdir. Bu "Urdu she'riyatining otasi" deganidir. Uning asarlari "Divane Vali" (Vali Devoni) to'plamida saqlangan. Uning xayoti va ijodi haqida ko'pgina ma'lumotlar mavjud, lekin ko'plari esa bizga yetib kelmagan. U XVII asrning 40- yillarida

Axmad obodda to'g'ilgan. Xayotining ko'p qismi esa Aurangobodda o'tgan, shu sababli u Vali Aurangabadi deb nom taratgan. Uning ijodiga fors adabiyotining ta'siri katta bo'lgan. U har kanday xolatda ham Dekan maktabi vakili hisoblanadi. Va uning o'zi ham bu bilan faxrlangan. U g'azal, qasida masnaviy va ruboiylar yaratgan. Urdu tili she'riyatining uslubining shakllanishida uning she'riyatining ahamiyati kattadir.

Fors adabiyoti an'analariga murojaat etish urdu adabiyotiga birinchi bo'lib aruz tizimisini o'rganishni olib kirdi. Aro'zni urganish urdu tilini uslub jihatidan yanada takomillashuviga olib keldi. Urdu adabiyotiga she'riy bezash qoidalarini olib kirdi va urdu she'riyati misli ko'rilmagan darajada rivojlanib ketdi. Urdu adabiyoti fors adabiyoti she'riy janrlari bo'lmish g'azal, marsiya, ruboiy va qit'a kabilarni sekin asta o'zlashtira bordi.

Urdu adabiyotini boyitgan eng yirik she'riy janrlardan biri bu g'azal janridir. G'azal janri fors adabiyotidan urdu adabiyotiga aro'z tizimining kirib kelishi natijasida shakllandi. G'azal janri o'rta asrda na faqat Hindiston yoki Eron kabi mamlakatlarda balki O'rta Osiyo va boshqa sharq mamlakatlari adabiyotida keng tarqalgan va sevimli janr sifatida mavjud edi. G'azal janrining ijobiy xususiyatlaridan biri u musiqaga tez tushadi, hamda kichik bir qatorda katta bir ma'no, mazmunni mujassamlashtira oladigan, o'ziga kitobxonni diqqat e'tiborini jalb eta oladigan janrdir. Bu janrga murojaat qilmagan shoir yoki yozuvchini topish kiyin. Urdu adabiyotidagi dastlabki g'azallar taniqli forsiy va urduzabon shoir Amir Xusrav Dexlaviy qalamiga mansubdir. U avvaliga fors tilida keyinchalik esa urdu tilida g'azallar yaratdi. Bugungi kunda uning g'azallari kuyga solinib hind qo'shiqchilari g'azalchilari tomonidan hamisha kuylanib kelinadi.

Urdu adabiyotini g'azal janri bilan boyitgan mualliflardan quyidagilarni nomini tilga olish mumkin: Kuli Kutb Shoh, Geysudaro Bandanavze, Vali va boshqalar.

Urdu adabiyotiga fors adabiyotidan kirib kelgan yana bir she'riy janrlardan biri ruboiydir. Ruboiy janri ham ma'lumki O'rta Osiyo va Eron, Afg'on adabiyotlarida keng tarqalgan sevimli janrlardan biridir. Ushbu janrda Hindiston shoirlari ham juda keng miqyosda foydalanganlar. Ruboiy janrida ijod qilgan urdu adabiyoti vakillaridan Geysudaro Bandanavoz, Kuli Kutb Shoh, Vali va boshqa bir kancha shoirlarning nomini tilga olish mumkin.

Marsiya janri ham urdu adabiyotiga musulmon adabiyoti orqali kirib kelgan. Marsiya ma'lumki qo'shiqlar bo'lib unda asosan qayg'uli

voqealarni kuylovich janr bo'lib, o'sha davr buyuk imom, mulla yoki ma'lum bir qaxramonlarning ayrim kurashlarda qahramonlarcha xalok bo'lganini kuylash maqsadida yaratilgan. Shoirilar o'z mamlakatlarida bo'lib, o'tayotgan turli fojiali voqealarga befarq qaray olmay, unda olamdan o'tib ketayotgan qancha-qancha begunoxlarning fojiali xayotini o'z marsiyalarida kuylaganlar. Hindiston ozodligi uchun shahid bo'lganlarning soni aynan shu davrda ko'payib borgan edi.

Jumladan dekan maktabining shoirlaridan Shayx Doud Zeyfi Aurangzebga atab alohida marsiya yozgan va uning bu marsiyasi unga shuxrat olib kelgan.

Bundan tashqari urdu adabiyotiga fors adabiyoti ta'sirida masnaviy va qasida janrlari ham kirib kelgan. Masnaviyda ijod qilgan musulmon shoirlardan Geysudarozi Bandanavoz, Kuli Kutb Shoh, Gavvosi, Ibn Nishoti, Vajaxi (Kutb va mushtari), Vali kabi shoirlar ko'pgina marsiyalari (Pxulban) bilan urdu adabiyoti o'rta asr she'riyatini juda boyitganlar.

Qasida janri ham urdu adabiyotida hozirgacha mavjud she'riy janr bo'lib unda o'rta asrlarda Kuli Kutb Shoh va Vali kabi yana bir qancha kichik shoirlar ijod etganlar.

Umuman olganda yuqorida sanab o'tilgan barcha she'riy janrlar urdu adabiyoti va umuman hind adabiyoti uchun butunlay yangi janr bo'lib, ular hozirda fors adabiyotidan ko'ra urdu adabiyotida rivojlangan desak xato bo'lmaydi. Fors adabiyotining musiqiyliigi va hind adabiyotining mazmun va syujet va go'zallik boyligi ushbu she'riy janrlarni yanada go'zallashgan xolda urdu adabiyotida shakllanishiga olib kelgan ayniqsa g'azal janri bugungi urdu adabiyotining yuragi, dili desak faqat haq gapni aytgan bo'lamiz. Urdu adabiyotida bu janr ayniqsa XVIII asrdan keyin avj olib rivojlanib, bugungi kunda eng bosh she'riy janr hisoblanib, g'azal yaratmaydigan shoir yuk desak xato bo'lmaydi.

Hindiston forsiyzabon adabiyoti

Tayanch so'zlar va iboralar: forsiyzabon adabiyot, g'azal, arab halifaligi, astronomiya, g'aznaviylar, mavzular, ruboiy, obrazlar, syujetlar, madaniyat chatishuvi, adabiy jarayon, pritxvirajraso, nomalar, qasida, astrologiya, Mahabxarat.

Darsning maqsadi: Hindistonga islom dinining kirib kelishi va forsiyzabon adabiyotning shakllanib rivoj topishi, hind forsiyzabon ijodkorlari haqida ma'lumot berish.

Hindistonga islom dinining kirib kelishi mamlakatda juda katta o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Ko'pgina hindlarning musulmon dinini qabul qilishi natijasida jamiyatda yangicha dunyoqarash, yangicha madaniyat shakllandi. Mamlakatdagi bu o'zgarishlar hind jamiyatining barcha sohalari - ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy sohalarida o'z aksini topib bordi.

Hindistonda forsiyzabon adabiyotning yaratilish va rivojlanish tarixi bo'yicha hind adabiyotshunos olimi Chopra R.M. maxsus tadqiqot ishini olib borgan va o'z tadqiqotida forsiyzabon adabiyotning Hindiston xududida tarqalish va rivojlanish bosqichlari, har bir bosqichning taniqli vakillari va ularning adabiy merosi haqida ma'lumot bergan. Besh bobdan iborat ushbu kitobda har bir bo'lim yakunida shu davrni o'rganish bo'yicha nashr etilgan ilmiy risola va maqolalar ro'yxati berilgan. Kitobda Hindistonda forsiyzabon adabiyotning xududlar bo'yicha rivojlanish tarixi xronologik tarzda bayon etilgan. R.M. Chopra o'z izlanishlari asosida Hindistonda forsiyzabon adabiyotning shakllanish va rivojlanish tarixini X asrlardan XX asrlargacha bo'lgan, deb ta'kidlaydi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bu katta tarixiy davr mobaynida forsiy adabiyotning juda katta merosi yaratilganiga hech qanday shubha yo'q. R.M. Chopraning "*Forsiyzabon adabiyotga oid qo'lyozma manbalar Hindistonning ko'pgina kutubxonalarida saqlanmoqda*"² – deb yozgan fikri forsiyzabon adabiyotning sarmahsul bo'lganidan darak beradi. Shuningdek, tadqiqotda forsiyzabon adabiyot rivojiga maxalliy hind xalqining fors tilida yaratgan adabiy merosi ham katta hissa bo'lib qo'shganligini alohida o'rgangan.

Hindistonga musulmonlarning kirib kelishini mantiqan uch bosqichga ajratish mumkin: Ilk bosqich VIII asrda Arab halifaligining (Muhammad ibn Qosim boshchiligidagi) Hindistonga kirib kelishi va Sind hududida kichik bir musulmon davlatini barpo etishi. Lekin, qisqa muddat yashagan bu arab davlatining hind madaniyatiga ta'siri haqida so'z yuritilmaydi. Musulmonlarning Hindistonga keyingi yurishlari saljuqiylar, g'aznaviylar va g'o'rilar tomonidan amalga oshirilgan.

G'aznaviylardan Sulton Mahmud X asrda Hindistonda o'z saltanatini tuzdi va bu davrda maxalliy xalq xayotida anchagina katta o'zgarishlar yuz berdi. Tarixda g'aznaviylar davri O'rta Osiyo, Eron va Hindiston madaniyatining o'zaro ta'siri kuchaygan bir davr sifatida baholanadi. O'z o'rnida fors-tojik adabiyoti nomi bilan yuritiladigan bu adabiyotning

²Chopra R.M. The Rise, Growth and Decline of Indo-Persian Literature. Kolkata, 2013. – P.42

mahalliy xalq adabiyotiga ta'siri kuchli bo'lgan, va aksincha, fors adabiyotiga hind adabiyotining ham ta'siri bo'lgan va bu asosda fors adabiyotida mavzular, obrazlar va syujetlar yangi tus ola boshlagani kuzatilgan. Saroy adabiyotida sulton Maxmud G'aznaviy g'alabalariga bag'ishlangan she'riyat, qasidalar yaratish avj olgan. Ayniqsa, Sulton Mahmudning adabiyotni o'zining ichki va tashqi siyosatining bosh mezoni deb qarashi adabiyot rivojiga katta imkoniyatlar yaratgan. Shu bois Sulton saroyida juda ko'p iqtidorli shoirlar ijod qilgan. G'aznaviylar saroyida 400 dan oshiq shoir ijod qilgan degan mubolag'a bor. Bulardan mashhurlari Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriylar bo'lib, ular ijodida Hindiston mavzusi o'zining keng aksini topgan. Xususan, she'riyati yuqori baholanadigan balxlik shoir Unsuri ("Malik ush shuaro" - "shoirlar shohi" unvonini olgan), Farruxi (XI asrda Maxmud G'aznaviy tomonidan muqaddas Somnatx yerini bosib olish haqidagi "Somnatx qo'shig'i" asarining muallifi), Manuchexri (Laxorda sulton Mas'ud 1 saltanida yashagan), va Asjadilar shular jumlasiga kiradi. Ular Mahmud G'aznaviyning islom targ'iboti yo'lida qilgan ishlarini ko'kka ko'taruvchi she'rlar bitgan va aynan ularning she'riyatida hind dunyoqarashi va tilining ta'sirini kuzatish mumkin. Lekin shu o'rinda rus tadqiqotchisi G.Aliyevning "*aslida esa, hind-musulmon madaniyatining chatishuvini Beruniy boshlab bergan*"³, degan fikrini ham keltirib o'tish o'rinli, deb o'ylaymiz. G'aznaviylarda Sulton Maxmud ishini o'g'li Mas'ud 1, undan keyin Ibrohim, Sayfuddin Doula, Mas'ud 3, Baxrom shoh va Xusro Maliklar davom ettirganlar, lekin oxirgi shoh Xusro Malik bobolaridek kuch-qudratga ega bo'lmaganligi bois saltanatni qo'ldan g'o'rilarga boy beradi.

Mas'ud 1 davrida yashagan Manuchexri hind va musulmonlarning o'zaro munosabatiga, mahalliy xalqning tili va madaniyatiga katta qiziqish bilan qaragan, hind xalqining dunyoqarashi, muamollarini o'rgangan va o'z ijodida bu masalarga katta o'rin bergan, Xindiston tabiatini o'z she'riyatida kuylagan. Uning ijodi hind-musulmon madaniyati chatishuvining yorqin namunasi sifatida baholanadi. G'aznaviy shohlar Ibrohim (1059-1099), uning o'g'li Mas'ud III (1099- 1115 y.) va nabirasi Baxrom shohlar davrida ham fors tojik adabiyoti, ayniqsa she'riyati rivoj topdi, jumladan Baxrom shoh davrida fors she'riyatining taniqli namoyandalari Sanoiy, Nizomiy kabilar ijod qilgan. G'aznaviylar Hindistonda XII asrning oxiriga qadar hukmronlik qildi va aynan shu davrda mahalliy hind tili va adabiyotining fors tili va adabiyotiga ta'siri

³ Алиев Г. Персочзычная литература Индии. – М.:1968. –С. 21.

yuz berdi. Adabiy jarayonda buning aksini, ya'ni maxalliy xalq orasida ham fors adabiyoti ta'sirida fors tilida ijod qilishga kirishgan adiblar ham yuzaga kela bolshlagan, jumladan mahalliy xalqning fors tilida ijod qilishiga Mas'ud 1 saroyidagi vazir Tilak katta hissa qo'shgan, deyiladi. Shu davrda hind adabiyotida keng tarqalgan "raso" janrida yozilgan Chand Bardaining "Pritxvirajraso" ("Pritxviraj haqida so'z", XII asr) nomli asarida aynan fors tilidan kirgan so'zlar ko'p uchraydi, deb yozadi G.Aliyev⁴. "Muhammad Aufi qalamiga mansub (XII asr). "*Lubub al albab*" ("*Yuraklar yuragi*" "*Serdsevina sersevin*") nomli fors adabiyotining ilk antologiyasida Hindistonda forsiyda ijod qilgan, lekin asarlari yetib kelmagan ko'pgina shoirlar nomi keltiriladi⁵, - deb yozadi G.Aliyev. Shular orasida yuksak qobiliyat egasi bo'lgan laxorlik shoir an-Nukati nomi ham mavjud. Aynan uning she'riyatida fors va hindiy tili aralash qo'llanilganini kuzatish mumkin. Nukatining buyuk shoir bo'lganligiga Amir Xusrav Dehlaviy ham ishora qilgan.

Bu davr adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri bu "*nomalar*" bo'lib, xususan, Ibrohimshoh (XI asr) davrida Ota ibn Yoqub mazmunan Shohnomaga yaqin bo'lgan ikkita noma "*Barzunoma*" va "*Bijannoma*"larni yaratgan. XII asrda yashagan Osman Muxtari shoh Mas'ud III ga bag'ishlangan "*Shahriyornoma*"ni yozgan.

Bu davrning taniqli shoirlaridan biri Mas'ud Sa'd Salmon (XI-XII asrlar) g'aznaviylar markazi bo'lgan Laxorda Ibrohim va Sayfuddoula Mahmudlar davrida yashagan va ularga bag'ishlab juda ko'p she'rlar bitgan. Shoir arab, fors va hindaviy tillarida ijod qilgan deyiladi, lekin hindaviy tilidagi asarlari yetib kelmagan. Uning xayoti og'ir kechgan va o'z ruhiy azoblarini she'riyatida ifoda etgan. Shoir, asosan, g'azal, ruboiy va qasidalar yozgan. Mas'ud Sa'd Salmon ijodining fors tojik adabiyoti namoyandalariga ta'siri XIV asrlargacha sezilib turishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, musulmonlarning Hindistondagi ko'p asrlik hukmronligi davrida sanskrit adabiyoti namunalarining fors tiliga tarjima qilinishi hind adabiyotining fors tili va adabiyotiga ta'siriga sabab bo'ldi. Xususan, Firuz shoh Tug'loq buyrug'i bilan sanskrit adabiyotining eng muhim namunalari, ya'ni "Mahabxarata", Puranlar, astrologiya va astronomiyaga oid traktatlar fors tiliga o'girilgan. Aksincha, fors adabiyotining eng yaxshi namunalaridan bo'lgan Firdavsiyning "Shohnoma"si ham sankrit tiliga o'girilgan. Fors tasavvuf adabiyotiga hissa qo'shgan hind shayxi Ali Xujviriyning fors tilidagi "*Kashf ul-*

⁴ Ўша манба, —С. 23

⁵ Ўша манба, —С. 27

Maxjub” (XI asr) asari, shayx Shaxobuddin Suxarvardiy qalamiga mansub “*Avarif al-Ma‘rif*” asari fors tiliga tarjima qilingan.

G‘aznaviylar davrida O‘rta Osiyodan Hindistonga kelgan forsiyzabon shoirlar ham juda ko‘p bo‘lgan, xususan, Bahromshoh davrida yashagan shoirlar Ruhani Samarqandi, Xusrav Buxoriy kabilar shular jumlasidandir. XII asr oxirida g‘aznaviylarning oxirgi shohi Xusrav Malikning g‘o‘rilarga asr tushishi va qatl etilishi bilan g‘aznaviylar davri yakun topadi va Hindistonda g‘o‘rilar davri boshlanadi.

Bu davrda poytaxt Dehliga ko‘chiriladi. G‘iyosiddin G‘o‘ri salatanatni boshqarishni Qutbiddin Oybekka (1206-1210 yillar) topshiradi, undan keyin sulton Iltutmish (1210-1230 yillar) boshqaradi. Bu davrning forsiyzabon adabiyotida O‘rta Osiyolik Baxouddin nomi ma‘lum. G‘aznaviylar davrida adabiyot markazi Multon, Laxor, Dialpur, Sialkot bo‘lgan bo‘lsa, g‘o‘rilar davrida bu markaz Dehliga ko‘chadi.

XIII asr Dehli adabiy maktabining taniqli namoyandasi sifatida Tojiddin nomi tilga olinadi. U Iltutmish saroyida ijod qilib o‘z shohiga bag‘ishlab qasidalar yozgan. U shoh Iltutmish bilan yonma-yon yurgan, uning har bir muvaffaqiyatini ko‘rgan va kuylagan. Shoirning she‘riyati mazmun jihatdan Unsuriy va Farruxiylarga, uslub jihatdan esa Anvariylar uslubiga o‘xshashini ta‘kidlaydilar. Shoir uzoq yashagan, xatto Iltutmishdan keyin G‘iyosiddin davrini ham ko‘rgan.

Shu davrning o‘ziga xos shoiri va olimi Shahobiddin Badayuni (XIII asr) bo‘lib, u saroy va shohlardan uzoq bo‘lib, ijodini shohlarga bag‘ishlamagan. Aksincha, diniy dunyoqarashda bo‘lgan va sufiyona qarashlarning kuchliligi bilan ajralib turgan. Shoir o‘sha davrda keng tarqalgan Chishtiya tariqati falsafasi ta‘sirida ijod qilgan. U juda sermahmul ijodkor bo‘lgan deyiladi, lekin bizgacha 1000 misra bayti yetib kelgan. Uning ijodi forsiyzabon adabiyotda diniy-falsafiy mazmundagi qasidaga asos solganini ta‘kidlaydilar. Uslubi kuchli shoir bo‘lgani bois Amir Xusrav unga shogird tushgan. 1299 yilda Amir Xusrav “Xamsa” beshligini tugatib, uslub jihatdan ko‘rib berish uchun qattiqqo‘l ustoz Shohobiddinga topshirganligi ma‘lum.

Ijodi o‘rganilmagan, shoh Iltutmishning o‘g‘li Nasiruddin Mahmud (1246-1265 yillar) davrida yashagan shoir Xoja Aminuddin Sanamdir (1223 tug‘). U saroy shoiri bo‘lgan va adabiyot markazini tashkil qilgan va bu maktabga yosh Amir Xusrav va Amir Xasanlar a‘zo bo‘lgan. Aminuddin ijodiga qasida, g‘azal va munozara janrlari xosdir. Uning ijodi

forsiyzabon adabiyot rivojiga alohida hissa bo‘lib qo‘shilgan va ko‘pgina keyingi davr shoirlari ijodiga ta‘sir ko‘rsatgan.

Dehli saltanatidagi forsiyzabon adabiy merosning asosiy qismini tasavvuf adabiyoti, she‘riyat (qasida janri), pand-nasihati mazmunidagi nasriy asarlar, diniy mazmundagi asarlar, tabobatga oid asarlar, arab tilidan qilingan tarjima asarlar, insha (epistolyar janr) janridagi asarlar tashkil etadi.

Bu davr forsiy tasavvuf adabiyotining taniqli vakillari Ca‘diy, Xofiz, Rumiy va Attorlar (XII-XIII asrlar) bo‘lgani ma‘lum. Aynan ularning she‘riyati Hindistondagi forsiy tasavvuf adabiyoti rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Xoja Muiniddin Chishtiy, Xoja Qutbiddin Bahtiyor, Jaloliddin Hansaviy, Bu Qalandariy, Panipati kabi sufiy shoirlar ijodi shular jumlasiga kiradi.

She‘riyatda qasida janri keng tarqalgan. Jumladan, Mas‘ud G‘aznaviy saroyida yashagan Abu Abdullax Nuqtiiy ilk qasida yozgan shoirdir. Shu davrda sarmahsul ijod qilgan shoirlardan Abul Farj Runi (XII asr), Tajuddin Raza (XIII asr), Shihabuddin Mahmera (XIII asr), Rukuniddin Firuz shoh (XIII) kabilarni tilga olish mumkin. She‘riyatda esa keng tarqalgan janrlardan g‘azal janri bo‘lib, ushbu janrga o‘z ijodining asosiy qismini bag‘ishlagan zabardast shoirlar bu Xasan Sijzi Dehlaviy, Xasan Dehlaviy va Amir Xusrav Dehlaviylardir.

Shu tarzda, Hindistonga tashqaridan kelgan va maxalliy xalq orasidan yetishib chiqqan shoirlar ijodi orqali mamlakatda kattagina forsiy tildagi adabiy meros yaratildi. Bu esa o‘z-o‘zidan fors tili va adabiyotiga qiziqishni kuchaytirdi va forsiyzabon adabiyotni chuqurroq tushunish va anglash uchun lug‘atlar yaratish zaruratini tug‘dirdi. XIII asrga kelib bir qancha izohli va boshqa turdagi lug‘atlar yaratila boshlandi. Shunday lug‘atlardan *“Farhangi G‘avvosi”* (*“G‘avvosiy lug‘ati”*) nomli birinchi lug‘at 1310 yilda Mavlono Muhammad Fahriddin Muborak shoh tomonidan yaratildi. Unda nafaqat arabiyzabon so‘zlar balki, obrazlar va she‘riy atamlarga ham izohlar berilgan. Keyingi shu turdagi lug‘at Muhammad shoh Tug‘loqqa bag‘ishlangan bo‘lib, *“Dastur al afazil”*, ya‘ni *“Ziyolilarga qo‘llanma”* deb nomlangan. Uning muallifi Mavlono Rafi Dehlaviy bo‘lib, lug‘atdagi har bir izoh uchun misol sifatida forsiyzabon adabiyot namunalaridan keltirgan. Demak, R.M.Chopraning fikriga ko‘ra *“Hindiston subkontinentida fors tili va adabiyotining ta‘siri ostida fors adabiyotining ahamiyatli merosi XI asrdan boshlab paydo bo‘lgan... va bu davr adabiyoti Mug‘ullar davrida yaratilgan bebaho, xattoki, eronliklar havas qiladigan forsiyzabon*

adabiyotga mustahkam asos bo'lgan"⁶. XIII-XIV asrlar forsiyzabon adabiyotining eng yirik namoyandalari bu Amir Xusrav Dehlaviy va Amir Xasan Dehlaviylardir.

Amir Xusrav Dehlaviy (1253-1325)

Tayanch so'zlar va iboralar: Ishqnoma, Vasatul hayot, Jomiy, fors tili, Ishq-name, G'alabalar xazinasi, Shukasaptati, sayidlar, Nixoyatul kamol, lo'dilar, Mo'g'ullar bosqini, Tuxfatus sig'ar, saroy shoiri, sultoni, G'urratul kamol.

Darsning maqsadi: Forsiyyabon adabiyotning eng yirik vakili Amir Xusrav Dehlaviy ijodiy merosi va uning hind forsiyzabon adabiyoti rivojida o'rnini o'rganish.

Amir Xusrav haqida so'z yuritishdan avval u bilan zamondosh bo'lgan Amir Xasan (1253-1327) haqida ham ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Amir Xasan Amir Xusrav bilan bolalikdan do'st bo'lgan va bir adabiy maktabda shoir sifatida shakllanganlar. Amir Xusrav o'z do'stini doim qo'llab quvvatlagan. O'z ustozini Naqshbandiya tariqati tarafdori bo'lgan Nizomiddin Avliyo bilan tanishtirgan. Shoirning ijodi serqirra, uning qalamiga 800dan ortiq g'azal, bir necha o'nlab ruboiy va tarkibbandlar hamda ko'plab qasidalar mansub. Ishq mavzusidagi uning boy she'riyatida g'azallari Hoqoniy g'azallariga o'xshab ketadi, deyiladi. Shoir Alouddin shohga bag'ishlangan "Ishq-name", ya'ni "Ishqnoma" nomli masnaviyi ham yaratgan.

Tashqaridan kelgan XIV asr saroy shoirlaridan Badr Chochi nomini tilga olish mumkin. U qasadalar, satirik asarlar va shoh Tug'loqqa bag'ishlangan "Shohnoma" asarini yozgan. Shu davr shoirlari qatorida Amir Xusravning o'g'li Malik Ahmad, uning zamondoshi o'n uch ming misralik devon muallifi Mavlono Mazhar Karra, Qozi Obid kabilar ham taniqlidir.

Bu davrga kelib musulmonlarda hind adabiy merosiga bo'lgan qiziqish kuchayadi va bir qancha qadimiy adabiyot namunalari fors tiliga tarjima qilinadi. Ayniqsa, Feruz shoh farmoni bilan ko'pgina asarlar, xususan, hind falsafasi va musiqasiga oid bir necha traktatlar fors tiliga o'giriladi. Mavlono Doud qalamiga mansub va musulmonlar orasida juda

⁶ Chopra R.M. The Rise, Growth and Decline of Indo-Persian Literature. India, Kolkata, 2013.-P.57

mashxur bo'lgan hindustani tilida yozilgan "Chandbardai" asari juda ustalik bilan fors tiliga tarjima qilingan. Ommaviylikda bu asarni Sa'dining "Guliston" asariga qiyoslash mumkin. Hind adabiyoti namunalari ta'sirida ijod qilgan XIV asr shoirlaridan biri Shayx Ziyovuddin Nahshabidir. U taniqli hind ertagi "Shukasaptati" ("To'rtining yetmish hikoyasi") asarini nasriy shaklda fors tilida qayta yaratgan.

Shu tarzda forsiyzabon adabiyotga Amir Xusrav Dehlaviy boshlab bergan hind og'zaki ijodi namunalarining kirib kelishi XIV asr oxirigacha davom etdi, lekin XIV asr oxiridan boshlab Dehli saltanati susayishi, hind musulmon to'qnashuvlarining kuchayishi oqibatida forsiyzabon adabiyot ham susaya bordi. Bu davrda nomi tilga olinishi mumkin bo'lgan shoirlar Qozi Zohir Ahmad va braxman Dinkarlardir. Ularning ijod namunalari o'rganilmagan, lekin har ikkovining ham Amir Xusrav va Amir Xasan Dehlaviylarga ergashganlari aniq. Bu davrga kelib Hindistonga Amir Temur yurish boshlaydi. Tug'loqlar sulolasidan Nasiriddin Mahmud Amir Temurga yengiladi va saltanat Temur qo'lga o'tadi. Shundan keyin hukmronlik temuriylarning ikki sulolasi sayidlar (1451 yilgacha) va lo'dilar (1526 yilgacha) qo'lga o'tadi. XV asrda ijod qilgan bironta forsiyzabon shoir nomini tilga olish qiyin. Bu davr urushlar, hokimiyat uchun jangu jadal yillari bo'ldi. Dehlida adabiyot umuman yaratilmadi. Lekin, bu bilan forsiyzabon adabiyot butkul to'xtab qolmadi, u Hindistonning boshqa hududlariga, xususan, Kashmir, Jaypur, Malva, Gujarot, Bengaliya, Sind va janubiy o'lkalarda rivojlanishda davom etdi.

Mo'g'ullar bosqini davrida shoirlar, adiblar va umuman ilm va madaniyat axlining xurkitilgan qushlar galasidek Eron, Xuroson va O'rta Osiyodan har tomonga ko'chib ketish xolati vujudga keldi. Tinchroq joy qidirib, o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan muxojirlarning bir qismi Hindistonni tanlagan edilar.

Hindistonda xali saljuqiylar davrida tashkil bo'lgan forsiy tildagi adabiyot markazi mavjud edi. Bu xol u yerda forsiy tildagi adabiyotning yana taraqqiy etishiga olib keldi.

Amir Xusrav XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida Hindiston madaniyati tarixida mo'tabar o'rin egallab, fors va urdu tillarida ijod etgan shoirdir. Uning to'liq ismi Yaminiddin Abul Xasan Amir Xusrav Dehlaviydir. U 1253 (651 x.) yilda Hindistonning Gang daryosi bo'yidagi Patyoli nomli shaharchada dunyoga keldi. Otasining ismi Amir Sayfuddin Maxmud bo'lib, O'rta Osiyoning turkiy qabilalaridan chiqqan, onasi esa hind qizi bo'lgan. Mo'g'ullar istilosi vaqtida o'z to'g'ilgan joyi Kesh

hozirgi Shahrisabzni tashlab, Hindistonga ketishga majbur bo'lganlardan. Uning o'g'illaridan biri Yaminiddin Xusrav edi.

Xusrav umrining ko'p qismini Dehlida o'tkazgani uchun «Dehlaviy» degan nisba olgan. Xusravning otasiga Dehli sultonlaridan biri turk Shamsiddin Iltutmish (1211 - 1236) amirlik unvonini bergan. Sulton saroyida katta obro'ga ega bo'lgan Amir Xusrav saroy hayotiga yaqin muhitda o'sdi. Yaxshi ilm, yaxshi tarbiya olishga muvaffaq bo'ldi. Uning otasi 1261 (660 x.) yilda mo'g'ullarga qarshi jangda xalok bo'lgan. Xusrav bu vaqtda sakkiz yoshda edi. Shoirning o'z so'ziga qaraganda, bobosi Imodul Mulk uning tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berdi. O'yin o'rganishi, yaxshi ilm olishi ustida ko'p qayg'urdi. Xusrav, asosan Dehlida taxsil oldi. 1273 yilda yigirma yoshli Xusrav Malik Chxaju nomi bilan mashxur bo'lgan Keshluxon saroyiga jalb qilindi. Shundan boshlab, shoir saroy bilan aloqada yashadi. U Hindistonga mo'g'ul xujumlarining guvoxi bo'ldi.

Amir Xusrav 1290 yildan 1320 yilgacha Dehli sultonlari saroyida xizmatda bo'ldi. Umrida uch sulolaga mansub yetti sulton xuzurida xizmat qilgan Amir Xusrav o'sha davr an'anasiga muvofiq o'z asarlarini shu sultonlarga bag'ishlagan. Amir Xusrav saroy shoiri bo'lgan bo'lsada, saroy xayotining tubanligini qoraladi. Amir Xusrav shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni uning asarlaridan anchagina topsa bo'ladi. Ayniqsa, 1299 yil shoir uchun juda og'ir alamli yil bo'ldi. Shu yili u mehribon onasi Davlatnozxonimdan va ukasi Xisomiddin Kutlug'dan ajradi. Shoir asarlari va boshqa manba'lardan ma'lum bo'lishicha uning ikki qizi va to'rt o'g'li bo'lgan. Amir Xusrav hayotida uning piri Shayx Nizomiddin Avliyo katta o'rin egallaydi. Shoir ijodida sufiyona kayfiyatlarning kuchayishida ham uning ta'siri katta bo'lgan.

Abduraxmon Jomiy Amir Xusravning Nizomiddin Avliyoga munosabati haqida to'xtalib «Sulton Muhammad shoh Xelji vafot etgach, xazrat shayx Nizomiddin Avliyoning doimiy xizmatida bo'ldi va tarkidunyochilikka berilib ketdi ...» deb yozgan edi. Saroy hayotining fosidligidan bezgan shoir o'sha zamonda o'zining yorqin g'oyalari uchun tasavvufdan boshqa yo'lni ko'ra olmasligi tabiiy edi. Uni XIII - XIV asrda Hindistonda keng tarqalgan tasavvuf g'oyalari qamrab oldi. Zamon zayli uning hayoti va ijodiga tamg'asini bosdi.

Amir Xusrav ijodiga va ayniqsa, g'azalchilik mahoratiga katta ta'sir ko'rsatgan kishilardan biri ulug' fors shoiri Sa'diy Sheroziy bo'ldi. Davlatshoh Samarkandiy: «... Amir Xusravning Shayx Sa'diyga nisbatan zo'r e'tiqodi ... bo'lgan», deydi-da, uning quyidagi so'zlarini keltiradi:

*Xusravi sarmast andar sog'ari ma'ni birixt,
Shira az g'amxonai masti, ki dar Shiroz bud.*

Bunda Xusrav Dehlaviy Sheroz shahri orqali Shayx Sa'diyni ko'zda tutayotganligi ko'rinib turibdi. Shoir yana boshqa joyda «Jildi suxanam dorad shirozai Shiroziy» («So'zim mukavasining sherozasi Sherozdan»), der ekan, yuqoridan fikrini yana bir bor tasdiqlaydi.

Amir Xusrav juda yoshligidan she'riyatga ixlosmandlik ko'rsatib, she'r yozishni mashq qila boshladi. Bu haqda uning o'zi «Gurratul kamol» devonida: «...Tish tushadigan bolalik chog'larimda she'r aytardim va og'zimdan gavhar tomardi» deydi.

Xusrav Dehlaviy ilk asarlarini «Sultoniyy» taxallusi bilan yozdi. Uning bu taxallusi birinchi devoni «Tuxfatus sig'ar» da ko'plab uchraydi.

Amir Xusrav she'riy, tarixiy hamda adabiyotshunoslik va musiqaga oid juda ko'p asarlar yozgan. Adib va shoir asarlarining miqdori haqida turli fikrlar mavjud. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha: «...Amir Xusrav o'z risolalarining birida «Mening she'rlarim besh yuz ming baytdan kamroq, ammo to'rt yuz ming baytdan ortiq» deganligini aytadi.

Abduraxmon Jomiyning qayd qilishicha, Amir Xusrav to'qson to'qqiz kitob ta'lif etgan. Eron adabiyotshunosi Badio'zzamon Xurosoniyning yozishiga qaraganda: «Shoirlardan hech kim o'zidan keyin Amir Xusravchalik ko'p she'r qoldirmagan».

Shoir asarlarining turli davrda ko'chirilgan ko'lyozma nusxalarini dunyoning deyarli barcha kutubxonalaridan topish mumkin. Dadil aytish mumkinki, Amir Xusrav asarlari nodir ko'lyozmalarining ko'pchiligi va qadimgilari sobiq sovet ittifoqi kutubxonalarida, jumladan, O'zbekistonda saqlanmoqda.

Xusravning lirik asarlari (qasida, g'azal, kit'a, ruboiy, tarjiband lug'z, muammo) asosan besh devonga to'plangan. Ular: «Tuxfatus sig'ar». («Yoshlik tuxfasi»), «Vasatul hayot» («hayot o'rtasi»), «Gurratul kamol» («Kamolotning boshlanishi»), «Bakiyaun nakiya» («Saralarning sarasi»), «Nixoyatul kamol» («Kamolot cho'qqisi») nomlari bilan mashxur.

Bu besh devonga yig'ilgan she'rlar shoirni moxir lirik sifatida olamga mashxur qildi.

U avvalo g'azal ustози. Shuning uchun ham Alisher Navoiy uni mislsiz g'azallar ijodkori Xo'ja Xofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy kabi ustozlar qatoriga qo'yib deydi:

*Gʻazalda uch kishi tavridur ul nav,
Kim, andin yaxshi yoʻq nazm extimoli.
Biri moʻʻjaz bayonliq soxiri hind,
Ki ishq axlini oʻrtar soʻzu xoli...*

Adabiyotimizda gʻazal Xusrav Dehlaviy bilan deyarli bir zamonda yashagan Saʻdiy (1203-1291) ijodida voyaga yetib, alohida janr darajasiga koʻtarilganligi musallam boʻlgan. Xofiz Sheroziy (1300-1389), Kamol Xoʻjandiy (vafoti 1390), Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ijodida esa gʻazal yana-da yuksak choʻqqilarga koʻtarildi. Ammo Saʻdiyning kichik zamondoshi Xusrav Dehlaviyning gʻazal taraqqiyotidagi xizmati ham, fikrimizcha, Saʻdiy xizmatidan kam emas. hech boʻlmaganda, u Saʻdiy bilan Xofiz Sheroziylar orasida, ular ijodini bogʻlab turgan zanjirning mustahkam va muhim xalqasidir. Alisher Navoiy oʻzining gʻazalchilikdagi salaflari haqida gapirganida Saʻdiy nomini emas, Xusrav Dehlaviy nomini keltirishi ham bejiz emas.

Amir Xusravning, ayniqsa ishqni kuylashdagi mahoratini, gʻazalchilikdagi fasohatini yuqori baholagan Navoiy uning haqida: «Ishq axlining pokbozlari va shavqu niyoz axlining nazmtiroz va afsonpardozlari mataqaddimindin andokim, nazm beshasining gazanfari va dardu ishq otashidasining samandari va zavqu xol vodusining pokravi Amir Xusrav Dehlaviydurkim, pok nafas va guftori, pok alfoz va maʼnolik ashʼori ishq axli orasida gʻavgʻo va vajdu xol anjumani fazosida alolo solibdir», deydi. Amir Xusravni Xofiz zamonasigacha boʻlgan lirik sheʼriyatning mashxur siymosi hisoblaydilar. Alisher Navoiy gʻazallaridan birida faxr bilan:

*Demanggiz boʻlboʻl Navoiyni samandardekki bor,
Nazmi ichra shuʻlai Jomiy-yu soʻzi Xusraviy.*

- deydi.

Amir Xusrav epik janrda ham qalam tebratib, koʻpgina dostonlar yaratgan. Dostonlarning koʻpida shoir oʻz koʻzi bilan koʻrgan va ishtirok qilgan tarixiy voqealarni tasvirlagan, shu bois ularni mutaxassislar «Tarixiy masnaviylar» deb yuritadilar. Ular quyidagilar:

1) «Qironus - saʻdayn» («Ikki Sadatli sayyoraning qoʻshilishi»). Doston 1289 yilda yozilgan va 3944 baytdan iborat. Dostonda Dehli sultoni Muiziddin Qayqubod (1287-1290) bilan Bangola Sultoni Nasriddin Bugraxon va ota bilan oʻgʻil uchrashuvi tasvirlangan. Hind xalqining moʻgʻullarga qarshi olib borgan kurashlari ham dostonda oʻz

aksini topgan. Shoir tarixiy voqea va hodisalarni yoritish bilan bir qatorda ular orasiga lirik gʻazal, ruboiy kabi sheʼrlarni ham kiritib ketgan.

2) «Miftoxul futux» («gʻalabalar kaliti»). Asar baʼzi manbalarda «Fatxnoma» deb ham ataladi. 1291 yilda yakunlangan bu asar 700 baytdan ziyodroqdir. Asarda Jaloliddin Firuzshoh Xeljining (1290-1296) ilk yurishlari va ilk hukmronlik davrlari yoritilgan va asar mazmuni mugʻul bosqinchilaridan nafratlanish ruhi bilan sugʻorilgan.

3) «Xazoyinul futux» («Gʻalabalar xazinasi») nomli ushbu nasriy asar Alouddin Xelji (1296-1310) va uning yurishlari haqidagi muhim tarixiy manbaʼ deyish mumkin. Shoir oʻz koʻzi bilan koʻrgan, ishtirok etgan tarixiy voqealarni asarda tasvirlagan. «Xazoyinul futux»da sultonning faqat gʻalabalari, muvaffaqiyatlarini vasf etadi, uning magʻlubiyatlari haqida hech narsa demaydi, shu bois asarni tarixiy madxnoma deyish mumkin,

4) «Duvalroniy va Xizirxon». Ushbu doston «Ishqiya», «Xizirnama», «Xizirxoniy va Duvalroniy», «Oshiq» kabi nomlar bilan ham tanilgan. Shoirning oʻzi asarda shunday deb yozdi:

*Xitobi in kitobi oshiqiy baxr -
«Duvalroniy Xizirxon» mond dar daxr.*

Amir Xusrav bu doston ustida toʻrt oydan koʻproq vaqt ishlagan va 1316 yilda uni yakunlagan. Dostonning xajmi 4519 baytni tashkil etadi. Dostonda shoir Hindiston xalqlari oʻrtasidagi, ayniqsa, musulmonlar bilan hindlar oʻrtasidagi ittifoqlik masalasi Hindiston taraqqiyoti yoʻlidagi eng muhim masala sifatida koʻtargan. Doston boʻyicha tojik olimi M. Bakoyevning monografiyasi ham mavjud.

5) «Nux sipexr» («Toʻqqiz qavat osmon»). 1318 yil yozilgan ushbu asar 9 bobga ajratilgan va 4509 baytdan iborat. Dostonning 1-2 boblari Qutbiddin Muborakshoh Xelji (1316-1320) hukmronlik qilgan ilk davrga; 3 bob esa Hindistonning tabiati, tili, hayvonlari va bazi bir moʻjizalariga; 4 bob shohlar, aslzodalar, qoʻmondonlarga qilingan murojaatdan iborat; 5-6 boblar Sultonlar, ularning shikori va Muhammadning toʻgʻilishi, tarbiyalanishiga bagʻishlangan; 7 bobda bahor va navroʻz madx etiladi; 8 bobda Sultonning chavgon oʻyinidagi mahorati tarannum etiladi. Soʻnggi 9 bobda Amir Xusrav oʻzining shariyatdagi xizmatlari va bu borada buyuk shoir Sadiy Sheroziy va Hakim Xumom Tabriziylardan ham oʻzib ketganligi haqida bayon qilgan.

6) **«Ejozi Xusraviy»**(**«Xusrav mo'jizasi»**). 1316-1319 yillarda yozilgan. 1876 yilda Hindistonda toshbosma usuli bilan nashr qilingan. Besh risoladan iborat ushbu asar badiiy uslublar, xususan, nasr uslubi va hamda badiiy san'atlar haqida bo'lib, o'z ijodida qo'llagan badiiy san'atlar haqida malumot beradi. Shuningdek, Amir Xusrav Dehlaviy qalamiga mansub G'iyosiddin Tug'luq va Nasriddin Xusravxon o'rtasidagi kurashni tasvirlovchi «Tug'luqnoma» nomli masnaviy, «Torixi Dehli» kabi asarlar ham mavjud.

Shoirning hindcha, hindaviy, urdu tillarida ijod qilgani Hindistonda turli hind elatlari orasida shuhrat qozonishiga sabab bo'lgan. Amir Xusravning o'zi «G'urratul kamol» devonining debochasida *«Turkiy Hindistonam man, hindaviy go'yam chu ob»* (Men Hindiston turklaridanmenu, hindaviyni suvdek ichaman) deb yozgan.

Tadqiqotchilar Amir Xusravni urdu adabiyoti asoschilaridan biri hisoblaydilar. Adibning hindaviy tilidagi asarlari yetib kelmagan, lekin Amir Xusravning o'zi bir sherida: «Men hind to'tisiman, agar siz mendan haqiqatdan ham biror narsa so'ramoqchi bo'lsangiz mening hindaviyimga murojaat qiling. U tilda men sizga ajoyib narsalarni bayon qilishim mumkin» deb yozgan. Ushbu jumlar shoirning hindaviyda ham ijod qilganini isbotlaydi. Amir Xusrav «Rixta» («shiru shakar») uslubida sher yozishda ham o'zini sinab ko'rgan. Aynan rixtalarida hindaviyni uchratamiz, chunki, g'azaldagi baytning bir misrasi sof fors tilida bo'lsa, ikkinchisi sof hindaviy tilda bo'lganligi ta'kidlanadi. U kxari bo'li tilida sherlar ijod qilib, musulmon hukmdorlarining diqqat etiborini hind tiliga jalb etgan. Amir Xusrav «Xoliqbori» lug'atini ham yaratgan bo'lib. unda arab, fors so'zlarining hindaviy tilidagi manolari sheriylar shaklida berilgan.

Xusrav Dehlaviy o'z vatanida shuhrat qozongan ajoyib sozanda va xushovoz honanada ham bo'lgan. Uning musiqaga oid uch to'plami mavjud bo'lib, ularda hind kuylari bilan bir qatorda fors taronalarini ham bastalashda ajoyib mahorat ko'rsatgan va ikki xalq musiqasidan «yangi musiqa olamini» yaratgan.

Amir Xusrav Dehlaviy bugungi «hamsachilik»ning ikkinchi yirik namoyandasidir. U o'lug' Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning «Hamsa»siga izdoshlik qilib «Hamsa», ya'ni besh doston yaratgan. Shoirning bosh xomiysi Sulton Alovuddin Xeljiga bag'ishlangan bu «Hamsa»sini uch yilda (1298-1301) yozib tugatgan, Dehlaviy «Hamsa»si qo'yidagi dostonlardan iborat:

1) **«Matla'ul anvor»**(**«Yoritkichlarning chiqish manbai»**). Asar 1299 yilda ikki hafta davomida yozilgan bo'lib, 3310 baytdan iborat.

Nizomiyning «Mahzanul asror» («Sirlar xazinasi») asariga javoban yozilgan asar. Asar tasavvuf ruhida yozilgan va tarbiyaviy - ahloqiy masalalarga bag'ishlangan.

2) «**Shirin va Xusrav**». 1299 yilda tugatilgan, 4124 baytdan iborat. Amir Xusrav bu masnaviysini Nizomiyning «Xusrav va Shirin» dostoniga javoban yozgan. Doston mumtoz sharq she'riyatining badiiy tasvir vositalariga juda boy. Unda ta'sirli epitetlar, rango-rang istioralar va ajoyib tashviqotlar qo'llanilgan. Asarning obrazlar tizimi ham juda boy, sodda va tushunarlidir.

3) «**Majnun va Laylo**». Nizomiyning «Layli va Majnun» masnaviysiga javoban yozilgan ushbu doston 2660 baytdan iborat va u 1299 yilda yozilgan. Mumtoz sharq adabiyoti an'anasiga rioya qilgan holda Dehlaviy ham «Majnun va Layli» dostonini Olloxga murojaat qilishdan, Sulton va shayx Nizomiddin Avliyoni madx qilish bilan boshlaydi. Dostonda asar g'oyasini ochib berishga xizmat qiluvchi ikki dev va cho'pon haqidagi ikki hikoyat ham mavjud. Asarning «Farzandga yo'llanma» bobi didaktik harakterda bo'lib, shoir o'g'liga nasixat qilib, o'zining ahloqiy idealini izxor qiladi.

4) «**Oinai Iskandariy**» («**Iskandar ko'zgusi**»). Shayx Nizomiddin Avliyoni madx qilishga bag'ishlangan ushbu doston so'z qudratini ko'klarga ko'tarilgan. Shuningdek, Iskandarning kelib chiqishi haqidagi mavjud rivoyatlarga shoir o'z munosabatini bilirgan holda uni payg'ambar sifatida emas, balki faqat «vali» sifatida tan olishini bildirgan. Doston rus sharqshunos olimi Ye.E.Bertels tomonidan Nizomiy va Alisher Navoiyning Iskandar haqidagi dostonlari bilan birga qisman o'rganilgan.

5) «**Xasht bexisht**» («**Sakkiz jannat**»). Nizomiyning «Xaft paykar»iga izdoshlikda 1302 yilda yozilgan va 3344 baytdan iborat.

Doston Baxromning otasi vafotidan keyin taxtga o'tirishi bilan boshlanadi. Asar ahloqiy - tarbiyaviy misralarga juda boy bo'lish bilan bir qatorda, dunyoning foniyligi haqida muloxaza yuritish va kitobxonga nasihatlar qilish bilan yakunlangan. Doston mazmuniga shoirning hayotiy xulosalari singdirib yuborilgan. Jumladan,

*Eqilmasa xosil berarmidi don,
Yersiz nimaga ham yaraydi osmon.
Ayol ham mard bo'lib, tadbirli bo'lsa,
Igna bilan dug'i bo'lur o'q-nayza.
Er agar tariqcha bir ish qilsa, deng,
Xotin sarishtasi qilur birni ming.
Ishbilarmon eldan ajrab chiqqan choq,*

*Topilur undan ham ishbilarmandroq.
Zangi tani misli qaro loy erur,
Onasi nazdida to 'lun oy erur.*

Amir Xusravning ushbu dostoni Nizomiyning «Hamsa»siga munosib javob bo'lgan, ustoz bilan ijodiy musobaqa kirishgan Xusrav o'z poetik mahoratini namoyish eta olgan, deb baholaydi mutaxassislar. Nizomiy «Hamsa»siga izdoshlik qilgan shoirlar haqida Navoiy:

*Ko 'p kishi ham qildi tatabbu ' xavas,
Sarvu gul o 'rtusiga keltirdi xas.*

degan edi. Fors adabiyotining bilimdoni Abdurahmon Jomiy ham Nizomiy «Hamsa»siga boshqa hech kim forsiy tilda Amir Xusravchalik yaxshi javob yoza olmagan, deb hisoblagan.

Amir Xusrav «Hamsa»siga Navoiy ham nihoyat yuksak baho beradi:

*Kishi mundoq bo 'la olmay guharroq,
Magar u hinduyi zodi shakarryoz...
Ne gavhar, balki ilmu fazl qoni,
Dema qonkim, degil ko 'xi ma 'noiy.*

Amir Xusrav «Hamsa»sining tili shirin, yengil, nazokatli, tushunarli bo'lganligi bois xalq uni sevib o'qigan. Shoirning ayrim dostonlari urdu tiliga ham tarjima qilingan. Amir Xusrav Dehlaviy ijodi hamsachilik, tarixiy dostonchilik va g'azalchilikda O'rta va Yaqin Sharq xalqlari adabiyoti taraqqiyoti jarayonida muhim bosqichlardan biri bo'lganiga hech qanday shubha yo'qdir.

Hind tasavvuf adabiyoti

Tayanch so'zlar va iboralar: kxari bo'li, Jayasi Axloqi tasavvuf, so'fiy, Burhoniddin Janam, urdu she'riyati, Madhumalti, avliyolar, islomiy mafkura, Padmavat, hadislar, Manjxan, atamalar, Mansur Halloj, mutasavvuf, Haqiqat qurbonlari, Chishtiy, Shayx Nuriddin.

Darsning maqsadi: Hindistonga O'rta Osiyodan kirib borgan tasavvuf adabiyoti, uning vakillari va maxalliy bhakti adabiyoti bilan uning o'zaro hamoxangligi

Hind tasavvuf adabiyoti namunalari ilk bor XI – XII asrlardan boshlab forsiy va kxari bo‘li tillarida paydo bo‘la boshlagan, deb yozadi shu davr adabiy jarayonlarini o‘rgangan R. Inomxojayev va tasavvuf targ‘ibotchisi Xoja Ashraf Jag‘ongir Somnani va uning “Axloqi tasavvuf” asari, shayx Hamiduddin Nagori kabi so‘fiy shoirlar nomi tilga olinadi. Lekin, bu adabiyotning eng taraqqiy etgan davri boburiylar sulolasi davriga, ayni bhakti adabiyotining rivojlangan davriga to‘g‘ri keladi. Bu davr tasavvuf adabiyoti haqidagi ayrim ma‘lumotlar Yu.V.Svetkovning XV–XVI asr hind adabiy jarayonlari bilan bog‘liq maqolasida uchraydi. Hind tasavvuf adabiyoti bir qancha hind adabiyotshunos olimlari⁷ tomonidan ham o‘rganilgan. Bu adabiyotning XV–XVII asrlarga tegishli asosiy namunalari sifatida quyidagi asarlar tilga olinadi – Badayunining «Shayx Burxonga tazkira» (XIV), Burhoniddin Janamning «Kalimat ul – Haqoyiq» (XV), Aminuddin Alining «Sevgi yo‘llanmasi» (XVI), Kutubanning «Mrigavati» (XVI), Jayasining «Padmavat», «Akxravat» (XVI), Shayx Rizqullohning «Pemvan job», «Niranji» (XVI), Manjxanning «Madhumalti» (XVI), «Padmavat», «Chitrarekxa», «Akxiri kalam» (XVI), Usmonning «Chitravali» (XVII), Shayx Nabining «Gyandip», Nur Muhammadning «Indravati» (XVII) kabi asarlari. Ko‘rib turganimizdek, hind tasavvuf adabiyotining asosiy namunalari ayni bhakti adabiyoti yaratilgan davrga, ya‘ni XV–XVII asrlarga to‘g‘ri keladi, ayrimlari, hatto, XIV asrga ham tegishli.

Tasavvuf adabiy merosi sifatida yuqorida nomlari keltirilgan asarlarni mazmun jihatdan ikki turga ajratish mumkin, birinchi turga – islomiy mafkura va hadislarga asoslangan va shohlar tomonidan yaratilgan risolalar kirsas, ikkinchi turga sof ijod ahlining majoz tariqidagi tassavvufiy (ilohiy) ishq mavzusiga bag‘ishlangan asarlari kiradi. Bu asarlar, Yu.V. Svetkov aytganidek, ikki insonning sevgisiga bag‘ishlangan bu asarlarda sevgining kuch-qudrati shunchalik kuchli tasvirlanadiki, asarda oshiq o‘z ma‘shuqasida Yaratganni ko‘ra boshlaydi. Oshiq obrazidagi shohning o‘z ma‘shuqasiga yetishish yo‘lidagi iztiroblari so‘fiyning Yaratganga yetishish yo‘lidagi ruhiy iztiroblari bilan tenglashtiriladi. Insoniy ishqning oliy darajada namoyon bo‘lishini tasvirlovchi bunday tassavvufiy adabiyotga N.Nizomiddinov so‘zlari bilan shunday ta‘rif berish mumkin, *bhakti va turkiy qalam sohiblari ko‘pincha*

⁷ Асад Али. “Бхактикал аор муслим санскрити”. – Дилли. 1971. Умапатирай Чандел. “Хинди суфи кавья ме пураник акхйан”. – Дилли, 1976. Чандравали Панде. “Тасаввуф аор суфимат”. – Варанаси, 1966. Рампати Рай Шарма. “Ниргун кавья пар суфи прабхав”. – Канпур, 1977. Шринивас Ватра. “Хинди аор фарси суфи кавья ка тулнатмак адхйайан”. – Дилли, 1979. “Суфи кавья пар нирнай”. – Дилли, 1977. “Суфимат”. – Дилли, 1997. “Суфи татха суфимат”. – Дилли, 2004.

o‘z dunyoqarashlarini ilohiy ezgulikka taqlid tariqasida tarannum etganlar. Agar aytaylik, “bhakti she‘riyatida” insoniy muhabbat ilohiy sadoqatga tenglashtirilsa, turkiy she‘riyatda⁸ esa, ishq-muhabbatdagi poklik qudratiga bo‘lgan ishonch va sadoqat diniy e‘tiqod maqomiga ko‘tariladi”.

Hindistonda musulmonlar tili bo‘lgan urdu tili va adabiyotining shakllanishida hind tasavvuf adabiyotining ahamiyati katta bo‘lganini rus sharqshunoslari⁹ va ko‘pgina hind mutaxassisleri ta‘kidlaydilar¹⁰. Hattoki urdu¹¹ tilida bizgacha yetib kelgan dastlabki yozma yodgorliklar ham so‘fiylarning risolalari bo‘lgan deyiladi. Bu asarlar urdu tilining adabiy tilga aylanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ular orasida dastlabki yozma yodgorlik sifatida Said Muhammad Husayn Bandanavozning (1318 – 1422) «*Miraj ul-oshiqin*» («Oshiqlar maqoni (miroji)») asari tilga olinadi. Ushbu asar tasavvufiy dunyoqarashdagi, ya‘ni Haqqa yetishish va dunyoviy gunohlardan forig‘ bo‘lish yo‘llarini o‘rgatuvchi kichik bir risoladir. Asarda Qur‘on va hadislardan parchalar berilgan va ularga dakxini tilida (ilk urdu tili) izohlar ham berilgan. Yoki bo‘lmasa, Burxoniddin Janamning (XV asr) «*Kalimot ul-Xaqoyik*» asari tasavvufga oid savol-javob uslubida fors va dakxini tillari aralash tilda yaratilgan. Asarning bir qatori forsiyda bo‘lsa, ikkinchi qatori dakxinida yozilgan. Asardagi dakxini qismi bugungi urdu tilining hali yaxshi sayqallanmagan dastlabki nasri sifatida tan olinadi. Urdu tilining adabiy tilga aylanishida mana shu mazmundagi asarlarning xizmati beqiyos bo‘lgan. Burxoniddin Janamning o‘g‘li Aminuddin Ali ham otasining ta‘sirida «*Sevgi yo‘llanmasi*» nomli tasavvufiy mazmundagi asarni yaratgan.

Hind tasavvuf adabiyotida ayrim hollarda hindular bilan bir muhitda yashaganliklari sabablimi so‘fiy qarashlardagi asarlar mazmunida hindularga xos fikrlar ham uchrab turadi, jumladan, tasavvuf adabiy merosining ko‘zga ko‘ringan namunalaridan biri bo‘lgan Manjxanning (XVII asr) “*Madhumalti*” asarida muallif Alloh, Muhammad (s.a.v.) va bandalarning aslida bir narsa ekanligini asoslashga harakat qilgan. “*Yaratgan yagona, lekin uning qiyofasi ham, nomi ham ko‘p. U hammaga singib ketgan, lekin hammadan alohida hamdir, U bir vaqtning o‘zida ham yaratuvchi, ham oluvchi va ham berguvchidir*” – deb yozadi Manjxan. Bu asarda Manjxanning “*Yaratgan yagona, lekin uning qiyofasi ham, nomi*

⁸ Хусусан, Бобур, Хумоюн, Байрамхон, Комрон, Фориғий, Дийда, Фаҳм, Жоҳила кабилар.

⁹ Бу ҳақда қаранг: Глебов Н., Сухочев А. Литература урду. – М.: 1967. Саид Эҳтишам Хусейн. История литературы урду. – М.: 1978. ва бошқалар.

¹⁰ Юқорида 175– чи иқтибосда ҳинд мутахассисларининг номи келтирилган.

¹¹ Ўрта асрларда рехта, дакхини ёки ҳиндави деб ҳам аталган.

ham ko‘p” deb Yaratganning bexisob qiyofada bo‘lishi haqidagi fikri uni sagun bhaktiga xos fikrga yo‘naltiradi.

Tasavvuf adabiyoti shakllanishidan avval urdu tili xalq tili sifatida qo‘llanilgan, lekin unda badiiy jihatdan yetuk asarlar hali yaratilmagan. Tasavvuf vakillarining asl maqsadi esa so‘fiyona g‘oyalarni oddiy xalq orasida targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan. Shu sabab, ular shu maqsad yo‘lida xalq tushunadigan, musulmonlar so‘zlashadigan tilni ijod tili sifatida tanlaganlar va shu asosda u badiiy jihatdan sayqallanib borib, keyinchalik fors va dakxini tillarining omuxitasi asosida musulmonlarning badiiy ijod tiliga aylangan. Bugungi kunda esa urdu she‘riyati o‘z mazmun-mohiyati va shakl-shamoyiliga ko‘ra hindi she‘riyatidan ancha ustun va xalq uchun sevimliroq she‘riyatga aylangan.

Tasavvufiy asarlarda sufizmga oid atamalar, albatta, mazmuni, o‘zining asl holicha ishlatilgan va ularga dakxini tilida izohlar berilgan. Hattoki, Hindistondagi forsiyzabon adabiyotning taniqli shoiri Amir Xusrav Dexlaviy ham hind tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi sifatida tilga olinadi va u fors tili bilan bir qatorda dakxinida ham ijod qilgan, deyiladi, lekin bu tildagi uning asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Mutasavvuf shoirlar Hindistonning turli hududlarida yashab ijod etganlar. Xususan, shoh Miranji Bijapurdagi birinchi hind mutasavvuf adiblaridan hisoblanadi. U Makkada to‘g‘ilgan, ta‘limni esa Hindistonda olgan. Mahalliy adabiyot va tasavvuf adabiyoti bilan yaqindan tanishgan va ularning ta‘sirida o‘zi ham so‘fiyona mazmunda she‘rlar yaratgan.

Bulardan tashqari bir shogirdning o‘z shayx ustoziga atab arab, fors va dakxini tillarini qo‘llab nazmda yaratgan «*Etti buyuk*» nomli asari ham ustoz va shogird suhbatlari uslubidagi mashhur asarlar qatoridan o‘rin olgan. Tasavvufiy g‘oyalar turli obraz va ramzlar orqali berilgan «*Haqiqat qurbonlari*» nomli asar, haydarobodlik mashhur so‘fiy Salu Miran Husayn Shohning bir necha she‘riy to‘plamlari, Gujarotdagi urdu-gujaroti aralash tilda ijod qilgan avliyo shayxlar, jumladan, Qozi Muhammad Darberpuri, uning o‘g‘li darvesh Shoh Ali Muhammad Jiugan Jani, shuningdek, urdu tilida ijod etgan so‘fiy shoirlardan Bobo Shoh Husayn, Xub Muhammad Chishti va boshqalarni tilga olish mumkin. Ularning ijodi urdu tilining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Tasavvuf adabiyoti Hindistonning ko‘pgina joylarida shakllangan. Jumladan, mamlakatning shimolidagi Kashmir hududi ham o‘zining ko‘p sonli azizu avliyolari hamda so‘fiy shoirlari bilan mashhur. Bularga Said Mir Kabir Hamadoniy, Bulbul Shoh, Vatmalu Sohib, Mir Hamza Maxdumiy, Pirdastgir kabi so‘fiylarning muqaddas dargohlari va masjidlari

bunga misol bo'ladi. Kashmir tasavvuf adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalari, bhakt shoirlar bilan o'xshash dunyoqarashga, o'xshash ijodiy merosga ega bo'lgan shoirlari bu XIV asrda yashagan shoira Lalleshvori hamda uning zamondoshi shayx Nuriddinlardir.

Shayx Nuriddin Kashmirda XIV asr oxiri va XV asr boshlarida darveshlik an'anasiga asos solgan birinchi so'fiy shoir bo'lganligi sababli unga «Nundrishi», ya'ni «Nunddarvesh» nomi berilgan. U kashmiriy tilida ijod etgan. Uning she'rlar to'plami ham «Rishinoma» yoki «Nurnoma» deb ataladi.

Ma'lumki, bugungi kunda Kashmir Hindistonning siyosiy jihatdan eng notinch hududlaridan biri hisoblanib, bunga, albatta, hindu va musulmonlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar sabab bo'lmoqda. Lekin, manbalarda aytilishicha, Kashmirda aynan Shayx Nuriddin zamonida va undan keyin ham ko'p asrlargacha hindular va musulmonlar o'rtasida bo'lgan ahillikni Hindistonning hech bir hududida ko'zatish mumkin bo'lmagan ekan. Bunga esa shayx Nuriddin va undan avval yashagan, ijodida tenglik g'oyalarini kuylagan shoira Lalleshvarining ijodi sabab bo'lganligi haqida Kashmir tasavvuf adabiyotini o'rgangan Nizomiddin shunday deb yozadi: *«Lalleshvarining misralarini musulmonlar va Nundrishining she'rlarini esa hindular sevib mutolaa qilib keladilar. Ularning ikkovini Kashmirda hindular ham, musulmonlar ham birdek e'zozlaydilar. Kashmirdagi hindu va musulmonlar ahilligini hanuzgacha hech bir shtatda ko'zatish mumkin emas edi. Bugungi kundagi Kashmirning aynan shu masala tufayli notinchligi hammani hayratda qoldirmoqda»*. Lalleshvarini Kashmirda *Lalladya*, *Lalla Arifa* yoki *Lalla Yogeshvari* taxalluslari bilan ham ataydilar. XIV asrlarda Kashmirda yashagan Lalleshvarining ko'pgina qarashlari XV asrda yashagan sant Kabir qarashlari bilan deyarli bir xilligi juda hayratlanarli holdir. Jumladan, Lalleshvori hamda Kabirga xos bo'lgan *“Yaratganni tashqaridan izlasam, U o'zimning ichimda ekan”*, degan qarashlari ularning dunyoqarashi naqadar o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Xuddi shunday qarashlar Lalleshvaridan ancha keyin yashagan shayx Nuriddinga ham xos bo'lgan. Bu shoirlarning deyarli bir xil dunyoqarashi orqali biz, bhakti va tasavvuf, haqiqatan ham o'xshash g'oyali diniy ta'limotlar ekanligiga ishonch hosil qila olamiz.

Shayx Nuriddin (1378 – 1438)ning ota-bobolari Kashmirda tahminan yuz yillar avval Jammu Mandaldan kelib Kashmirning bir qishlog'ida yashab qolganlar. Chorsharifda yashagan va olamdan o'tgan Shayx Nuriddinning mozoriga 1995 yildagi hindular va musulmonlar kelishmovchiligi to'polonlarida o't qo'yib yuborilgan. Hozir bu mozor

yana qayta tiklangan va u muqaddas ziyoratgohga aylantirilganligi ma'lum. Shayx Nuriddinni «Nundrishi»dan tashqari «Shayxi olam» (Olam shayxi), «*Alamdari Kashmir*» (Kashmir olami), «*Shayxi orifin*» (Oriflar shayxi), «*Shayxi komil*» (Komillar shayxi) degan taxalluslar bilan ham yodga oladilar. Shayx Nuriddinning to'g'ilishi va hayoti bilan bog'liq bir qancha afsonalar ham mavjud. Ulardan birida aytilishicha, Nuriddin to'g'ilganidan keyin ancha vaqtgacha o'z onasining sutini qabul qilmagan. Bundan oila a'zolari juda tashvishga tushib qolganlar. Kunlardan birida bir avliyo zot aylanib yurganida bolaning bu ishini ko'rib qoladi va uni bag'riga bosib mehr bilan: «*Dunyoga kelishga uyalmabsan, sut ichishdan nega uyalasan?*» deb bolaning og'ziga o'z barmoqlarini solganida barmoqlaridan sut chiqa boshlagan, shundan keyingina bola o'z onasining sutini qabul qilgan ekan. «Tarixi shayak» nomli asarda ham mana shu rivoyat eslab o'tiladi. U oila quradi, ikki farzandli bo'ladi, lekin farzandlari bolaligidayoq nobud bo'ladi. Shundan so'ng Nuriddin uyda o'tirolmay qoladi. Ota-onasi uni har turli ishlar bilan chalg'itmoqchi bo'ladilar, lekin barchasi befoyda bo'ladi. U tabiat qo'ynida, o'rmon va g'orlarda yolg'iz yuradigan, faqat Xudo nomini zikr qiladigan bo'lib qoladi. Kunlardan bir kun onasi o'rmonga o'g'lining yoniga kelib, uni qattiq koyiydi, agar uyga kelmasang bergan sutimga.... deyishi bilan Nuriddin qattiq g'azab bilan «mana oling sutingizni» deb toshga jon jahdi bilan bir musht tushirganida, aytishlaricha, toshdan sut oqib chiqqan, shundan so'nggina onasi uni tinch qo'ygan ekan. Shayx Nuriddinning hayoti bilan bog'liq shunga o'xshash yana bir qancha rivoyatlar mavjud, deyiladi. Xuddi shunday barmoq bilan bog'liq karomatni Mansur Hallojda ham ko'ramiz, «*Mansur Halloj yetmish muridi bilan bir tunda Bayti Maqdisga yetib boradi. Qarashsa, hamma yoq zim – ziyo, qandillar o'chgan. «Bu qandillar qachon yonadi?» deb so'rashganda, «Sahargacha hali ancha vaqt bor – ku», deya shahodat barmog'i bilan ishorat qilib «Alloh» deganida to'rt yuz qandil birdaniga charog'on bo'lib ketgan ekan*». Bunday o'xshashliklar tadqiqotda bir necha avliyo zotlar misolida keltirib o'tiladi. Shayx Nuriddin so'fiylarning eng katta dushmani bo'lgan nafsni boshqarishda eng yuqori darajaga yetgan shoirlardan hisoblanadi.

Shayx Nuriddin ijodini tadqiq etgan Nizomiddin shoirning so'fiyona qarashlarini o'rganar ekan, u islom va tasavvufga xos g'oyalarni ko'pincha hindular dini va bhakti g'oyalari bilan qiyoslab, ikki dinning (islom va hindular dini) va ikki diniy-falsafiy ta'limotning (bhakti va tasavvuf) eng asosiy qadriyatlari, talablari yagona ildizga asoslanishini

va, umuman, insoniy qadriyatlar har yerda ham, har davrda ham bir xil ekanligini va bu haqda qadimiy muqaddas kitoblarda aytib ketilgan soʻzlar yaxshi dalil ekanligiga ishora qilib boradi, shayx Nuriddin oʻz sheʼrlaridan birida shunday deydi:

सु म्या निशे। म्या तस निशे करार आव
नहक छोंदुम म्या परदिशे। पने दिशे म्या यार आव

yaʼni:

«Bejiz Uni (Yaratganni) har yerdan izlab yuribman,u esa mening yonimda ekan» - desa, Nuriddindan deyarli yuz yil keyin yashagan Kabir esa xuddi shu mazmunda quyidagi misralarni bitgan:

व्यर्थ ही कसतूरी को मृग वन में खोजता फिरता है
जबकी वो उसकी नाभी में होती है।

yaʼni:

Bekorga uni har yerdan izlaydilar,
Aslida U bizning har bir nafasimizda – ku!

Bu yerda tasavvuf va bhaktining oʻxshash gʻoyalari, yaʼni «Alloh inson qalbidadir» degan gʻoya koʻzga tashlanadi. Yoki boʻlmasa, shayx Nuriddinning kashmiriy tilidagi bu misralariga eʼtibor qaratsak:

सयन ताराबुध रुदुख म्या छा
म्या च्या हान्तम दिदर

yaʼni: "Moddiy dunyodan voz kechib Yaratganni koʻrish orzusida yashash jahannam olovidan ozod boʻlib, Uning diydoriga yetishish imqonini beradi" – degan qarashlari hinduizmning muqaddas kitobi «Bxagavadgiita»dagi maʼbud Krishnaning sanskrit tilida bayon etgan quyidagi soʻzlari bilan hamohangligini koʻzatish mumkin:

सर्वाधर मन परित्याग्या मामेकम शरण ब्रजा

Yaʼni,

Borligʻingni Unga baxshida etsanggina, unga erishishing mumkin.

XVI asrda Uttar Pradesh shtatida yashagan bhakt shoir Tulsidas esa Ram maʼbudiga qarata avadxi tilida shunday deb yozgan:

राम भरोसो, राम बल, राम नाम विस्वास।
सुमीरत सुभ मंगल कुसल मानगत तुलसीदास।

ya'ni:

*Ramga ishon, Ram kuch-qudrat, Ram e'tiqod,
Ramni esla tongdan asl baxt uchun sen ham, Tulsidas.*

Bu uch tilda (sanskrit, kashmiriy va avadxi) yaratilgan misralarda bhakti, tasavvuf va hinduizmning o'xshash g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Nuriddin barcha so'fiylar kabi din peshvolarini mazax qilgan, ularning so'zi bilan amali bir emasligini qattiq tanqid ostiga olgan. Bu jihatdan ham uning qarashlari, fikr-mulohazalari sant Kabir bilan hamohanglik kasb etadi. Nuriddinning she'rlarida dindorlarga qarata aytilgan so'zlar Kabir she'riyatida ham xuddi shu tarzda jaranglaydi. Jumladan, «Mullalarning sallasini qarang, biram salobatli. Viqor bilan yurishlari-chi. Oyoqlarida tilla rang kovush, bo'yinlarida esa cho'g'a¹², qo'ltig'ida ovqat yeydigan patnischasi.... Bu savlatli qiyofada ularning e'tiqodi, Yaratganga bo'lgan mehri juda tomoshabop-da», deb din peshvolarini tanqid ostiga olsa, xuddi shunday tanqidiy so'zlarni Kabir ijodida barcha din peshvolariga qarata aytilganini juda ko'p misralarda ko'zatish mumkin, masalan, Kabir hindularning panditiga qarata «vedalarni, puranlarni yoddan o'qib, ularda aslida nimani targ'ib qilinganini xano'zgacha o'zing tushunib yetmagansan, boshqalarga sen nimani o'rgata olasan» desa, musulmon mullalariga qarata "Masjidning eng baland minoriga chiqib olib mulla nechun buncha baqiradi? Uning nazdida Xudo karmi?" – deb xitob qilsa, shayx Nuriddin aytadiki, bu mullalar aslida Yaratganga nisbatan mehr, muhabbat va sadoqat nima ekanligini o'zlari hali tushunib yetmaganlar, mehr bu otilgan nayzadir, uning og'rig'iga bardosh bera olish kerak, deydi. Jannat haqidagi fikrlar ham har ikki shoirda deyarli bir xil jaranglaydi. Bu borada Nuriddin:

जो प्रेम में रात भर जागता है, उसी को जन्नत मिला है।

ya'ni «tunu kun Yaratganga mehr bilan yuragi yongan insongagina jannat nasib bo'ladi», degan bo'lsa, Kabir,

बिना दाग़ के, बिना पापचार किए इस संसार से जाएगा,
वहीं जन्नत में दाखिल होगा।

¹² Чўға – ичига чўғ солиб бўйинга осиб оладиган печка, Кашмирда қишда совукдан жон сақлаш учун ишлатилади.

ya'ni, «*hech qanday dog'siz, gunohsiz bu dunyodan o'tgan insongagina jannat nasib bo'ladi*», deydi.

Shayx Nuriddin Kashmirda Zaynul Obidin (1420 – 1470) shohlik qilgan davrda yashagan. Aytishlaricha, bu shohni Kashmir xalqi juda sevgan. Xalq uni hurmat bilan *Podshohi olam* deb tilga olgan. Shoh Zaynul ham shayx Nuriddinni hurmatlab e'zozlagan va shayx olamdan o'tganida o'zi shaxsan unga tobutkashlik ham qilgan ekan. Shayx vafotidan keyin, hatto, shayx Nuriddin nomi yozilgan tangalar ham chiqargan ekan. Zaynul shohdan keyin ko'p asrlar o'tgach Kashmir shtati gubernatori Ota Muhammad ham bu tangalarni yana qayta ishlab chiqargan va shayx Nuriddin mozorini tiklab, uni ziyoratgohga aylantirgan. Hozirda har yili oktyabr oyida shayx Nuriddin ruhi pokini shod etish uchun maxsus ziyorat bayramlari tashkil etiladi. Shayx Nuriddinning ko'pgina shogirdlari bo'lgan, ulardan Bobo Nasriddin, Qutbiddin, Zaynuddin, Lutfiddin va boshqalarning nomini tilga oladilar.

Bijopur sultonligi davrida urdu (dakhniy) adabiyotining rivoji

Tayanch so'zlar va iboralar: sultonlik, shams ul-ushshaq, bhakti ta'limoti, xushnama, islom qadriyatlari, tasavvuf, allegoriya, masnaviy, dostonlar, rexta, alinoma

Darsning maqsadi: Urdu adabiyoti rivljiga xissa qo'shgan o'rta asr Bijopur sultonligi adabiy merosi, uni yaratgan vakillar haqida ma'lumot berish

Hindiston, aniqrog'i Hindiston yarim orolining katta qismini Dekan (sanskritcha – dakshin patha – janubiy mamlakat) yassitog'ligi egallagan. XV asr oxirlaridan to XVII asr oxirigacha uch yuz yil mobaynida Dekanda beshta sultonlik – mustaqil musulmon davlati hukm surgan. Bular - Ahmadnagar sultonligi (1490—1636), Berar (1490—1574), Bidar (1527—1619), Bijopur (1490—1686) va Golkonda (1512—1687) davlatlaridir. Bu sultonliklar, jumladan, Bijopur 1490 yilda Bahmaniy davlatining parchalanishi oqibatida shakllangan. U Karnatak shimoli va Maharashtr janubidagi katta hududni egallagan. Uni Odilshoh sulolasi boshqargan. Markaz Bijopur bo'lgan.

Odilshoh sulolasi Yusuf Odilshohdan boshlanadi. Uni Usmoniy turk sultonlari sirasiga kiritadilar. Bahmaniy sultonligi parchalanib ketgach, u

595 yilda(h.) alohida hokimiyat o'rnatadi. Ikki yuz yil mobaynida to'qqizta shoh hukmronlik qilgan.

Yusuf Odilshoh yigirma bir yil shohlik qilgach, 916-yilda (h.) vafot etadi. Odilshoh sulolasi vakillari hamisha ilm-ma'rifatga intilgan, olimu fuzalolar va shoirlaru adiblar ijodiga e'tiborli kishilar bo'lgan. Yusuf Odilshoh juda ilmli, adabiyotni sevgan, musiqaga qiziquvchi shaxs o'tgan. Forsiy va turk tillarida qalam tebratgan.

U paytlarda tasavvuf g'oyalarining ta'siri kuchli edi. Bijopur adabiyotida ham xuddi Ahmadnagar va Golkondadagi kabi so'fiy ijodkorlar katta o'rin tutgan. Ular orasida Odilshoh sulolasiga mansub, o'sha davrda katta hurmat va sharafiga muyassar bo'lgan uch avlod - ota, o'g'il va nabira ijodi eng mashhur bo'lgan. Ularning uchalasi ham vafotidan keyin Bijopurdan uzoqda, Shahpuradagi katta maqbaraga dafn etilgan.

Ularning birinchisi - Shoh Mironjiy Yaratganga bo'lgan cheksiz muhabbati tufayli "Shams ul-ushshaq" (Oshiqlar quyoshi) nomini olgan. Bhakti ta'limotining yetakchilaridan edi. Uning asarlari urduda bo'lsa-da, u hindiyni ona tilisi deb hisoblar va uning fikricha, u yozgan kitoblar arab va fors tillarini bilmaydigan kishilar uchun yozilgan. Afsonaga ko'ra, payg'ambarimiz Rasuli akram uning tushiga kirib, o'zining ona shahri Makkani tark etishni va Hindistonga borib til o'rganishi va u yerda voizlik qilishni buyurganlar.

Mironjiy o'z muridlari uchun nasriy shaklda tariqatga oid bir qancha asarlar yozgan. Shunday asarlar sirasiga "Sharhi marg'ub ul-qulub", "Xushnama", "Xushnag'z"lar kiradi. Birinchi asar nasrda bo'lib, keyingi ikkitasi nazmda bitilgan. "Sharhi marg'ub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevganiga sharh")da u o'zining tasavvufga doir qarashlarini Qur'on va islom qadriyatlariga asoslangan qiyoslashlar va she'riy kinoya(allegoriya)lar orqali bayon etgan. U shuningdek, badiiy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega she'rlar ham yozib qoldirgan. Uning uchta kichik masnaviysi bizgacha yetib kelgan. Uning qalamiga mansub bir ming bir yuz misradan iborat "Shahadat ul-haqiqat" (Haqiqat haqidagi dalillar) nasriy asar bo'lib, uning ahamiyati shundaki, Mironjiy o'z kechinmalarini aks ettirishda nega urdu tilini tanlaganligini aytib o'tadi: bu tilda shaklga emas, balki ichki ma'noga e'tibor berish kerak. Uning "Xushnoma" ("Baxt kitobi") (uch yuz ellik misradan iborat) va "Xushnag'z" asarlarida o'n yetti yoshli tarkidunyo qilgan xudojo'y qiz Xush haqida hikoya qilinadi.

Mironjiy 1496 yil vafot etgan. Mironjiyning o'g'li, yana bir mashhur so'fiy Burhoniddin Janamning tavallud va vafot etgan vaqti noma'lum. Bizgacha shoirning o'nta risolasi yetib kelgan. Ular orasida besh ming misradan iborat "Irshodnoma" masnaviysi, "Sukh Sahela" ("Baxtli Sahela"), "Kalimat-ul haqaiyiq" va bir ming olti yuz o'n misrali "Hujjat al-baqa" bor. "Irshodnoma" asari 1583 yil yaratilgan. Undan keyin "Kalimat-ul haqaiyiq" yozilgan. Shu asar Janamning oxirgi kitobi degan mulohazalar bor. Ularning barchasida Yaratganga muhabbat kuylanadi va ta'sirli she'riy tasvirlar bilan haqiqat siri ochiladi. U yaratgan tasavvufga oid she'rlar asosan dialog shaklida bo'lgan. Janam o'z ona tilisini gujriy deb bilardi Uning ijodida hindu she'riy an'analari asosida bitilgan she'rlar katta o'rin tutadi. Shu bois asarlarida tatsama va tadbhava so'zlarini ko'p qo'llaganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, Janam nasriy asarda orasiga she'r va qofiyadosh iboralar kiritgan.

Burhoniddin Janam 1582 yili vafot etgan. Burhoniddin Janamning o'g'li va Shoh Mironjiyning nabirasi Aminuddin A'la otasining vafotidan keyin, ya'ni hijriy 1007 yil ramazonning yigirma uchinchi sanasida (m.1594 y.) dunyoga keldi. Bolaligidan zuhdu taqvoga o'ta moyil Amin tasavvufga doir bir qator asarlar bitgan. Otasi o'z muridlariga farzandining tahsil-tarbiyasi haqida vasiyat qilgani bois o'sha davr mashhur xalifasi Mahmud Xush Dahan Aminni zohiriy va botiniy ilmlardan voqif qilishni o'ylaydi. Buning samarasi o'laroq Amin qodiriya va chishtiya silsilasiga oid shar'iy ko'rsatmalarni yaxshi bilgan.

Aminuddin o'zidan "Guftare Aminuddin", "Zahir o batin", "Sharhe kalimaye tayyib", "Kalimat-ul asrar" va "Ishqnama" kabi asarlarni qoldirgan. U she'riyat saltanatidagi shon-shuhratga "Ishqnama" (Muhabbatnoma) nomli qasidasi orqali erishdi¹³. Uning qofiya tizimi juda oddiy bo'lib, qofiyaning shakllantiruvchi element sifatida dohra shaklini qo'llagan.

Aminuddin A'la Chaokhandi Nagchhari degan joyda 1675 hijriy yilda vafot etgan va shu yerga dafn qilingan.

Tariqat yo'lida ijod qilgan bu shoirlarning dakhniyda yozgan asarlari adabiyotshunoslikdan ko'ra tilshunoslik jihatidan ko'proq ahamiyatga ega. Ular aholining katta qismini qamrab olishga harakat qilishgani uchun ham shaklan, ham mazmun jihatidan o'z muridlarining didi va aqliy qobiliyatlarini hisobga olishga majbur bo'lishgan. Shuningdek, ular ko'proq ommaga ma'qul bo'lishi uchun mahalliy shevalarga tegishli iboralar bilan bir qatorda hindu ma'budlari va hind mifologiyasining

¹³ نصیر الدین ہاشمی دکن میں اردو، نئی دہلی، ۲۰۱۶، ۷۵

mashhur qahramonlari nomlaridan ham foydalanganlar. Fikr-o‘ylari aholiga tushunarli bo‘lishi uchun Hindistonga oid mavzularda hikoyalar yozishgan. Bu orqali o‘sha davrda qat‘iy islom qonun-qoidalari hukmron bo‘lishiga qaramay, diniy bag‘rikenglik g‘oyalari ilgari surilgan edi.

XVII asr oxiriga kelib adabiyot yanada rivojlandi. Qudratli va badavlat Odilshoh hukmronlik davrida urduda qissayu dostonlar ko‘p yozilgan. Bunday asar mualliflari sirasiga Sulton Muhammad Odilshoh saroy kotibining o‘g‘li Kamol Xon Rustamiy kiradi. U 1649-yilda Ibn Husamning 1470-yilda yozilgan “Hovarnama” nomli forscha dostoniga o‘xshatma tarzda shu nomdagi asarini yaratgan. Bu asar Muhammad Odilshohning rafiqasi va Abdulloh Qutbshohning singlisi Hadicha talabiga ko‘ra yozilgan. 21000 misrali, eng katta hajmli dakhniyda bitilgan masnaviylardan biri hisoblangan bu asar forsiy namunasi kabi turli suratlar bilan bezatilgan. Rustamiy ba‘zi naqsh va bezaklarni Firdavsiyning “Shohnoma”sidagi Jamshid va Isfandiyorning o‘g‘li Bahman hikoyalaridan, ba‘zilarini esa hindu shoiri Chand Bardaining qahramonlik mavzusidagi she‘rlaridan olgan. Bundan tashqari, asarda mashhur eposlar , ayniqsa keng ommalashgan “Dostoni Amir Hamza” an‘analariga xos lavha va qahramonlar obrazi ham uchraydi. Bu hikoyalar mohiyatini saqlagan holda, muallif qahramonlar kurashlarini nisbatan sodda tilda tasvirlaydi: asosiy personajlar jasoratini maqtaydi va ularning yuksak qudratini chiroyli tasvirlab beradi. Voqealar tarixiy asosga ega emas, balki butunlay to‘qimadir. Asardan bir parcha keltirsak:

Yosh arab jangchisi Abul Mujam dushmani Sa‘d ibn Vaqqosni yakkama-yakka olishuvga chorlaydi, lekin keyinchalik ular birgalikda dunyo kezishga ahd qiladilar. Muhammad payg‘ambar Alini g‘ayridinlarga qarshi kurashda bu ikkisiga hamrohlik qilish uchun jo‘natadi va ularning barchasi baxtli bo‘lib uyga qaytadilar.

Rustamiyning zamondoshi Sulton Ibrohim II ning askarlari safida jang qilgan Mirzo Muhammad Muqimiy bo‘lgan. Ibrohimning vorisi Muhammad davrida u Nizomshoh va Qutbshoh davlatlariga elchi etib tayinlangan va Ali Odilshoh davrida ham e‘tibor qozongan. Muqimiy dakhniyda ijod qilgan shoirlar ichida birinchilardan bo‘lib, o‘z she‘rida o‘z davrida sodir bo‘lgan fojiani haqqoniy aks ettirgan. Muhammad Amin Atishning xuddi shunday forsiy asaridan keyin u “Qissai Chandarbadan-o Mahiyar” nomli masnaviysini yozadi. Unda Ibrohim Odilshoh davrida Madrasdan bir yuz o‘ttiz km shimolda joylashgan Kadrikotdagi voqea

tasvirlanadi¹⁴. Bu asar barchada qiziqish va shu bilan birga hayajon-iztirob hissini uygʻotadi:

Musulmon savdogar Mahyar hind rojasining qizi Chandarbadan (Oybadan)ni sevib qoladi. Chandarbadan Kadrikotga ziyoratga borgan paytda Mahyar unga oʻz sevgisini izhor qiladi. Rad javobini olgach, u tarkidunyo qilib, bir yil changalzorda yashaydi. Kelasi yili Chandarbadan yana ibodatxonaga kelganida, u oʻzini qizning oyoqlari ostiga tashlaydi, lekin Chandarbadan yana uni rad etadi va qanday qilib u shu paytgacha tirik ekaniga hayron qoladi. Tushkunlikka tushib, Mahyar oʻz joniga qasd qiladi. Ibrohim Odilshoh Mahyarni hurmat-ehtirom bilan dafn etishni buyuradi. Uning tobuti ortilgan arava Chandarbadanning uyi oldiga kelganda toʻxtab qoladi va joyidan qoʻzgʻalmaydi. Mahyarning hatto oʻlimidan keyin ham davom etgan muhabbatidan taʼsirlangan qiz islom dinini qabul qiladi va oq libosni kiyadi va tobutda Mahyarning yonidan joy oladi. Arava qabristonga yetib kelganida ikki jonsiz tanani bir-biridan ajrata olmaydilar. Ular birgalikda dafn etiladilar.

Sulton Muhammad Odilshoh davrida Hasan Shavqiy dakhniydagi qahramonlik eposida Dekanda birlashgan musulmon davlatlari Vijayanagarni mahv etgan Talikot jangini tasvirlaydi. Xuddi shu davrda, 1644 yilda Sanʼatiy 32000 misrali “Qissayi benazir” nomli masnaviyni yozadi. Uning mavzusi forsiy namunalardan olinmagan, balki barcha voqealar arab qahramoni Tamim-al Ansoriy tarixiga borib tutashadi. Arab dunyosida paydo boʻlgan bu hikoyalar hind musulmonlari orasida qisman janubda mashhur boʻldi. Sanʼatiy bu asarida dramatik va sarguzasht elementlarni yarata olmagan:

Tamimning rafiqasi xalifa Umarning oldiga boradi va eri uzoq vaqtdan beri qayerda ekanligi haqida xabar bermay, olis yerlarda yurganini aytadi. Shu sababli boshqa odamga turmushga chiqishga izn soʻraydi. Uzoq muhokamadan soʻng xalifa ruxsat beradi. Ayol yangi turmush oʻrtogʻi bilan uyga qaytgach, uning sobiq eri Tamim al-Ansoriy holsiz va kasalmand holda xalifa huzuriga kirib keladi. Ertasi kuni u boshidan oʻtkazganlarini soʻzlab beradi: maʼlum boʻlishicha, uni yomon jinlar olib ketishadi, lekin farishtalar qoʻshini Tamimni ularning changalidan ozod qiladi. Farishtalarning bekasi (boshligʻi) uni uchar otida oʻz uyiga olib boradi. U Tamimga uyga eltib qoʻyishi uchun qoʻl ostidagi jinlaridan birini beradi. Yoʻlda ularni chaqmoq uradi va Tamim sahroga qulaydi. U yerdan uni bir ulkan qush togʻdagi bir boqqa olib boradi. U

¹⁴ Annemarie Schimmel. Classical Urdu Literature. Otto Harrassowitz. Wiesbaden. 1975., P. 139

bog‘da bir meva yeydi, bu shunday meva ediki, kimki uni yesa, 40 kungacha ochlik nimaligini bilmaydi. U endi boshqa sahroga boradi. Sahroda unga yovuz jinlar hujum qiladi, lekin Tamim duo bilan ularni haydaydi va yo‘lida davom etib, ummonga yetib boradi. U o‘tirgan qayiq halokatga uchrab, u yana sahroga tushib qoladi. Olmos vodiysida u ajdarho hujumiga uchraydi, lekin farishtalar bekasi o‘rgatgan sehr yordamida uni daf qiladi. Chorasizlikdan u hatto o‘zini o‘ldirish haqida ham o‘ylaydi. Biroq uni bu yo‘ldan bir yosh yigit qaytarib qoladi. Ammo, u yigit ham qushga aylanib, Tamimni bir oroldagi qasrga olib borib, asirga aylantiradi. Bu qasrning har bir xonasini yovuz jinlar va maxluqlar qo‘riqlashardi. Jabroil farishta yordami bilan u tutqunlikdan qutuladi. Yo‘lda u haligi yosh yigitning sevgilisini topadi va uni islomni qabul qilishga undaydi. Yigitni esa iblisning ixtiyoriga topshiradi. Iblis Tamimni qayig‘i parchalanib yotgan qoya oldiga olib boradi. Yo‘lda u yana to‘rtta farishta bilan birgalikda shahidlar qasriga boradi. Oxirida esa u Xizr payg‘ambarni uchratadi. U Tamimga bulutda uchib, uyiga qaytishiga yordam beradi.

Ko‘zi ojiz bo‘lgan Miron Hoshim dakhniyda nodir she‘rlar yozib qoldirdi. U Muhammad payg‘ambarning nabirasi Husaynning Karbalo jangida ko‘rsatgan qahramonliklari haqida madhiya yaratgan. Bu asardan qahramonlarning dialoglari joy olgan. Uning devoni ancha keng qamrovli. Hoshim dakhniy adabiyotiga Qur‘ondagi “eng go‘zal hikoya” deb atalgan “Yusuf va Zulayho”ni olib kirgan. U taxminan olti ming banddan iborat bo‘lib, unda muallif Zulayhoning nutqida qo‘llagan she‘riy tasvirlar tufayli ko‘p adabiy tanqidchilar Hoshimni “rextining asoschisi” deb atashadi. Chunki, aynan u birinchi marta she‘riy tasvirlashda bu ifodani qo‘llagan edi. Oradan o‘n yil o‘tib, gujarotlik Mir Ali Amin Zulayhoni hurmatga loyiq hind ayoli sifatida ta‘riflaydi. Undan deyarli yarim asr ilgari Jomiyning “Yusuf va Zulayhosi”dan keyin boshqa bir sevgi qissasi Odilshoh davrining sevimli shoiri Malik Xushnud tomonidan yaratilgan edi. Xushnud Amir Xusravning forsiy dostoni “Hasht bihisht”ni (6500 band) dakhniyga moslashtiradi. Asarga bosh qahramon nomini beradi. Xushnudning “Bahrom” asarida qo‘llagan uslubi ham ancha murakkab.

Bijopur sultonligining so‘nggi davrida eng taniqli shoir, shuningdek, Ali Odilshohning sevimli shoiri bo‘lgan karnataklik Mulla Muhammad Nusratiy bo‘lgan. Unga asosiy shuhrat keltirgan asari “Gulshane ishq” nomli masnaviysi 1657 yilda yaratilgan. U hindularning mashhur Manohar va Madhumalati sevgi qissasini qalamga olgan.

Sakkiz ming misradan iborat asarda ilohiy elementlar juda ko‘p uchraydi. U oddiy so‘zlashuv tilida yozilgan. Undagi hindu asotirlarining turli bo‘yoqlar bilan tasvirlanishi (Phalgun oyidagi bog‘, yomg‘irlar mavsumi, to‘lin oy ostidagi bog‘ va h.k.) hindu she‘riyatiga xos unsurlar bo‘lib, shoir ularni metaforalar bilan boyitadi. Fors adabiyoti uchun xos bo‘lgan bulbul o‘rniga hind kakku qushi qo‘llangan, fors atirguli o‘rnini hindcha gullar ifori egallagan. Fors bog‘larining alvon anorlari o‘rnini esa papaya va mango mevalari olgan. Nusratiyning hindu an‘analariga bog‘lanib qolganini ko‘rsatuvchi jihati shundaki, Madhumalati o‘zining ishqiy hissiyotlarini ochiq bayon qiladi. Kalidasning “Meghadut” asaridagi kabi ayriliqdan azoblanayotganini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Faqat erkaklarga ishq azobida “yonib kuyishini” erkin ko‘rsatish mumkin bo‘lgan islom an‘analari uchun ayollarning bunday fe‘l-atvori albatta, biroz g‘alati.

Ko‘p yillar farzandsizlikdan qiynalgan Kanaknagarning rojasi tariqat yo‘liga kiradi va unga o‘g‘il farzand ato etiladi. Manohar (shahzoda) o‘n to‘rt yoshga yetganda farishtalar uni Maharasnagar rojasining saroyiga olib boradilar. U yerda u rojaning qizi Madhumalatini ko‘rib, sevib qoladi. Ertasi kuni tongda yana o‘zining saroyida uyg‘onadi (farishtalar uni qaytarib o‘z saroyiga olib kelishgan edi) va malikani izlashga kirishadi. Safari davomida u Champavati ismli malikani iblis qiynoqlaridan ozod qilib, ota-onasi bag‘riga qaytaradi. Champavatining onasi minnatdor bo‘lib, ikki sevishganlar- Manohar va Madhumalatini uchrashtiradi. Madhumalatining onasi ularni birga ko‘rib, jahl ustida o‘z qizini qushga aylantirib qo‘yadi. Xuddi shu paytda ov qilib yurgan Chandar Sen ismli yana bir shahzoda uni tutib oladi va qizning boshdan kechirganlarini eshitib, Madhumalatini ota-onasi oldiga qaytarib olib boradi. Jodu kuchini yo‘qotgach, Manohar bilan Madhumalati va Chandar Sen va Champavati turmush quradilar.

Nusratiy Ali Odilshoh hukmronligining dastlabki o‘n yilligini aks ettiruvchi “Alinoma” tarixiy asarini yozishga ko‘rsatma oladi. Bu she‘riy tarjimayi hol dakhniydagi dastlabki she‘riy biografiya hisoblanadi¹⁵. Nisbatan qisqaroq masnaviy “Tarixi Sikandar” uning mantiqiy davomidir. U Alining o‘g‘li va vorisi Sulton Iskandar haqida yozgan. Ikkala asar ham lashkarboshi Shivaji ustidan g‘alaba va Dekan uchun Qutbshohlar bilan bo‘lgan kurash tasvirini o‘z ichiga oladi. Ular hindu qahramonlik qo‘shiqlari (virgatha) an‘alariga amal qilgan holda, shimoliy

¹⁵ Annemarie Schimmel. Classical Urdu Literature. Otto Harrassowitz. Wiesbaden. 1975., P. 144

Hindistondagi dastlabki davr dostonchiligi uslubida yozilgan. Lekin, ulardagi harbiy yurishlar, janglar va g'alabalarning haqqoniy tasvirlanishi XVII asr Dekan adabiy uslubidan dalolat beradi.

Nusratiyning fors va hind adabiyoti elementlarini uyg'unlashtirish qobiliyati ayniqsa, uning podshohga bag'ishlangan va uning qasida, g'azal va to'rtliklari kiritilgan "Guldastaye ishq" she'riy to'plamida aniq ko'zga tashlanadi. Shoirning o'zi ham ikki tomonlama qiziqishi va qobiliyatini yaxshi bilgan va u yaratgan asarlarda har ikki adabiyotga xos bo'lgan go'zal jihatlarning sintezini ko'rish mumkin.

Dakhniy badiiy mavzulari va ifoda uslublari Nusratiyning katta dostonlaridan ko'ra "Me'rojnoma" kabi dastlabki ijod namunalarida yaqqolroq namoyon bo'lgan. Muhammad Odilshoh davrida yozilgan bu masnaviyda u bijopurlik diniy ulamolar kabi so'fiylik an'analarini davom ettiradi.

Agar Odilshoh va Qutbshohlar sulolasidan chiqqan hukmdorlarning o'zlari ham iqtidorli shoir bo'lmaganida, dakhniy she'riyati rivojlanishda bunday natijalarga erishmasligi aniq edi. Ali Odilshoh ham dakhniyda she'r yozgan, lekin bijopurlik hukmdorlar orasida Ibrohim ancha mashhur bo'lgan. Dono va teran fikrli Ibrohim hindular san'ati va qisman musiqasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lgan. Hindularning adabiy va musiqiy an'alaridan ilhomlanib u "Navras" ("Turfa musiqiy uslublarda tasvirlangan to'qqiz hissiyot") asarini yaratgan. Unga Zuhuriy o'zining mashhur forsha muqaddimasini yozgan. Navras turli holatlar uchun yozilgan ellik to'qqizta dostonning jamlanmasi bo'lib, hukmdor uni juda yoqtirgan. Dostonlarda hatto hindular ma'budlariga maqtovlar va hindu diniy marosimlari tasviri ham keltirib o'tilgan. Butun asar Sulton Ibrohimning hindular musiqa tizimini juda yaxshi bilganini isbotlaydi. Hatto Sulton uchun Shayx Abdul Karim ibn Sayx Farid Ansoriy "Javohiri musiqati muhammadi" nomli asar ham yaratgan. U shuningdek, she'riy qoidalar, vaznlar va mumtoz hind adabiyotida tasvir vositalariga oid asarlar ham yozgan. O'z qo'shiqlarida sanskrit, marathiy, braj va rajasthaniy shevalaridagi so'zlardan foydalangan va shu orqali o'z ijod namunalarini mahalliy an'alarga moslashtirgan. Zero forsiy adabiyot afsonaviy qahramonlarini tasvirlash undan forsha so'zlardan foydalanishni talab etardi. Tasavvufga oid mavzular uchun esa arabcha atamalardan iste'foda qilish zarur edi.

Golkonda sultonligi davrida urdu (dakhniy) adabiyotining rivoji

Tayanch soʻzlar va iboralar: gʻazal, toʻrtlik, marsiya, dakhniy, fors va turk tillari, qutbshohlar, bahmaniy saltanati, tashxis, pand-nasihat, ishq, shevalar, aql, eram bogʻi, vajahiy, kuliyot, toʻtinoma, gʻavvosiy

Darsning maqsadi: Oʻrta asrlarda Golkondada rivoj topgan urdu adabiyoti, uning vakillari va ular ijodining oʻziga xos jihatlari

Golkonda sultonligi markaziy Hindistondagi musulmon sultonliklaridan biri boʻlib, 1518 yilda Bahmaniy saltanati parchalanishi bilan shakllangan Dekanning ikkinchi yirik saltanatidir. Unga Qora Quyunli deb atalmish turk qavmidan boʻlgan Qutbshoh sulolasi hukmronlik qilgan.

Qutbshohlar hokimiyati asoschisi sulton Quli Qutbshohdan keyin yetti avlod bu saltanatga hukmronlik qilgan. 1678 yili Avrangzeb Olamgir uni fath etib, boburiylar saltanatiga boʻysundirgan.

Sulton Quli 1544 yili qatl qilinadi, uning oʻgʻli Jamshid taxtni egallaydi va yetti yildan soʻng vafot etadi. Uning vafotidan soʻng Subhon Quli va Ibrohim Qutbshohlar taxtga oʻtiradilar. Ayniqsa, Ibrohim Qutbshoh davrida Golkonda ilm-maʼrifat markaziga aylanadi. U hokimiyatni nafaqat siyosiy-joʻgʻrofiy jihatdan kuchaytirdi, balki Golkondada ilmu fanning rivojiga katta gʻamxoʻrlik qildi. Sultonning oʻzi sheʼriyatga taʼbi bor, oʻta iqtidorli, arab, fors va turk tillaridan tashqari mahalliy tillarni bilgan.

Sulton Ibrohim yigirma yil hukmronlik qilgach, 1580 yilda qazo qiladi va uning farzandi Muhammad Quli Qutbshoh taxtni egallaydi. Bu davr qutbshohlar hukmronligining eng yorqin davri hisoblanadi. Sababi, bu paytda hukmdor muhtasham binolar, keng bozorlar qurilib, yam-yashil bogʻlar, suvlari sharqirab oqayotgan anhorlar, ariqlarni bunyod qildirdi.

Sultonning oʻzi ham dakhniyda sheʼr bitar, Qutb, baʼzan Maoniy taxallusi bilan ijod qilgan va koʻpgina tanqidchilar tomonidan dakhniy urdudagi dastlabki nosir deb tan olingan. Uning vorislari - Muhammad va Abdulla ham dakhniy va forsiyda qalam tebratgan taniqli shoirlar boʻlgan. Ilmli va bagʻrikeng hukmdor boʻlgan Ibrohimning boshqaruv davrida mamlakat hududlari kengaygan va hindular va musulmonlar orasida munosabatlar yaxshilangan. Hindular saroyda yuqori lavozimlarni egallashdi va ularga avvalgi musulmon shohlar davrida taʼqiqlangan Holi va Divali kabi bir qancha hindu diniy bayramlarini nishonlashga ruxsat

berildi. Maoniy uch tilda ijod qilgan: urdu, fors va telugu. U forsiydagi barcha she'riy uslublarni o'rgangan va ularni dakhniyda qo'llagan. Urdu adabiyotidagi dastlabki muallif sifatida u she'rlarini forsha uslubda devonga jamlagan: qofiyadosh harflarni alifbo ketma-ketligiga ko'ra joylashtirgan. "Kulliyot" bir ming sakkiz yuz betdan iborat bo'lib, ularning yarmidan ortig'i g'azal, yuzdan ortiq sahifasida qasida, uch yuz o'ttiz olti betidan masnaviy, qolganlari marsiyalar va bir qancha to'rtliklardan tarkib topgan. Maoniy urduda ilk marta g'azali musalsal, ya'ni bandlari bir mavzuda bo'lgan g'azal bitgan shoir hisoblanadi. Boshqa hukmdor shoirlardan farqli tarzda Maoniy forsiydan ko'ra hindcha badiiy lavhalardan ko'proq foydalangan. Uning she'rlarida taomlar, kiyimlar, fillar va hk. haqida izohlar berilgan. U Hindiston tabiati va odamlarining odatlari haqida kuylagan. Hindu va musulmon bayramlarining rangli tasvirlaridan tashqari, "Kulliyot" da biz mahalliy an'analarga hamohang tarzda yil fasllari, ayniqsa yomg'irlar mavsumi haqidagi she'rlarni uchratishimiz mumkin. Maoniy ravon va sodda tilda yozgan va yuqori qatlam vakili bo'lishiga qaramay, ko'pchilik uni urdu adabiyotidagi birinchi xalq shoiri deb ataydi. Ishqiy she'riyatida ham u oldinga katta qadam tashlagan. Uning she'rlarida ayollarga bo'lgan sevgi avval bo'lgani kabi yaratgan visoliga bo'lgan intilish ortiga berkitilmaydi, balki ancha oshkora va ochiq bayon etiladi:

Mening ko'zlarim bir qizning qora yuziga tushdi,
Va butun olamni unutdi.
Sarvdek qomati o'ziga jalb qiladi,
Mayoqlar menga oy nuridek tuyuladi.
Shamol kabi tezlik bilan qo'llarim belini quchadi
Nozik beli esa quyosh va oy kabi nur sochadi.

Mulla G'avvosiy. Mulla G'avvosiy sulton Muhammad Quli Qutbshoh davrida she'riyat osmoniga chiqqan bo'lsa, uning o'g'li sulton Abdulla zamonasida yulduzi yanada porladi. Bu shoir haqida adabiyotshunoslarning bir-biriga zid turfa fikrlari mavjudligini aytish kerak. Saxovat Mirzoning yozishicha, uning to'liq ismi shayx Husayn Bahouddin bo'lgan. Ammo, olim Jamol Sharif bunga raddiya bildirib, "G'avvosiyning ismi" nomli maqolasida "uning kunyasi abu Muhammad edi", deb yozadi. Buni u quyidagicha asoslaydi: u o'rgangan qadim bir bayozda bir ruboiy tagida abu Muhammad muallif sifatida yozib qo'yilganini ko'rgan. Bu ruboiy G'avvosiyning chop etilgan kulliyotida

bor. Dekan shoirlari ijodini chuqur o'rgangan olim Nasiruddin Hoshimiyning yozishicha, ba'zi shaxslar G'avvosiyning ismini Bahouddin deb biladilar, ammo bu hali o'z tasdig'ini hech qayerda topmagan“ deb yozadi. Umar ibn-ushshamiyning hanafiyya fiqhiga bag'ishlab yozgan “Nasab-ul ehtisab“ arabcha asarining kotibi G'avvosiyning o'zi bo'lib, bu kitobni nasx o'rniga nasta'liqda yozgan. Bunda G'avvosiyning ismi Shayx Husayn Bahouddin, laqabi G'avvosiyy, kunyasi abu Umar va taxallusi G'avvosiyy yozilgan. Bu asarning tarqimasida bor. Shoir o'z laqabini taxallus o'rnida qo'llagan.

Adabiyotshunos olim Zo'ring „Urdu shehpere“ asarida yozishicha, G'avvosiyy Ibrohim Qutbshoh davrida tug'ilgan. Mulla G'avvosiyy o'ta kuchli iqtidor egasi bo'lgan. Uning ijodi asta-asta avj pardasiga ko'tarilib, yulduzi balqiy boshlaydi. U devonini tuzishga kirishadi. Ko'plab g'azallarini sulton Muhammad Quli Qutbshoh g'azallariga tazmin qilib yozgan. Sulton Abdulla davrida saroy shoiridek katta mansabga tayinlanadi. Sulton ham shoirona tabiat egasi bo'lib o'z davrining shoiru fuzalolariga izzat-ikrom ko'rsatadi. Bundan ular yanada zavq-shavq ila ijod qila boshlaydilar. G'avvosiyy o'zining “To'tinoma“ sida sulton Abdulla shaxsini ko'klarga ko'taradi va Muhammad Qutbshoh zamonasida shoirlar go'shanishin bo'lib qolgan bo'lsa, sulton sharofati ila go'yo ular ikkinchi hayot topdilar.

G'avvosiyy yosh jihatdan mulla Vajahiydan kichik edi. Muhammad Quli davrida Vajahiy katta obro'-e'tiborga ega bo'lsa, sulton Abdulla davrida G'avvosiyning baxti kuldi. „Qutb Mushtariy“da ikki shoir o'rtasida kechgan ziddiyatni ko'rish mumkin.

G'avvosiyy chishtiya silsilasiga mansub bo'lib, uning taxallusi oldidan keladigan “Mulla“ so'zi uning dindor va taqvodor bo'lganiga ishoradir. Adabiyotshunos olim Zo'r va Saxovat Mirzo G'avvosiyning murshidi Sayyadshoh abul Hasan Haydar bo'lgan, ular hazrat Gesudarozning nabiralari bo'lgan, deb yozadilar.

Mulla G'avvosiyy o'zini she'r maydonida sher deb hisoblar, o'z zamondoshlarini esa hech deb bilardi. Bunday g'urur hissi uning she'rlaridan aniq sezilib turadi. Gap shundaki, G'avvosiyning obro'-e'tibori borgan sari ortib borar, uning ixlosmandlari doirasi yana ham kengayib borardi.

Bijopur sultoni Muhammad Odilshoh o'z vaziri Xavosxonning takabburligidan bezor bo'lib, Golkonda hukmdoridan yordam so'raydi. Shunda sulton Abdulla nafaqat Malik Xushnudni, balki G'avvosiyni ham unga qo'shib, Bijopurga elchi qilib jo'natadi. Shoir o'z yurtiga

qaytayotganida hukmdor unga hadya tariqasida bir juda katta fil, oltita iroqi ot, duru javohirlarga to'la ikki sandiq bilan jo'natadi.

G'avvosiy Sulton Abdullaga bag'ishlab "Saif ul-Muluk va Badi ul-Jamol" nomli o'n to'rt ming misradan iborat masnaviy yozgan. U asarni bir oyda yozib tugatganligi aytiladi, lekin bu o'z isbotini topmagan. "1001 kecha"dan olingan mavzu asosida u shahzoda Saif ul-Muluk va malika Badi ul-Jamolning sevgi qissasini tasvirlaydi. Asar mavzusi va tilining soddaligi xalq og'zaki ijodidan - ertak ekanligidan dalolat beradi. Butun kitob davomida Qutban, Mangan va Muhammad Malik Joiziy kabi hind shoirlarining ta'siri sezilib turadi. Hindcha va sanskritcha so'zlardan tashqari G'avvosiy marathiy, telugu va kannaradan olingan iboralarining ba'zilarini o'z holicha, ba'zilarini esa o'zgartirgan holda qo'llaydi. Garchi u Hindiston tabiati, shaharlari va ummonini mohirlik bilan tasvirlagan bo'lsa-da, uning hikoyalarining mazmuni mavzuning G'arbiy Osiyoga tegishli ekanligini ko'rsatib turadi.

Qadim zamonda Misrda bir Asim Naval ismli shoh yashagan bo'lib, u befarzand edi. Munajjimlar unga Java qirolining qiziga uylanishni maslahat berishibdi. Ularning so'zlariga kirib, shoh malikaning qo'lini so'rash uchun ko'p sovg'a-salomlar bilan elchilarni jo'natibdi. Java qirol rozilik beribdi va to'y marosimi o'tibdi. Tez orada shohning xotini o'g'il tug'ibdi va unga Saif ul-Muluk deb ism qo'yishibdi. Xuddi shu kuni vazir ham o'g'il ko'rib, uni Sa'd deb atabdi. Bolalar birga ulg'ayishibdi va ajralmas do'st bo'lishibdi.

Bir kuni shoh o'g'lini yoniga chaqirib, Sulaymon shoh tomonidan tuhfa etilgan zarrin kiyimlar, uzuk va tulporni unga sovg'a qilibdi. Kechasi shahzoda harir libosdagi bir qizning suratini ko'radi va uni sevib qoladi. Shoh bu jannatliy Eram bog'ining hukmdorining qizi Badi ul-Jamolning surati ekanligini aytadi. Shahzoda o'z yorisiz yasholmasligini anglab yetadi va xizmatkorlarini Eram bog'ini izlashga jo'natadi. Bir yildan keyin ular chorasiz bo'lib ortga qaytishadi. Ishq dardida shahzoda kundan-kunga so'lib borardi. Oxiri u vazirning o'g'li bilan dunyo kezib, Eramni o'zlari topishga ahd qilishadi.

Ular kemada uzoq suzib, Xitoyga yetib borishadi. Qirol ularni iliq qarshi oladi va maslahatlar beradi. Konstantinopolga ketishda ularning qayig'i bo'ronda halokatga uchraydi; shahzoda Afrikadagi qora tanli odamlar orasiga tushib qoladi. Odamxo'rlar malikasi avvaliga uni pishirib yemoqchi bo'ladi, lekin unga rahmi kelib, uni zindonga tashlashni buyuradi. Shahzoda u yerdan qochib ketadi. U bir necha orollardan o'tib Kaissariyaga borib qoladi. U yerda faqat maymunlar yashar va birgina

odam ularni boshqarar edi. Bir qancha sarguzashtlardan keyin saroyga yetib boradi, bu yerda bir go‘zal qiz uyquda yotardi. U qizni jodudan xalos etadi. Qiz unga Singal qirolining qizi ekanligini va ikkita singlisi borligini aytadi. Kunlardan bir kuni ulkan qush uni changalida shu saroyga olib kelib, sehrlab qo‘yganini gapirib beradi.

U qiz Eramning qayerda ekanligini bilardi va hatto Badi ul-Jamolni ham tanirdi. Sulaymonning uzugi yordamida Shahzoda malikani sehrlagan jinni o‘ldiradi va uni Singalga olib boradi. Shu paytda Badi ul-Jamol ham Singalga keladi va Saifni sevib qoladi. Lekin Qulzumdan kelgan choparlar Saifni asir olishadi va olib ketishadi. Malika otasini Qulzumga hujum qilishga undaydi. Saif ozod etiladi va to‘y bo‘ladi. Sa‘d ham Singal malikasiga uylanadi va hammalari Misrga qaytishadi.

G‘avvosiy asarni juda jo‘n va sodda tilda yozganligi uchun “Saif ul-Muluk” Janubiy Hindistonda keng tarqaladi va bir qancha hind tillari - panjob, sindhiy, pushtu va bangoliy kabi tillarga tarjima qilinadi. G‘avvosiy 1640 yilda Ziyovuddin Nahsabiyning asari (sanskritdagi “Sukasaptati” ertagining forsiy namunasi) asosida “To‘tinoma” asarini yozadi. Unga yana mayna haqidagi hikoyaning she‘riy nusxasi deb ham ta‘rif berilgan. “To‘tinoma”ni tugatganidan keyin G‘avvosiy saroy ishlaridan yiroqlashadi. Asar oxirida aytganidek, “o‘zi istagan hamma narsaga erishdi va bundan keyin umrini ibodatga sarflamoqchi” bo‘ladi. Ammo, uning yetarli darajada muvaffiqatga erishmaganligi ham aytiladi. Bunga sabab esa uning diniy qarashlari bo‘lgan. Asosiy saroy lavozimlarini hindular egallagani uchun uning bunday fikrlari uncha iliq qarshi olinmagan. O‘z devonida u saroydagi po‘raxo‘rlik bilan birga boshqa qavm vakillari ustunligiga qarshi ekanligini ochiq-oydin yoritgan.

G‘avvosiyning zamondoshi Mulla Vajahiy to‘rtta Qutbshoh hukmdor davrida yashagan. U Ibrohim Quli hukmronligida saroyga kelgan. Uning vorisi Muhammad Quli boshqaruvi paytida shohning shaxsiy shoiri bo‘lgan. Abdulloh davrida u o‘zining eng mashhur nasriy asarini yozgan. 1609 yilda u hukmdorning buyrug‘i bilan shohning sevimli ishqiy sarguzashti bo‘lgan “Qutb Mushtariy”ni masnaviy shaklida qayta yozadi. U ikki ming misrali mutaqorib vaznida yozilgan bo‘lib, ba‘zan g‘azal va to‘rtliklar uchrab turadi. Barcha qahramonlarga yulduzlarning nomi berilgan. Masnaviy odatdagidek, forsha va arabcha so‘zlarga boy bo‘lib, Allohga va Payg‘ambarga hamd va na‘t va podshohga maqtovlar bilan boshlanadi. Undan keyin muallif qahramonlar sarguzashtlari va o‘zining jonajon yurti Dekanni va uning go‘zalligini serjilo qilib ta‘riflaydi. U

oddiy so‘zlashuv tilida yozgan - sanskrit va mahalliy shevalardan olingan so‘zlar urduning grammatik qolipiga osongina tushirilgan:

Yoshlik paytida shahzoda Qutb ziyofatda qatnashadi va dabdabali kechki ovqatdan so‘ng uxlab qoladi va tush ko‘radi:

Bir kuni qirol majlis qilibdi. Unda barcha vazirlarning o‘g‘illari qatnashibdi. Ularning barchasi kelishgan, ko‘rkam edi. Jangda Jamshiddek qo‘rqmas, jasurlikda Rustamdan qolishmas edi. A‘yonlar va xonandalar, donolar va ilm ahli hammasi qirol bilan birga edi. Qadahlarni qo‘lga olib amaldorlar suhbat qurishardi. Xonandalar kuy boshlaganda, olam quvnoq qo‘shiqqa burkandi...

Shu tushida Qutb go‘zal qizni ko‘radi va u bilan uchrashishni istaydi. Donishmandlarning maslahatiga ko‘ra shahzodaning otasi Utorid ismli rassomni chaqiradi va u Qutbga Bengal malikasi Mushtariyning suratini ko‘rsatadi. Musavvir bilan birgalikda u Mushtariyni izlab yo‘lga chiqadi. Uni hech kim to‘xtatib qololmaydi. Yo‘lda u Mushtariyning singlisi Zuhra unashtirilgan Mirrix Xon bilan uchrashib qoladi. Lekin u iblisning changaliga tushib qolgandi. Qutb iblislarni o‘ldiradi va Mirrix bilan birga yo‘lida davom etadi. Malika Mohtob Qutbni o‘z uyiga chorlaydi. Bu paytda musavvir Bengalga yetib boradi va saroyda shahzodaning suratini chizadi. Mushtariy uni bir ko‘rishda yoqtirib qoladi. Qutb ham Bengalga yetib boradi va Mushtariyga uylanadi. Mirrix esa Zuhra bilan turmush qurib, Bengalga hukmdor bo‘ladi. Mushtariy va Qutb esa Golkondaga qaytishadi.

Bu dostonda biron tarixiy haqiqat yo‘q, chunki Muhammad Quli hech qachon Bengaliyaga bormagan.

Bengal malikasiga bo‘lgan sevgi mavzusi uning raqqosa qiz Baghmatiga bo‘lgan sevgisiga ishora, degan fikrlar ham bor. Hatto ayrimlar Muhammad Quli yangi poytaxt - Haydarobod nomini uning sharafiga qo‘ygan, degan fikrni ilgari surishadi. Lekin ikkala fikr ham xato: shahar to‘rtinchi xalifa Ali Haydar sharafiga nomlangan. Baghmati ismi esa hatto uning devonida aytib o‘tilgan o‘n yettita sevimli rafiqasi orasida ham yo‘q. “Qutb Mushtariy” qaysi sabab bilan yozilgan bo‘lmasin, iroda va jasorat namunasi bo‘lgan shoh shu orqali o‘zining sevgi kechinmalarini qalbidan o‘tkazib, tasalli topgan.

Mulla Vajahiyning hozirgacha nashr qilinmagan “Taj ul-haqayiq” masnaviysi hozirgacha yetib kelgan asarlari orasida juda kam qiziqishga sabab bo‘lgan. Vajahiyning eng qadrlanadigan ijod namunasi “Sab Ras” qofiyali nasr shaklida yozilgan va bazan orada she‘rlar ham uchrab turadi. Bu asari uchun mavzuni fors shoiri Fattohiy Nishopuriyning

sheʻridan namuna oladi. Nishopuriy “Husn va dil” dostonida inson tana aʻzolarini jonlantiradi, yaʻni tashxis sanʻanidan foydalangan.

“Sab Ras” urdu adabiyotidagi ilk haqiqiy nasriy asardir. Yuqorida taʻkidlanganidek, avvallari nasrda faqat diniy-tasavvufiy asarlar yaratilgan. Ularning mualliflari faqat ilmiy asar yozilish uslubidan xabardor boʻlib, ulardan tasavvuf gʻoyalarini targʻib qilishda keng foydalanishgan. Ular bir paytning oʻzida shoir, faylasuf, tarixchi, tabib va tariqatchi boʻlishgan; ilmga va sanʻatga oid asarlar orasida aniq chegara mavjud emas edi: shuning uchun diniy va ishqiy munosabatlar aralashgan asarlarda ham aniq, ham ijtimoiy fanlarga oid maʼlumotlarni koʻrishimiz mumkin. Mulla Vajahiy berilgan mavzuni oʻz didi va estetik qarashlariga va oʻsha davr talablariga moslashtira olgan. Hikoya markazida “Aql” va “Ishq” oʻrtasidagi jang yotadi; bunga hamohang tarzda ularning farzandlari - “Dil” va “Husn” orasidagi munosabatlar ham rivojlanib boradi. Hikoya mazmuni quyidagicha:

Sistan shohi Aqlning Dil ismli oʻgʻli boʻlib, u Tana mamlakatini boshqarardi. Shahzoda bir kuni Hayot suvi haqida oʻqib qoladi va vaziri Nazarni uni olib kelishga joʻnatadi. Vazir Ofiyat shahrining hokimidan bu haqda soʻraydi. Hokim unga bunday suv mavjud emasligi va u inson ulugʻvorligining bir ramzi ekanligini aytadi. Keyinroq Zuhd togʻidagi tarkidunyo qilgan donishmand unga bu suv faqat Jannatdan topilishi mumkinligi va u faqat Xudoga muhabbati boʻlgan insonning koʻz yoshidan paydo boʻlishini tushuntiradi. Vazir uzoq yurib shoh Himmatning boshqaruvidagi Hidoyat qasriga yetib keladi. Himmat unga Hayot suvi Qof togʻi ostidagi Ruxsor bogʻida buloqdan otilib chiqishini aytib, ukasi Qomatga xat yozib beradi. Lekin, vazirni yoʻl juda xavfli ekanligi va pistirmada iblis Raqib kutib turishidan ogohlantiradi. Raqib uni qopqonga tushiradi va Sagsar mamlakatiga joʻnatadi. Reja yordamida Nazar qochib ketadi va Ruxsor bogʻini topadi. U yerda tasodifan malika Husnning xizmatkori Lotni uchratib qoladi. Bogʻni qoʻriqlovchi Gʻamza uni tutib olib zindonga tashlaydi. Biroq Nazarni oʻzining akasiga oʻxshatadi va uni malikaning oldiga olib boradi. Malika unga shahzoda Dilning surati tushirilgan olmosni koʻrsatadi. Nazar unga shahzodani albatta olib kelishga vaʼda berib, Hayot suviga yetib boruvchi yoʻlni soʻraydi. Husn unga sehrli uzugini va xizmatkori Xayolni qoʻshib beradi. Ikkalasi ham Tana mamlakatiga qaytishadi. Lekin, Aqlning vaziri Vahm Dilni va Nazarni zindonband qildiradi. Nazar sehrli uzuk yordamida koʻrinmas boʻlib, qochib ketadi va Hayot suvini topadi. Yana bir marta Raqibning changaliga tushadi, lekin moʻjiza tufayli qutulib ketadi. Ishq

bilan dastlabki jangdagi mag'lubiyatdan keyin, Aql o'zining sarkardasi Sabrning yordamida bu safar g'alaba qozonadi. Yakunda qahramonlar Xizrnı uchratishadi va u ularga haqiqat sirini ochadi va xunrezlik niyatidan qaytishga undaydi. Aql va Ishq do'stlik o'rnatgach, Dil va Husn turmush quradi va farzand ko'radilar...

Asarning qolgan qismida pand-nasihat ruhidagi fikrlar keltirilgan. Bu asarning katta shuhrat qozonishining sababi shundaki, muallif muhim falsafiy va axloqiy muammolarni antiqa usulda hal qiladi. Tashxis vositasida muallif hukmdorlarga o'z hislarini jilovlashi kerakligi va aqlari buyurgan yo'lda odamlarga foyda keltiradigan ishlarni qilishi kerakligini ko'rsatadi. Aqlni hammadan ustun qo'yish o'sha davrda juda urf olgan, chunki Hindiston yuzlab kichik mamlakatlarga bo'linib ketgan va ularda doimo o'zaro nizolar kelib chiqardi. Vajahiyning bayon uslubi, boy tasviriy ifodalari uzoq vaqt go'zallik namunasi deb hisoblangan. Urduda "Sab ras" ga o'xshatma yozmoqchi bo'lgan yozuvchilar uning uslubidan foydalanishgan.

XVII asr urdu adabiyoti vakillari

Tayanch ibiralar: Dekan Ibn Nishotiy Phulban Phulban doston Avrangzeb Golkonda mo'jizaviy hodisalar Qissayi Kamrup Quli Qutbshoh dakhniy Boburiylar Fors she'riyatida.

Darsning maqsadi: XVII asr urdu adabiyoti rivojiga alohida xissa qo'shgan adiblar ijodi, ularning asarlarining tili, uslubi va mavzular ko'lami haqida ma'lumot berish.

O'zi ham yaxshigina shoir bo'lgan Abdulloh Qutbshoh davrida Muhammad Mazharuddin ibn Nishotiy ijodi mashhur bo'lgan. Uning hayoti haqida bizda deyarli ma'lumot yo'q. Uni mashhur qilgan "Phulban" masnaviysidir. 1655 yilda yozilgan bu ishqiy afsona shohga atalgan dakhniy she'riyatining marvaridi hisoblanadi. U uch ming besh yuz misradan iborat bo'lib, ana'anaviy tarzda ilohiy voqealarga to'la. "Phulban" yo'qolib ketgan "Basotin" asosida yaratilgan. (Uni XV ??? XIVasr o'rtalarida Muhammad Tug'loq hukmronligi davrida Ahmad Zubayriy yozgan). Ibn Nishotiy XVII asrdagi Dekan hayotining jonli va ishonchli tasvirini beradi; shuning uchun uning asari faqat badiiy jihatdan emas, shuningdek, tarixiy manba sifatida ham ahamiyatga ega. Muqaddima qismi oxirida har doimgidek madhlar bilan birga vafot etgan shoir ajdodlarini ham yodga oladi. Bir necha yillardan keyin yozilgan

xotimasida aytishicha, u avval bir qancha nasriy asarlar yozgan (hech biri bizgacha yetib kelmagan), “Phulban” esa uning she‘riyatdagi ilk asari bo‘lgan. Yoqimli va ravon tili tufayli u mashhur bo‘lib ketgan.

Ibn Nishotiyning yoshroq zamondoshi Tabiiy 1670 yilda Nizomiyning “Haft Paykar”iga o‘xshatib “Qissayi Bahram o Gulandam” nomli masnaviy yozadi. Xuddi shu mavzuga undan oldin 1620 yilda bijopurlik Amin “Bahram o Banu Husn” asariga va 1639 yilda Davlat o‘z dostonida qo‘l uradi. Biroq Tabiiyning asari haqiqiy va mukammalroq. U dostonni 40 kunda yozib tugatgan degan taxminlar ham bor. Tabiiy Vajahiyga juda ixlos qo‘ygan va hatto ulug‘ shoir o‘zining tushiga kirganini ta‘kidlaydi. Uning tushida Vajahiy Tabiiyning uncha murakkab bo‘lmagan tilda yozilgan fors shohi Bahrom Go‘rning jinlar mamlakati-dagi sarguzashtlari va malikaga uylanishi haqidagi dostonini maqtagan ekan.

Yana bir mashhur doston Qutbshohlarning oxirgi vakili Abul Hasan Tanashoh davrida yashagan Fayz tomonidan yozilgan. 1683 yilda u jinlar malikasi va Xitoy shahzodasi Rizvon muhabbati haqidagi bir ming yetti yuz misrali “Rizvanshah - o Ruhafza” nomli masnaviy yaratgan. Zamon talabiga mos tarzda qo‘rqinchli va mo‘jizaviy hodisalar tasvirlangan. Mavzu fors nasriy ertagidan olingan. Bu dakhniyda bitilgan dostonning tili avval yozilganlaridan biroz soddaroq; ba‘zi bo‘limlari nasrda yozilgan; fors va arab so‘zlaridan foydalanishda Fayz o‘zidan oldingi shoirlardan ko‘ra Valiyga ko‘proq o‘xshaydi: bu esa 1680 yillardagi dakhniy urduda forsiy leksikani qo‘llashga moyillik kuchayganini ko‘rsatadi.

Yarim asr o‘tib, 1745 yilda Muhammad Baqir Og‘a Fayzning mavzusini ishqiy ertaklar va fantastik hikoyalar uchun qayta ishlab chiqadi. Afsonalar dakhniy adabiyotida shu davrdagi hind-fors she‘riyatidagi kabi ko‘p qo‘llanilardi. Shoirlar odatda sanskrit yoki forsiydagi namunasini olishgan, lekin deyarli ularning hammasi asarlariga mahalliy tus berishgan. Bu sohada eng mashhur shoirlardan biri XVIII asrda yashagan dekanlik Tahsinuddin bo‘lgan. Uning “Qissayi Kamrup” masnaviysi shahzoda Kamrupning tushida ko‘rib yoqtirib qolgan qiz - Kala ishqida kechirgan sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Hikoyaning nomi ham ko‘rsatib turibdiki, mavzu (“1001 kecha” dagi Samarqand shahzodasi ertagiga juda o‘xshash) sanskritdan olingan. Saroy she‘riyatidan tashqari, yana bir ommalashgan she‘riyat Golkondada – Dekan atroflarida rivojlandi. Said Bulakiy, Miron Ya‘qub, Faruqiy kabi bir qancha shoirlar o‘z she‘rlarini bozorlar va boshqa odamlar gavjum

joylarda o'qishgan; xalq orasidan chiqqan qalandar va hikoyachilar ularni yod olib, butun Hindiston bo'ylab kuylab yurishgan. Biroq bu she'rlarning ko'pchiligi yozib olinmagan, shuning uchun vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketgan.

XVII asr ikkinchi yarmida boburiylar davlati Dekanning mustaqil sultonliklariga siyosiy va harbiy bosimni kuchaytira bordi. Cheksiz urushlar, kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan talafotu qirg'in-barotlar xavotiri Bijopur va Golkondadagi shoirlarda umidsizlikni keltirib chiqardi. Bu esa fojiaiy mavzularga ko'proq murojaat qilish va diniy tuyg'ular chuqurlashuvida o'z aksini topdi. Bunday sharoitlarda balandparvoz madhiyalar va go'zal sevgi haqidagi qo'shiqlar o'z o'rnini g'amgin she'riyatga bo'shatib berishi tabiiy edi.

Dekandagi saltanat ahlining katta qismi shia bo'lgani uchun muharram oyidagi fojiali Karbalo voqeasining yodga olinishi ularning diniy targ'ibotlarining ajralmas qismini shakllantirdi; aslida dakhniydagi ilk marsiyalarni Muhammad Quli Qutbshoh nomi bilan bog'laydilar. Bu janr ancha rivojlangandi va payg'ambar avlodlarining musibatu qiyinchiliklari haqidagi ta'sirli she'rlar aytishda ishlatilardi: misol uchun, chaqaloq Ashg'ar qissasi. Hoshim Alining marsiyasi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi:

Bu ne ko'rgilik , sening qonga bo'yalgan kafaning , Ashg'ar
Bu ne g'am, sening chanqoqdan qurib qolgan og'zing, Ashg'ar
Sening atirgul kabi tanang-qizil, Ashg'ar
Qanday g'am, sening bolaliging Ashg'ar
Nega sening sochlaring to'zg'igan
Nega og'zingdan qon oqadi?
Nega buncha tez uyquga ketding?

Bu ham boshqa marsiyalar singari bechora onaning faryodi bilan yakun topadi:

Endi kimning beshigin tebratay,
Endi kimga allalar aytay,
Endi kimni bag'rimga bosay,
Bu ne ko'rgilik, sening bolaliging Ashg'ar.

Dekan davlatlari mustaqilligiga Avrangzeb yakun yasadi. 1686-yilda u Bijopurni bosib oldi, bir yildan keyin Golkondani egalladi va ularni

boburiylar imperiyasi tarkibiga qo'shib oladi. Lekin dakhniy adabiy an'analari yana bir asr saqlanib qoldi. Shuning uchun sayyid Ashraf marsiya yozish an'anasini davom ettirgan va 1713 yilda xalifa Ali Haydarning jang sarguzashtlari aks ettirilgan "Jangnomayi Haydari" asarini yozib tugatgan. Qizig'i shundaki, Ashraf kabi Muhammad Fayziy Ozod ham "Zafarnoma"sida Alining kenja o'g'li - Muhammad ibn al-Hanafiyya haqida yozgan. Boshqa ko'plab Dekan ijodkorlari ham shu mavzuga qo'l urishgan.

Xuddi shu davrda Attorning mashhur "Mantiq ut-tayr" dostoniga o'zshatma tarzda Vajdiy "Banjhi bacha" nomli kitob yozgan. Ishqiy masnaviylar yozish an'anasini qodiriya tariqati vakili Qozi Mahmud Bahriy davom ettirgan. U so'zlashuv tilida yozgan va she'riy mukammallikka intilmagan. Uning "Man lagan" masnaviysi ancha murakkab deb hisoblanadi. Doktor Sayyid Abdullaning ta'kidlashicha, unda so'fiylik an'analari bilan yo'g'rilgan ishqiy hikoyalar yozish tamoyili ko'rsatilgan. Bahriy shuningdek, kichik dostonlar va forsiy she'rlar yozgan.

Keyingi davr dakhniy adabiyotida hikoya shaklidagi qisqa dostonlar ko'p uchraydi. Diydorning "Qissayi Mohi munavvar va Shamshod Bonu" nomli qisqa masnaviysida musulmon savdogarining o'g'li va ovrupolik go'zal qizning Surat savdo bandargohidagi sevgisi haqida hikoya qilinadi.

Dakhniy she'riyatida rivojlangan Baraha masani yoki Davazdah manasa (o'n ikki oy haqidagi dostonlar) mahalliy hind she'riyatidan kelib chiqqan va qishloqlarda xalq og'zaki an'analari bilan umumiy jihatlari ko'p. Bu turdagi dostonlar asosan asarh oyidan (iyun-iyul): yomg'irlar mavsumi boshlangan va tabiat qayta jonlangan, daraxtlar va maydonlar yashillikka burkanadigan davrdan boshlanadi. Yomg'irlar mavsumi sevgi-muhabbat fasli, sevishgan qalblarning bir-biriga intilishi kuchayadigan davr. Odatda yosh qiz oylarning har biri uchun alohida o'n ikkita she'r aytadi. U ob-havo yoki tabiatdagi o'zgarish tufayli yuzaga keladigan mavsumga hamohang tarzda ayriliq azobi haqida yoki yoriga yetishgan paytidagi quvnoq qo'shiqlarni kuylaydi.

Boburiylar saltanati tarkibiga qo'shilishdan oldin nizomshohlarga tegishli bo'lgan urdu adabiyoti markazi shimolga - Avrangobodga ko'chadi. Avrangobod shevasi ko'proq shimoliy urduga yaqinroq bo'lib, dastlabki dakhniydan bir qancha farqlarga ega edi. U yerda XVII asrning ikkinchi yarmida dastlabki dakhniy maktabining so'nggi yirik vakili "So'z mulking sultoni" Shamsuddin Valiulloh Valiy yashagan. Unga

urdu dunyosida “babaye rexta” yoki adame Urdu” degan unvonlar berilgan.

Valiyning tug‘ilgan joyi va vafot etgan vaqti haqida bahs-munozalar haligacha davom etadi. U 1668 yilda asli avrangobodlik bo‘lgan oilada, ayrim tarixchilar fikricha esa, Avrangobodning o‘zida tug‘ilgan. Yoshlik davrida Ahmadobodda yashab, Nuriddin Suhravardiyga murid tushadi. So‘fiylar davrasida u tariqat sirlarini o‘rganadi va she‘riyatga muhabbat uyg‘onadi. U 1700-yillarda Dehliga boradi. Naqshbandiy tariqatidagi fors shoiri Sa‘dulloh Gulshan uning she‘riyatdagi piri bo‘lgan. Gulshan shuningdek, Mir Dardning otasi Andalibning ham ustoz bo‘lgan. Gulshan unga xuddi Dehlida fors tilida yozilgani kabi dakhniyda ham g‘azal va qasidalar yozish kerakligini uqtirganligi taxmin qilinadi. Boshqa talqinga ko‘ra, unga mahalliy so‘zlarni tashlab, ko‘proq Dehlida gaplashiladigan tilda yozishni o‘rgatadi. Qaysi fikr to‘g‘ri bo‘lmasin, Valiyning g‘azallarida dakhniy va gujratiyning ta‘siri bilinib turadi. Turli joylarda yashaganligi uchun u shu yerning mahalliy tilini o‘z she‘riyatida qo‘llagan bo‘lishi mumkin. U Dehliga bir marta yo ikki marta borganligi haqidagi savol ham juda bahsli. Bir narsa aniqki, u umrining oxirgi qismini Avrangobodda o‘tkazgan. U 1707 yilda yoki boshqa taxminga ko‘ra 1741 yilda vafot etgan. Turli manbalardagi ma‘lumotlar xilma-xilligi tufayli yagona fikrga kelish ilojsiz. U mahalliy shevalardan qanchalik ko‘p foydalanmasin, go‘zal fors adabiyoti uning uchun baribir asosiy ilhom manbai bo‘lib qolgan. Fors she‘riyatida Eron va Hindistondagi so‘fiy shoirlar qo‘llaganidek dunyoviy va ilohiy sevgi almashinib turadi. U bir she‘rida “Sevgi qadahi orzu mayi bilan to‘lgan” deb yozsa, boshqasida yorga murojaat qiladi:

O sevgi quyoshi, jozibali qadam tashlab boqqa bir kelgin,
Atirgulning rangi xuddi shabnamdek yo‘qolib ketsin.

Bundan tashqari u an‘anaviy tarzda diniy ramzlardan ustalik bilan foydalana olgan:

Yuzingdagi xoling menga Ka‘badagi qora toshdek,
Kulgichingda zamzam suvin oqar yo‘li bormikin?

Garchi vaqt o‘tishi bilan so‘fiylik o‘zining avvalgi kuchini yo‘qotgan bo‘lsada, uning an‘anaviy she‘riyatdagi ta‘siri Eron madaniyati tufayli kuchayib bordi. Shimoliy Hindistondagi dastlabki Dard, Mir, Mazhar

kabi urduda ijod qilgan shoirlar ijodiga naqshbandiya tariqati kuchli taʼsir koʻrsatgan. Dastlabki dakhniy yozuvchilari kabi Valiy ijodida ham biz dinga maqtoqlar yoki soʻfiylik qonun-qoidalarining nazariy tahlilini uchratmaymiz; u koʻproq soʻfiy sheʼriyatda boʻlgani kabi ramziy obrazlarni qoʻllash bilan cheklangan. Bunday obrazlar shuningdek, sheʼrning haqiqiy maʼnosini yashirish uchun ishlatilgan, chunki ular tariqat, Allohga ishq va hatto siyosiy jihatdan ham sharhlanishi mumkin edi.

Valiyning devonidagi dakhniy sheʼrlarida ishqiy hissiyotlar soʻfiylik jihatidan tasvirlanganiga qaramasdan, ular Valiy izdoshlarining gʻazallariga qaraganda ravonroq, “inson tushunadigan” usulda yozilgan. Ular sof tashbehlar va mavzular haqiqiyligi bilan ajralib turadi. Valiy forsiy sheʼriyatda kamdan-kam uchraydigan, kundalik hayotdagi real voqealarga eʼtibor qaratgan. U oʻz davridagi jamiyat hayotini, hind gullari va mevalarini tasvirlagan. Afsonaviy hind qahramonlari va maʼbudlari nomi bilan ish koʻrgan. Valiy oʻzini jonajon Dekanning haqiqiy farzandi deb hisoblagan, lekin uning sheʼrlarida ham mazmunan, ham shaklan fors sheʼriyati taʼsiri bilinib turadi. U son-sanoqsiz sheʼriy sanʼatlar yaratgan:

Har kecha sening uzun qaro sochlaring tovlanur,
Kimki sening ogʻzingni koʻrsa, soʻzini muxtasar qilur.

Taftazoniy tomonidan Sakkokiyning “Miftah ul-ulum” asariga berilgan ikki izohga koʻra soch tun kabi qora va uzun, oʻgʻiz esa kunduzi koʻrinadi va juda kichik.

Valiy boy forsiy anʼanalaridan foydalangan, musiqiy sheʼriy uslublarni rivojlantirishga zoʻr bergan. U urdu sheʼriyatining mavzular qamrovini kengaytirdi va uning taʼsirchanligini oshirishning yangi usullarini topdi. Sheʼriy shaklning aniqligi va soddaligi, tasavvur qilishning osonlashuvi uning mehnati mahsulidir. U oʻzi aytganidek:

Ey Iskandar, qoʻriqchisi Hizr boʻlgan hayot suvin qidirma
Bu suv faqat tillarda mavjud.

Valiyning sheʼrlari garchi saroy sheʼriyatida umuman yangilik boʻlmas-da, Hindistonda koʻpchilik ularni jon-dili bilan lol qolib eshitardi. Poytaxtga tashrifi davomida Valiy Dehlidagi shoirlarga ularning ona tilisi sheʼriyat uchun oraliq til boʻlishi mumkinligini tushuntirdi. Uning oʻlimidan keyin sheʼrlarida mohirlik bilan qoʻllangan

she'riy san'atlarning turlichaligi bilan ajralib turgan uslubi ko'p yillar urdu shoirlari uchun namuna vazifasini o'tadi. Garsin de Tassi bekorga uni uslub va ma'no jihatidan Hofiz Sheroziyga qiyoslamagan.

Valiyning dekanlik eng mashhur izdoshi Sirojiddin bo'lgan. Hayotining oxirgi qismida u ham Dehlidan qo'nim topgan. Olti yuz saksonta shoir she'rlaridan namunalar keltirilgan fors dostonlari tarixi haqidagi kitobi va taxminan o'n ming misradan iborat devonidan tashqari unga "Bostane xayal" ishqiy masnaviysi shuhrat olib keldi. Bu asar Bahriyning "Manlagan" kitobiga o'xshash va unda shoirning shaxsiy tajribasi asosida dunyoviy sevgidan ilohiy ishqqa o'tish bosqichlari kuylanga. U zamonaviy urduga o'xshash yozilgan.

Valiy va uning izdoshlari ijodi bilan urdu adabiyoti Dekan maktabining birinchi bosqichi yakuniga yetdi. Shimoliy va Janubiy Hindiston o'rtasida madaniy aloqalar kengayishi va yangi siyosiy vaziyat urdu she'riyatiga yangi yo'nalish berdi. U Hindistonda – Dehlida va keyinchalik Lakxnauda rivojlanishda davom etdi.

Avadx rojaligi davrida urdu (dakhniy) adabiyotining rivoji

Tayanch so'zlar va iboralar: marsiya va qasidalar, sehr-ul bayan, shajara, shuja-uddavla, ost-indiya, miniatyura, avadh rojaligi, gulzare iram, marsiya va qasidalar.

Darsning maqsadi: Avadx rojaligida ijod qilgan urdu adabiyotining namoyandali va ularning asarlari haqida ma'lumot berish

Avvalgi bobda biz ilm-fanga bo'lgan e'tibor susayishi oqibatida ko'plab shoirlar iqtisodiy-siyosiy va madaniy markaz bo'lmish Dehlini tark etib, ilm-fanda biroz keyinroq ko'zga tashlangan Avadh, Farruhobod, Tanda, Azimobod, Murshidobod, Haydarobod va keyinchalik Rampur feodal rojaligi saroylarida panohtopganligi haqida aytib o'tgan edik.

Avadh rojaligi taxminan 1724-yillarda vujudga kelgan. Amalda mustaqil bo'lgan ushbu rojalikni Dehlida boburiylar saltanatida vazir maqomiga ega navob boshqarar edi.

Hindiston tarixida Plessa, Panipat va Boqsar kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan janglarda qatnashib, Avadhni kerakli yerlar bilan ta'minlagan roja Shuja-uddavla 1754-1775-yillarda rojalik ancha rivojlangan. Navob saroyga shoirlar, rassomlar va boshqa san'at vakillarini Dehli miniatyurasi kabi yuksaltirish uchun Avadh poytaxti

Fayzobodga taklif qilgan. Rojalik o'zining haqiqiy rivojlanish cho'qqisiga Asaf-uddavla (1775-1797) davrida erishgan. Qisman Ost-India kompaniyasi, qisman boshqa bosimlar tazyiqi ostida navob poytaxtni Fayzoboddan Lakxnauga ko'chiradi. U yerda hashamatli saroy qurirdi, shaharda bog' va istirohat maydonlarini barpo etdi. Asaf-uddavlaning o'limidan so'ng hokimiyat uning ukasi Saodat Alixonga o'tdi va 1814-yilga qadar u hokimiyatni boshqardi. Undan so'ng hokimiyat G'ozuiddin Haydarga o'tdi. So'nggi hokimiyatni boshqargan vakil Ost-India kompaniyasining yordamisiz o'zini shoh deb e'lon qildi. Shu tariqa yuz yillab Avadh va Dehli hokimiyati orasidagi aloqa butkul uzildi. Ammo, rojalikning umri uzoqqa bormadi. 1856-yil inglizlar uni bosib oldi va shoh Vajid Alishohni esa Kalkuttadagi qamoqqa tashlashdi.

Ta'kidlab o'tilganidek, Shuja-uddavla shoirlarga chuqur hurmat bilan qaragan va saroyiga tez-tez taklif etgan. Asaf-uddavla o'zi ham she'rlar yozib turgan va ularning ko'pchiligi e'tirofga sazovordir. G'ozuiddin Haydar, Nosiruddin Haydar va Vajid Alishoh ham shoirlar bo'lishgan. Ularga yuzdan ortiq kitoblar tegishli bo'lib, ularni urdu va fors tilida yozilgan narsiy va she'riy asarlar tashkil etadi¹⁶.

Dehli shoirlari Avadhga borgunga qadar u yerda adabiyot va urdu tili qay ahvolda bo'lganligini aytish juda qiyin. Biroq Savdo, So'z, Fig'on, Zohik va boshqa mashhur shoirlar bo'lganligiga e'tiroz bildiray olmaymiz.

Asaf-uddavlaning hukmronlik yillarida san'at va adabiyot gullab yashnadi. Navob she'riy kechalarda va folklor davralarida ishtirok etgan. Mir Taqi Mir uni Holi bayramidagi ishtirokini o'zining she'rida tasvirlab bergan.

Umrining asosiy qismini eski poytaxtda o'tqazgan Dehli shoirlarining barchasi ham Avadh saroylariga butunlay ko'chib keta olishmadi. Ulardan eng mashhurlari Mushafiy, Jur'at, Mir Hasan va Insho kabilar mahalliy adabiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Har qanday urdu adabiyoti tarixiga oid hatto eng kichik ocherklarda ham Dehli va Lakxnau adabiyoti maktablari farqlanadi. Uslub jihatdan bu ikki maktab vakillari o'rtasida farq katta bo'lsa ham, biroq yo'nalish jihatiidan bir-biriga juda yaqin.

Adabiyot markazining Avadhga ko'chishi Dehli'dagi she'riyatning rivojlanishiga to'sqinlik qilishini anglatmaydi. Bu davrda mamlakatning eng yaxshi she'riy kuchlari Lakxnauda jamlangani sababli Dehlining maqomi biroz pasaydi.

¹⁶ Annemarie Schimmel. Classical Urdu Literature. Otto Harrassowitz. Wiesbaden. 1975., P. 178

Fayzobodga ko‘chgan shoirlardan biri she‘r olamida katta hurmatga ega Zahik edi. Uning nozik didi va topqirlik bilan aytadigan so‘zlari barchaning ko‘ngliga manzurdir. Shoir Mir Hasan Zahikning o‘g‘li edi, u esa o‘z navbatida Savdoning mashhur va mashhur bo‘lmagan ko‘plab satiralarining bosh qahramoni edi. Otasi kabi mashhur Mir Hasan ham sermahsul ijod qilgan. Mir G‘ulom Hasan taxminan 1726- yili tavallud topgan. U Fayzobodni juda ham yaxshi ko‘rsa-da, poytaxt Lakxnauga ko‘chganda u ham ko‘chib o‘tdi. U yerda 1736-yil vafot etdi. Mir Hasan fors tilida ijod qiluvchi faylasuf ham hisoblanadi. U urdu shoirlarining shajarasini ham yaratdi. Ushbu shajara tarixiy ahamiyatga ega badiiy asar hisoblanadi. Mir Hasanning barcha asarlari hanuz jamlanib kitob bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning g‘azallar va masnaviylari to‘plami bir necha bor nashr etilgan. “Sehr-ul bayan” deb atalgan masnaviysi ba‘zida “Mir Hasan masnaviysi” yoki “Benazir tarixi” va “Badr-e Munir” deb ham ataladi. “Gulzar-e Iram” (Jannat bog‘i) nomli masnaviysi ham juda mashhur. Unda shoir Fayzoboddan Lakxnauga bo‘lgan sayohatni rang-barang va mohirlik bilan ifoda etib, eski va yangi poytaxtlar orasidagi farqni tahlil qilgan. Biroq Mir Hasanning masnaviylari orasida eng yuqori bahoga munosib deb ayni “Sehr-ul bayan” e‘tirof etiladi. Voqe‘lik yangi bo‘lmasa-da, biroq o‘sha davr madaniyatiga butunlay mos kelgan shoir maqsadi to‘liq bayon etilgan. Masnaviyni o‘qigan kitobxonning ko‘z o‘ngidan hayot sahnasi va millat turmush tarzi to‘liq, aniq ravshan gavdalanadi: yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun o‘tkaziladigan bayram, to‘y va boshqa marosimlar, diqqatga sazovor joylar, betakror yorqinlik va tabiatning aniq ifodasi juda yuqori tasvirlab berilgan. Bu masnaviy hozirgi kunda ham urdu adabiyotida ushbu janrning eng yorqin misoli hisoblanadi. Shoir ushbu masnaviyga umrining bahorini bag‘ishlagan.

Mir Hasan marsiya va qasidalar ham yozgan. Uning g‘azllari soddaligi va nozik tuyg‘ularni cherta olishi bilan badiiy ahamiyatga ega. G‘azallar tili ham og‘zaki nutqqa yaqin.

Uning na son-sanoqsiz g‘azallari, na masnaviylari urdu shoirlari haqidagi forsiy tazkirasi „Sehr ul-bayan“ asarichalik vatandoshlarini hayratga sola olgan. U ko‘pgina masnaviylar va hatto urdudagi ayrim she‘rlari kabi mutaqorib vaznida yozgan va an‘anaviy hikoyalarning barcha tarkibiy qismlarini o‘zida jamlagan:

Shoh uzoq ibodatlardan so‘ng o‘g‘illi bo‘ladi. Unga Benazir deb ism qo‘yib , hamma san‘atlarni o‘qitadi. Shahzoda 12 yoshga kirishidan bir kun oldin tunda shu qasr tomida yashaydigan va uni sevib qolgan bir pari tomonidan u yerdan olib ketiladi. U parining qasrida yashay boshlaydi,

unga sehrli uchar otda sayr qilishiga ruxsat beriladi. Shunday sayrlarning birida u go‘zal malika Badri Munirni ko‘radi; ular bir-birini sevib qoladi. Jahli chiqqan pari uni Ko‘hiqofdagi quduqqa tashlatadi. Malikaning dugonalaridan biri donishmand qiyofasiga kirib, parilar qirolining o‘g‘lini qo‘shiqlari bilan o‘ziga rom qilib oladi. Oxiri parilar qirol quduqni ochadi, Benazir ozod qilinadi va barcha sevishganlar yana birga bo‘ladi.

Doston ravon va oddiy tilda yozilgan. Zamonaviy o‘quvchi uchun uning eng qiziqarli tomoni bog‘lar va saroydagi hayotning aniq va go‘zal qilib tasvirlanishidadir. Uning she‘rlaridagi tasvirlar XVIII asr oxiridagi hind miniaturalarini aks ettiradi va musulmon hindistonining tinch qismlaridagi hayotning aniq tasvirini beradi. Dialoglar jonli va qahramonlarning o‘zaro hurmat qilishini aks ettiradi: a‘yonlar tilida fors iboralarini kuzatish mumkin. Shuning uchun bu qiziqarli hikoya urdudagi nashr qilingan eng birinchi kitoblardan bo‘lgan va vaqt o‘tishi bilan qayta-qayta nashr etilgan. Mir Hasanning sinchkov kuzatuvchanlik qobiliyati Fayzobod bozorining tasvirida yaqqol ko‘ringan. Uning “Gulzare Iram” masnaviysidagi bu sahna orqali o‘quvchi hind bozoridagi haqiqiy ahvolni - turfa ranglar va savol-javobni his qilishi mumkin.

XVIII asr Mirzo Sulaymon Shukuh saroyining shoirlari

Tayanch so‘zlar va iboralar: g‘azal, to‘plam, Shayx Qalandar, Insho, saroy, rexti, rangin, raqiblar, mushafiy, tazkira–i- hindi, Lakxnau, shia mazhabi

Darsning maqsadi: Saroyda ijod qilib urdu adabiyoti rivojiga hissa qo‘shgan adiblar ijodi haqida

Shayx Qalandar Baxsh Jur‘at Dehli shahrida tahsil olgan. Aytishlaricha, dehlilik ustozi Hasratga taqlid qilib yozgan. Avvaliga Jur‘at Faizobodga, so‘ng Lakxnauga Mirzo Sulaymon Shukuh saroyiga kelgan. Dehli podshohining kichik o‘g‘li Shoh Olam bo‘lib, u ham Asaf ud davla hukmronlik davrida Lakxnauga ko‘chib o‘tgan. Bo‘lajak shoirga chuqur hurmat bilan munosabatda bo‘lib, unga homiylik ham qilgan.

Jura‘tning ko‘zi ojiz bo‘lgan. U musiqani juda sevgan, o‘zi ham setorni mohirlik bilan chalgan va ilmi nujumga ham qiziqqan. 1810 yili vafot etgan.

Shoirning to‘plami asosini g‘azallar tashkil etsa-da, unda masnaviylar va boshqa she‘rlar ham bo‘lgan. U g‘azallarida sevgi iztiroblarini mohirlik bilan ifodalagan.

Sulaymon Shukuh saroyida yana bir yirik shoir Insho (to‘liq ismi – Inshoolloh Xon) ham yashagan. U Dehlida tug‘ilgan bo‘lsa ham, oilasi Murshidobodga ko‘chib ketganligi bois uning bolaligi va yoshligi shu yerda o‘tgan. Adabiyotshunos olimlar bu haqiqatga ahamiyat bermaydilar, biroq ingliz madaniyatining ta‘siri ostida bo‘lgan va milliy uyg‘onishning ba‘zi belgilarini ko‘rsatgan XVIII asr Bengaliyasi Dehlidan farq qilar edi.

Insho aqli o‘tkir olim bo‘lib, bir necha tillarni bilgan. Shoh Olamning hukmronlik davrida u Dehliga ko‘chib o‘tdi va unga katta hurmat bildiriladi.

Podshoh ko‘zlari bu davrda ancha ojizlashib qolib, saroydagi ahvol juda tushkun edi. Inshoning hazillari va qochiriqlari ham bu holatga ta‘sir qila olmadi. Shoirilar orasida kelishmovchiliklar yuzaga kela boshladi. Insho Dehlini tark etib Lakxnauga ko‘chib keldi. Bu yerda Mushafiy, Jur‘at va boshqa shoirilar allaqachon mashhurlikka erishib bo‘lgan edi. Inshoning tashrifi Sulaymon Shukuh saroyiga yanada shukuh berdi. Lakxnauda tez-tez badiiyatga xos musobaqalar – g‘azallar o‘qish, satirik sahnalar tashkil qilish kabilar o‘tqazilib turilar edi. O‘sha davr kitoblarida bu musobaqalar juda aniq tasvirlangan. Biz bu musobaqa haqida faqat o‘sha davr badiiy hayoti haqida tasavvur uyg‘onishi uchungina aytib o‘tdik.

Insho o‘zining hazillari, qochiriq va o‘xshatishlari tufayli saroyning eng suyuklisiga aylandi va bu uni boshqa shoirlardan ajratib turar edi. U navob Saodat Alixonni hayratga solar va shu bois u shoirni hamisha o‘zi bilan olib yurar edi. Saroydagi muxoliflarning sayi harakatlari tufayli navob undan sekin-asta yuz o‘gira boshladi. Yoshlik davrlari kulgu-xursandchilikda o‘tgan shoirning keksalik davri anchayin g‘amtashvishlarga boy bo‘lib, 1817 yil vafot etdi.

Inshoning nashr etilgan to‘plamidan uning barcha she‘rlari o‘rin olmagan edi. Uning ijodi bilan tanishib shoir turk, pushtu, panjob, marvari, kashmiriy, hind tillarini bilganligi va ba‘zan ingliz so‘zlaridan ham foydalanganligini ko‘ramiz. To‘plamda urdu she‘riy san‘atiga xoslikni uchratmaymiz, she‘rlar diakritik belgilar bulan yozilgan. Urdu alifbosida juda kam harflar nuqtasiz yozilsa-da, Insho butun asarni nuqtalarsiz yozgan. Bundan tashqari bir necha rekxtadagi she‘rlari va ko‘plab forsha qasidalari ham bor.

Insho ijodi boshqa shoirlar ijodi kabi balandparvoz va tushunarsiz emas. Uning gʻazal va qasidalarini magʻzini chaqish oson va ular chuqur gʻoyaviy mazmunga ega edi. Bu esa shubhasiz, uning kuchli qobiliyat egasi ekanligidan darak beradi. Agar Insho sheʼr yozmaganida olim boʻla olmas edi va agar u saroy shoirlaridan boʻlmaganda edi u bundan-da koʻproq badiiy puxta asarlarni yaratgan boʻlar edi.

Inshoning eng diqqatga sazovor asarlaridan biri “Darya-e latafat” (Nafislik daryosi) boʻlib, grammatika, poyetika va boshqa filologiya boʻlimlarini oʻrganuvchi qimmatli manba hisoblanadi. Kitob juda ulkan bilimni oʻz ichiga qamrab olgan. Inshoning izlanishlari urdu tili oʻsha davrda turli xil kishilar tomonidan qanday foydalanilgan va bu til qay tarzda rivojlanishiga qaratilgan. Asar fors tilida yozilgan boʻlsa-da, unda urdu tili nazmiy va nasriy asarlarining muallif tomonidan chuqur mushohada etilganining guvohi boʻlamiz.

Inshoning yana bir mashhur nasriy asari “Malika Kit va shahzoda Udaybxon haqida hikoya” boʻlib, urdu va hindiy tillarida chop etilgan.

Saodat Yor Xon (Rangin) Dehliga harbiy xizmatni oʻtash uchun chaqiriladi. U sayohat qilishni juda sevar va uni saroy navoblari va zodagonlari ham ochiq chehra bilan kutib olishar edi. Harbiy sohani tark etgan Rangin ot savdosi bilan shugʻallandi va bu kasbi tufayli koʻp yerlarga bordi.

“Rexti” termini nafaqat sheʼriyat maʼnosini anglatadi, balki ayol tomonidan oilaviy turmushning turli muammolari yoritilgan kichik hikoyalar boʻlib, eʼiborli tomoni, bir qator mualliflar bu usulda ishqiy holatlarni koʻproq yoritishgan. Feodal jamiyatda ayollarning oʻrni boʻlmagan, ularning quvonch va tashvishlari hech qachon baralla aytilmagan. Uning hayoti erkakning inon-ixtiyoriga bogʻliq boʻlgan. Shuning uchun Rangin va Insho Avadhning fohishabozlikka mukkasidan ketgan oqsuyak jamiyatida ayollarning oʻrni yoʻqligini tushunib, buni asarlarida aks ettirishganini urdu adabiyoti tarixida muhim voqeʼlik deb hisoblash lozim. Albatta, ular oldiga qandaydir yuksak maqsad qoʻymagan va ayollarni ozodlikka undashmagan, biroq, ushbu mavzuga qoʻl urilganining oʻzi muhim ahamiyatga ega edi. Shoir asarlarining badiiy qimmatini ishqiy hayot muammolariga keragidan ortiq katta qiziqish bildirgani sabab biroz pasaygan.

Shayx Gʻulom Hamdamiy. Shu davrda ijod qilgan yana bir yetakchi shoir Mushafiy (Shayx Gʻulom Hamdamiy) ham yashab ijod etgan. U Amrohada tugʻilgan, biroq yoshlik davridayoq Dehliga koʻchib kelgan. Ish topish maqsadida Mushafiy butun mamlakatni aylanib chiqqan va

nihoyat Lakxnauda Mirzo Sulaymon Shukuh xizmatiga ishga kirgan. Biz Mushafiy va Insho o'rtasidagi adovat haqida gapirib o'tdik. Buning sababini izohlash mushkil. Ehtimol, shoirlarga ham saroydagi o'rnini saqlab qolish va o'zini raqibining oldida kuchli ko'rsatish uchun bir-birlarini oyoqosti qilishga to'g'ri kelgandir. Lakxnauning ikki eng zo'r shoiri bir-birini qoralash uchun saroy a'yonlari kayfiyatini ko'tarish maqsadida istalgan usul va vositalardan foydalanishardi. Ayrim urdu adabiyotiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida, bu masalaga ortiqcha e'tibor berib yuborilgan, raqiblarning o'zaro munosabati shunchalar batafsil yoritilganki, haqiqatni yolg'ondan ajratish qiyin. Biroq, shubhasiz, na Mushafiy, na Insho boy a'yonlar ermagi uchun mayda-chuyda nizolar bilan band bo'lmasliklari, ulug' shoir nomiga dog' tushirmasliklari lozim edi. Shu sabab ham ular Mir, Savdo, Dard va boshqa shu kabi shoirlar kabi yuksak hurmatga sazovor bo'lishmagan.

Mushafiy sakkiz to'plam meros qoldirgan, ularning bir qismi hozirgacha nashr etilmagan. Ularga asosan g'azallar kiritilgan, biroq qasida, masnaviy va boshqa she'riy asarlarni ham uchratish mumkin. Uning ijodiy merosiga yana fors tilida uchta asar: "Akad-i-Surayyo" ("Surayyo marjonlari"), "Tazkira -i- hindi" ("Hind she'riyati antologiyasi"), "Riyaz-ul-Fusaha" ("So'z gulzori")da urdu va fors tilida ijod qilgan shoirlar tarjimai holi va ular ijodining tahlili yoritilgan. Urdu adabiyoti tarixida bu asarlar muhim ahamiyatga ega va bizga ko'plab shoirlar, ularning hayoti va shoirning o'zi haqida ma'lumot beradi. Mushafiy urdu tilida ijod qilgan eng yorqin ijodkorlardan hisoblanadi, uning g'azallari hissiyotlarga boy, sodda va yuqori badiiylikka ega. Uni Mir, Savdo, Jur'at, Insho va boshqalarga taqlid qilishga intilgan, deyish mumkin. Shunday bo'lsa-da, uning ijodining ahamiyati beqiyos. Biz sanab o'tgan shoirlarning barchasi Lakxnauga yetuk shoir hisoblangan. Tadqiqotchilar ularga bir vaqtning o'zida ham Dehli, ham Lakxnau maktabi vakili sifatida yondashishadi. Ularning ijodi Dehli maktabi mualliflari ijodidan birmuncha farqlanadi, biroq, garchi ular Lakxnau she'riyatiga katta ta'sir ko'rsatishgan va uning yangi qirralarini ochishgan bo'lsa-da (masalan, usulning badiiylashishi), to'liq asosda Lakxnau maktabiga va adabiyotiga qo'shib bo'lmaydi. Lakxnau she'riyatining yangi va qadimiy xususiyatlarining majmui ba'zan "Lakxnau maktabi" deb ham nomlanadi. Olimlar ikki adabiyot yo'nalishining o'ziga xosligi to'g'risida ko'p bahslashishgan. Ayrim tadqiqotchilar, hech qanday isbotlarsiz, ushbu maktablari o'rtasida hech qanday umumiylik yo'q, deb e'lon qilishdi. Ular tarixiy sharoit va hayot tarzi, shuningdek, adabiyot va

falsafa sohasidagi anʼanalar Dehlida boʻlgani kabi Lakxnauda ham bir-biriga yaqinligiga eʼtibor qaratishni xohlashmaydi. Dehlidagi ijtimoiy hayotning iqtisodiy va sinfiy asosi Lakxnau maktabidan haqiqatan hech qanday farqlanmagan. Ehtimol, hayotni aks ettiruvchi adabiyotda ham alohida farq boʻlishi mumkin emas. Demak, Lakxnau sheʼriyatiga kirib kelgan yangi usul adabiyot yoʻnalishi ildizini oʻzgartirish uchun u qadar muhim sabab boʻlmagan. Uzoq asrlar davomida gullab yashnagan Dehli musulmon davlati sil kasalligiga yoʻliqqan bemor kabi sekinlik bilan soʻlib bordi. Goʻyo uni bu halokatdan qutqaradigan hech qanday kuch yoʻqdek edi. Shu sabab Dehli shoirlari ijodiga tushkunlik va umidsizlik hissi xos boʻlgan. Lakxnauda bir nechta yangi qoidalar yaratildi: u yerda tashqi tarafdin muvaffaqiyatli rivojlangan yangi davlat shakllandi. Tabiiyki, vaziyat ham Dehliga nisbatan ancha tinch boʻlgan. Oʻsha davr yozuvchilari va sanʼat namoyandalari jamiyat rivojlanishining tarixiy qonunlarini tushunishmagan va Lakxnau ham Dehli kabi halokat yoqasiga kelib qolganini anglashmagan. Lakxnauda shoirlar iftixor bilan qabul qilingan. Saroy hashamati ularni koʻr qilib qoʻydi va ular yangi hayot tarziga oʻzlarining qaygʻu va ogʻriqlarini unutib, quvonch bilan kirib kelishdi. Barcha hayotiy hodisalar ular tomonidan qaytadan shakllantirildi va ularning yangicha qarashlari ayrim sunʼiyliklar bilan farqlandi va shunga koʻra barcha jiddiy masalalarga ular yuzaki yondashishdi. Bu mualliflarning asarlari chuqur tafakkur va hissiyotlarga erishgan goʻzallikdan uzoqlashdi. Eʼtibor qaratish lozim boʻlgan ikkinchi darajali omillardan biri Lakxnau navobi va shohining boshqa musulmonlardan qarashlari va odatlari bilan maʼlum darajada farqlanadigan shia mazhabiga mansubligi boʻlgan. Shia mazhabidagilar musulmonlar paygʻambarining (s.a.v.) qizi, qarindosh akasi, kuyovi Ali, ikki nabiralari Hasan va Husanning izdoshlari boʻlib, ularning tugʻilgan va oʻlgan kunlarini tantanali nishonlashgan. Imom Husaynning fojeali oʻlimi xotirasiga ular bir yilda bir necha oy motam tutishgan.

Vali Muhammad Nazir Akbarobodiy va uning uslubi (1741-1830)

Tayanch soʻzlar va iboralar: takror iboralar, achar chuhon ka, alliteratsiya, ishqiy sheʼriyat, varrak uchirish, banjaranama, achchiq, va kinoyali hazil, bulbullar jangi, adminama.

Darsning maqsadi: Abarobodiy va uning urdu adabiyotidagi oʻziga xos uslubi haqida maʼlumot berish

Garchand yuqorida nomi tilga olingan to‘rt shoir bir-biridan she‘riy merosiga ko‘ra farq qilsa-da, ular Lakxnau urdu adabiyotining birinchi va ikkinchi bosqichidagi shoirlari kabi bir guruhga mansub. Biroq XVIII asrdagi shoirlardan biri umumiy tasvirga umuman mos tushmaydi; u, hind tanqidchilari aytganidek, “faqat o‘ziga taqqoslanishi mumkin“. Bu Vali Muhammad Nazir Akbarobodiydir. U Nodirshohning 1740-yilgi bosqinidan bir yil o‘tib, Dehlida tug‘ilgan. Hali yosh bolalik paytidayoq onasi bilan birga Agraga ketgan; aynan shu yerda u 1830-yilda vafot etgan. U asosan toshkesuvchilar va boshqa ishchilar yashaydigan tumanlarda istiqomat qilgan. Uning “Shehrashub“ asari bir paytlar gullab-yashnagan shahardagi iqtisodiy tanglik va ishsizlikning oshishini tasvirlaydi. Asaf-uddavla Nazirni Lakxnaudagi saroyga taklif qiladi. Lekin, u taklifni rad etib, hayotini muallim sifatida kamtarona o‘tkazishni afzal biladi. An‘anaviy davralardan tashqarida yashaganligi va balandparvoz tasvirlar bilan yozmaganligi uchun Nazir hayoti davomida u qadar qadr topmagan. Biroq uning she‘rlarini sevib o‘quvchilar ham bo‘lgan. Zamonaviy yozuvchilarning unga yuqori baho berishi hatto ijodining keragidan ortiq baholanishiga olib kelgan.

Nazir yoshlik davrini ko‘ngilxushlik bilan o‘tkazgan desak, xato qilmaymiz. Keyinchalik u diniy qarashlarga berilgan. Shuning bois R.B. Saksena yozadi: “Agar uning she‘riyatining saviyasi past qismini olib tashlaydigan bo‘lsak, u dunyoning eng kuchli nasihatgo‘ylari bilan bellashishi mumkin“.

Nazir urdu she‘riyatiga yangi qahramon – har bir qatlam vakillarini olib kirdi. Shu orqali she‘riyatdagi mavzular miqyosini kengaytirdi. U jamiyatning har bir qatlamini yaxshi bilardi; hindular orasida uzoq vaqt yashaganligidan ularning urf-odatlarini yaxshi o‘rgangan va shu sababli she‘rlarida hindu va musulmon bayramlarini o‘xshash tarzda tasvirlab bera olgan. Sha‘bon oyining 15-sanasiidagi Shabe barat musulmon bayrami, hindularning Holi bayrami– bularning barchasi uning asarlarida o‘z aksini topgan. Hind shoirlari uchun sevimli mavzu – yomg‘irlar mavsumi ham shunday. Varrak uchirish yoki bulbullar jangi uning she‘riyatida ko‘cha manzaralari yoki moliyaviy qiyinchiliklar kabi yorqin tasvirlangan. “Don savdogari hikoyasi”(Banjaranama) va “Tuzlangan kalamush”(Achar chuhon ka) asarlari nomi ham o‘zi haqida aytib turibdi. Nazir yuzlab, minglab hamyurtlari och qolayotganidan xabardor bo‘lgan va she‘rlaridan birini nonga bag‘ishlagan; u baxtsizlik odamning giyohvand moddalarni iste‘mol qilishga undashini yaxshi bilgan va

odamlarning bhang(mast qiluvchi ichimlik)ga berilishini tasvirlagan. Nazir barcha odamlar xudo va o'lim oldida tengligiga ishonchi komil bo'lgan va "Adminama" she'rida inson qo'lidan hamma narsa –yaxshilik ham, yomonlik ham kelishi mumkinligini yozadi:

Odamizot o'zi uchun - o'zi qurgan masjiddir
Odamizot o'zi va'zxon, o'zi yo'l boshchi erur
Odamlar diniy kitob o'qib ibodat qilar,
Oyoq kiyimni o'g'irlab ketuvchilar ham odam
Ularni ushlovchilar ham odamlar...
Odamlar tanbur va do'mbira chaladi
Qo'shiq kuylovchilar ham odamlar
Ho'kizlarni tortuvchi ham odamlar
Viqor bilan yuruvchi ham, xursandchilik qiluvchi ham odamlar
Bularning barchasini kuzatuvchi ham odam
Marhumlar uchun odamlar kafan tikar
Odamlar ularni qabristonga olib borishadi
Muqaddas she'rlar o'qishar va yi'glashar
O'lganlarning ishini davom ettirishadi
O'ladigan ham odamlar...
Yaxshilar ham odam, ey Nazir
Ularning eng yomoni ham odamdir.

Nazirning she'rlarida bazan hazil bor, lekin ular achchiq va kinoyali. Chunki, uning mavzulari to'g'ridan-to'g'ri hayotdan olingan, hayot esa uning atrofidagi ko'pchilik uchun ochlik, kambag'allik va qattiq mehnatdan iborat bo'lgan. Uning ba'zi she'rlari u ustozlik qilgan bolalar uchun yozilgan: ular xudoni maqto'vchi olmaxon, qarg'a va qushlarning har xil turlari haqida hikoya qiladi. Uni urdu ishqiy she'riyatining yetuk ustalari safiga qo'shish mumkin, chunki u Dehlidagi urflar va Lakxnau maktabi an'analariga qarama-qarshi tarzda she'rlariga jo'shqinlik berish uchun muomaladagi hind so'zlaridan erkin foydalangan. Ram va Sita, Hir va Ranjha klassik fors qahramonlari bilan bir qatorda paydo bo'ladi. Uning she'rlarida so'z o'yinlari ko'p qo'llangan; alliteratsiya va takror iboralar bilan bir qatorda, u hindu xalq she'riyatidan foydalanib, fors so'zlariga boy urduga qarshi chiqqan. U besh yuzga yaqin g'azallar yozgan bo'lsa-da, ammo oddiy she'riy shaklda yozishni afzal bilgan.

Nazirni R.B. Saksenaga o'xshab Shekspirga qiyoslash mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Sodiqlik kabi uni "ko'chada yurgan istalgan odam yozishi

mumkin bo‘lgan” darajada she‘rlar yozgan deyish ham o‘rinli emas. Uni haqiqiy “jamiyat” shoiri deb atash esa butunlay boshqa masala. U shubhasiz, aholining quyi qatlamlariga e‘tibor qaratgan va ijtimoiy hayotni tasvirlagan dastlabki urdu shoiri hisoblangan. Uning ijtimoiy adolatsizlikdan yaxshi boxabar ekanligini uning bir qancha satiralarida ko‘rish mumkin, lekin ular ko‘proq tanqidiy emas, tasviriyydir. Ular barcha insonlar tengligini aks ettiruvchi va shu sababga ko‘ra zamonaviy yozuvchilar tomonidan “insoniy” deb ataladigan an‘analarga mos keladi. Lekin Nazirning she‘rlarida na qiyin vaziyat nazariy tanqid qilinadi, na unga qarshi inqilob qilishga undash mavjud.

Movlaviy Abdul Haq aytganidek: “Nazirga she‘riyat qon bilan kirgan. Uning tasavvuri Hindiston tabiati kabi keng va serqirra”. Shuning uchun u har qanday ko‘rgan yoki boshidan kechirgan voqealarni tasvirlashni xohlagan. Uning aniq va jonli tasvirlash qobiliyati, meros bo‘lib o‘tgan so‘fiyona donishmandlik va dunyoning o‘tkinchiligi haqida amaliy tajribasini mutanosiblikda qo‘llashi she‘rlariga ulug‘vorlik baxsh etgan. Uning eng mashhur dostonidan olingan parchani ko‘rsak:

Xasis bo‘lma, turli joylarni kezgin,
O‘g‘ri o‘lim ikki qo‘li ila tun va kunni o‘g‘irlamoqda.
Ho‘kizlar-u , butun tuyaga ortilgan yuklar foyda bermaydi:
Don, guruch, no‘xot, loviya va tutun
Chunki lo‘li chodirini ko‘chirgan vaqtda
Faxr , sharaf va qolgan narsalar
Va hatto eng yaxshi narsalar foyda bermaydi.
Agar sen kuchli va boy savdogar bo‘lsang,
Sendan boyroq savdogar yo‘q, deb o‘ylama
Bu shakar, tuz va shirinliklardan foyda ne?
Mayiz, zanjabil , qalampir va go‘shdan-chi?
Chunki lo‘li chodirini ko‘chirgan vaqtda
Faxr , sharaf va qolgan narsalar
Va hatto eng yaxshi narsalar foyda bermaydi.
Nega bunday og‘ir yukla yuragingni ezasan?
Axir o‘lim kelganda hech narsa yordam bermaydi.
Na boylik, na san‘at, na she‘r,
Na oltin, na taqinchoq, na ipak va na bezaklar
Na bezatilgan otlar, na yasatilgan fillar
Chunki lo‘li chodirini ko‘chirgan vaqtda
Faxr , sharaf va qolgan narsalar

Va hatto eng yaxshi narsalar foyda bermaydi.
Seni o‘lim qamchisi bilan savalaganda
Ba‘zilar mol-dunyoyingni talaydi,
ba‘zilar qop va xurjuningni
Sen esa yolg‘iz qabrda chang orasida yotasan,
Biron odam, Nazir, hech kim sen haqingda o‘ylamaydi.

Nazir she‘riyatining doimo alohida bob sifatida tahlil qilinishining asl sababi – albatta u o‘zigacha bo‘lgan she‘riy an‘anaga hurmat ko‘rsatgan holda na Dehli va na Lakxnau maktabiga xos bo‘lmagan o‘z uslubini yaratdi. U bu uslub asosida qarashlar tizimini emas, hayot tajribasini ko‘rdi. Ayni shu narsa o‘zigacha yashab ijod etgan biron shoirda yo‘q uslubga zamin yaratdi. Aytish lozimki, o‘sha davrda uning bu yangi yo‘nalishi aks-sado bermadi, u o‘z izdoshlarini topmadi. Ammo keyinchalik tog‘ning viqori uzoqdan aniqroq ko‘ringanidek, yillar o‘tib borgan sayin Nazirning she‘riyatda hech naziri yo‘q ekanligi ochildi. Uning asarlarida hayot va she‘riyat o‘z tajassumini topgani bois urdu she‘riyati tor o‘zanidan chiqib, bepoyon kengliklarga bo‘y cho‘zib bordi.

Urdu she‘riyatning to‘rt ustuni:

Tayanch so‘zlar va iboralar: Orzu, fors, arab, turkiy, ekvilalent, atamalar lug‘ati, Mir Taqi Mir, musaffo til, Najmiddin Obro‘, nakx-shikx uslubi, masnaviy, so‘fiy, Ost-Indiya, Tobon, Hotim, Mirzo Mazhar Jonjonon, rexta, ilohiy ishq

Darsning maqsadi: Urdu she‘riyatning to‘rt ustuni (Jonjonon, Mir Dard, Mir Taki Mir, Mirza Savdo) nomi bilan tanishgan shirlar ijodi haqida ma‘lumot berish

Ma‘lumki, urdu tilida yozish harakati Valiyning piri Sa‘dulloh Gulshan tomonidan boshlangan va fors mutaxassisi Sirojuddin Ali Xon Orzu tomonidan davom ettirilgan, degan umumiy qarash mavjud. Orzu Agrada tug‘ilib, bir qancha vaqtini mashhur shoir Muhammad G‘aus Gvalioriy dafn etilgan Gvaliyorda o‘tkazgan. Taxminan 1720 yilda Dehliga borgan. Poytaxtda bir qancha yetakchi siyosatchilar e‘tiborida bo‘ladi. Dehlidagi vaziyat yomonlashgach, Avadhga yo‘l oladi va tez orada navob Shuja-uddavla tomonidan unga oyiga uch yuz rupiylik nafaqa belgilanadi. U 1756 yilda Lakxnauda vafot etadi va Dehlida dafn qilinadi.

Orzu ko‘proq tilning sofliğiga qiziqqan olim edi. Shuning uchun u asosan ritorika, notiqlikka oid asarlar va klassik fors she‘riyatiga sharhlar yozib qoldirgan. 1750 yilda tugatilgan “Majma un-nafayis” tazkirasida u “Safinayi Xushgu” kitobi muallifi Xushgu bilan yigirma besh yil davomida do‘st bo‘lganligini yozgan. U fors, arab va turkiy ekvivalentlari berilgan urdu atamalari lug‘atini tuzgan va shu orqali urdu tili so‘z boyligiga o‘z hissasini qo‘shgan; uning muridi Takchand Bahor ham forsiy leksikologiyaga oid asari bilan shuhrat topgan. Lekin, goh-gohida urducha she‘rlar ham yozib turgan. Adabiy tanqidchi sifatida u forsiy ijodkor Ali Hazinga “hujum” qilgan. U ham o‘z o‘rnida fors-urdu adabiyotining mujmal uslubi va uning vakillari Mirzo Bedil va Nosir Ali Sirhindiyga qarshi fikrlar bildirgan.

Garchi o‘zi urduda she‘rlar yozmasa ham, Orzu fors tili fonetik va grammatik qoidalarini yaxshi bilishi unga yangi adabiy tilga e‘tibor qaratgan shoirlar uchun qoidalar tuzib chiqishga imkon bergan. Shuning uchun Muhammad Ozod uni “Obi hayot” asarida maqtaydi:

Orzu Xon urdu uchun Aristotel mantiq fani uchun qilganchalik ulkan ishni qildi. Barcha mantiqchilar Aristotelning izdoshlari deb atalganidek, barcha urdu olimlari ham Orzu Xonning izdoshlaridir. Garchi uning forsiydagi katta asari tufayli urduda devon tuzishga imkoni bo‘lmagan bo‘lsa-da, urduni isloh qilgan deb ataluvchi olimlarning barchasiga Orzu Xon ta‘lim bergan, deyishga asosimiz yetarli¹⁷.

Uning muridlari orasida eng mashhuri Mir Taqi Mir bo‘lgan, lekin uning shogirdlari orasida ko‘p shoirlarni sanab o‘tish mumkin. Ularning hammasi urduni musaffo til bo‘lishiga harakat qilgan; hindiyda qo‘pol va eskirgan deb hisoblangan so‘zlar o‘rniga fors tilidan chiroyli va dilkash so‘zlar qo‘shilgan. Dakhniy rivoji davri oxirida boshlangan urduni forsiylashtirish jarayoni davom etdi va kuchayib bordi. Vazn va qofiya qoidalarini qat‘iylashtirildi. Dehlidagi dastlabki urdu she‘riyatida qo‘llangan qofiya qat‘iy tanqidga uchradi. Bu jarayon deyarli bir asr davom etdi va keyingi davr Lakxnau shoirlari ijodidagi nozik va sayqal berilgan iboralar bilan o‘z cho‘qqisiga chiqdi.

Orzuning shogirdlari orasida uning qarindoshi Shoh Muborak Najmiddin Obro‘ ajralib turadi. Shoh Muborak Obro‘ (asl ismi - Nizomiddin) ma‘lumotlarga ko‘ra, mashhur so‘fiy o‘tgan. U Gvaliyor rojaligida yashab, Orzuning suyukli shogirdi bo‘lgan. Taxminan 1750

¹⁷ Annemarie Schimmel. Classical Urdu Literature. Otto Harrassowitz. Wiesbaden. 1975., P. 164

yilda vafot etgan, asarlari saqlanib qolmagan. Shuning uchun biz shoirning faqatgina tazkiralarda yozilgan sheʼrlarining lavhalari orqali baʼzi maʼlumotlarga ega boʻlishimiz mumkin.

U masnaviy yozgan, uning nakx-shikx uslubidagi masnaviysida sevikli yorning goʻzalligi kuylanadi, uning goʻzal qiyofasi tasvirlanadi. Obroʻ uslubiy bezaklar (avankar) uslublaridan keng foydalangan, shu sababli uning sheʼrlari baʼzida tushunish uchun juda qiyindir, shu bilan bir paytda ular Dehli ogʻzaki tilining oʻziga xosligini koʻrsatib beradi. U urdu sheʼriyatining Dehliidagi haqiqiy fidoyilaridan biri boʻlib, u “Mavzayi arayishe maʼshuq” ishqiy asarini yozgan. U eyhom sanʼatini qoʻllash boʻyicha mohir boʻlgan. Eyhomdan foydalanish dastlabki urdu shariyatining asosiy jihatlaridan biri boʻlgan. Koʻp devonlar shuningdek, Obroʻniki ham shu davrda tuzilganligidan dastlabki davr tanqidchilari odatda oʻsha davr shoirlarini umumiy qilib eyhomchilar deb atashadi. Eyhom sanʼatida ikki maʼnoli soʻzlarni shunday qoʻllash kerakki, bunda asosiy emas, tag maʼno nazarda tutiladi. Uning kelib chiqishi Holiy va bir qancha oʻsha davr tarixchilari fikricha, hindiydagi dohraning taʼsiri natijasida yuzaga kelgan; hind musulmonlari orasida esa eyhomli sheʼrlarni topish uchun Amir Xusravning devoniga murojaat qilishimiz yetarli. Oʻz davrining talablariga mos tushish uchun juda murakkab ritorik shakllarni oʻzlashtirgan shoirlarni tanqid qilish adolatsizlik boʻladi; yaxshisi, adabiy tillar orasida endigina rivojlanayotgan tilga shunday sanʼatlarni olib kira olganligi uchun ularning iqtidoriga qoyil qolishimiz kerak. Obroʻdan tashqari baʼzi manbalarda “sunʼiy shoirlar” orasida Mazmun ham keltiriladi. Bir qancha boshqa shoirlar singari u ham Dehliidagi “Ziynat al-masajid” masjidida darveshlik qilish uchun harbiy faoliyatini toʻxtatgan.

Urdu adabiyotining gullab-yashnashiga mislsiz taʼsir koʻrsatgan ijodkorlar haqida toʻxtalib oʻtsak. Bu davrda nasr hali yetarlicha rivojlanmagan, sheʼriyatda esa eng koʻp tarqalgan janr gʻazal edi. Kamdan-kam hollarda masnaviy, marsiya yozilgan. Sheʼriy asarlarning gʻoyaviy tarkibi va mavzusi borasida toʻxtaladigan boʻlsak, mualliflar koʻpincha muhabbat, baxt, axloq va hokazo mavzularni yoritgan. Fors tilining kuchli taʼsiri bilan bir qatorda, shuningdek, braj va janubiy urdu tilining taʼsiri ham katta boʻldi. Oʻsha davr shoirlari koʻproq alankar usulidan, ayniqsa, “yamak” va “shlesh” usulidan foydalanishgan. Ayrim tadqiqotchilar, yozuvning oʻxshash shakli hindu sheʼriyatiga taqlid boʻlganligini taʼkidlashadi, boshqa tadqiqotchilar esa, fors adabiyotining Hindistonga kirib kelishi bilan fors sheʼriyati soʻz oʻyiniga aylandi, deb

hisoblashadi. Hotim va Mirzo Mazhar bu kamchiliklarni ko'rsatib o'tishgan bo'lsa-da, grammatika va she'riyatga kam e'tibor qaratilgan. Keyingi davr shoirlari, adabiy an'analarga tayanib, shaklni takomillashirib va mazmunni chuqurlashirib, yangi she'riyatga asos solishdi. Biz hozir so'zlayotgan davrga ko'plab shoirlarning ijodi kiradi, biroq biz eng yetakchi shoirlar - Fig'on, Tobon, Dard, Savdo, So'z, Mir, Qoyim va Yaqinlarning asarlariga tavsif beramiz. Shuni unutmaslik kerakki, vaqt – bu oqar daryo va adabiyot tarixida bir davrni boshqasidan aniqlik bilan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun, agar biz shoirlardan tashqari, bobning boshida sanab o'tilgan boshqalarni ham yodga oladigan bo'lsak, bu ularning nomlari she'riyatga muhim o'zgartirishlar kiritganini anglatmaydi. Faqatgina xronologik tamoyilni ushlab turish maqsadida, biz ularning turli davrlardagi ijodiga murojaat qilamiz.

Yuqorida Shoh Olam hukmronligi davrida Dehlida ahvol og'irlashgani haqida gapirildi. Deyarli o'n yil mobaynida shoh Allohobodda Ost-Indiya kompaniyasining asiri sifatida ushlab turildi. San'at va adabiyotda jimjitlik hukm surdi. Umidsizlik va mushkil vaziyat shoirlar ijodini so'ndirib qo'ydi va shunda ular Dehlida ularga rahnamo topilmasligini tushunib etdi va boshqa shaharlarga tarqalib ketdi. Aytishlaricha, birinchilardan bo'lib, Nadim izdoshlaridan biri, valine'mat Ahmadshohning o'g'li Fig'on (haqiqiy ismi – Ashraf Alixon) shaharni tark etgan. U dastlab Avadh navobi Shuja-uddavla saroyiga, keyinchalik Patna (Azimobod)ga borgan. Patna maharajasi Shitabaray yuksak mamnuniyat bilan uni qabul qilgan va hech qayerga ketishiga izn bermagan. Fig'on 1772 yilda vafot etgan. Uning ikki she'riy to'plami mavjud: biri fors tilida, ikkinchisi esa urdu tilida. She'rlar uslubi jo'n, oddiy. Urdu tilidagi to'plami yaqin davrlarda chop etildi.

Tobon taxallusi ostida ijod qilgan Mir Abdulhay Dehlida yashagan. U juda xushro'y bo'lib, shoh undan zavq olib turishi uchun uning taxtiga yaqinroq kelib o'tirgan. Shoir ichkilikka ruju qo'ygan va shu sabab yosh dunyodan o'tgan. Tobon o'z davrining yirik shoirlaridan sanaladi. Nashr etilgan she'riy to'plamlardan ma'lum bo'lishicha, shoir she'rlari sodda va go'zal .va g'oyat ta'sirchan bo'lgan. Garchi shoir ijodi rang-barang bo'lsa-da, adabiyot tarixiga u g'azal ustasi sifatida nom qozongan.

Xuddi shu guruhga o'z she'rlarini Mazharga ko'rsatib undan maslahat olgan bo'lsa-da, Orzu va Obro'ning shogirdi sifatida tanilgan Mustafo Quli Xon Yakrang ham mansub; yana Ashraf Ali Fig'on va Hasan Ali Shavq nomlarini sanab o'tsak arziydi. Mashhur shoir Qoyimning akasi Mir Muhammad Shokir bir qancha hazilomiz she'rlar

bitganligi yozilgan. Sayid Muhammad Shokir Najiy taxallusi ostida ijod qilgan. Ma'lumki, u Amirxon qo'shinida xizmat qilgan va yosh vafot etgan (taxminan 1754 yilda). Najiy Dehlining Nodirshoh tomonidan talon-taroj qilinganligining guvohi bo'lgan va uning mazkur voqeani tasvirlagan asari chuqur qayg'uga to'la. Uning she'rlar to'plami yo'qolgan.

Bu davrning eng mashhur shoirlaridan yana biri - Hotimdir. U 1699-yilda Dehlida tug'ilgan va 1792 yilda vafot etgan, deyarli bir asr yshagan. Shuning uchun 1740 yillarda bo'lgan uslubdagi o'zgarishni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Hotim (haqiqiy ismi Shayx Zahiruddin) yirik shoir bo'lishi bilan birga bir qator shoirlarning ustози bo'lgan.

O'sha davrda ko'plab dehlilik shoirlar Valiy ijodining kuchli ta'siri ostida bo'lganlar. Hotim ham unga taqlid qilgan. Hotimning asarlarida shoir hayotining uzoq yillari davomida tilda kechgan o'zgarishlar o'z aksini topgan. Uning birinchi she'riy to'plami asosida eski uslubdagi she'riyatning barcha xususiyatlari haqida so'z yuritish mumkin. Ammo, tez orada u dastlabki uslubidan voz kechdi va sof, jonli tilda yoza boshladi. Ikkinchi to'plamiga yangi she'rlar ham kiritildi.

To'plamga yozilgan so'zboshida muallif o'z tili va umuman, she'riyat haqida bir qator fikrlarini bayon etgan. Bu so'zboshi adabiyotshunoslik asari sifatida g'oyat qiziqarlidir. To'plamning oxirida muallif o'z o'quvchilarining nomlarini zikr etadi, ulardan eng ko'zga ko'ringani bu Mirzo Muhammad Raviydir. Hotim ijodi uchun asosan, ishqiy mavzu xos, bu o'sha davrning boshqa shoirlarning ijodida ham kuzatiladi.

Hotim ham fors tilida ijod qilgan, ammo u avvalambor, urdu shoiri sifatida barchaga ma'lum. Hotim, yuqorida aytilganidek, dastlab ko'pchilik Dehli shoirlari kabi Valiyning ta'siri ostida yozgan; va uning ulkan devoni Mir Hasan aytganidek, "eski uslub" ya'ni eyhomchilar maktabiga tegishli deb hisoblanadi. Mir Hotimni ya'ni qo'pol qilib aytganda "johil inson"ni ayblagandan besh yil o'tib, shoir uning "Devonzoda" nomli asarini tanladi. Urdu adabiyotidagi asosiy an'anaga ko'ra Hotim 1757 yilda bu asar muqaddimasida shunday so'zlarni yozgan: Men faqat oson, ravon, nozik va sayqallangan so'zlar ichida ko'p qo'llaniladigan fors va arab so'zlaridan foydalandim. Hindcha so'zlardan voz kechdim, arab va fors so'zlarini shu hududga moslashtirdim. Shuningdek, she'rlar qurilmasidagi qat'iylikka amal qildim va mukammal notiqlikdan foydalandim.

Hotimning boshqa tillardan olingan soʻzlarni mahalliyashtirishga qarshi fikrlarini bir necha oʻn yillikdan keyin Insho ham tasdiqladi. Lekin, Inshoning oʻzi boshqa tildan olingan soʻzlarning urduda soʻzlashuvchilar tomonidan aytilish shakllarini toʻgʻri deb hisoblagan. Hotim esa haqiqiy talaffuz uslubuni takrorlagan har qanday soʻzlardan voz kechgan va shu orqali silliq va toza Lakxnau uslubi uchun yoʻl ochib bergan. Hotimning juda koʻp izdoshlari boʻlgan. Ular orasida urduning “toʻrtta ustunidan” biri Savdo ham bor.

Koʻpchilik adabiyotshunos olimlarning tasnifi boʻyicha bu toʻrtta ustun Mahzar Jonjonon, Mir Dard, Mir Taqi Mir va Mirza Savdodir. Zamonaviy adabiyotshunoslar bu roʻyxatdan Mazharni chiqarib tashlab, uning oʻrniga ishqiy masnaviylar ustasi Mir Hasanni qoʻshishadi.

Mirzo Mazhar Jonjonon koʻp sonli sheʼrlar muallifi (1791 yilda sakson yoshida oʻldirilgan). Uning sheʼrlaridan olingan lavhalar faqatgina turli tarjimai hollarda keltirilgan. Shoir sheʼriy asarni boshqotirmaga aylantiruvchi alankarlardan sheʼriyatni ozod qilish tarafdori boʻlgan. Fors sheʼriyati va sanʼatini yaxshi bilgan holda u oʻz asarlarida fors leksikasini keng qoʻllagan, uning izdoshlari ichida Yaqin ismli shoir mashhurdir.

Mazhar Jonjonon shoirdan koʻra diniy shaxs sifatida koʻproq qiziqishga sabab boʻladi. Aslida, u XVIII asrda Dehlidagi uchta mashhur tariqatchilardan biri boʻlgan. Shoh Valiulloh va Mir Dard bilan bir qatorda u naqshbandiy tariqatining eng yaxshi jihatlarini aks ettiradi. Naqshbandiy tariqatining Hindistondagi eng mashhur vakili Ahmad Sirhindiy boʻlgan. Bu tariqat Akbar davrida shakllangan sinkretik rasm-rusumlarga qarshi kuch sifatida shoh saroyida taʼsirga ega boʻldi.

Garchi shoh Valiulloh Naqshbandiy taʼlimotiga toʻliq amal qilmagan boʻlsa-da, odamlarga islomni sodda tilda tushuntirishga harakat qilgan tariqatchilar orasida alohida oʻringa ega: Uning Qurʼonni fors tiliga qilgan muvaffaqiyatli tarjimasi keyinchalik oʻgʻillari tomonidan bu muqaddas kitobni urduga tarjima qilinishi uchun yoʻl ochib bergan. Valiulloh oʻsha davrdagi bir qancha notoʻgʻri taʼlimotlarga ergashgan, diniy ulamolarga qarshi boʻlgan va asl naqshbandiy tariqatida amaliy siyosatga eʼtibor qaratgan. U Najib-uddavla, Nizomulmulk va boshqalarga yozgan xatida siyosatga aralashuvi Ahmad Shoh Durroniyni 1760-1761 yillarda marathlarga qarshi kurashga taklif qilishi bilan yakunlangan. Uning muridlari va ortidan ergashuvchilari va ayniqsa, nabirasi Ismoil Shahid va oʻgʻlining muridi Sayyid Ahmad gʻayridinlarga qarshi kurashda davom etishgan. Mirning Mazhar haqidagi quyidagi fikri koʻproq shoh Valiullohga mos keladigandek tuyuladi: Garchi sheʼr yozish uning yuksak

darajasi uchun juda past ish hisoblansa-da, vaqti-vaqti bilan bu foydasiz san‘at bilan ham shug‘ullanib turgan.

Mazhar Jonjononga keladigan bo‘lsak, u 1699 yilda Agrada Mirza Jon oilasida tug‘ilgan. Uning yozishi bo‘yicha, o‘n uch yoshidan “darveshxonalar hovlisini supurishni boshlagan”. Ma‘lum muddat u yosh shoir Tobonga biriktirib qo‘yiladi. Aynan unda Mazhar an‘anaviy so‘fiylikdagi ilohiy ishqning aksini ko‘rgan. Mazhar ajoyib olim va tariqat yetakchisi bo‘lgan. Uning mashhurligining asosiy sababi har doim ham klassik forsiyda yozilmagan ta‘limotlari va maslahatlari berilgan xatlaridadir. U forsiy adabiyot elementlarining katta qismini urduga olib kirgan, lekin bu uning adabiyotga qo‘shgan hissasining kichik bir qismi, xolos. Asr oxirida Mushafiy “rextaning ilk haykaltaroshi“ deb atalgan; 1774 yilda boshqa bir tanqidchi quyidagicha ta‘rif bergan: Bu farishtasifat shaxs ilk iyyomdan voz kechgan va Dehlida ishlatilgan urduye mualla tilidan foydalangan.

Biroq shialardan bo‘lgan Savdo Mazharning uslubini satira ostiga olgan: Forsiyda yaxshi she‘r yozganlar uni rexta deb atashadi, lekin, urdudan yaxshi xabardor bo‘lgan odamlar buni eshitishi bilan bu rexta emas, deydi! U so‘zini quyidagicha tugatadi: U misoli na uyga, va na ko‘chaga tegishli itdir.

Savdoning satirasi uning Shoh Valiullohga qilgan tanqidi kabi diniy qarama-qarshilikning ham natijasidir; naqshbandiy tariqatiga qat‘iy amal qilganligidan u shialar haqida ko‘p tanqidiy fikrlar bildirgan va hatto o‘z qarashlarining qurboni bo‘lgan; cakson ikki yoshida Muharram marosimi ustidan kulgani uchun shialar tomonidan otib o‘ldiriladi.

Uning muridlari orasida hech kim urduning buyuk shoirlari safiga kirmaydi; ular orasida uning yaqin do‘sti In‘omulloh Xon Yaqinni ajratib ko‘rsatish mumkin. U Ahmad Cirhindiyning chevarasi bo‘lib, yigirma besh yoshida otasi tomonidan o‘ldirilgan; u bir nechta ajoyib she‘rlar qoldirgan (garchi Mir ularni yoqtirmagan bo‘lsa-da). Shuningdek, ular orasida keyinchalik Azimobod/Patnaga ko‘chib ketgan Hoja Ehsanulloh Bayon va Mir Muhammad Boqir Hazin ham bo‘lgan. Mazharning muridlari ancha faol bo‘lishgan. Hindistondagi holat tufayli yana so‘fiylikka qiziqish uyg‘ondi. Bu o‘z navbatida hududiy tillar (sindhiy, panjobiy) va urduda tariqat she‘riyati yana rivojiga turtki bo‘ldi. Hatto provinsiyalarda ham diniy mavzularda urdu she‘riyati rivoj topdi: Ahmad Ali Shivrajpuriniyning “Jumjumanona” asari Farididdin Attorning mo‘jizaviy hikoyasini qayta yoritadi. Bundan tashqari “Qissayi Mansur”

masnaviysida yana o'sha Attor tomonidan berilgan ma'lumotlarga asoslanib, Mansur Halloj haqida hikoya qilinadi.

Taxminan 1750 yilda Mir Dardning do'sti Muhammad Husayn Kalim Ibn Arabiyning oddiy o'quvchi tushunishi qiyin bo'lgan "Fusus al-hikam" asarini rextaga tarjima qilgan. Kalim shuningdek, talaffuzga oid qo'llanma yozgan va "Bedil uslubida" urduda she'rlar yaratgan; "Shuning uchun, - degan edi Mir-odamlar uning she'riyati mag'ziga tishi o'tmagan".

Urdu tilida g'azal janri rivojlanishiga ayniqsa ko'p hissa qo'shgan shoirlar - Dard, Savdo va Mirlar edi. Ularning barchasi katta badiiy kuch bilan jamiyatdagi mavjud qo'rquv va hayajonlarni tasvirlaganlar. Ularning fikricha, she'riyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi - jamiyatning ijtimoiy yoki iqtisodiy muammolarini emas, balki umuman hayotni tasvirlashdan iborat edi. Shoirni aniq tarixiy voqea-hodisalar emas, balki insonning oddiygina his-tuyg'ulari yoki mavhum falsafiy mavzular qiziqtirishi lozim.

Shoirlar o'z g'azallarida aniq bir voqea-hodisalarni aks ettirmaganlar, lekin shunga qaramay ular she'rlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular hayotni haqqoniy ko'rsatib berdilar.

Urdu she'riyati rivojlanishida o'z o'rniga ega bo'lgan Mazhar Jonjonon va Shoh Valiullohdan tashqari naqshbandiylik tariqati yetakchilari orasida eng mashuri, urdu tilidagi ilk va qaysidir ma'noda yagona haqiqiy tariqatga oid she'rlar yozgan Hoja Mir Dard hisoblanadi. Hoja Mir Dard - urdu tilida ijod qilgan yirik shoir, so'fiy. 1721 yilda Dehlida taniqli so'fiy Xoja Muhammad Nosir Andalib oilasida dunyoga keldi. Yoshlik paytidanoq Dard so'fiylik g'oyalarini qabul qildi. Uning qalamiga fors tilida yozilgan bir nechta falsafiy asarlar tegishlidir. U juda iqtidorli hamda savodli shaxs bo'lib, shu bilan birga musiqadan ham xabari bor inson edi. U butun umr Dehlida yashadi va hatto hamma bu yerni tark etayotgan paytda ham u bu yerda qoldi. Shoirning u qadar katta bo'lmagan urdu hamda fors tilida yozilgan she'riy to'plami ma'lum. Dard 1785 yilda vafot etib, Dehlida dafn etilgan.

Dard asosan tasavvufning asosiy tamoyillarini bayon etadigan g'azallar yozdi. Uning she'rlari taxallusiga ("Dard") monand qayg'uli bo'lib, ularning tili ta'sirliligi bilan ajralib turar edi. Aynan Dardning ijodi bizni oddiy va jo'n bo'lgan Dehli og'zaki tili bilan tanishtiradi. Uning zamondosh shoirlari Dardni ajoyib shoir deb hisoblar edilar. Shuni ham unutmaslik kerakki, u nafaqat she'rlar muallifi sifatida mashhur edi, balki u bhakti hamda so'fiylikning targ'ibotchisi sifatida ham taniqli edi.

Dardning hajm jihatdan katta bo‘lmagan she‘riy to‘plamiga asosan uning qisqa-qisqa g‘azallari to‘plangan bo‘lishiga qaramay, ular Mavlono Muhammad Husayn Ozodning ta‘rifiga ko‘ra, qilichdek o‘tkirdir.

Dardning Avrangzeb davrida Markaziy Osiyodan ko‘chib ketgan ajdodlari buxorolik tariqat yetakchisi Bahovuddin Naqshbandning avlodlari deb hisoblanadi. Dardning otasi Noshir Muhammad harbiy xizmatdan bo‘shab, o‘zini to‘liq tariqatga bag‘ishlagan. She‘riyatda va so‘fiylikda u Sa‘dulloh Gulshanning muridi bo‘lgan, Gulshan ham o‘z navbatida Ahmad Sirhindiyning nabirasi Abdul Ahad Miyon Gul Vahdatning ortidan ergashgan. Gulshan 1728 yilda Dardning ota uyida vafot etgan. Ko‘p yillar davomida u har shanba kuni Ziynat al-Masajid masjidida she‘riyat ustalari bo‘lgan do‘stlarini yiqqan. Ular orasida nom chiqargan fors shoiri Nosir Ali Sirhindi, Mirzo Bedil va Kalim ham bo‘lgan. Nosir Muhammad Gulshan sharafiga Andalib, ya‘ni bulbul degan taxallus olgan. Uning iqtidorli o‘g‘li Xoja Mir tez orada Dard taxallusi bilan mashhur bo‘ldi. 1734 yillarda Andalib musulmonlarni sikhlariga qarshi kurashishga undagan naqshbandiylikning “Tariqaye Muhammadiya” yo‘nalishini yaratishga jalb qilinadi. Muhammad Nosirning ikkinchi piri Ahmad Sirhindiyning chevarasi va sirhindiylar xonadonining oxirgi vakili Pir Muhammad Zubayr bo‘lgan. Avrangzebning o‘limidan keyin Zubayr shahzoda Muazzamga yaqinlashadi va unga va shoh Olamga ustozlik qiladi. Dard o‘zi haqida shunday yozadi: “Dunyoga bo‘lgan mayl va havas ila ko‘p yelib yugurdim. Yosh paytimdanoq bunday kekkaygan va beqaror dunyodan yuz o‘girdim va yigirma to‘qqiz yoshimda darvesh libosini kiydim”.

Andalib 1758 yilda vafot etganda Dard “Imam-al muhammadiyn” sifatida uning o‘rnini egalladi. U otasiga har jihatdan o‘xshash bo‘lib, 1785 yilda otasi kabi 66 yoshida vafot etdi. Dardning qoldirgan merosi salmoqli. Uning forsiydagi “Ilm ul kitab” asari tariqatga oid fikrlarning mukammal ensiklopediyasi hisoblanadi. Bu asar dastlab ungacha bo‘lgan davrda kamayib ketgan qisqa dostonlar – bir yuz o‘n bitta “vardat”ga sharh sifatida yaratilgan. Uning eng mashur va eng ko‘p o‘qilgan asari “To‘rt qo‘llanma”: har biri uch yuz qirq bitta fikr va aforizmlardan iborat. Lekin, Dardning shuhrati ostida o‘z orzulari, fikrlari va umidlarini ma‘noli misralar orqali ifodalagan kam sonli urdu she‘hlari yotadi.

Dard qiyin vaziyatda ham Dehlini tark etmagan yagona yirik shoir bo‘lgan. Agar Bobo Farid Ganji Shakkar bunday sabr tog‘ini ko‘rgan bo‘lganida, u barmoqlarini tishlagan bo‘lardi, bu haqiqiy ma‘naviy qashshoqlik tufayli unda paydo bo‘lgan hayratlanishdan barmoqlar xuddi

shakarqamishga aylanib qolgandek bo'lardi. U ijod namunalarini yozgan qog'oz atirgul barglariga aylangan, uning qalamining ovozi bulbullar xonishiga o'xshab qolgan bo'lardi.

Dardning forsiydagi she'rlari ancha sodda; uning ichki hissiyot dunyosi o'zini anglashga bo'lgan doimiy intilishni aks ettirgan. Bu narsa unga payg'ambar Muhammadning haqiqiy vakili hisoblangan otasidan o'tgan. Ko'pchilik Dardning kamtarinlik, soddalik va oddiy, lekin o'ziga tortuvchi xulq-atvorini maqtaganlar shoir o'zini Muhammad payg'ambarning sarhadsiz dinining islohotchisi deb hisoblaganidan xabardor bo'lishmagan.

Gulshan va Andalib kabi Mir Dard ham bir oyda bir marta unga va otasiga Avrangzebning qizi tomonidan tuhfa qilingan uyda shoir do'stlari bilan suhbatlar -mushoira o'tkazgan. Bunday mushoiralarda hali rivojlanmagan urdu she'riyatining qoidalari va muammolari tahlil qilingan, shoirlarning uslublari tanqid qilingan yoki maqtalgan. Dard hech qachon mukofot uchun she'r yozmagan va she'rlarini hissiyotlaridan kelib chiqib yozgan. Buning uchun u ko'pchilik tomonidan hurmat qilingan.

Mushoirlar Dardning hayotlik davrida urf bo'lganlik ehtimoli katta. Shoirlarga g'azalga aylantirishi uchun bir necha qator she'r yoki she'r yozishi uchun g'oyalar berilgan. Ular oldiga sham qo'yilgan. Odatda eng yirik shoirlar eng oxirida she'r o'qishgan. Gulshan kabi Dard ham musiqani sevgan va o'z uyiga musiqachilarni tez-tez chaqirib turgan. Uning bazi hamkasblari uning tariqatga oid she'rlarini musiqachilar noto'g'ri sharhlashadi, deb hisoblashgan. U musiqaga oid "Hurmati g'ina" risolasini yozgan. Biroq kamchilik yuqori darajadagi musiqa uning she'riyatini to'liq ochib bera olishiga ishongan. Garchi aniq isbotlar yo'q bo'lsa-da, "tarannum ke sath", ya'ni urducha she'rlarni ma'lum bir kuyga solib aytish uning uyidagi majlislarda ko'p qo'llanilgan deyishga asos bor.

Dardning urducha she'rlari unchalik katta hajmli bo'lmaganligi bilan bir qatorda, juda sodda hamdir. Tasavvufning yetuk vakillarining so'zlari shunday yengillik (oddiylik) bilan qo'llanganki, har qanday odam uning chuqur va qiyin ma'nosini deyarli unutib qo'yadi:

Ittifoq davlatida barcha to'zgan birlashar,
Atirgul gulbarglari bir yerga jo bo'lar.

*

Do'stimiz yuzidagi parda(ro'mol)- biz, o'zimiz

Ko‘zlarni ochdigu parda yo‘qoldi.

Ko‘pgina so‘fiylar singari Dard payg‘ambirimizning hayot - uyqu, o‘lim esa undan uyg‘onish” degan fikrlarini juda yaxshi ko‘rgan:

Ey beg‘am odam , o‘lim vaqti bor haqiqat ma‘lum bo‘lar,
Barcha ko‘rganlaring tush, eshitganing - bir ertak.

Bu she‘rda uyqu va ertak so‘zlari qo‘llangan; forsiy shoirlar uchun ertak bolalarni uxlatish vositasi hisoblangan. Haqiqatan ham, Dardning ijodi o‘sha davr hind-fors she‘riyatidagi butun tasvirlar xazinasini o‘z ichiga olgan: suvdagi oyoq izi, harakatlanayotgan qumtepalik, oftobda yaltirovchi shabnam tomchisi, quriyotgan atirgul. U har yerda xudoning tajallisini ko‘rgan. Shunday bo‘lsa-da, uning ko‘rinmas ekanligi, Yo‘qlik sahrosidagi har bir yangi qumtepaliklar orasida yashiringani yoki cheksiz ummondagi har bir yangi to‘lqinda o‘zini nayonom qilishini bilgan:

Agar seni yoki sening ulug‘vorligingni ko‘rolmasam
Dunyo ko‘ra olish yoki olmasligim muhim emas.
Laylu nahor, ey Dard, men u zot ovarasi,
dunyoda har kas ko‘rishga umid qiladigan.

Tarkidunyo qilib o‘tkazilgan hayoti va oilasi, do‘stlariga bo‘lgan muhabbatidan keyin u dunyoda yagona visol borligini anglagan:

Bu olamda xursandchilik va qayg‘u bitta suratga ega:
Atirgul yuz ochganidan uni xursand, ham qalbi yara, deb ata.

Dardning do‘sti Mir aytganidek, g‘unchaning ochilishi uning ham tabassumi, ham o‘limidir.

Dardning iqtidori qisqa she‘rlarda juda yaxshi namoyon bo‘lgan. Bunday she‘rlarida u xanjarga qilichning o‘tkirligini jo qila olgan. Uning she‘rlari yuzlab tariqatchi shoirlar an‘analari birlashgan va yangicha til vositasi yordamida yarqirovchi kichik kristallarga o‘xshaydi.

Dardning muridlari orasida Qoyim va Firoq eng mashhurlaridir. Savdoning ham yo‘l-yo‘riqlariga amal qilgan Qiyomuddin Qoyim Chandpuriy Dehlida yuqori harbiy lavozimni egallagan. Uzoq vaqt turli joylarda yurib, 1795-1796 yillarda Rampurda vafot etgan. Uning zamondoshlari uni eng yaxshi g‘azal yozuvchi shoirlardan deb

hisoblashgan. Qoyimning Dehliga qor yog‘ishi haqidagi she‘ri Garsin de Tassi tomonidan tarjima qilingan.

Uning urdudagi shoirlar haqidagi “Mahzan un-nikat” tazkirasi ham juda katta ahamiyatga ega. Garchi u o‘zini bu sohaning asoschisi deb faxrlansa-da, u Mir va “Tazkirayi rextago‘yan” asarini yozgan Fath Ali Husayniydan keyin uchinchi o‘rinda turadi.

Ko‘zga ko‘ringan shoir Hidoyatning jiyani Tanaulloh Xon Firoq mashur tabib bo‘lib, urduda Dardning ta‘limotiga qiziqqan va o‘zi forsiyda Mir Muhammad Bedorga ta‘lim bergan. Firoq she‘riyatining bizga ma‘lum bo‘lgan qismi u ustozining uslubiga yaqindan amal qilganini ko‘rsatadi. Uning quyidagi misralari naqshbandiylikning barcha asosiy tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi: Ko‘chib yuruvchi qumtepalik kabi men mangu uyda bo‘laman, na uyga talabim bor va na sayohatga hushim bor.

Bundan tashqari, Jahondor shoh bilan Dehlini tark etgan Buxoriy Said Mir Muhammad Ismoil Tapishning ismini ham aytish kerak. Inoyatullohning forsiy hikoyalarining she‘riy tarjimasi, “Bahori donish” masnaviysi bilan ko‘zga ko‘ringan. Ba‘zi satiralari bilan tanilgan Baqo Akbarobodiy Dardning muridi bo‘lgan.

Ba‘zi hindu shoirlar (Bexud, Jhumman, Huzur, Bhikare Lal Aziz) ham Dardning do‘stlari davrasiga kirgan. Uning o‘g‘li Mir Alam ham uzoq vaqt Bangolda yashagan; u ham otasining uslubiga amal qilgan. Dardning ukasi Muhammad Mir Itar (“ifor, duxi”) ajoyib matematik va musiqachi bo‘lishdan tashqari, o‘zi ham yaxshi she‘rlar yozgan. U o‘zidan devon va urdu tilidagi qiziqarli “Xab o‘ xayal” masnaviysini qoldirgan. Bu asarda shoir o‘z yoriga yuragini ochadi, u bilan birga bo‘lgan davri va uning hatti-harakatlarini eslaydi.

XVII-XVIII asr davomida pir-murid an‘analari borgan sari urdu shoirlari orasida yoyilib bordi. Avval ham shoirlar boshqalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan, lekin pir va murid o‘rtasida aloqa unchalik kuchli bo‘lmagan. Endi bu munosabatlar faqatgina ustozining uslubidan foydalanish bilan cheklanmay, ustozlar shogirdlarining she‘rlarini isloh qilishi kerak bo‘lgan; ko‘p hollarda ular o‘zlarining ma‘naviy bo‘g‘liqligigiga ishora qiluvchi taxallus ham tanlab bergan (Gul-Gulshan-Andalib-Dard-Itar). XVIII asrdan keyingi yozilgan tazkiralarda har bir shoirning ma‘naviy ustozlari haqida ham ma‘lumot berilgan. Taxalluslar ham sinshiklab tanlangan: aka-ukalarning taxallusi bir xil asosdan kelib chiqqan (Uns-Anis-Munis), yoki kasbga ishora qilgan (tabibning taxallusi Sihat). Ko‘p hollarda turli davr va turli joydagi shoirlar bir xil taxallusda

ijod qilishgan yoki ayrimlar maʼlum sabablarga koʻra oʻz taxallusini oʻzgartirgan. Bunday holatlar baʼzi kichik shoirlar ijodini oʻrganishda koʻplab chalkashliklarni keltirib chiqargan.

Dard Dehlida boʻlgan fojialardan saqlanish uchun oʻz dunyosiga gʻarq boʻlgan. Savdo esa boshqacha yoʻl tutgan: u satirik sheʼrlari orqali jamiyatni tanqid qilgan. Garchi sheʼriyatning boshqa yoʻnalishlaridagi qilgan ishlari salmogʻi ham katta boʻlsa-da, Savdo aynan urduda rang-barang satiralar ustasi sifatida nom qozongan. Bernard Luisning oʻrta asrlardagi shoirning vazifalari haqidagi fikrlari Savdoga toʻliq mos keladi:

Bugungi kunda katta qudrat manbayi boʻlgan ommaviy axborot vositalari mavjud boʻlmaganligi uchun oʻrta asrda istagan odam ijodkorlarni yollay olishi mumkin edi. Shoirlar ham oʻz oʻrnida turli voqealar, qarashlar va oʻz homiysi uchun qadrli va koʻngliga maʼqul tushgan odamlarning tasvirini yaratgan. Madhiyalar homiyni jamiyatdagi obroʻsini koʻtaradigan, satiralar esa uning raqiblarining obroʻsiga dogʻ tushirish vositasi sifatida qoʻllangan. Siyosat, turli fikrlar yoki yangiliklarni yetkazish bu turdagi sheʼriyatning asosiy vazifasi boʻlmagan. Shoirlar shuningdek, sheʼrlarida buyuk shaxslarning tugʻilish, turmush qurish va vafot etish sanalarini ham keltirib oʻtgan. Shu orqali qaysidir maʼnoda ijtimoiy hisoblar tizimini ham olib borgan.

.....

Oʻsha davrning yirik shoirlaridan biri Mirza Muhammad Rafiy (Savdo) edi. Mirzo Rafiuddin Savdo 1713 yilda Dehlida asli Kobuldan boʻlgan pathan savdogar oilasida tugʻilgan. U juda hazil-mutoyibani xush koʻrar hamda oʻzining zodagonlarga xos boʻlgan didi va moyilligi bilan ajralib turar edi. Koʻpchilik uni Shoh Hotimning shogirdi deb hisoblaydi, aslida yosh iqtidorli shoir sheʼriyat sirlarini dastlab Orzu va Hotim va bir qancha vaqt Imodulmulk muridligida yurib oʻrgangan. 1757 yilda Ahmadshoh Durraniy hamda marathlarining ishgʻolidan soʻng Savdo vayron boʻlgan poytaxt Dehlidan ketib, Farruxobodga yoʻl oladi. Avval u Farruxobod navobi Mehrbon Xon (Rindu) tomon yoʻl oladi, soʻng esa Avadh poytaxti Fayzobodga koʻchib ketadi. Shialardan boʻlganligi uchun Savdo Avadhdagi navoblar saroyida yashaydi va bir qancha madhiyalarida ularni maqtaydi. 1775 yilda Asaf-uddavla ergashib, yangi poytaxt Lakhnovga boradi va u yerda shohning shaxsiy shoiriga aylanadi. Tarixiy hujjatlarda bayon etilishicha, navob Shuja-uddavla uni taklif qilib xat yuboradi. Asaf-uddavla Lakxnauni oʻz poytaxti qilib olgandan soʻng, Savdo Avadh hukumati tomonidan har yili unga toʻlab boriladigan olti ming rupiy evaziga u yerda hech bir qiyinchiliksiz hayot

kechiradi. U 1781 yilda Lakhnauda vafot etadi. Mushafiy u haqda tarix yaratgan:

Savdo va uning yurakni seyrlovchi soʻzlari qani?

Savdo juda qiziqqon tabiatli inson boʻlgan. Koʻpchilik tanqidchilar uni oʻz davrida boshqalardan ustun deb taʼriflashadi. Hatto oʻz zamondoshlari bilan unchalik yaxshi munosabatda boʻlmagan Mir ham Dardni “chala shoir” deb atab, Savdoni oʻzidan tashqari urdudagi yagona haqiqiy shoir deb tan olgan.

Uning til bogʻiga olib kirilgan har bir goʻzal sheʼri fikrlar guldastasidir. Uning vaznga yaxshi tushgan sheʼrlari sarv daraxtiga oʻxshaydi. Agar Savdo sheʼrlarining qudrati va muallifning soʻz tanlay olish qobiliyati boʻlganda Mir sheʼrlarni goʻzal deb atamagan boʻlardi. Savdoning Makinga qarshi yoʻnaltirilgan “Ibrat al-gʻalifin” asari uning fors adabiyotini ham mukammal bilganidan dalolat beradi. Uning qasidaları koʻpincha eronlik qasida ustalarining ijod namunalari bilan taqqoslanadi. Lekin, biz uni Hoqoniy bilan bir guruhga kiritmagan boʻlardik. Uning qarashlari boshqacha, va koʻpchilik oʻrta asrdagi madhiya yozuvchilar va satiriklardan farqli ravishda koʻproq u faktlarga asoslangan. Biroq Savdoning uslubi hindiydan koʻra dastlabki fors sheʼriyatiga yaqinroq. Uni koʻpchilik sheʼrlarining loʻndaligi uchun “oʻz davrining qahramoni va urdu shoirlari lashkarining qoʻmondoni” deb maqtagan. Haqiqatan ham u mubolagʻaga juda mohir boʻlgan. Baʼzan ular meʼyorida ortiqcha tuyulgani bilan har doim Savdo ularni did bilan qoʻllagan. Savdo oddiylik tarafdori boʻlgan va sheʼriyatda koʻp maʼnoli soʻzlar ishlatishga qarshi chiqqan. Bu sheʼr u tanlagan uslubning haqiqiy tasviri hisoblanadi:

Zabonim mening soʻz saltanatining chevaridir,
Men tufayli kelinchak “Maʼno” oʻziga mos libos kiyadi.

Savdo oʻtkir tili bilan ajralib turgan, ayniqsa, zamondoshlari haqidagi satiralarda bu aniq koʻringan. Klassik taqqoslashlarni yaxshi koʻruvchi Garsin uni “hindistonlik Juvenal” deb atagan. Uning satiralarida ogʻir davrda Hindiston shimolidagi ijtimoiy hayotning toʻliq tasviri berilgan. Uning “Tazhiki roʻzgar” asari eng mashhurlaridan: unda keksa zodagonning kuchdan qolgan oti haqida hikoya qilinib, unda oʻsha davrdagi siyosiy va ijtimoiy hayotning zavolga yuz tutishi koʻrsatilgan.

Biz dostondagi hamma narsani ham yuzaki ma'nosiga ko'ra qabul qilmasligimiz kerak. Ot fors shoirlari tomonidan deyarli XII asrdan beri qo'llanilib kelinayotgan vafodor jonivor hisoblanadi. U hatto Dardning tariqatga oid asarida ham uchraydi va Eron, Turkiya va Hindistonda ko'pgina miniaturalar uchun qahramon bo'lgan. Biroq "Tazhiki ro'zgar" o'zining ishonish qiyin bo'lgan mubolag'alari bilan eng taniqli doston bo'lib qoladi:

Mening bir do'stim bor -
Kim uning ismin aytsa,
Omadsizlik va baxtsizlik uning qismati.
Garchi maoshi uning 100 rupiy bo'lsa-da,
juda yomon, qaysar ot boqadi.
Xuddi o'yinchoq oti bor boladek,
Unga na ovqat ,na o't, na dam bermaydi.
Kuchiyu madori qolmay
Bir necha kunlab och qoldi-ku,
Tanasida tamg'asidan boshqa hech narsasi yo'q.
U yotib qolib o'rnidan turolmaydi,
Ovqat yo'qligidan holati shu bo'ldiki,
Egasi ko'chaga chiqsa, qassob oldiga kelib "Menga ber" derdi
Etikdo'z ham unga da'vogar edi.
biror oxur yoki ovqat idishin ko'rsa
tuyog'i bilan qattiq tepinganida,
yerda quduq hosil bo'lardi
Ochlikdan hatto kishnashga madorsiz,
biyani ko'rsa, cho'chib tushardi
Kuchsizligidan yengil shabada essa, yiqilar edi
Na go'shti bor , na suyagi, na musagi
Xuddi te'mirchining bosqonidek nafasi
Tanasini yara bosib ketganidan
Rangi olachipormi, targ'ilmi, bilib bo'lmas
yarasi uzra pashshalar galasi,
Shu bois u hammaga kulrang bo'lib tanilgan.

O'sha davrdagi dolzarb masalalarga oid satirasi minglab odamlarning o'limiga sabab bo'lsa-da, o'zini tabib deb ko'rsatadigan G'aos haqida yozilgan. Garchi tabiblar va dorishunoslar haqidagi satiralar yozish Sharq adabiyotida hozirgi kungacha mavjud bo'lsa-da, Savdoning satirasi

o'zgacha bo'lgan. Savdo o'sha davrdagi holatdan haqli tarzda shikoyat qilgan;

Avvallari mirshablar pora olmas, o'g'rilar ham yo'q edi:

Endi qarang: hammayoqda poraxo'rlik, o'g'rilar, tekintomoqlar va cho'ntakkesarlar.

Bu mubolag'a shaxs va jamiyat uchun risoladagidek tartib-qoidalar o'rnatilgan davrni qo'msab yozilgan bo'lishi mumkin. Shoir o'g'rilarni "qiyinchiliklar mavjudligining natijasi emas, sababi" ekanligini aytadi. Bunday she'rlarda 1757 yildagi Dehlidagi holat tasvirlangan. O'sha davrda Imodulmulk hukumatni qo'ldan chiqarishi natijasida, hatto harbiylar va mirshablar ishtirokida talon-taroj qilish boshlangandi. Bunday vaziyatda inson nimaga umid qilishi mumkin? Insofli odam ishlashni xohlaydigan birorta ham kasb qolmagandi. Savdo "Shehrashub" asarida turli kasb va hunarlarga xos noma'qul holatni hissiyotlarga boy tarzda tasvirlagan. XII asrda o'zlariga pul to'laydigan homiylarga butunlay qaram bo'lgan shoirlardan shikoyat qilgan Anvariylar kabi Savdo ham shunday yozadi:

Hali begim homilador bo'lmasdan turib
Xon bolasiga atab she'r yozdirar
Agar uning bolasi tug'ilmay, nobud bo'lsa,
Shoirlar unga darhol marsiya yozar.

Ba'zi satiralarida Savdo o'z zamondoshlari kabi quyushqondan chiqib ketgan. Bir qancha muvaffaqiyatli shoirlarning ajdodi bo'lgan Mir Zahikni tanqid qilib, uning ochofatligini juda kulgili tasvirlagan. Mutaassib Shoh Valiulloh ham "quruq qolmagan". Chunki uning sunniy naqshbandiylik qarashlari Savdoning diniy fikrlariga qarama-qarshi edi. Shia bo'lganligi uchun Savdo o'n ikki imom haqida ko'plab yorqin she'rlar yaratgan; yuzga yaqin marsiyalari saqlanib qolgan:

Muharram oyida osmonga ko'tarilgan - yarim oy emasdi
Uning aylana shakldagi qayg'u va alam qilichi bor edi

Savdo urduda marsiyalar yozishda olti qatorli musaddaslardan ilk bora foydalanib, keyingi bir yarim asr davom etgan an'anani yaratdi.

Savdoning balandparvoz qasidalar ustasi va o'tkir qalam sohibi sifatidagi obro'si uning ishqiy she'rlari yetarlicha baholanmasligiga olib keldi. Uning juda yorqin va jarangdor so'zlari g'azal uchun juda kuchlilik

qilardi. Uning gʻazallariga asosan ishqiy shakldagi sheʼrlarda uchraydigan noziklik va halimlik yetishmasdi. Biroq koʻpchilik zamonaviy tanqidchilar uning gʻazallari haqida juda iliq fikr bildirishadi. Savdoning gʻazallari qadrlanmaganining sababi uning ishqiy sheʼrlar ustasi Mir Taqi Mir bilan bir davrda yashaganligi ham boʻlishi mumkin.

Bu davrning eng mashhur shoiri Mir Taqi Mir boʻlgan. Uning oʻzi tomonidan yozilgan tarjimai hol fors tilida “Zikr-e-Mir” (“Mir haqida esdaliklar”) nomi bilan nashr qilingan. Bu avtobiografiyada shoir hayotidan koʻplab voqealar keltirilgan va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol tasvirlangan.

Mir Taqi Mir 1724 yilda (Akbarobod) Agrada taqvodor oilada tugʻildi. U juda mashhur zodagonlar naslidan edi. Umrining birinchi qismi u oʻsib ulgʻaygan tariqat muhiti bilan bogʻliq. Otasi soʻfiy boʻlib, shoir oʻn yoshga toʻlganida vafot etgan. Aka-ukalari uni shu darajada ranjitishar ediki, oqibatda shoir Agrani tark etishga majbur boʻlgan. Dehliga kelib, Mir mashhur olim va shoir boʻlgan togʻasi Xoni Orzunikida qoladi. Saroy xazinaboni Shams-uddavla unga kuniga bir rupiy nafaqa berardi. Yosh shoir baʼzan Muhammad Nosir Andalib bilan Ziynat al-masajid masjididagi mushoiralarda qantashib turgan. Aynan Andalib uning kelajagi buyukligini bashorat qilgan. Shams-uddavla 1739 yili Karnaldagi jangda vafot etganidan keyin u Agraga qaytadi. U yerda uning sevgisi fojiali yakun topadi: “Muamlate ishq” masnaviysi avtobiografik xarakterga ega, degan fikrlar bor. Dehliga qaytib, Mir togʻasi Xoni Orzuning uyida yashay boshlaydi, lekin u bilan yaxshi chiqisholmaydi. U ruhan tushkunlikka tushib qoladi, biroq tez orada Dehlidan oʻziga homiy izlay boshlaydi. U dastlab Javed Xonga shogirdlikka tushadi va keyinchalik Safdar Jang bilan safarga chiqib, uning siyosat va janglar haqidagi xotiralarini tinglaydi. 1757 yildan keyin shoh vazirining oʻrinbosari roja Nagarmalning huzuriga boradi; keyinchalik siyosiy sababga koʻra homiysi bilan chiqisholmay qoladi. Yana biroz vaqt Dehlida yashagandan keyin Asaf-uddavla tomonidan Avadhga taklif qilinadi va 1782 yilda navoblar davrasiga qoʻshiladi. Navob Asaf-uddavla samimiy kutib oladi va unga oylik nafaqa (uch yuz rupiy) tayinladi. Muloyim feʼl bilan bir qatorda oʻz qadrini yuksak baholash xususiyatiga ega Mir navob bilan chiqisha olmadi va saroyni tark etdi. Bu u kabi 60 dan oshgan shoir uchun katta jasorat edi, chunki sharqda shakllangan uslub Dehli shoirlarinikidan katta farq qilardi.

O'zingizga bir savol bering:
ne uchun meni mazah qilasiz?
Ey sharqliklar, men kelgan joyda
Dunyoga mashhur bir shahar bor
Bu yerda sayqal topgan ma'naviyat bor
Uning nomi Dehli, adolatlilararo eng adolatli,
Taqdir uni talon-taroj qildi
va tashlandiq holatga keltirdi
Men ana shu tashlandiq shaharning bir parchasiman.

Vaqtı-vaqtı bilan Mir o'zining muruvvatgo'ylari uchun ham she'rlar yozgan; masalan, ularning qilmishlari tasvirlangan dostonlari ham bor. Biroq Mir navoblar bilan ham til topa olmay qoldi. O'ziga tengdosh avlod shoirlari kabi u ham vayron bo'lgan poytaxtga qaytish xohishi haqida g'amgin she'rlar yozgan:

Bu begona yerda qanday hikoya aytay?
Axir men gapirgan tilni ular tushunmas.

Mir 1810 yilda, deyarli to'qson yoshida vafot etdi. Bir yildan keyin uning "Kulliyot"i Kalkuttada chop etildi. Asosiy qismi bir qancha unchalik mashhur bo'lmagan qasidalar va masnaviylardan tashkil topgan bo'lib, oltita devondan iborat bo'lgan. Uning vayron bo'lgan uyi haqidagi satirasi Garsin de Tassi tomonidan tarjima qilingan. U forsiy devon ham tuzgan. Uning "Nikat ash-shuara" tazkirasi 1752 yilda yozib tugatilgan. U forsiyda yozilgan bo'lib, Dekan va Gujarotdan to o'z davrigacha bo'lgan rexta shoirlarini o'z ichiga olgani bilan ham ahamiyatli. Mir o'zining zamondosh shoirlarini unchalik iqtidorli deb bilmaganini "Ajdarнома" masnaviysida aniq ko'rishimiz mumkin. Bu she'rida u o'zini ajdarga va qolganlarni o'zini shoir deb o'ylaydigan mayda hasharotlarga qiyoslagan. Bunday she'rlari orqali u, tabiiyki, hamkasblari mehrini qozonmagan. Mirning forsiydagi avtobiografiyasi "Zikri Mir" 1788 yilda yozib tugatildi. Uning mahzun uslubi shoir hayoti davomida ko'rgan qiyinchiliklari haqida yaxshiroq tasavvur beradi. Ba'zi tandiqchilar uni xudbinlik, qiziqqonlik va yomon xulq-atvorda ayblashgan. Lekin agar shunday mahzun kayfiyatli va ta'sirchan shaxs urdu she'riyatidagi eng yaxshi asarlarni yarata olgan bo'lsa, hech kim alamlarini o'z qalbiga yashirib, ba'zi – ba'zida ularni o'z she'rlarida oshkor etgan shoirni ayblamasligi kerak. Sayyid Ehtisham Husayn

aytganidek, uning sheʼriyati oʻhu nadomat toʻlqinlariyu, bahsu munozara boʻronlari mavjud boʻlgan alamlar ummonidir... Bu shaxsiy alam emas, bu koinot alamidir. Mir oʻzini alam-iztirob bilan oʻz -oʻzini shunday chulgʻab olganki, Mir aynan shu gʻamginlik oʻzining asosiy ilhom manbayi ekanligini yaxshi bilgan:

Ishqim tufayli mulki adam bormoqdaman,
qaygʻum mening gʻolib kelmoqda
Kim meni shoir deb hisoblar,
uning oʻzi chin shoir emas

Xuddi shunday fikrni urduda ham bildirgan:

Meni shoir deb atamang – chumki men toʻpladim
Shuncha qaygʻu va hasratni, devon tuzmoq uchun
Lekin uning oʻz buyukligiga ishonchi komil boʻlgan:
Bu rexta yolgʻiz oʻzi Hindistonda koʻkarmaydi
Uning ovozi butun Dekanni egallaydi

Mir har narsaning goʻzalligi vaqtincha va oʻtkinchi ekanini yaxshi bilgan. Dard kabi u ham atirgulni qarama – qarshilikning namunasi sifatida qoʻllagan:

Atirgulning umri qancha?
Gʻuncha savolimni eshitdi va kuldi

Gʻunchaning kulgani, yaʼni ochilgani uning soʻlishining ibtidosidir, uning gulbarglari xuddi qon kabi toʻkiladi... Hofiz va qisman hind va fors shoirlari orasida ommalashgan inini chaqmoq buzgan qush haqidagi anʼanaviy tasvir Mirning atirgul va olov haqidagi mulohazalarida oʻz aksini topgan. Bu narsa Gʻolibning mahzun sheʼrlari uchun andoza vazifasini oʻtagan:

Lovullagan atirgulning ol rangi
Butun bogʻni olov ichra qoldirdi, oh shabboda

Baʼzan uning sheʼrlarida joʻshqinlik boʻlib, u anʼanaviy qadah va sarxush koʻzlar birikmasidan foydalangan:

Kecha tunda, men tushimda
Uning sarxush ko‘zlarin ko‘rdim
Tongda uyg‘onganimda
Qarshimda qadah ko‘rdim.

Savdo esa xuddi shu qiyoslashni siyosiy holatdan shikoyat qilish uchun ishlatgan:

Yana qadah vaqti keldi, yana yoshga to‘lgan ko‘zlar nam
Qara, Savdo, bu gardishi falakdan qanday turli balolar kelar.

Mir bilardi: musulmon jamiyatida jilovlanmaydigan ishq hissi ma‘qullanmaydi – xoh bu insonga bo‘lsin, xoh ilohiy ishq bo‘lsin. Ralf Rassel va Xurshid-ul Islom Mirning ishqiy she‘riyatining barcha jihatlarini sinchiklab o‘rganib, uning har bir she‘rida umid va tushkunlik, mo‘jizaviy o‘ziga jalb qilish va uzoqlashish hislari aks etganligini ta‘kidlagan. Savdo vayron bo‘lgan poytaxtning achinarli holatini kinoyali tarzda tasvirlasa, Mir buni o‘z holatining in‘ikosi sifatida ko‘rsatadi. Bir paytlar Dehli juda go‘zal va ko‘chalari miniyaturalardagi suratlar kabi edi, shuning uchun u baxtli edi. Biroq:

Sen bir asr hukmronlik qilgan yurak qirolligi
Hozir huvillab qolgan va vayron bo‘lgan
Mening ko‘zlarimdan yosh daryo kabi quyilmoqda
Mening qalbim Dehli kabi vayronalar orasida.

Mir yana G‘olib kabi “Inson bo‘lish qiyin ekanligi”dan shikoyat qiladi va yurakni butun dunyo qayg‘ulariga dosh berishi kerak bo‘lgan qon tomchisiga o‘xshatadi. U bahorda o‘tloqlarda lolalar ko‘ringan paytda mazlumlarning qonining hidini sezadi va tunu kun g‘am-qayg‘uda yuradi.

Mir so‘fiy oiladan kelib chiqqanini inkor etolmaydi; haqiqatan ham butun muhit so‘fiylik g‘oyalari bilan to‘lgan XVIII asrda tariqat g‘oyalari ta‘sir qilmagan shoirni topish qiyin edi. Hatto, Mir mavlono Rumiyning she‘riga asoslanib kichik doston yozadi. U atirgulni bir timsol sifatida ko‘radi:

Atirgul yorug‘ yuzdan esdalikdir, o beparvoyim,
Bulbul navo bilan kuylagandan xotiradir
Mir go‘zallikni shunday tasvirlaydi:

Qayergaki boqmay, atirgulgami, quyoshgami yo oyga,
Yoki ko‘zgugami – barisida Sening aksing.

Bu dunyoda o‘lim bu visol yo‘lidagi bir qadamdir:

Tanaga tuproq pardasi tortilganda,
Biz Unga borurmiz, borimiz unikidir.

Shu ilmdan kelib chiqib, shoir hatto mangu hayot, Xizr va Iso
payg‘ambarlarga achinishga jur‘at etadi va agar o‘lmoq tuproqqa
aylanmoq bo‘lsa, vaholanki:

Tuproq ko‘tariladi, ko‘chib ketadi,
O‘limdan keyin ham yangi bekatlar bor yo‘lda!

Zamonaviy o‘quvchi Mirning tilidan zavqlanadi. Mir xuddi asarni
yozgandek emas, gapirib turgandek tuyuladi. Dardga o‘xshab, u ham
oddiy odamlarga murojaat qilishni yoqtiradi va ko‘proq folklor
she‘riyatidan foydalanadi.

Barglar, o‘simliklar bari holimizdan xabardor,
Ular bilsa-bilmasa, mayli atirgul xabardor bo‘lmasin –
butun bog‘ xabardor bo‘lsa ham mayli...

“pata pata buta buta”so‘zlari barglarning shitirlashiga ishoradek
tuyuladi. Bu uslub ko‘pincha cho‘ziq unlilar yig‘ilib qolishiga ishora
qiladi va an‘anaviy fors she‘riyati qonun-qoidalaridan ko‘ra ko‘proq hind
ohangiga mos.

Falak, falak, ishq va telbalik
olam-olam shubhayu alam!
Ummon-ummon ko‘zyoshi to‘kdim.

Mir musiqani sevardi, uning ba‘zi she‘rlari ohangdor va musiqiy:
Na g‘urur bor, na rohat,
na sabr, na orom:
Yey Mir, oqsoq, bog‘ingda
kezib yurar... bir tikan.

Mirning masnaviylarida xuddi shu yoʻnalishni yana kuzatishimiz mumkin: bir tomonda dilgirlik, ikkinchi tomonda sevimli iboralar yo kalit soʻzlar takrori

Bu janrdagi sheʼrlar soni 234dan 297tacha. “Muamlate ishq” biz yuqorida taʼkidlaganimizdek, oshiqning oʻziga xos tarjimai holi. Fojiaviy yakunlarga ega hikoyalar Panjob va Sind folkloriga juda oʻxshaydi, ularda asar oshiqlarning halok boʻlishi bilan yakunlanadi. Mirning hayot davrida ayrim Panjob folklor hikoyalarining takrorlanib turishini uchratish mumkin, masalan, “Shuʼlaye ishq” Garsin de Tassi tomonidan qisman tarjima qilingan, bu masnaviyda muhabbat soʻzining oʻn yetti marta takrorini kuzatish mumkin:

Muhabbat yaratuvchidir, muhabbat sabab,
Muhabbatdan nima rang olgan?
Muhabbat qonli tushdir,
Muhabbat koʻngilni oʻrtovchi ogʻriq.
Muhabbatdan dunyo tartibi yaralgan,
Muhabbat sabab osmon jumbushga kelar...

Ushbu muhabbat sharaflangan sheʼr oʻquvchiga Rumiylar masnaviylari va soʻfiy sheʼriyatini esga soladi. “Daryaye ishq” masnaviysida ham ishq soʻzi xuddi shunday qoʻllangan:

Mir yoshi ulugʻ boʻlganda umri oʻtganidan afsuslanadi:

Atirgul boʻyiyu, bulbul navosi –
Qandayin tez oʻtdi, hayhot hayotim!

XIX asr tanqidchilari “uning choʻqqilari juda baland, nolishlari juda juda past” deya baholashgan. Ammo, har bir oʻquvchi uning sheʼrlarida oʻz hislari bayonini topa oladi. Mirning sheʼrlari “gʻamdan ezilgan yurak sadosi” deya baholanadi va ortiqcha falsafa va murakkablikdan xoli. U xuddi shariyat sahrosida oʻz yoʻlini qidirayotgan yolgʻiz sayyohga oʻxshaydi. Hatto chuqur qaygʻu holatida ham shoir oʻzligini yoqotmaydi:

Muhabbat boshlanganda borim olov ichida edi.
Men endi kulga aylandim – mana shu yakun.

Mir va Savdo she'riyati adabiy tanqidchilarning sevimli mavzusi hisoblanadi. Xorijlik o'quvchi faqatgina o'z dididan kelib chiqib fikr yuritishi mumkin. Savdo satiralari Mirning g'azallarini tarjima qilishdan ko'ra osonroq, Savdo o'zining g'aroyib, hatto hayratga soluvchi mubolag'alari bo'lishiga qaramay, ancha hayotiy va o'quvchining tushunishi oson. Mir o'z g'azallarida inson qalbining kechinmalarini tasvirlashga urinadi. Urdu tanqidchilari Mir va Savdoni „kuchli daryo va keng ummon“, „olmoslar koni va qimmatbaho rangli toshlar koni“ deya tasvirlaydi. Yana bir tajribadan o'tgan haqiqat borki, urduni o'rganuvchi G'arb talabalari Savdo she'riyatini tez va oson tushunadi va ko'pchiligi Dard she'riyatidan qattiq ta'sirlanadi.

Bu uch shoir o'z navbati bilan uch davr adabiyotini talqin qiladi: ilohiy ishqning asl mohiyatini ochib berishga harakat, jamiyatni qoralash, o'z holidan kuchli norozilik hissi yetakchi o'rinda turadi. XVIII asr adabiyotining yana bir yorqin namoyandasi Mir Hasan ishqiy masnaviylari bilan mashhur, uning „Sehr-ul bayan“ asari hindcha eng go'zal she'r hisoblanadi. Bu kichik hajmli asar 4442 misradan iborat bo'lib, Rumi „Masnaviy“si kabi „Masnaviy“ deb nomlanadi. Mir Hasan „Sehr-ul bayan“ning eng go'zal misralarida quyidagilarni tasvirlaydi:

“Benazirning kelishiga tayyorlangan xizmatkorlardek, urdu shoirlari o'z mavqeiga qarab joy oladi... Savdo, Mir va Mir Hasan...”

1700 yildan 1850 yilgacha bo'lgan davr urdu adabiyoti

Tayanch so'zlar va iboralar: Panjob, Saodatxon, boburiylar, Muazzam, Eski Dehli, Ahmad Shoh, hindu va musulmonlar, Avrangzeb, Padmavat, fors tili, Valiy, Rexta, Dekan, Portugallar, A'zam, Nizomulmulk.

Darsning maqsadi: 1700 chi yillardan 19 asr oxirigacha bo'lgan davr urdu adabiyoti haqida ma'lumot berish

Urdu tili Dehli hududida paydo bo'lgan bo'lsa-da, u uzoq muddat davomida bu yerda og'zaki til sifatida qo'llangan. Aksincha, u janub tomonga ham yetib borganidan keyin bu tilda sermahsul adabiy asarlar paydo bo'ldi. Bu hodisaning ba'zi bir sabablarini ko'rsatib o'tsak.

Shimoliy Hindiston adabiyotida asosiy til fors tili bo'lganligi va she'riyatga og'zaki tilni kiritish an'ana bo'lmaganligini yodda tutish lozim. Feodalizm davrida hukmron sinflar foydalangan tildan tashqari

barcha tillar hech bir nufuzga ega bo'lmagan past til sifatida qabul qilingan. Shu sababli og'zaki til va she'riyat tili bir-biridan farqlangan.

Hindu va musulmonlar muloqotining natijasida san'atning barcha sohalarida tobora turli yo'nalishlar paydo bo'lib bordi va fikrni ifodalovchi asosiy vosita sifatida til bir taxlitda, hech o'zgarishsiz qolishi mumkin emasdi. Agar boburiylar hukmronligi davrida shakllangan muhitga e'tibor bersak, bir qator sabablarga ko'ra, aynan fors tilini qo'llash qulay edi (davlatning qudrati kuchsizlangani sari fors tilining ahamiyati ham pasayib borgan). O'ziga xos holat vujudga keldi: ona tili hindistoniy bo'lgan ziyolilar o'zlari uchun fors tilida yozish va o'qishni majburiy deb bilganlar, chunki gap shundaki, an'anaga ko'ra, san'at va fan arboblari fors tilidan foydalangan. Oddiy xalq o'rtasida va o'rta qatlam orasida urdu tili keng tarqalgan edi. Ammo, til mavjud ekanki, so'zsiz, bu tilda adabiyot ham paydo bo'ladi. Og'zaki nutq ham eng murakkab fikrlarni yetkazishga va eng nafis hissiyotlarni ifodalashga qodir ekanligini Valiy ijodi yaqqol ko'rsatdi.

Umuman olganda, XVIII asrning oxirlarida shimoliy Hindistonning ba'zi bir shoirlari urdu tilida ijod qildilar, bular qatoriga Ja'far, Jatalliy, Atal, Afzal va boshqalar mansub bo'lib, ular bir qator asarlarni shu tilda yozdilar.

Valiy Dehliga ko'chib kelganidan so'ng taxminan 1720 yildan boshlab fors tilida ijod qiluvchi Dehli shoirlari ham urdu tilida asarlar bita boshladilar: Fitrat, Umid, Nadim kabi olim va shoirlar va ayniqsa, ko'plab ijodkorlarga homiylik qilgan Orzu urdu she'riyatiga asos soldilar. Aksariyat hollarda bitta she'rda va hattoki, bitta satrda ikki tilni ham ishlatganlar. Badiiy lavhalar ba'zida fors tilidan o'zlashtirilar, ammo XVII asrning boshidayoq davlat tili fors tili bo'lib qolishiga qaramay, sof urdu tilidagi original asarlar paydo bo'ldi.

She'riyatda bo'lgan o'zgarishlarni shunday tasavvur qilish mumkin: dastlab forsiyda ijod qilgan shoirlar qisman bitta she'r doirasida urdu tilidan foydalandilar; so'ngra esa, fors tilidan kechib, to'liq urdu tiliga ijod qilishga o'tgan shoirlar asta-sekin paydo bo'la boshladi. Ular dastavval ta'limni fors tilida olgani hamda ularning dunyoqarashi fors adabiyoti ta'siri ostida shakllanganligini hisobga olish lozim, shu sabab ular tabiiyki, o'z asarlarida fors tilida eng keng tarqalgan she'riy ijod namunalariga taqlid qildilar.

Valiyning devoni Dehliga kirib kelishi urdu she'riyatining ibtidosi deb hisoblanadi. Biroq hindaviyda bitilgan she'rlar Hind yarim orolining shimoliy qismlarida yaratilgan asarlarda uchrab turardi. Lekin muammo

shundaki, mahalliy tillarda qisman hindiy yoki avadhiyda yozilgan asarlar qay darajada sof urduga tegishli deb hisoblanishi kerak? Sababi, ular musulmon yozuvchilari tomonidan va arab-fors adabiyoti qahramonlari ishtirokida yozilgan. Ularning orasiga Akbar davrida yashagan va “Padmavat” dostoni bilan tanilgan Malik Muhammad Jo‘shiyning asarlarini kiritish kerakmi? Albatta, Jo‘shiy o‘zining go‘zal va ta‘sirli she‘riyatida o‘z ona tilisini qo‘llagan musulmon yozuvchilari orasida o‘z o‘rniga ega. Jo‘shiyning bir paytlar doctor Sprenger qo‘lida bo‘lgan, hozir esa Berlinda saqlanayotgan “Kunhavat” dostonining nusxasi uning shimoldagi dastlabki urdu shoirlari tarkibiga kirishini tasdiqlagandek bo‘ladi¹⁸.

Amir Husrav fors va hindaviy tillarini qorishshtirib dostonlar yozgan yagona hind musulmon shoiri emas. Bunday she‘riyat odatda rexta deb atalib, ya‘ni “aralash” yoki “singgan” degan ma‘noni bildiradi. Rexta atamasi dastlab so‘zlari ikki tilga mansub bo‘lgan musiqiy asarga nisbatan ishlatilgan va keyinchalik u urdu adabiyotini ifodalash uchun qo‘llanila boshlagan. XVIII asrgacha urdu she‘riyati butunlay rexta deb atalgan. Shuning uchun Valiy o‘zining she‘riyatini maqtash uchun shunday deydi:

Valiyning bu rextasini unga o‘qib bering:

Uning fikrlari Anvariyniki kabi yorqin.

Oradan yillar o‘tib, G‘olib rexta atamasini huddi shunday ma‘noda ishlatadi. Valiydan yarim asr keyin Mir rextaga o‘zining tarjimayi holida ham “Nikat ush-shuaro” tazkirasida ta‘rif bergan:

Rexta - Dehlidagi saroy tilida fors uslubi bilan yozilgan she‘riyatdir.

Bu so‘z 1800 yilgacha shu ma‘noda qo‘llanilib kelgan. Shu yildan boshlab urdu 1811 yilda Mirning asari qayta yozilgan urdu va hindustaniy tillari bilan bir qatorda she‘riyat tili sifatida qo‘llaniladi. U ba‘zi Lakxnau shoirlari jumladan, Nosix ijodida amaldagi tilga aylandi. Biroq 1800 yildan biroz oldin Shoh Abdulqodir tomonidan Qur‘onning urduga tarjimasida muallif “shoirlar uchun oliy darajadagi til” ma‘nosida rexta so‘zini ishlatgan. Aslida esa u o‘z ijodi namunasini “amaldagi hindustaniy tilida yozilgan” deb aytgan.

Rextaning shimoldagi dastlabki vakillaridan biri Mir Ja‘far Zatalliy bo‘lgan. Malika Zebunniso tomonidan unga berilgan nom (Zatalliy) ham ko‘rsatib turibdiki, u yoki saroy qiziqchisi yoki she‘rlari uncha jiddiy qabul qilinmagan shoir bo‘lgan. Zatalliy Avrangzebning o‘g‘illaridan biri

¹⁸ Annemarie Schimmel. Classical Urdu Literature. Otto Harrassowitz. Wiesbaden. 1975., P. 154

bilan Dekanga qilgan sayohati davomida sheʼriyatga qiziqishi uygʻongan deb hisoblanadi¹⁹. Uning forsiy va murakkab urduda yozilgan hazil sheʼrlari va nasriy asarlari, qoʻpol satira va kulgili oʻxshatishlari keng tarqalgan. Uning aynan shu "uzun tili" sulton Farruhsiyorning uni qatl ettirishiga sabab boʻlgan, degan fikrlar ham bor. Zataliyning eng jiddiy asari Avrangzebning oʻlimidan keyin yuzaga kelgan qarama-qarshilik haqidagi dostonidir. Unda Aʼzam va Muazzam shahzodalarning taxt uchun kurashlari tasvirlanadi:

Bunday ajoyib shohni qaydan topaylik?
Bequsur, yetuk va koʻngillarga surur,
Olam-jahon qon yigʻlamoqda.
Hech kimning koʻziga uyqu kelmaydi,
Qurollar va zambaraklar shovqini tufayli.
Erkaklar boshi uzra qurollarin koʻtarib,
Har yerda qochib yurishibdi
Boshlari uzra yotoqlari, qoʻllarida bolalar
Har joyda urush-janjal, bir- birini soʻyishlar
Har joyda oʻlim va zoʻravonlik
Tartibsizlik, bolta, xanjar va qilich
Bir tomonda Aʼzam, birida Muazzam
Urush qilar, kurashlar
Xudo kimni shoh deb saylaydi
Kimga taqvodorlar xutba oʻqiydi.

Avrangzeb deyarli yarim asr hukmronlik qildi. Uning qoʻli ostida boburiylar saltanati sarhadlari juda kengaydi va buning natijasida chegaralarni himoya qilish qiyinlashdi. Turli milliy va diniy isyonchilar davlatni ichidan yemira boshladi. Boburiylar Dekanni bosib olganidan keyin ularning yoʻliga avvalroq Golkonda va Bijopurni dahshatga solgan marathlar toʻgʻanoq boʻldi. Afsonaviy marathlar qahramoni Shivaji tarixda katta qora iz qoldirdi. Avrangzeb zulmiga uchragan sikhlar asosan panjoblik dehqonlar yordamiga tayanib kuchaydi. Ularning islom va hindaviylik orasidagi munosabatlari asosiga tashkil etilgan jamiyati tartibli tashkil topgan harbiy kuchga aylandi. Ular Panjobda oʻz taʼsirini kuchaytirib bordi va shimoli-gʻarbiy Hindistonning katta hududlarini bosib oldi. Ichki muxolifat hukumatni ichdan kuchsizlantirishga

¹⁹ Annemarie Schimmel. Classical Urdu Literature. Otto Harrassowitz. Wiesbaden. 1975., P. 157

urinayotgan bir paytda yevropaliklar yarim orolda joylasha boshladi. Portugallar XVI asrda mamlakatni bosib olib, ba'zi dengizga yaqin joylarda o'rnamshdi. Fransuzlar janubiy Hindistondagi asosiy hududlarni qo'lga kiritdi. Britaniyaning "Ost Indiya" kompaniyasi 1757 yilda Plasseydagi birinchi harbiy harakatlarigacha yetarlicha kuch to'plab ulgurgandi. Bu g'alaba inglizlar uchun Hindiston yarimoroliga katta yo'l ochib berdi va bir asr o'tib, 1857 yilda rasman Britaniya Qirolligi boshqaruvi ostiga o'tdi. Avrangzeb 1707 yilda vafot etishi bilan davlat qiyin ahvolda qoldi. Uning qat'iy islomiy siyosati tufayli ko'pchilik saroydan uzoqlashtirilgan edi. Bir yarim asr davomida faqatgina to'rtta hukmdor boshqargan boburiylar saltanatining gullagan davri yakuniga yetdi. Bir qo'g'irchoq hukmdor o'rniga boshqasi kelar, lekin ularning hech biri ijtimoiy guruhlar orasida ichki kurashlarni to'xtatishga kuchi yetmasdi. Avrangzebning o'g'li Muazzam oltmish to'rt yoshida nihoyat akasini yengadi va Bahodir Shoh sifatida taxtga o'tiradi. Qisqa boshqaruv davrida Guruning va Govind Singhning o'ldirilishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi va keyingi sikh yetakchisi Banda uning ortidan ergashuvchilar Panjobda "barcha dinlararo eng katta shafqatsizlik"ni amalga oshirdi. Bahodir Shoh 1712 yilning fevralida vafot etib, uning o'rniga Jahondor Shoh keldi. Biroq o'z jiyani Farruhsiyar o'n ikki oydan so'ng aka-uka sayyidlar yordamida uni qatl ettirib, taxtni egalladi. Aslida esa aka-uka Hasan Ali Xon va Husan Ali Xonlar keyingi yillarda mamlakatni boshqarishdi. Hukmdor ulardan qutulishga harakat qilayotganini sezgach, 1719 yilda u o'ldirildi. Saroydagi turonliklar aka-ukalarning kuch-qudrati oshib ketayotganini ko'rib, ularga qarshi chiqishni boshladi. 1719 yil sentabrida bir necha vaqtincha taxt egallab turgan hukmdorlardan keyin ular hukumat tepasiga yosh Muhammad Shoh qo'yildi. Muhammad Shoh 1748 yilgacha mamlakatni uzoq vaqt boshqardi, lekin bunga sabab uning iqtidori yoki zakovati emas, balki zaifligi va siyosatga qiziqmasligi bo'lgan; o'sha davr suratlarida u atrofi ayollarga to'la, kayfu safo qiluvchi kishi sifatida tasvirlangan. U albatta, she'riyat ishqibozi bo'lgan va hukmronligi davrida Dehlida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlarni yoqtirgan. Biroq bu jihatlar murakkab va shafqatsiz davrni boshidan o'tkazayotgan davlat hukmdori uchun yetarli emasdi.

Urdu tilidagi adabiyotni tadqiq etuvchi olimlarning fikricha, shimoliy Hindistonda she'riyat rivojining ilk davri 1719 yilda hokimiyatni o'z qo'lga olgan Muhammad Shohning hukmronlik davriga to'g'ri keladi, deb hisoblaydilar. Muhammad Shoh urdu tilida ijod qiluvchi birinchi

boburiy hukmdor o'tgan. Avval Akbar, Jahongir va Shohjahon davrida Abulfazl, Fayziy, Urfiy, Naziriy, Soyib va Kalimlar ijodi yuqori cho'qqisiga chiqqan bo'lsa, hozirda esa urduzabon shoirlarning davri kelgan edi, ular bir qismi saroyda istiqomat qilsa, boshqa qismi saroy bilan bog'liq emas edi. Dastlab urdu she'riyati shoh saroyidan mustaqil holda rivojlandi, ammo feodalizm davrida adabiyot va san'at shoh va unga aloqador kiborlar ta'siri ostidan to'liq erkin bo'la olmasligini unutmaslik lozim.

Tez orada mamlakat ichida turli qatlamlar ajralishi yuz berdi va imperiya bir necha amalda mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi: 1707 yilda Panjob, 1717 yilda Bangol, tez orada Dekan va Avadh ham ular safiga qo'shildi. Muhammad Shohning bosh vaziri qudratli Nizomulmulk Ovsafjoh bo'lgan. U dastlab Malvada tartib o'rnatdi, Dekan o'zining ta'sir doirasini kuchaytira bordi, lekin Dehliga qaytgach, Sayyid Hasan Ali Xonni o'ldirtirdi. Biroq aqlli siyosatchi bo'lgani uchun u faqatgina Dehlidagi muammolarnigina yecha olishini yaxshi bilgan. Shuning bois u 1724 yilda iste'foga chiqib, Dekanga qaytadi. Keyinchalik urdu adabiyoti rivojida muhim rol o'ynagan Haydarobod nizomlari nomli yo'nalishni yaratdi. Avadhdagi vaziyat ham shunga o'xshash bo'lgan. Kelib chiqishi forsiy bo'lgan hokim Saodatxon 1723 yilda amalda mustaqillikka erishadi. Keyinchalik uning izdoshi Safdarjang musulmon hukmdorining vaziri etib tayinlanadi.

Hukumat uchun kurashda kelib chiqishi afg'on bo'lgan Farruxobodning Banjash navoblari guruhini ham hisobga olish kerak edi; Rampur shimolidagi Rohilkhanda rohilla afg'onlari kuch to'plashardi. Tug'ma jangchi va siyosatchi bo'lganligidan, ular Dehlidagi "katta siyosiy o'yinga" tez orada qo'shilib oldi.

1720 yillarda Dekanda tengsiz bo'lgan marathlar Dehliga yurish boshladi, lekin poytaxtni qamal qila olmadi. Biroq ularning kuch-qudrati 1761 yilgacha muttasil o'sib bordi. Hatto XVIII asrning oxirgi o'n yilligida ham Dehlidagi siyosatda ular muhim rol o'ynagan. 1738-1739 yillarda mamlakatda kutilmagan talafot yuz berdi: Nodirshoh bosqini hukumat ichidagi yashirin yotgan nizolarni yuzaga chiqardi. Nodirshoh 1738 yilda Eron va Hindiston o'rtasida doim tortishuvga sabab bo'lgan Kandahorni, ikki yildan so'ng esa taxtni egalladi. U Laho'rda o'z vakilini qoldirdi va u yerdan shimoli-g'arbiy Hindistonga qarab yo'l oldi. U 1739 yil martida Karnal jangida yomon tayyorgarlik ko'rgan lashkarni butunlay yakson qildi; amaldorlar orasida hamkorlik yo'qligi tufayli Dehlining taqdiri bir yoqli bo'ldi.

Nizomulmulk Dehliga chaqirib olindi, lekin xazinabon Shams-uddavla va avadhlik Saodat Xon o‘zaro til biriktirishi natijasida poytaxtni himoya qilishning imkoni bo‘lmadi. Shams-uddavla jiddiy yaralandi va Nodirshoh saltanatdan talab qilgan o‘lponni to‘lash Saodat Xon bo‘yniga tushdi: va‘da berilgan pulni to‘lolmay, u o‘z joniga qasd qildi. Dehli eronlik jangchilarga qarshi chiqqani uchun qasos sifatida butunlay yakson qilindi: 9 soatda o‘ttiz ming mahalliy aholi qirg‘in qilindi. Barcha oltin va qimmatbaho buyumlar shuningdek, ko‘hinur olmosi va mashhur “Tovus toji” olib ketildi, shahar xarobaga aylandi. O‘sha voqealarga guvoh bo‘lgan Mir va boshqa shoirlar shunday yozgan:

Bu yuzyillik avvalgilarga o‘xshamas,
Boshqa davr, boshqa osmon, boshqa yer...

Muhammad Shoh bu falokatdan ham tirik chiqdi va 1748 yilda qirq besh yoshda vafot etdi. Bir paytlar hamma yerni zir titratgan buyuk imperiyadan faqat Dehligina omon qoldi, xolos. Keyingi hukmdor Ahmad Shoh davrida vaziyat yanada yomonlashdi. Nodirshohning davomchisi Ahmad Shoh muntazam ravishda mamlakatni bosib olardi. Panjob uning asosiy maqsadi bo‘lgan va ma‘lum muddat uni qo‘l ostida ushlab turgan. Dehliidagi ikki guruh qudratli qo‘shnilariga qarshi chiqish o‘rniga o‘zaro jang qilardi. Nizomulmulkning nabirasi G‘oziuddin o‘n yetti yoshida Imodulmulk nomi bilan taxt uchun kurashga qo‘shildi. Uning vazir navob Safdarjang bilan raqobati 1754 yilda vazirning o‘limi bilan yakunlandi. Bu paytda Safdarjangning asosiy ishongan tarafdorlari 1754 yilda Eski Dehlini talon-taroj qilishdi. Bir yildan keyin Ahmad Shoh ko‘r qilindi va taxtdan ag‘darildi. Imodulmulk esa shoh oilasidan va aholidan ko‘proq boylik yig‘ishning yangi usullarini o‘ylab topa boshladi. Undan keyin Laho‘rni egalladi va shu bilan Abdualini 1757 yilda yana yurish boshlashga undadi. Bu istilo ham yana bechora Dehli aholisi boshiga kulfatlar soldi: Abdualiga o‘zi qo‘lga kiritgan o‘ljalarini olib chiqib ketishi uchun ikki ming sakkiz yuzta ulov kerak bo‘ldi. Bu voqeadan keyin ko‘plab ziyoli kishilar va shoirlar sharqqa, avadhlik Shija-uddavla boshqaruvidagi davlatga ko‘chib ketishdi. Boburiylar hukmdori Olamgir II o‘ldirilib, taxt uchun kurash kuchaygan 1759 yilda Abduali shimoli-g‘arbiy Hindistonga qaytdi. Imodulmulk bilan chiqisholmay, u Rohilla yetakchisi Najib-uddavla murojaat qildi va uni taxt himoyachisi etib tayinladi. Abduali o‘z tarafdori - diniy yetakchi Shoh Valiullohning mamlakatda anarxiya yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymasligiga ishongan. Shoh Valiulloh va uning do‘stlari Abdualini Hindistonga yana bir tashrifiga sabab bo‘lishdi: 1761 yil 14 yanvardagi uchinchi bor Panipat

jangida shoh Maharattani magʻlub etdi, lekin Hindistonda na oʻzining, na musulmon hukmdorlarining nazoratini oʻrnatmadi. Dehli yana bir bor oʻzining “xaloskori” tomonidan talon-taroj qilindi.

Mir ham, Savdo ham Dehliidagi oʻsha yilgi holatni juda taʻsirli soʻzlar bilan tasvirlagan:

Afgʻon va rohilla askarlari eshiklarni sindirib kirib, ichkarida bor odamlarni oyoq-qoʻlini bogʻlab, yoqib yuborar, boshini tanasidan judo qilardi. Har tomon qonga belangan, odamlar xonavayron. Bu vahshiylik uch kecha-yu, uch kunduz davom etdi... Davlat ustunlari boʻlgan amaldorlar hech narsasiz qoldi. Odamlar bor budi shudidan ayrildi, ularning koʻpchiligi koʻchalarda sazoyi qilindi. Ayollar va bolalar bandi qilindi. Keyin ayovsiz qirib tashlandi.

Savdo esa quyidagicha yozgan: Dehlining vayron etilishini qanday taʻriflashim mumkin? Shoqolning ovozi eshitilmagan birorta ham uy qolmadi. Masjidlar boʻshab qoldi va yuztadan bitta uydagina chiroq yonib turardi. Odamlarda hatto ovqat qilish uchun qozon ham qolmadi. Bir paytlar odamlar bahor kelishini nishonlab, bayram qilgan joylarda bugun hasharotlar oʻrmaalab yurardi. Bir paytlar och odamlarni ochlikni unutishga majbur qilgan goʻzal binolar vayronaga aylangan... qishloqlar huvillab qolgan, daraxtlar qurigan, quduqlar esa murdalarga toʻla.

Saroy ahli 1759 yilda Olamgir II ning oʻgʻli Ali Gavhar Olamni haqiqiy hukmdor deb tan oldi; u esa quvgʻinda yurishni afzal bildi, dastlab Lakxnauda, keyin Allohobodda yashadi. Bangolni oʻz qoʻli ostiga olishga urindi, lekin 1763 yilda Britaniya tomonidan mahv etildi. Lekin, u shu orqali hech boʻlmaganda Mir Dard taʻriflaganidek, “daryoda suv oʻrniga koʻzyoshi oqayotgan” Dehliidagi muammolardan uzoq boʻlishni istadi. Abduali 1764 yilda sikhlar qarshi jang qilish uchun yana Hindistonga keldi. Biroq sikhlar Panjobda 1849 yilda Britaniya tomonidan magʻlub etilgunga qadar hukmronlik qildi.

Najib-uddavla 1770 yilda vafot etdi. Shoh Olam II Dehliga qaytib taxt uchun kurashishga oʻzida jasorat topa oldi. U oʻn uch yillik quvgʻindan soʻng 1772 yilda Dehliga kirib keladi. Bu paytda asli eroniy boʻlgan va inglizlar bilan yaxshi munosabat oʻrnata olgan Najafxon asosiy hukumat ishlarini boshqarardi. 1782 yilda Najaf vafot etganidan keyin Maharatta yetakchisi Sindhia Warren Hasting yordami bilan saroydagi nazoratni oʻz qoliga olish uchun urindi. Najib-uddavlaning oʻgʻli Zabita Xon marathlarga qarshi kurashdi. Lekin Britaniya va Avadh navoblarining hukumatga boʻlgan daʻvogarligi oshib borishi rohilla magʻlubiyati va ular tanlagan yetakchisi Hafiz Rahmat Xonning oʻlimi bilan yakun topdi.

Shunday bo'lsa-da, Najib-uddavlaning nabirasi G'ulomqodir 1787 yili qisqa muddatga amir ul-umaro bo'lishga erishdi. Uning qo'shini bir yildan keyin Dehlini egalladi.

Shoh Olam II ni ko'r qilgan G'ulomqodirning o'zi ham Sindhiya lashkari tomonidan shafqatsizlarcha o'ldirildi. Shoh Olam hukumat tepasida 1806 yilgacha qoldi. Shoh Olamning vafotidan keyin Lord Leyk butun boburiylar davlatini Britaniya imperiyasi nazorati ostiga oldi.

Dehlining yuqori tabaqa doiralari shoirlarga homiylik qilish va ular ijodini qo'llab-quvvatlash uchun sarflashni dildan xohlagan. Bir tomondan, she'riyat, shoirlik har qanday o'qimishli inson xush ko'rgan soha, aslida. Musulmon, ayniqsa, boburiy hukmdorlarning o'zlari ham yaxshigina shoir bo'lgan. Bobur davridan beri ular orasida ijod qilmagan vakilni topish amri mahol. Oftob taxallusi bilan ijod qilgan Shoh Olam II ba'zan Mir Dardning Dehlidagi uyida bo'ladigan musiqiy kecha va she'riy majlislarda qatnashgan. Uning o'n bir ming misrali "Manzumi aqdas" masnaviysi u ko'r bo'lib qolishidan ikki yil oldin, ya'ni 1201/1786 yilda yozib tugatilgan.

Shoh Olamning o'g'li Akbar II she'rlarini Nur taxallusi bilan yozgan. Shoh Olamning Dehlidan Avadhga ketib qolgan ikki o'g'li ham san'atga bo'lgan iqtidori bilan ajralib turgan: Javonbaxt Jahondor Shoh qo'shiqlar uchun she'rlar va masnaviylar yozgan va qochqinda yurgan shoirlar orasida ko'p do'stlari bo'lgan. U 1838 yilda Agrada sakson ikki yoshida vafot etgan.

She'riyatga faqat shohlar yoki boy oilalar aloqador bo'lmagan. Nizom taxallusi bilan ijod qilgan Indolmulk o'zi boshqargan qo'g'irchoq hukmdorlardan shoirlikda qolishmagan; u urdu, fors, turkiy va arab tilida she'rlar qoldirgan. Uning xotini Ganno Begim ham shoira bo'lganligi haqida yozilgan.

Ko'pchilik urdu shoirlari kelib chiqishi turk yoki afg'on bo'lgan oliynasab harbiylar oilasiga tegishli bo'lgan. Ular harbiy xizmatni davom ettirgan, mohir tabib bo'lgan yoki so'fiy bo'lgan. Mashhur shoirlarning faqat ba'zilarigina shohlar va amaldorlarning homiyligiga muhtoj bo'lgan va shuning uchun kamdan-kam shoirlar Dehlidan quvg'in qilingandan keyin yoki Lakxnaudagi homiylik uchun kurash tufayli qiyinchilikka duch kelgan.

Har qanday ijodiy faoliyat uchun to'sqinlik qiladigandek tuyulgan siyosiy vaziyatda she'riyat mahalliy tillarda - sindhiy, panjobiy va urduda tezlik bilan rivojlandi. Urdu dastlab Dehlida, shahar vayron bo'lib, homiylar qolmaganidan keyin Fayzobod va Lakxnauda gullab-yashnadi.

Saltanatning qulashi avvallari balandparvoz go'yalarning tasviri uchungina mos keladigan o'rtacha darajada deb hisoblangan til uchun yangi yo'llarni ochdi. Tez orada dehlilik shoirlar yuqori martabali davralardagi so'zlashuv tili - urdu-e mualla'(a'lo urdu) ni yaxshi o'zlashtirgan shaxs uchun katta imkoniyatlar yaratishi mumkinligini anglab yetishdi. Shunday bo'lsa-da, 1752 yilda Mir rextada bir yuz yetmish dan ortiq ijod qilgan shoirlar haqida aytib o'tgani hayratlanarli. Garchi ular ichiga Amir Xusrav, Mirzo Bedildan tashqari va Dekan va Gujarotdan bo'lgan bir qancha shoirlar kiritilgan bo'lsa-da, bunday katta raqam o'sha davrda o'rtacha tasvir vositasiga extiyoj katta bo'lganidan dalolat beradi.

Muhammadshohning hukmronlik davrida ro'y bergan ikki yirik voqeani aytish lozim, biri - Nodirshohning bostirib kirishi, ikkinchisi - Dehlida urdu she'riyatining jadal rivojlanishidir. Bu ikki voqea boburiylar hukmronligining barbod bo'lishidan darak beradi. Agar davlat kuchli bo'lganda edi, Nodirshoh Dehlini egallab, uni talon-taroj qilmagan, va xalq tili asosiy til maqomini egallamas edi.

Fayz, Obro', Najiyy, Xatim, Yakrang, Mazhar Jonjonon, Mazmun, Fig'on, Tobon kabi shoirlar shu davrda ijod qilgan bo'lib, oddiy hindustaniyda ijod qilganlar va ularning asarlari urdu adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega. Bu davr she'riyatida qo'llanilgan urdu tilini rexta ("aralash") deb atashar edi.

Shimoldagi eng birinchi urdu shoirlaridan biri Sadriddin Muhammad Fayz bo'lib, uning devoni 1714 yilda tuzilgan roniy zodagon oila farzandi bo'lganidan madhiyalar yozmagani yoki saroyga yaqinlashishga intilmaganligi uchun ijodkorlar hayoti haqida asar yozuvchilar nazaridan chetda qolgan. Uning ko'pchilik asarlari keyinchalik Nazir Akbarobodiy va zamonaviy urdu shoirlari tomonidan qo'llanilgan janr - nazmiy doston janrida yozilgan. Aynan Fayz shu janrning asoschisi hisoblanadi, bundan tashqari u birinchi bo'lib urduda muxammaslar yozgani aytilgan. Ko'pchilik shoirlarga qarama-qarshi tarzda Fayz shoir faqat ko'rgan va bilganlari haqida yozishi va hayotga yaqin bo'lishi kerak, degan pozisiyada turgan. Voqe'likni ko'proq real tarzda tasvirlashga bo'lgan intilishi tufayli u sun'iy qoliplardan qochgan va tabiiy uslubda yozishga harakat qilgan. U she'rning go'zalligi ko'p jihatdan uning shakli, bo'g'inlarning soni va moslashuviga bog'liq ekanini yaxshi bilgan. Realizmga bo'lgan moyillik uning tanlagan mavzularida ham ko'rinadi: u ona shahri Dehli va Hindiston tabiatini maqtaydi. Uning she'riyatidagi mahalliy an'analar ta'siri dastlabki dakhniydagi she'rlardagi kabi kuchli:

hind bayramlari tasvirlangan; taqqoslash uchun fors anʼanalaridan koʻra koʻproq hindu anʼanalari olingan; goʻzal qiz pari emas, apsara; yurishi ohuga emas, toʻvushga, agar toʻladan kelgan boʻlsa, filning qadam bosishiga qiyoslanadi. Hind ertaklari qahramonlari fors afsonalari qahramonlari bilan uygʻunlikda qoʻllaniladi, Fayzning sheʼriyati dastlabki dakhniy uslubi bilan Dehlidagi urdu sheʼriyati oʻrtasida koʻprik vazifasini bajargan. Bu jihatdan u Dehli yoki Lakxnauning buyuk shoirlaridan koʻra Nazir Akbarobodiy kabi yozuvchilarga yaqinroq.

Fayz yaratgan sheʼriy asarlar goʻzalligi, hissiyotlar olamiga chuqur kirib borishi, milliy rang-barangligi bilan ajralib turadi; ularda hind bayramlari va tantanalari tasvirlangan. Shoir sheʼrlaridagi qiyoslash va metafora hind sheʼriyatiga xos. Fayz asarlari nafaqat oʻsha davr sheʼriyati haqida tasavvur uygʻotadi, balki tarixiy voqealar va muammolar bilan ham tanishtiradi. Boshqacha qilib aytganda, ularda oʻz davrining madaniy-maʼrifiy hayotining yorqin manzarasi kuylangan. Bora-bora Dehli Shimoliy Hindistonning adabiy markaziga aylandi va adabiyotning janubga taʼsiri kuchsizlashib bordi. Boburiylar saltanati shiddat bilan inqirozga yuz tuta boshladi, uning siyosiy ahamiyati tobora pasayib borardi; shunday boʻlsa-da, saltanat haligacha mavjud edi. Muhammadshoh davrida saroy fitnachilar maydoniga aylandi. Davlatni aslida yirik amaldorlar boshqarar, shohning oʻzi esa vaqtini kayfu safoda oʻtkazar, davlat ishlari bilan umuman shugʻullanmas edi. Dehli saroyi haddan tashqari hashamatli boʻlgan. Mamlakatning uzoq hududlaridan yuqori mansabdor amaldorlar poytaxtga shohning bazmu jamshidiga ishtirok etish uchun tashrif buyurishgan. Amirlarning oʻzaro urushi va ayrim rojaliklarning kuchayishi davlatni inqirozga yuz tuttirdi. Markaziy davlatning kuchsizlanganidan foydalanib, Nodirshoh 1739 yilda Panjobga yurish qildi va Dehli darvozalariga yaqinlashib bordi. Shoh qoʻshini qarshilik koʻrsata olmadi va shahar misli koʻrilmagan vayronaga aylandi. Urush shohidi boʻlgan shoir va tarixchilar oʻz asarlarida bu manzaraning nihoyatda dahshatli ekanini tasvirlashgan. Nodirshoh Dehlidan ketganidan soʻng vaqt oʻtib, Dehli yana oyoqqa turdi, biroq saltanatning avvalgi shukuhini qayta tiklashning imkoni yoʻq edi.

Hindistonda ijtimoiy-siyosiy hayot, ayniqsa, madaniy jabha tamomila toʻxtadi: tasviriy sanʼat va meʼmorchilik rivojlanmay qoldi, adabiyotshunoslikda turli hind tillarida na Tulsi, na Jayasiy, na Surdas, na Kabir qayta tugʻildi. Fors tili ham oʻz ahamiyatini yoʻqotdi, garchi, urdu tili rivojlanishi hayotiy ijtimoiy mafkura talabidan kelib chiqqan boʻlsa-da, ushbu tilda yaratilgan adabiyot taraqqiyot yoʻlida borayotgan milliy

adabiyotning o'ziga xos kuchidan mahrum edi. Feodalizm davrida adabiyotning gullab-yashnashi shoh saroyining xayrixohligi va homiyligiga bog'liq bo'lgan, boburiylar saltanati esa shu qadar tez zaiflashdiki, bunga hech qanday chora-tadbir yordam berolmasdi.

Vaqt o'tgani sayin Muhammadshoh saroyida hind musiqa san'ati rivojlandi, urdu tili xalq orasida keng tarqaldi. Bu davr she'riyat yuksalishi davri bo'ldi. Saltanatning joylardagi ba'zi qismlari mustaqillikka erishdi. Ost-India kompaniyasi o'z mavqe'sini mustahkamladi. Shimoli-g'arbiy Hindiston mamlakatdagi tarqoqlik sabab istalgan vaqtda urushning qaynoq nuqtasi bo'lishi mumkin edi. Darhaqiqat, Nodirshoh bosqinidan o'n yil o'tib, Hindiston Ahmadshoh Abdualining e'tiborini tortdi.

Markazda hokimiyatga intiluvchi yirik jogirdorlarning har biri o'z qo'shiniga ega bo'lgan. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli yomonlasha bordi. Xalqning ko'pchiligi jogirdorlar zulmi va amaldorlar sitamidan aziyat chekardi. Shoh Olam hukmronligi yillarida (1759-1806) marathlar, jatlar, pathanlar kuchayib ketdi. Shoh Ost-Indiya kompaniyasi homiyligi va qo'llab quvvatlashiga muhtoj edi. Kompaniyaga butun hukmronlik ixtiyorini berib, u Allohobodda siyosiy iste'foga chiqdi. Oradan o'n yil o'tib, shoh marathlar yordamida Dehli taxtiga qaytadan tiklanganida, saroyga pathanlar hujumi boshlandi. Ular shoh ko'ziga nil tortib, zindonga tashladi. Hokimiyat marathlarga o'tdi, 1804 yildan lord Leykka taxt o'tgan bo'lsa-da, rasmiy ravishda davlatboshi Shoh Olam edi. Shunday ekan, Dehlida rasmiy ravishda musulmonlar hukmron deb aytilsa-da, aslida inglizlar egalik qilishni boshladi. Barcha aytib o'tilgan ma'lumotlar Shimoliy Hindistonning urdu adabiyoti qanday sharoitda rivojlanganini ko'rsatadi.

O'sha davrning yirik shoirlari asarlarida Dehli saroyining beqaror holati o'z aksini topgan. Mamlakat iqtisodiy ahvolining yomonlashuvi va siyosiy anarxiya barchada mavhumlik, qo'rquv hissini uyg'otardi. Voqe'lik, hayot biron-bir ma'niga ega emasdek, bu esa ma'naviy-axloqiy zavolga olib keldi. Ilgari ishonch hayotiy qiyinchiliklarni sabr bilan engib o'tishga yordam berardi, endilikda barchani umidsizlik chulg'ab oldi. Biroq hind jamiyatining tabaqalarga bo'linishida jiddiy o'zgarishlar yuz bermadi. Shuningdek, ishlab chiqarish usuli ham o'zgarmadi. Qoloq ishlab chiqarish kuchiga ishlab chiqarish munosabarlari ham mos edi. Hukmdorlar jur'atsiz va shahvatparast edi, jogirdorlar ham ulardan kam emasdi. Qo'shin yaxshi qurollantirilmagan va jangovar ruhda emas edi. Askarlar maosh olmaydigan mahalliy bosqinchi xalq bo'lib, axloq darajasi ayanchli edi. Katta to'ntarish qilishga qodir bo'lgan xalq biron

huquqqa ega emas edi. Eng asosiysi - jogirdorlik tizimi tanazzulga yuz tuta boshladi. Uning parchalanish jarayoni darhol yuz bermadi, u bir necha yuz yillar mobaynida davom etdi. Garchi o'sha davrda Hindiston sanoat rivojlanishi yo'lida bo'lmasa-da, savdo uchinchi tabaqa paydo bo'lishiga olib keldi. XVIII asrda Oct-India kompaniyasi mamlakatning alohida tumanlarida o'z qudratini o'rnatib bo'lganini ta'kidlash lozim. Uning yangi hayot tarzini olib kirishi va bu bilan iqtisod va ma'naviyat-madaniyat sohasiga kiritgan o'zgarishlaridan urdu adabiyoti ham ta'sirlanmay qolmadi. Biroq hindu-musulmon mushtarak madaniyati an'analari shu qadar mustahkam ediki, yangi g'oyalar ular orasida tez tarqalmadi va o'z tarafdorlarini topmadi. Shubhasiz, ishlab chiqarish kuchining o'zgarishi madaniy hayotda ham o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Biroq bu o'zaro bog'liqlik tezkor sur'atda amalga oshmadi. Badiiy ijodkorlik o'z qoidalariga ko'ra rivojlanadi, sekinlik bilan va bosqichma-bosqich o'zgaradi.

Hind jamiyatning iqtisodiy asosi ham sekinlik bilan rivojlandi, adabiyotda qandaydir yangilikning paydo bo'lishi haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Yuqorida muhokama qilingan fikrlarni umumlashtirsak, urdu adabiyoti muhim zamonaviy mavzularni yoritgan bo'lsa-da, jamiyatni olg'a siljishiga unday olmadi. Bu, shuningdek, shoirlarning xalqdan uzoqligi va uning hayot tarzidan bexabar ekanligi bilan ham izohlanadi. Albatta, urdu yozuvchilari asarlaridagi mavzular hayotdan olinmagan va ularning ijodi boshdan-oyoq to'qimalarga asoslangan, deyish noto'g'ri, biroq, shubhasiz, ular jamiyat rivojiga bo'lgan munosabatini yorita olmadi. Sinfy jamiyatda inson sinfdan tashqarida qolishi mumkin emas va uning qarashlari u tegishli bo'lgan sinfiy jamiyatning dunyoqarashlari bilan bog'liq. O'sha davrlarda ham ko'plab shoirlar hayot go'zalligi va inson qadr-qimmatini haqqoniylik bilan tasvirlagan, bu ularni faqatgina bitta hukmron sinfni ideal deb atash mumkin emasligini aks ettirishganini anglatadi.

Mirza G'olib she'riyati va ramziylik

Tayanch so'zlar va iboralar: dehqonchilik, musulmon, fors tili, hindu, ingliz mustamlakachilari, arab tili, iqtisodiy ahvol, temuriylar tarixi, Rampur shohi, xatlar, Nizomiddin Avliyo.

Darsning maqsadi: taniqli adib, shoir, faylaso'f Mirza G'olib ijodiy merosi va uning asarlarining o'ziga xos jihatlari haqida.

Mirzo Gʻolib 1797 yil 27 dekabrda Agra shahrida dunyoga keldi. Uning bobosi Tursunbekxon samarqandlik va Saljuqiylar xonadoniga mansub katta amir boʻlgan. Oʻgʻli – Qoʻqonbekxon otasi bilan achchiqlashib qolib, 1730-yillarda Samarqandni tashlab Hindiston sari ravona boʻladi va Lahoʻr navobi Muinul-mulk uni oʻziga kichik lashkarboshi qilib tayinlaydi.

Mirzo Gʻolib oʻzining nasl-nasabi Samarqanddan ekanligini, bobolari turk qabilalaridan boʻlib, dehqonchilik bilan shugʻullanganligini mudom fahr bilan tilga olardi va fors tilida yozgan bir sheʼrida:

*Gʻolib oʻzim muqaddas Turon tuprogʻidanman,
Bilsangiz tagi taxtim, iqbol quchogʻidanman.
Ota-bobom kasb-kori dehqonchilik azaldan,
Samarqand fuqarosi-dehqon qarogʻidanman.*

deb kuylagan. Gʻolib ijodiga bagʻishlangan koʻp maqola, ocherk, kitob va tarjimalar chiqqan²⁰.

Shoirning otasi Abdullobekxon Dehlida toʻgʻilgan. Avval Lakxnauda, soʻngra koʻp vaqtgacha Haydarobod shahrida shoh qoʻshinida xizmat qilgan. Lekin, Gʻolibning tarbiyasi Agrada uning (ona tomonidan) bobosining xizmatdagi yordamchisi Xoʻja Gʻulom Husayn nazoratida qolgan edi. Gʻolib endi besh yoshga kirganida 1802 yili uning otasi Mirzo Abdullobekxon Rojgarxdagi janglarda fojeali halok boʻlgan.

Abdullobekxondan ikki oʻgʻil – Asadulloxon va Yusufxon yetim qoladi. Ularni amakisi Mirzo Nasrullobek tarbiya qila boshlaydi. Lekin, taqdir buni ham koʻp koʻrdi. 4–5 yildan soʻng u ham vafot etadi.

Boʻlgʻusi ulugʻ shoir hayotning achchiq-chuchugini tatimasdanoq ota va boshqa mehribonlarining mehr-muhabbatidan bahra ololmagan edi. Gʻolib yana bobosinikiga qaytib keladi. Ularning oilasi Agradagi amirlar xonadoniga mansub edi. Shu sababli ham Gʻolibning boshlangʻich parvarishi kamu-koʻstsiz toʻkis xonadonda oʻtdi. Oʻz nabirasini qattiq sevgan va uni erkalab-ardoqlashni bir dam ham kanda qilmagan bobosi taʼlim-tarbiya toʻgʻrisida ham koʻp gʻamxoʻrlik qiladi. Yosh Asadulloxon Agradagi eng isteʼdodli, qobil ustozlar qoʻlida taʼlim ola boshladi. Uning ustozlaridan biri urdu adabiyotida oʻziga xos salobatli oʻrin egallagan mashhur shoir Nazir Akbarabodiy edi.

²⁰ Ашурбоев З. Зулисонайн шоир ва насрнавис. Шарқ Юлдузи. –Т., 1962, №2; Хошимов И. Мирза Ғолиб. –Т., 1969; Мўминов И. М.А. Ғолиб – ажойиб олим, шоир ва мутафаккир. Фан ва турмуш. –Т., 1967, №7.

Gʻolibning boshqa bir ustoz Muhammad Maʼzim oʻz shogirdi qalbida fors tili va adabiyotiga zoʻr muhabbat uygʻota oldi. Fors tilining goʻzalligiga, shirinligiga, umuman qudratiga asir boʻlgan Gʻolib 11 yoshdan boshlab fors tilida sheʼr yozishni mashq qila boshlaydi. Fors tilidagi yirik asarlarni oʻrganib chiqadi. Gʻolib 14 yoshida Agra navobining qizi Amrao begimga uylanadi. Shoirning rafiqasi yetti farzand koʻradi, lekin ular yoshligida dunyodan koʻz yumadilar.

Bu judoliklarning togʻdek yuki shoir va uning rafiqasini juda ezib yuboradi. Soʻngra boshqalarning bolalarini asrab oladilar. Lekin ular ham vafo qilmay hayotining eng gullagan davrida dunyodan oʻtadilar.

Mirzo Gʻolibga umr boʻyi qaygʻu va gʻam yoʻldosh boʻldi. Uning ustiga vatandoshlarini och-yalangʻoch koʻrgan shoir oʻzining eng ogʻir muhtojlik damlarida ularga yordam qoʻlini choʻzib turdi. U qisqa vaqt ichida arab tilini ham mukammal oʻrganib oladi. Shoir oʻz ijodini esa fors tilida boshlaydi.

Oʻsha davrda fors tili saroy tiligina boʻlib qolgan, urdu tili esa rivojlanib, omma orasida keng tarqalgan edi. Gʻolib toʻgʻilgan davrda inglizlar Kalkuttada urdu tili boʻyicha oliy maktab tashkil qilgan va unda Mir Ali Afsus, mashhur «Bogʻu-bahor» asarining muallifi Mir Ammon Dehlaviy va boshqa yozuvchilar domlalik qilar edilar. Mir Taqi Mir va Savdo kabi shoirlarning urdu tilidagi ilk sheʼrlari oʻquvchilarning hurmatiga sazovor boʻlayotgan edi. Dehlida Zavq va Moʻmin kabi urdu shoirlari katta shuhrat qozonib, muxlislarini koʻpaytirayotgan edilar. Bu yuksalish Gʻolibni ham oʻziga jalb qildi va u, ohista, ammo, ustalik bilan urdu tilini oʻzining ilgʻor va teran fikrlarini ifodalash vositasi qilib oldi.

Mirzo Gʻolib 15 yoshida Agrani tashlab, Dehliga koʻchib keladi. Uning Dehlida istiqomat qila boshlashi hayotdagi eng muhim ahamiyatga ega boʻlgan voqea boʻldi. Shoir yoshligidanoq mashhur fors shoiri Bedil singari sheʼr yozish ishtiyoqida tinmay ijod qildi. U yaratgan obrazlar nihoyatda nozik, jozibador va latofatli edi. Afsuski, yosh shoirning ana shunday ajoyib sheʼrlarini Agradagi shoirlar toʻgʻri tushuna olmadilar, qadriga yeta olmadilar.

Hindistonda fors tilida ijod qilgan yirik shoirlardan Bedil, Urfiy, Naziriylarning asarlarini u qunt bilan oʻrgana boshladi. Gʻolib urdu tilida samarali ijod qilgan shoirlar ijodini ham qunt bilan oʻrgandi. U oʻzining devonida urdu adabiyotining mumtoz vakillaridan biri shoir Mir Taqi Mirni katta hurmat va ehtirom bilan tilga oladi.

Gʻolib urdu tilida yirik shoirlar yoʻq degan fikrga eʼtiroz bildirib, juda kamtarlik bilan shunday yozgan edi:

*Senmas faqat rextaning ustoz, joni, Gʻolib!
Oʻtgan edi ilgari yirik shoir: nomi – Mir.*

Gʻolib Mirni oʻz ustoz deb bilsa ham, lekin gʻazallari unikiga oʻxshamasdi. Gʻolib gʻazallarining mazmuni va tilining xususiyatlari Bedil izidan ketayotganligidan dalolat berardi.

1828 yildan boshlab shoirning sertashvish hayoti boshlandi. Gʻolibning amakisi Nasrullobek amaldor edi. Nasrullobekning xizmatlari uchun ingliz hukumati Gʻolib va uning qaramogʻidagilarga yiliga 10 ming rupiya nafaqa tayinlagan edi, lekin 1826 yildan bu nafaqa 5 ming rupiyaga kamaytirilgandi. Bunga qarshi eʼtiroz bildirib Gʻolib 1828 yili mustamlakachilar poytaxti Kalkutta, Banoras va Kulkuttalik shoirlar bilan tez-tez uchrashib turdi va adabiy anjumanlardagi munozaralarda ishtirok etdi. Eng muhimi shundaki, Ost-Indiya kompaniyasining hukmronligi natijasida Kalkuttada vujudga kelgan yangi adabiy-siyosiy muhit bilan tanishdi. Hindistonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlarni urdu shoirlaridan birinchi boʻlib angladi va uning sabablarini toʻgʻri tushundi. Bu yerda shoir mamlakatdagi adabiy muhit bilan tanishdi va uning qaysi maqsadlar sari yoʻnalayotganligini sezdi. Ingliz mustamlakachilari mamlakatda oʻz hukmronligini mustahkamlab, kengaytira borgan sari xalq ahvoli yana ogʻirlashdi. Gʻolib bu umumiy tushkunlikdan xoli emasdi. Ingliz hukumatidan toʻlanadigan nafaqa kamayib, soʻng toʻxtab qolgach, Gʻolibning iqtisodiy ahvoli juda ogʻirlashadi, odam qadri yoʻqolib, xor boʻlganligidan noliy boshlaydi, tutqun hayotga laʼnatlar oʻqiydi:

*Ostonangda yotishga doim qodir emasman,
Laʼnat ushbu hayotga. Yoʻq, taʼmagir emasman.
Doim chir aylanishdan nechun hovliqmasin dil
Men insonman. Na kosa, halqa, zanjir emasman
Yo rab nechun zamona yoʻqotmoqchi vujudim?!
Oshkor aytay: soʻnunchi jismga doir emasman.
Ne sababdan buncha ham yoʻq oldingda qimmatim?
Men, toʻgʻri, yoqut, zumrad-jinsi nodir emasman.*

Shoirning meros qolgan yeridan oladigan daromadi ham kamaya boshlaydi. Uning iqtisodiy tushkunligini syozgan ingliz mustamlakachilari 1846 yili uni Tomas kollejiga fors tili professori lavozimiga taklif qiladilar

va shoirni o'z manfaatlari yo'lida xizmat qildirmoqchi bo'ladilar. Mustamlakachilarning qabih niyatlarini tushungan Mirzo G'olib bu taklifni rad etadi. Bu davrda G'olib yetuk, obro'li shoir darajasiga ko'tarilgan, ijodida ham muhim o'zgarishlar yuz bergan edi.

Endi shoir Bahodirshoh Zafar saroyida muqim bo'lib qolganda va 1850 yilning o'rtalarida podshoh G'olibni ulug'lab unga «Najimud-davla», «Dabirulmulk» va «Nizomi jang» unvonlarini beradi. Shu yili shoh G'olibga temuriylar tarixini yozishni topshiradi. Shoir uning birinchi qismi – «Mehri nimro'z»ni 1855 yili tamomlab nashr ettiradi. U Chingizxondan to Bobur o'g'li Humoyun davri bilan tamomlangan edi.

1850 yili Mirzo G'olib shahzoda Fatxulmulkka ustoz qilib tayinlanadi. Lekin, shoirning bu tolei uzoq davom etmaydi, ikki yildan so'ng valiahd shahzoda vafot etadi.

Endi G'olib tomonidan yozilayotgan temuriylar tarixining ikkinchi qismi Bahodirshoh ko'ngliga sig'may qoladi. Shunday qilib, G'olib Akbarshohdan to Bahodirshoh-Zafar davrini o'z ichiga olgan, temuriylar tarixining ikkinchi kitobi «Mahi nimmah»ni yozib tugatishga muyassar bo'la olmadi.

1855 yili G'olib Rampur shohining saroy hayoti bilan juda yaqinlashadi. Rampur shohi she'riyat muxlislaridan bo'lib, o'z g'azallarini G'olibdan yaxshilab tahrir qildirib olardi. Shu sababli Rampur shohi G'olibni har doim iqtisodiy tomondan qo'llab turdi.

1857–1859-yillarda hind xalqining ingliz mustamlakachilarining og'ir zulmiga qarshi ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan qahramonona kurashlari Hindistonning siyosiy va ijtimoiy hayotida o'chmas bir iz qoldirdi. Mamlakatdagi milliy ozodlik harakatining buyuk cho'qqilaridan biri – sipohiylar qo'zg'oloni shoir ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shoir qo'zg'olon kunlarida ko'p qiyinchiliklarga muhtalo bo'ldi. Nohaq tintuvlar va qamashlardan yashirinib yurdi.

Shunga qaramay G'olib vatandoshlarining jasoratini, bosqinchilarga qarshi ozodlik, mustaqillik uchun olib borayotgan mardonavor kurashini tarix sahifalariga zarhal bilan yozib qoldirdi.

Lekin, qo'zg'olon mag'lubiyatga uchraydi. G'olib buning natijasida yuz bergan qiyinchiliklar azobi va zarbasidan qutula olmadi. Ingliz mustamlakachilari Hindistonni qilich va o'q bilan tamomila zabt qilgach, Dehlida hamda boshqa ko'p shahar-qishloqlarda vayronaliklar va harobaliklar yuz berdi. Bular shoir qalbini chuqur iztirobga soldi. Yoru birodarlariga yozgan xatlarida shoir shular to'g'risida qayg'u va g'azab bilan qalam tebratdi.

Gʻolib sipohiyalar qoʻzgʻolonidan keyingi 10 yil umrini ogʻir betobliklar bilan oʻtkazdi va 1869 yil 15 fevralda 72 yoshida vafot etdi va u Dehliidagi Hazrat Nizomiddin Avliyo dargohiga dafn qilindi.

Hindiston va Pokiston adabiyotchilari shoir ijodini oʻrganar ekanlar, urdu adabiyoti maydoniga Iqbolga qadar ulkan shoir chiqmadi, degan xulosaga keldilar. Shoir Shiifta oʻzining «Gulshani bahor» asarida Gʻolib ijodini juda yuksaklarga koʻtaradi. Doktor Bajnuri shunday degan edi: «Hindistonning hali ham ilhom bagʻishlovchi ikkita kitobi bor: biri – muqaddas vedalar boʻlsa, ikkinchisi – «Devoni Gʻolib» kitobidir.

Gʻolibning shogird va muxlislari nihoyatda koʻp edi. Urdu adabiyotining mashhur namoyondalari A.X. Xoli, M.M. Majruh, M.A. Salak, M.A. Mixr, M. Shiifta va X.G. Taftalar Gʻolibni alohida izzat-ikrom bilan tilga oladilar. Masalan, A.X. Xoli oʻzining «Yodgori Gʻolib» nomli mashhur asarida Gʻolib toʻgʻrisida quyidagilarni yozgan edi: «U oʻz sanʼatini shu qadar mustahkam egallagan ediki, undagi qobiliyat juda kam uchraydi. Mirzo juda saxiy, insonparvar, mehribon inson edi». Mirzo Gʻolib ikki tilda, avvalo forsiyda, keyinchalik urduda samarali ijod qildi va undan: «Devoni Gʻolib», «Udi Hindi», «Urdui mualllo»; fors tilida esa «Kulliyoti Gʻolib», «Panj ohang», «Qotʼa burhon», «Nomai Gʻolib», «Mehr nimroʻz», «Saddi chin» va boshqa bir qancha asarlar meros qoldi.

Gʻazal yozishda Gʻolib shunday yuksakliklarga koʻtarila oldiki, hech bir zamondoshlari unga tenglasha olmadi. Gʻolib aksariyat qisqa vaznda kichik-kichik sheʼrlar yozib, ularda nihoyatda muloyim, jozibador, original fikr va obrazlar yarata olish qobiliyatiga ega edi. Bu borada shoirning yor haqidagi gʻazaliga murojaat etsak:

*Yigʻlayverib ishq kuyida, boʻlibmiz bebok bilsang.
Yoshga shunday choʻmildik – boʻlibmiz xoʻp pok bilsang.
Olam ahliga boʻldik sharmanda, daydilikdan,
Biroq chiniqdik, oʻsdi farosat, idrok bilsang
Kim aytadi boʻlboʻlning nolasi beasar deb?
Parda ichida gulning bagʻridir ming chok bilsang.
Nechun soʻraysan sevgi ahlining bor-yoʻqligin
Erurmiz oʻz oʻtida yonuvchi xoshok bilsang.
Borgan erdik qilgʻali biz tagʻofildan gina
Yerga kirdik, bir boqqach boʻlib tuproq-xok bilsang.*

Gʻolibning oʻziga xos goʻzal uslubi, shirin tili bor edi, uni hamma zamondoshlari singari oʻzi ham tan olardi.

Shoirning shaxsiy hayotidagi quvonchdan yiroq, kulfatga inoq voqealar uni baʼzan pessimistik sheʼrlar yozishga va nola qilib, xudoga yolvorishga majbur qiladi. Bu tabiiy edi. Juda erta yetim qolish, farzandlari, yoru birodarlaridan ketma-ket judo boʻlish, zamonasidagi adolatsizlik natijasida odamlar orasida mehr-oqibatning yoʻqolganligi, qashshoqlikning nihoyasidan oshganligi shoir qalbini chuqur iztirobga solmay qoʻymas edi.

*Jafokash dil-dasturxon. Unda toʻla dard-neʼmat
Qurbiga qarab doʻstu yoronda armon chiqdi.
Qoʻzgʻadi yana gʻavgʻo bu xoʻrlik dilda Gʻolib,
Oh, qatra yosh chiqmagan koʻzdan sel-toʻfon chiqdi.*

Lekin, bunday umidsizlik ruhida yozilgan gʻazal va xatlari shoir ijodining noyob durdonalarini xalqdan yashira olmadi. Aksincha, hayotning achchiq, beshafqat kunlari unga insonlarga muhabbat, adolatni sevish va hayotni ongli ravishda jabr-zulmsiz, erkin-quvnoq oʻtkaza bilish lozim, degan fikrni yana bir bor taʼkidlab oʻtishga yordam berdi.

*Gʻam dashtida men ovchi koʻrgan ohu-uloqman.
Goh figʻonim falakda, goh koʻzlari boʻloqman.
Zohidlar davrasida gardi xorman juda ham
Osiylarning safida ravshan yonar chiroqman.
Hech kimsaning koʻnglida menga zarracha joy yoʻq
Yaxshi gʻazalman, lekin qulochlardan uzoqman²¹.*

Shu bilan Gʻolib din arboblari targʻib qiluvchi narigi dunyoning yolgʻon ekanligiga ishonch hosil qilib, insonlarni hayot nashidasini surishga chaqiradi. Jumladan, shoirning «Yaxshi» sheʼrida shunday deyiladi:

*Osmondagi oy husni topganda kamol, yaxshi
Undan koʻra yerdagi oftob jamol yaxshi
Sinib qolsa bozordan keltirurmiz yangisin
Jamshid jomidan koʻra bizga shu safol yaxshi
Hamsuxan etdi tesha Farhodni Shirin bilan
Kishida qaysi turda boʻlsa ham, kamol yaxshi.*

²¹ М. Ғолиб. Ғазаллар (урду ва форс тилидан Р. Мухамеджонов ва Шомухамедов Ш.М. таржимаси). – Т., 1975; Ғолиб М. Ғазаллар, мухаммас, рубойлар, қитъалар. –Т., 1975.

*Jannatning nimaligi bizga ma'lum, va lekin
Ko'ngilni xush tutgali, G'olib, bu xayol yaxshi.*

Bunda shoir kishilarni mehnat qilishga, o'z hunarlarini Farhod kabi takomillashtirishga chaqiradi. Shu bilan birga G'olib har bir narsa osongina yuzaga kelmay, balki qunt, aql-idrok bilan paydo bo'lishini ta'kidlab, olim bo'lish oson-u, lekin inson bo'lish mushkul, har kim bunga muyassar bo'lavermaydi, degan fikrni yana bir bor olg'a suradi.

*Ko'p og'irdir har ishning osongina bitishi,
Har odamga muyassar bo'lavermas inson bo'lish.*

Urdu adabiyotining rivojiga G'olib qo'shgan hissa nihoyatda ulkandir. G'olib g'azalni faqat nozik tuyg'ularni emas, iqtisodiy, falsafiy va siyosiy fikrlarni ham ifodalash vositasi qilib oldi. Bu adabiy janrning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib, she'rning jamiyatdagi ahamiyatini yuksaltirib yubordi. G'olib o'ziga xos jozibali usuli orqali fikr va tuyg'ularni chuqur hamda a'lo darajada ifoda eta oldi. Shoir o'z ijodida tasavvufdagi mistitsizm va turg'unlikka qarshi o'laroq ijodida o'z zamonasining ilg'or g'oyalarini to'liq aks ettirdi. G'olib insonparvarlikni, mehnatni ulug'lashni, din erkinligini e'tirof etishni, falsafiy erkin fikr qilishni kuylash bilan birga insonlarni tafakkur qilishga chaqirdi, sezgini esa borliqni bilishdagi birinchi vosita, deb to'g'ri baholagan edi.

G'olib xalq hayotini chuqur bilgan, binobarin xalqqa yaqin shoir edi. U xalqlarning diniy va siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar, do'stlashishga, birlashishga, o'zaro mehru oqibatni mustahkamlashga chaqiradi.

1857–1859-yillardagi hind xalqining yirik qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragach, ingliz mustamlakachilari musulmon va hindular o'rtasida sun'iy nizo chiqarib, qancha-qancha begunoh insonlarning qoni to'kilishiga sababchi bo'ladilar va shu yo'l bilan hind xalqining milliy ozodlik kurashini zaiflashtirishga intilayotgan mudhish bir davrda yashagan shoir bir do'stiga «Sen musulmonmi yoki hindumi – ikkovingizni ham hurmat qilaman va o'zimning og'alarim deb bilaman. Chunki biz hammamiz insonmiz va bu haqda boshqalar nima deyishsa ham menga baribir», – deb yozgan edi.

Bunday insoniy, oliyjanob tuyg'ularni, hind va musulmonlar o'rtasidagi birodarlikni kuylash urdu she'riyatida bir yangilik edi. G'olibning novatorligi urdu she'riyatidagi ilg'or oqimni yaratishdan iborat bo'ldi. Bu oqim ulug' shoirlar: Holî (1837-1914), Iqbol (1873-1938) va hozirgi zamon urdu

she'riyatining ilg'or shoirlaridan Fayz Ahmad Fayz, Ali Sardor Ja'fariy, Djos Malixabadi, Gorakpuri va boshqalar ijodida juda kengayib ketdi.

Ba'zi sabablarga ko'ra G'olib qo'zg'olonida shaxsan ishtirok eta olmadi. Lekin uni diqqat bilan ko'zatib borib mustamlakachilarning shafqatsiz zolimliklari haqida iztirob va g'azab bilan yozgan edi:

*Mustabid ingliz – u bag'ritoshlar
Mo'tabar elimda hukmron bo'ldi.
Xiyobon-bog'larda kesildi boshlar,
Uyimiz zindonu, dil g'amga to'ldi.
Dehlida har ko'cha, har zarracha gard
O'shqirar: «Qayerda, musulmon qani?»
Har taraf zimziyo, ingliz nomard
Ep ko'rdi tirikka shu zimziyoni.*

Shoirning xalq qo'zg'oloniga munosabati ana shunday keskin edi.

G'olib urduda fors tilidagiga nisbatan kam ijod qildi va urdu tilidagi g'azallarini forsiyga nisbatan qimmatsizroq deb o'z ijodiga kamtarinlik bilan baho bergan edi.

G'olib tabiati va harakterining o'ziga xos oliyjanob tomonlari juda ko'p. Masalan, u juda qanoatli va mag'rur, nihoyatda fahm-farosatli, hozirjavob, latifago'y, hazilkash, xushchaqchaq inson edi. G'olib turmush ikir-chikirlariga qul bo'lmay, hayotdan mamnun edi. Ko'ngli keng, qo'li ochiq, aqli ilg'or g'oyalarga boy edi. Hayotining so'nggi yillarida shoir iqtisodiy jihatdan ko'p qiynalganiga qaramay, saxiylikni tark qilmadi, bechoralarga ko'maklashdi. Yoru do'stlari bilan ilgari qanday munosabatda bo'lgan bo'lsa, og'ir, tashvishli kunlari ham o'shanday muomalada qoldi. G'olib ba'zi xudbin shoirlardek ochko'z, yoshlarga g'ayir va g'ashlik bilan qaramas edi. Mirzo G'olib hayotining oxirigacha boylik va xasislikning quli bo'lmadi.

G'olib urdu shoirlariga nisbatan va ma'lum vaqtgacha saroy shoiri bo'lishiga qaramay, kam qasida yozdi. Uning mashhur qasidalari birovlarini maqtash bilan chegaralanmay, urdu adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. G'olib qasidalari qisqa yozilib, ba'zi turli narsa va hodisalarga bag'ishlangan, chiroyli vaznli, ma'nosi teran va boydir. G'olibni qasidago'y shoirlardan yuqori qo'yadigan tomoni shundaki, u birovni maqtash bilan o'z g'ururi va obro'sini yerga urmadi va saroyini ham kuylashi kanda qilmadi.

Gʻolib urdu adabiyotiga koʻp yangiliklar olib kirdi, oʻz mustaqil uslubini yaratdi. Urdu sheʻriyatiga shunday oʻxshatish, istiora va obrazlar kiritdiki, ularni Gʻolibgacha boʻlgan shoirlar hech ishlatmagan edi. Gʻolibning novatorligi ham ana shunda. Gʻolib hamisha xalq bilan yashadi, xalq gʻami bilan quvonchini, orzu-istaklarini kuyladi.

Gʻolibning bebaho merosi uning doʻstu birodarlariga yozgan koʻpdan-koʻp xatlaridir. Lekin u xatlarni shunchalik jonli, chiroyli tilda yozardiki, ularni oʻqiganda Gʻolib bilan yonma-yon oʻtirib gaplashayotgandek tuyuladi. U maktublarni shunchalik goʻzal yozardiki, unga oʻxshatib yozish har kimga ham muyassar boʻlavermas edi.

Gʻolib hayotining soʻnggi yillarida, ayniqsa toʻshakka yotib qolgan kunlarida, yoru birodarlaridan juda koʻp xatlar olar, ularga oʻz vaqtida javob ham yozardi. Uning koʻp xatlari tarjimai holini yaxshi yoritib beradi.

Tarixiy hujjatlar bergan maʼlumotlarga qaraganda, adabiyotda xat shaklida yaratilgan asarlar Oʻrta Osiyo va Eronda Chingizxon istilosi davrida fors tilida rivojlana boshlaydi. Oʻrta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida esa temuriylar davridan boshlab epistolyar janr (maktub shaklida yozilgan asarlar) alohida eʼtiborga sazovor boʻldi. Hindiston musulmonlari ham xat va yozishmalarga katta eʼtibor berganliklari maʼlum. Ulugʻ moʻgʻullar, yaʼni boburiylar davrida yozishmalar davlat tili boʻlgan fors tilida taraqqiy etgan edi.

Bu hol esa urdu adabiyotiga ham taʼsir etmay qolmadi. Urdu adabiyotining ulugʻ vakili Mirzo Gʻolibning nasriy asarlari asosan uning maktublaridan iborat boʻlib, shoir epistolyar janrda katta oʻzgarishlar yaratibgina qolmay, umuman urdu nasrida va, qisman, epistolyar janrda tasvirlashning yangi uslub va odatlarining asoschisi boʻlib qoldi. Gʻolib xatlarida fors adabiyotining ilgʻor adiblari yoʻlidan bordi.

Shoir adabiy faoliyatining boshlanishidan to 1848 yilgacha yozgan xatlari mumtoz fors nasriy tilida yaratilgan boʻlib, Bedil uslubida yozilgan.

1848–1857-yillarda yozilgan shoir maktublari urdu va fors tillarida boʻlib, Gʻolibning ijodiy kamolotga erishgan davriga toʻgʻri keladi. Bu davrdagi xatlar mavzui turli va keng boʻlib, mamlakatdagi tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotning har xil voqealariga shoirning munosabatini aks ettiradi. Shu davrda yaratilgan xatlar muhim ahamiyatga ega boʻlib, Gʻolibning ilgʻor shoir, faylasuf, olim va insonparvar boʻlib yetishganidan darak beradi. Bu davrdagi xatlarning uslubi soddaroq, tili ilgarigidek murakkab emas edi.

Lekin G‘olib shu davrda yozilgan xatlari orqali urdu tilini boyitishga, mumtoz fors adabiyotidagi eng latif so‘z va iboralarni urduga kiritishga harakat qildi.

1857 yildan, ya‘ni tarixda sipohiylar qo‘zg‘oloni nomi bilan mashhur bo‘lgan hind xalqining ingliz mustamlakachilari istibdodiga qarshi qahramonona kurash yillaridan boshlab, to umrining oxirigacha bo‘lgan davr ichida yozilgan xatlarda shoir zamonasidagi eng muhim masalalarga bo‘lgan munosabatini bildiradi va chuqur falsafiy xulosalar chiqaradi, johillik, zolimlik va diniy mutaassiblik ustidan kuladi.

Umuman, Mirzo G‘olibning xatlari shoir hayoti va ijodini o‘rganishdagina emas, balki uning ziddiyatlarga to‘la davrini o‘rganishda ham bebaho manba bo‘lib qoldi.

Shoir xatlarining xususiyatlaridan biri, u xatlar kimga yozilganligidan qat‘iy nazar, samimiyat bilan to‘la edi. Umuman G‘olib ijodining va, qisman, xatlarining markazida inson, kishilarga g‘amxo‘rlik, ularga mehr-shafqat masalasi turadi.

G‘olib urdu adabiyotida xatni dialog shaklida yozishga qo‘l urganlardan biridir. Bunday usulda yozilgan xatlar uning xatlarini badiiy asarlarga yaqinlashtirdi, ularning mazmunini tushunishni osonlashtirdi.

Hozirgi vaqtgacha Mirzo G‘olib asarlari, jumladan xatlari ham ko‘p marotaba qayta-qayta nashr qilindi. Natijada shu kunlarda shoirning urdu tilida nashr qilingan quyidagi xatlar majmuasiga egamiz: «Ud-e hindi» («Hindining muattar tarmog‘i»), «Urdu-e muallo» («Yuksak urdu») ikki qismdan iborat, «Makotib-e G‘olib» («G‘olib yozishmalari»), «Hutut-e G‘olib» («G‘olib xatlari») ikki qismdan iborat, «Noma-e G‘olib» («G‘olib xatlari»), «Nodira-te G‘olib» («G‘olibning nodir xatlari»).

Shoirning yaqingacha ma‘lum bo‘lgan urdu xatlari «Ajkal» («Bugun va erta») jurnalining 1959 yili (Dehli) G‘olibga bag‘ishlangan sonida va «Nuqush» to‘plamining 1957 yil (Laxor) 45–46-sonlarida bosilgan.

Shunday qilib, Mirzo G‘olibning epistolyar janrida qoldirgan merosi juda qimmatli bo‘lib, Hindistonning mashhur jamoat arbobi, publitsist Said Ahmadxon va Holining ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir asarlarini, Nazir Ahmad bilan Abdul Halim Sharar romanlarining yaratilishiga zamin yaratib berdi. Natijada o‘tgan asrning ikkinchi yarmida urdu adabiyotida nasrchilik tez rivojlana boshladi. G‘olib xatlarining yana bir qimmatli tomoni shundaki, ular zamonasidagi tarix, etnografiya, madaniyat va adabiyot to‘g‘risida boy ma‘lumotlarga egadir.

XIX asr urdu adabiyotining Dakxnau va Dehli maktablari

Tayanch so‘zlar va iboralar: marsiya, noha, Lakxnaucha so‘zlashuv, avadh shevasi, sarf va nahv, frazeologiya, Kanpur, Nazm-e-siraj, ikkilik, bhang.

Darsning maqsadi: Urdu adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan Lakxnau urdu maktabi vakillarining ijodiy merosi haqida.

She‘riyatning ayrim janrlari – marsiya, noha va boshqalar diniy tasavvurlar ta‘sirida rivojlangan. Bularning barchasi adabiyotda o‘ziga xos badiiyatga ega bo‘lgan va eng avvalo, tilda o‘z aksini topgan. Ko‘plab tadqiqotchilar, so‘nggi faktga katta e‘tibor qaratishgan. Shubhasiz, Lakxnaucha so‘zlashuvda avadh shevasining yoqimli yumshoq va nozikligini his qilish mumkin. Ayrim so‘zlarning talaffuzida, sarf va nahvda, frazeologiyada farq bo‘lgan. Demak, Dehli she‘riyati ham Lakxnau she‘riyati ham bir qator o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan. Bu bir maktabning zaif tomoni boshqa maktabga xos emasligini yoki Lakxnau adabiyotida Dehli adabiyoti tabiati yo‘qligini anglatmaydi. Biz faqatgina, ayrim g‘oyalar, hissiyotlar, fikrlar va usullar boshqa shoir ijodida ham o‘z ifodasini topganini ta‘kidlamoqchimiz, xolos. Ehtimol, mualliflar dunyoqarashining umumiylikiga qaramasdan, uslubdagi farqlar ba‘zan umumiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin, raqobat esa ularni yanada ko‘proq murakkablashtiradi. Bu chekinish o‘quvchiga Lakxnau va Dehli maktablari o‘rtasidagi kurash deb nomlanadigan adabiy polemika haqida tasavvur uyg‘otishga imkon beradi. Vaqt o‘tishi bilan ko‘rsatilgan xususiyatlar qat‘iy aniqlandi: minglab shoirlarning har biri o‘z ijodida ulardan foydalanishga va rivojlantirishga harakat qildi.

XIX asr boshlarida she‘riyat olami Lakxnauning har bir burchagigacha kirib borgan. Xalqning she‘riyatga bo‘lgan muhabbati shu qadar ulug‘ bo‘lganki, hatto savodi bo‘lmaganlar ham she‘r yozishgan va uning go‘zalligidan bahramand bo‘lishgan. Lakxnau yo‘nalishi shoirlaridan, eng avvalo, o‘z sulolasining buyuk ikki namoyandasi, adabiyot sohasida nafaqat Lakxnauda, balki Dehlida ham tan olingan Nasix va Otash nomini keltirib o‘tish lozim. In‘om Baxsh (Nasix) Fayzobodda tug‘ilgan. Uning tarjimai holi u qaysi sulolaga mansubligi bahs -munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Shoir shu qadar mashhur bo‘lganki, hatto ayrim yirik Lakxnau amaldorlari va boylari o‘zlarini uning shogirdi deb hisoblashgan. U hech qachon shoh saroyiga tobe

bo'lmagan, biroq zarurat ba'zan uni saroy axloq qoidalariga rioya qilishga majbur qilgan. Nasix saroy qoidalarini buzganida, shaxsiy qadr-qimmatini oyoqosti qilishni xohlamagani sabab Lakxnauni tark etishga majbur bo'lgan. Birmuncha muddat u Allohobodda istiqomat qilgan va buni o'z she'rlarida ham yodga olgan: Keyinchalik uning Fayzobodda, Banoras va Kanpurda yashashiga to'g'ri kelgan, biroq u hech qachon she'rlarida shohni ko'klarga ko'tarmagan. U chayir, baquvvat qoratanli kishi bo'lgan. G'avg'oli oilaviy munosabatlardan qochish maqsadida yolg'iz yashab o'tgan. Uning ayrim g'alati odatlari bo'lgan. Nasix hech qachon moddiy qiyinchiliklarga uchramagan, chunki uning muxlislarining ko'pchiligi badavlat kishilar bo'lgan. Bugungi kunda ham Lakxnauda mashhur bo'lgan hashamatli mehmonxona egasi navob Agamirunga shoirga homiylik qilgan. Aytishlaricha, G'azniddin Haydar Nasixga "kaviraj" (so'zma-so'z "Shoirlar qiroli") unvonini bermoqchi bo'lganda u rad etgan.

Nasixning ijodiy merosi 3 to'plamdan iborat bo'lib, ulardan ikkitasi ayniqsa mashhurdir, uchinchi to'plami "Nazm-e-siraj" ya'ni "Nur she'riyati" nomli diniy mavzuga bag'ishlangan masnaviydir. Uni grammatika va poyetika bo'yicha kichik traktatlar muallifi deb sanashadi, ammo bu asarlar hali topilmagan.

Nasix asosan g'azallar yozgan. Uni buyuk shoir deb aytishlariga asosiy sabablardan biri u g'azalda ortiqcha sentimentallikdan qochgan holda g'azal yozishning yangi yo'nalishiga asos soldi. Uni til va she'riyat sohasida katta mutaxassis deb hisoblashadi. Tilning sofliги bo'yicha she'riy ijodda Nasixga teng kela oladiganlar kam. Lekin, uning sayoz ma'noga ega va mazmunan qashshoq she'rlari inson qalbida iz qoldirmaydi. Albatta, shoirda juda chiroyli ikkiliklar ham bor, ammo umuman olganda shakl jihatdan yaxshi bo'lgan she'rlar inson qalbiga yetib bormas va jonsizdek tuyuladi. Shoirning til sohasida qilgan ishlari foyda bilan birdek zarar ham keltirdi: bir tomondan, she'riyatda inkor qilib bo'lmaydigan normalar paydo bo'ldi, ikkinchi tomondan, shoirlarning diqqat-e'tibori she'rlardagi ma'noga emas, balki, so'zlarga qaratildi (balandparvoz so'zlar, metaforalar va qiyoslashlar). Qisqacha qilib aytganda, Nasix ijodining ahamiyati pasayishining sababi insonga ta'sir ko'rsatuvchi g'oyalar kamayganligida.

Otash taxallusi ostida ijod qilgan Hoja Haydar Ali ham Nasix kabi mashhurlikka erishgan. Uning ota-onasi so'fiylar bo'lgan, ular avval Dehlida yashagan, so'ngra Fayzobodga ko'chib o'tishgan va shu yerda Otash dunyoga kelgan. U yosh bolaligida otasi oilasini tashlab ketgani

sababli u juda erta pul topishga kirishgan. Uni o'z holiga tashlab qoyishganligi tufayli yaxshi ta'lim olmagan.

Fayzobodda Otash navobning tansoqchiligiga qabul qilindi va birozdan so'ng u bilan, Insho va Mushafiylar mashhur bo'lgan Lakxnauga ko'chib keldi. Mushafiyga shogird tushdi va tez orada arzimagan sabablar bilan undan ketib qoldi. U shu qadar iqtidorli ediki, tez orada shoirlar o'rtasidagi musobaqalarda yaxshi qatnasha boshladi. Ko'p o'tmay u yetuk shoir sanalib, uning o'quvchilari soni ortdi. Otash zodagonlardan ko'ra kambag'allar bilan ko'proq muloqot qilishni ma'qul ko'rardi. U sariq kiyimda, belida qilichi, qo'lida hassasi bilan yurar edi, bhang ichishni yoqtirishini esa ba'zida she'rlarida eslatib o'tgan. Shoir 1846-yili vafot etgan.

Aligarx ma'rifatparvarlik harakati.

Said Ahmad Xon faoliyati

Tayanch so'zlar va iboralar: ma'rifatparvarlik, hind atamashunosligi, «an'anaviy» adabiyot, poetika, janr shakllari, realistik tendensiyalar, badiiy qahramonlar, ijtimoiy rivojlanish muammolari.

Darsning maqsadi: Hindiston ma'rifatparvarlik harakatining yetakchisi Said Axmad Xon faoliyati va uning faoliyatining urdu yozuvchilari ijodiga ta'siri haqida.

Urdu adabiyotida ma'rifatparvarlikning ilk bosqichini shakllanishi qadimgi, hind atamashunosligi bo'yicha, «an'anaviy» adabiyot asosida amalga oshdi. XIX asrning birinchi yarmidagi adabiyot asosan shunday edi. O'z mazmuni, mavzusi, poetikasi, janr shakllari bo'yicha bu adabiyot (asosan she'riyat) o'z turi bo'yicha o'rta asr bo'lib, XVIII asr mumtoz adabiyotining an'alarini davom ettirgan.

XIX asr ikkinchi yarmiga kelsak, bu davrda ma'rifiy adabiyot «an'anaviy» adabiyotning o'rnini bosib, realistik tendensiyalarning shakllanishi (ma'rifiy realizm) aniq namoyon bo'ladi.

Uning sinfiy tuzilmasi ham o'zgaradi: yozuvchi va shoirlar, badiiy qahramonlar kabi feodal zodagonlar bilan bog'liq emas, ular turli qatlamlardan kelib chiqqan ziyolilar vakillaridir, yoki Hindistonda, aytishlaricha, «o'rta sinfga» mansubdirlar (Evropada ma'rifat davrida adabiyotga «uchinchi qatlam» vakillari kirib kelganligi haqida gapirilgan).

Bu davrda, ya'ni, 60–90-yillarda yangi bo'lgan adabiyot shakllandi, uning asosiy funksiyasi ijtimoiy rivojlanish muammolarini aks ettirish, ijtimoiy g'oya va intilishlarni ifodalashdan iborat edi.

60–90-yillar adabiyotida yangi she'riy janrlar, roman va qissa janrining shakllanishi kabi muhim o'zgarishlar kuzatildi – XX asrning birinchi o'n yilligida esa hikoya, badiiy tanqid va publitsistika janri shakllana boshlandi. Xuddi shu davrda ilk yirik adabiyotshunoslik asarlari adabiyot tarixi bo'yicha chiqa boshladi.

Ammo, bu barcha jarayonlar «an'anaviy adabiyot» bilan yonmayon rivojlanib borardi. Bu adabiyotning markazi avvalgidek, Dehli va Lakxnau shaharlari edi, Dehli podshohlari va Lakxnau navablari saroylari yo'q qilinganidan so'ng shoirlar o'z mustaqilligini saqlab qolgan Rampur va Haydarobod musulmon hokimlarining saroylarida o'zlariga panohtopadilar. «An'anaviy» she'riyat vakillari ichida iste'dodli shoirlar ham uchrab turar edi. Misol sifatida shoir Dog'ni (1831-1905) keltirsak bo'ladi, u oxirgi mo'g'ul imperatori o'g'li oilasidan kelib chiqqan. Uning g'azallari katta muvaffaqiyatga erishgan edi. Nafaqat o'sha davr she'riyati bilimdonlari, balki zamonaviy adabiyotshunoslar, biror-bir boshqa urdu shoirda sofroq og'zaki dehli tilini, ishqiy hissiyotlarning nafisroq ifodasini topish mumkin emasligini ta'kidlaydilar.

Lakxnau, Rampur va Haydarobod shoirlari ichida ham iste'dodli ustalar ko'p edi. Ular orasida G'olib va XIX asr birinchi yarmining boshqa mashhur shoirlarining shogird va izdoshlari bo'lgan. Ammo, umuman olganda, 60–90-yillardagi an'anaviy she'riyati texnik tomonidan mukammallik, fikr, mazmunning kambag'alligi bilan ajralib turadi.

O'sha davr «an'anaviy adabiyot»ining rivojlanishi o'z ijobiy jihatlari ham ega edi. Masalan, aynan an'anaviy yozuvchilar ichidan keyinchalik uning vakillari mumtoz merosini saqlash va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish tarafdorlari edi.

An'anaviy shoirlardan bo'lgan Amanat Lakxnauning oxirgi navabi saroyida yashagan, 1853 yilda urdu adabiyoti tarixida birinchi dramatik asarni yozgan. Bu o'ziga xos musiqaviy drama edi, uning nomi «Indra sabxa» («Indraning saroyi») edi. Lakxnauning oxirgi hokimi yosh podshoh Vajid Ali shoh edi, uning saroyi (Kesarbog') mushoira va turli tadbirlar bilan mashhur edi. Vajid Ali shohning o'zi ham urduda she'r yozgan. Uning taxallusi «Axtar», ya'ni «Yulduz» edi va saroylariga mashhur shoir, musiqachi va raqqosalarni taklif qilgan. (1856 yili inglizlar uni Bengaliyaga surgun qilishgan, u yerda ham u she'rlarni yozishni davom ettirgan).

O‘zining musiqaviy dramasida Amanat Indra xudosining «saroyi» obrazida Vajid Alishohni va uning saroy ahlining hayoti aks etgan. Birinchi harakatda saroy ahli qurshovida bo‘lgan Indra oldida parilar paydo bo‘ladi, ularning har biri birorbir qimmatbaho toshni – rubin, topaz, safir va xnuni ifoda etgan. Parilar musiqa ohanglari ostida raqsga tushib, g‘azallar kuylaydilar. Ulardan biri bosh qahramon – umri boqiy bo‘lmagan Gulfamni sevib qoladi. Gulfam obrazi Vajid Ali shohga o‘xshash. «Indra sabxa»dagi kuy va raqslar ham musulmon, ham hind adabiy an‘analari chizgilariga ega edi, ular o‘zaro uzviy bog‘liq va hamohang edi.

Amanatning «Indra sabxa»si urdu adabiyotining realistik tendensiyalarini shakllanishiga ahamiyatli hissa qo‘shmaydi, lekin shuni aytish lozimki, bu asar zamonaviy Hindistonning eng ommaviy san‘ati bo‘lgan – kino san‘ati genezisida muhim rol o‘ynadi. Musiqa taronalari ostidagi she‘rlar aytish, raqsga tushish – bu dramatik asarning o‘ziga xosligini yaratgan bo‘lib, keyinchalik hind kinematografiyasiga ko‘chirilgan.

«Indra sabxa» erishgan muvaffaqiyatiga qaramasdan, keyinchalik XX asrning 30-yillarigacha urdu tilidagi drama rivojlanmagan.

Shunday qilib, 60–90-yillardagi urdu adabiyoti rivojlanishining asosiy yo‘nalishi ma‘rifatparvarlikdir, u avvalambor hind musulmonlari ijtimoiy fikridagi harakat sifatida paydo bo‘lgan.

Alligarx harakati 1857–1859-yillarda, xalq isyonidan keyingi yillarda paydo bo‘ldi. Bu xalq isyoni mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotining tuzilmasida ahamiyatli o‘zgarishlarga olib keldi. Ulardan biri – Hindiston shu paytdan boshlab Britaniya imperiyasi tarkibiga rasman kirdi va bu xokimiyat uning nomidan ingliz vitse-qiroli tomonidan amalga oshirila boshlandi. XIX asrning 50-yillaridan boshlab ingliz hokimiyati bu o‘zining yangi rolida diniy ijtimoiy kelishmovchilikni keskinlashtirish siyosatini amalga oshirdilar, bu musulmon aholisiga, ayniqsa, uning yuqori qatlamlariga nisbatan qat‘iy adolatsizlik choralari, va shu bilan bir paytda hindiylarga turli imtiyozlarni berishdan iborat edi.

Ingliz «qo‘zg‘olon» deb nomlagan isyon, umuman olganda, xalq inqilobiy harakterga ega bo‘lib, unda turli diniy jamoa va ijtimoiy qatlam vakillari ishtirok etgan. Inglizlar bilan jang qilgan, isyon paytida o‘ldirilganlar ichida fuqaro aholisidan bo‘lgan ham musulmon, ham hindiylar ko‘p edi. Ammo isyonni tayyorlashda musulmon zodagonlarining aksariyat qismi ishtirok etgan, isyon bo‘lgan hududlar aholisining aksariyati ham musulmonlar edi. Aynan shu (Hindistonga

ingliz mustamlaka egalikni o'zini tahlikaga qo'ygan isyonning miqyoslaridan qo'rqib ketgan) ingliz hukumati uchun o'z asosiy maqsadi bo'lgan iqtisodiy va siyosiy istehkomlarini mustahkamlashni amalga oshirish uchun asosiy sabab bo'ldi.

Musulmonlarga nisbatan diskriminatsiya choralar siyosati keng miqyosda amalga oshirildi. Musulmonlar davlat xizmatiga qabul qilinmaganligini aytishimiz yetarli bo'ladi. M. Sodiqning «A history of Urdu Literature» deb nomlangan kitobida keltirilgan bir ingliz muallifi so'zlariga ko'ra «musulmon qorovul yoki xat tashuvchi lavozimidan yuqori lavozimda ishlagan biror bir davlat muassasasi yo'q edi» (u Kalkutta haqida yozgan).

Musulmonlarga nisbatan 50-yillardan boshlab ta'lim sohasida ham xuddi shunday diskriminatsion siyosat amalga oshirilgan, bu yerda u musulmon muxolifati bilan bog'liq edi: o'zining iqtisodiy va siyosiy istehkomlarini yo'qotgan musulmon feodallari shu yo'l bilan inglizlarga qarshi chiqishga harakat qilar edilar, ular ingliz tili va yevropa fanlarini musulmlar uchun o'rganishini gunoh deb e'lon qilgan musulmon ulamolari ham qo'llab-quvvatladilar.

Mana shu sharoitlarda Alligarx harakati vujudga keladi, uning mafkurachisi mashhur ma'rifatparvari, diniy islohotchi, ijtimoiy arbob, tarixchi va urdu tilida ijod qiladigan publitsist Said Ahmadxon (1817-1898) edi²². Siyosiy nuqtai nazardan Said Ahmadxonni shaxsiyati zid va murakkabdir. U zodagon musulmon oilasidan bo'lib, uning buvasi deqli podshohi saroyida vazir bo'lgan. 20 yoshligida ingliz ma'muriy saroy lavozimlaridan o'ziga taklif qilingan ahamiyatsiz lavozimni tanladi va inglizlar xizmatida yuqori mansabga erishdi. Isyon paytida Bijlorda oliy sudya bo'lgan Said Ahmadxon bir nechta yuqori mansabli inglizlarni va ularning oilasini hayotini saqlab qolganligi, bu uchun «baronet» titulini olganligi (shuning uchun uni hind adabiyotida «ser Said» deb atashadi) qiziqarlidir. O'zbekistonda o'zbek hindshunosi Teshaboyev F.G. S.A. Xon hayoti va faoliyatiga oid bir nechta maqolalar bag'ishlagan²³.

1859 yili Said Ahmadxon «Asbab-e bagavat-e hind» («Hind inqilobining sabablari») deb nomlangan kitobni nashr etdi. Bu kitobda u inglizlar mamlakatni yaxshi va adolatli boshqarish uchun ularning «Hindistondagi fuqarolari»ning hayoti sharoitlarini yaxshiroq bilishlari

²² Глебов Н.В., Сухочев А.С. Литература урду. –М., 1967; А.С. Сухочев. Саид Ахмад Хан. От дастана к роману. –М., 1971. 71–100-бетлар; Новая история Индии. –М., 1961; С.Э. Хусейн. История литературы урду. –М., 1961.

²³ Тешабоев Ф. Гўзал келиннинг икки кўзи. Фан ва турмуш. –Т., 1961, №1; Саид Аҳмад Хон. Хорижий Шарқ халқларининг илғор тарихи очерки. –Т., 1971.

lozimligi haqida yozgan. Said Ahmadning bu asarini baholash bahsli harakterga ega edi. Adabiy munosabatda «Asbab-e bagavat-e hind» ahamiyatli hissa qo'shgan, chunki u og'zaki tilning boyligidan keng foydalangan urdu tilidagi ilk yirik publitsistik asar edi.

Said Ahmad qalamiga tarixiy va publitsistik harakterdagi bir qator boshqa asarlar ham mansub. Sovet tadqiqotchisi L.R. Gordon-Polonskaya ta'kidlaganidek, «Alohida masalalarda Said Ahmadxonning fikr va mulohazalari jamoa noroziligini ifodalaydi». Bu, masalan, ingliz agrar siyosati, hind hunarmandlarini qashshoqlashtirish siyosati va ba'zi bir boshqa masalalarga tegishli edi.

Hindlarning «chegaralanganligi va qoloqligi» haqida qayg'urgan, ijtimoiy masalalar ustida bosh qotirgan savodli, ilmi Said Ahmadxon ma'rifatparvarlik g'oyasiga murojaat etadi. Said Ahmadning bu izlanishlariga musulmon zodagonlarning avlodlari haqida qayg'urish, xususan ularga davlat xizmatiga yo'l ochib berish sababi edi.

Ma'rifatparvarlik g'oyasi o'z qatorlarida ko'plab iste'dodli yoshlarni birlashtirgan hind musulmonlari ma'rifatparvarlik harakatining vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

60-yillarning o'rtasida Said Ahmad «Ilmiy jamiyat»ni tashkil qiladi (1864 yildan boshlab u Alligarx shahrida joylashadi). Bu jamiyat 40-yillardagi Dehli kolleji qoshidagi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni qo'ydi. «Ilmiy jamiyat»ga davlat xizmatchilari qatoridan (hindi va inglizlardan) 129 a'zo kirgan edi, ular qatorida oliy tabaqadagi ingliz xizmatchilari ham bor edi. Jamiyat qoshida tabiiy-ilmiy muzey, kutubxona tashkil qilingan bo'lib, u yerda ilmiy-ma'rifiy harakterdagi ma'ruzalar o'qilgan. U yerda bosmaxona ham tashkil qilindi, unda tabiatshunoslik, tarix, iqtisod bo'yicha asarlar ingliz tilidan urdu tiliga tarjimalar nashr etilgan. Jumladan, Millning «Siyosiy iqtisod», Roumengning «Yunonistonning qadimgi tarixi», Eltfinstonning «Hindiston tarixi» va boshqa bir qator mashhur ingliz olimlarining asarlari chop etilgan. Jamiyat faoliyatining miqyosi kengayib, uning filiallari va ma'rifiy to'garaklari boshqa shahar va joylarda tashkil etildi.

1869–1870-yillarda Said Ahmad o'g'illari bilan Angliyaga sayohatga boradi, keyin esa Alligarxda yangi imtiyozli oliy o'quv muassasasining ochilishini tashkil qiladi. 1875 yili uning fundamentiga asos solganida, u vitse-qirol lord Littoniyaga murojaat etdi, bu nutqi uchun u Hindistondagi ingliz hokimiyatini tarix ko'rmagan «ajoyib fenomen» deb atadi.

1878 yili Alligarx kolleji (Alligarx muslim anglooriyental kollej) ochildi. Bu yirik o'quv muassasasi bo'lib, u oliy ta'limning ingliz tizimiga

muvofiq tashkil qilingan ilmiy-o'quv kompleksi edi. Uning asoschilari «musulmon farzandlari» uchun o'quv muassasasi sifatida bunyod etishgan, unda musulmon va hindiyalar ta'lim olgan. U ingliz boshqaruvi tizimiga sodiq yuqori malakali xizmatchilarni tayyorlashga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, keyinchalik undan milliy ozodlik uchun kurashchilar, mashhur progressiv yozuvchi, va hatto, kommunistlar chiqqan.

Said Ahmad atrofida ko'plab olim, yozuvchi, madaniyat va fan arboblari to'plandilar, ular Said Ahmadning hind musulmonlarni chegaralanganligiga qarshi, ilmiy bilimlarning keng tarqalishi uchun chiqishini qabul qilishdi. Buning natijasida paydo bo'lgan harakat allig'arx harakati nomini oldi.

Said Ahmad o'z ishlari va fikr-mulohazalarida yangi estetika asoslarini yaratdi, yangi adabiyotni tashkil qilish zaruriyatini asoslab berdi, bu adabiyot hayotdan yiroqlashgan, sun'iy bo'lgan eski urdu adabiyoti (buni Said Ahmad o'rta asr kurtuaz she'riyati bilan o'z tipologik umumiyligini saqlab qolgan «an'anaviy adabiyot» deb tushunar edi) o'rniga kelishi lozim edi.

Said Ahmad urdu jurnalistikasi va badiiy tanqidining rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shdi. U o'sha davrdayoq o'z g'oyalarining tashviqoti uchun ro'znoma va oynomalarning ta'sir kuchini yaxshi anglagan edi. Qator yillar davomida u «Axbare sayintifik sosaiti», ya'ni «Ilmiy jamiyat ro'znoma»sini chop etdi, 70-yillarda esa «Tahzib ul-axloq» («Axloq – ma'naviyatni tarbiyalash») deb nomlangan haftalik gazetasini nashr etdi. Unda nashr etilgan 226 ocherk va 112 maqolalar Said Ahmad qalamiga mansubdir. Said Ahmad o'z g'oyalarining tashviqoti uchun ingliz publitsistikasidan foydalanib polemik maqolalar yozgan, adabiy tanqid bilan shug'ullangan, satirik pamfletlar muallifi sifatida o'zini ko'rsatgan.

Agarda Said Ahmadning inglizlarga taqlid qilishi shubha tug'dirmasa, uning mafkurachi va hind musulmonlar diniyijtimoiy haritasining asoschisi sifatidagi roli bahsli va aniq emasdir. Albatta, bu davrda Said Ahmad g'oyalari ta'siri ostida musulmonlarga nisbatan «qaom», hamda urdu tili va adabiyotiga nisbatan «milliy til» va «milliy adabiyot» kabi tushunchalar keng qo'llanila boshlandi. Masalan, Said Ahmadning izdosh yozuvchilardan biri bo'lgan Sh. Naomanining «Turkiya, Misr va Suriya bo'ylab sayohat» deb nomlangan kitobida sayohat tasviri shunday so'zlar bilan boshlanadi: «Ikkinchi klassda beshtagina yo'lovchi bor edi, va taqdirning ajoyib ustuniga ko'ra ular barchasi turli millat vakili edi, bitta musulmon, bitta ingliz...»

Bundan tashqari, Said Ahmad o'z faoliyati va qarashlarida avvalambor «musulmon manfaatlarini ko'zda tutganini albatta aytib o'tish lozim. Biroq shu bilan birga u musulmonlar, hind dehqonlar yagona millat (qaom) ekanligini, «Og'a-inidek (qaom) ekanligini, «hindi» va «musulmon»larni «og'a-inidek» o'zlarini tutishga da'vat etgan, chunki ular «bir yuzdagi ikkita ko'zdek» ekanligini ta'kidlagan. U 30 dan ortiq kitoblar muallifidir.

Badavlat oilada tug'ilib o'lgan yosh Said jismonan baquvvat, bolaligidan suzishni, kamon otishni o'rgangan. Said uyda o'qituvchidan dars o'tib, Qur'on o'qishni o'rgangan, fors va arab tillarini o'rgangan, keyin esa matematikani o'rganishga o'tgan. Keyinchalik u tibbiyotga qiziqib qoldi, lekin tez orada to'liq kursni tugatmay o'qishni tashlab ketdi. 18 yoshida uning rasmiy ta'limi tugadi, lekin u o'qishni shaxsiy ravishda davom ettirdi. Said o'z shahridagi adabiy uchrashuvlar, madaniy tadbirlarda qatnasha boshladi.

1838 yilda otasining o'limi oilani og'ir moliyaviy ahvolga solib qo'ydi. 21 yoshida Said ish qidirishga majbur bo'ldi. U Sharqiy Hindiston kompaniyasiga qo'shilishga qaror qildi, u erda 1876 yilgacha ishladi va nafaqaga chiqdi. U umrining oxirigacha Aligarx kollejida dars berdi va Janubiy Osiyodagi musulmonlar muammolarini o'rgandi.

U Aligarxda kollejning tashkil etilishini o'zining eng katta yutug'i deb bildi. Kollej 1920 yilda Said vafotidan keyin universitet maqomini oldi. Bu universitetda ko'p sonli musulmonlar tahsil olgan va Saidning o'zi u yerda mustaqil Pokiston davlatini yaratishga yordam bergan.

O'z davrining boshqa musulmon yetakchilaridan farqli o'laroq, Sayid Ahmadxon musulmonlar inglizlar bilan do'st bo'lishi kerak, degan fikrda edi. U inglizlarni musulmonlar ularning do'stlari ekaniga ishontirish uchun ko'p ish qildi. Said, shuningdek, Bibliyaga sharhlar yozgan va unda u islom nasroniylikka eng yaqin din ekanligini isbotlashga harakat qilgan.

Said musulmonlarni zamonaviy ta'lim olishga qattiq da'vat etgan. U musulmonlar G'arb siyosati sohasida uning tizimi va tamoyillarini bilmasdan turib muvaffaqiyatga erisha olmaydi, degan fikrni bildirdi. Sayid Hindiston Milliy Kongressining birinchi sessiyasida qatnashish va tashkilotga a'zo bo'lishga taklif qilingan, biroq u bu taklifni rad etgan. Shundan keyin Ahmadxon musulmonlarni Kongressdan uzoqroq turishga chaqirdi.

1898 yil boshida u kasal bo'lib qoldi va tibbiy yordam samarasiz bo'ldi. Uning ahvoli 24 mart kuni og'irlashgan. 27 mart kuni ertalab qattiq bosh og'rig'i kuchaygan. U o'sha kuni kechqurun Hoji Ismoilxonning

uyida vafot etdi va ertasi kuni Aligarh kolleji masjidi majmuasiga dafn qilindi. Uning dafn marosimida ko'plab do'stlari va muxlislari ishtirok etishdi.

Ma'rifatparvarlik shoiri Mavlono Ozod ijodi (1829-1910)

Tayanch so'zlar va iboralar: Alligarx harakati, g'azal, ma'rifatparvarlik g'oyalari, masnaviy, Atirgul va bulbul, mushoiralar, Anjiman-e Pandjab, fors tili, qit'a.

Darsning maqsadi: Said Axmad Xon faoliyati ta'sirida yetishib chiqqan ma'rifatparvarlik shoirlaridan Ozod ijodi va uning she'riyatidagi yangi g'oya va mavzular haqida ma'lumot berish

Alligarx harakati shoirlari Said Ahmadxon izdoshlari orasida uning ma'rifatparvarlik g'oyalari keng tarqaldi. Yangi urdu she'riyatini yaratish g'oyasini asoslashda Said Ahmadxonning yangi estetik tasavvurlarini rivojlantirishda shoir M.X. Ozod (1829-1910) katta ahamiyatga ega bo'lgan. Mavlono Muhammad Husayni (Ozod – uning taxallusi) Muhammad Bakirning o'g'li edi ²⁴. Muhammad Bakir urdu tilida birinchilardan bo'lib «Dehli urdu axbor» ro'znomasini nashr etgan, isyon paytida inglizlar tomonidan o'ldirilgan. Mavlono Muhammad Husayn savodli bo'lgan. U Dehli kollejini tugatgan. Otasining vafoti va otasining uyi vayronaga aylantirilganidan so'ng Muhammad Dehlini tark etdi. U o'zi bilan faqatgina XIX asr o'rtasidagi urdu shoiri Zavqining she'riyat to'plamini oladi. Zavqi Muhammadning bobosi edi, u Zavqini o'zining she'riy ustози deb bilar edi. Ozod Laxnau va Haydarobodda yashab, keyinchalik Laxorda doimo yashab qoldi.

Bu yerda u ingliz olimlari bilan tanishadi va Laxorning hukumat kollejida arab-fors filologiya professori bo'lib ishlaydi. Bu yerda u 1867 yilda o'zining mashhur ma'ruzasini e'lon qiladi, u urdu yangi she'riyatini yaratish zaruriyati haqida gapiradi. Ozod «Atirgul va bulbul» she'riyatining hayotdan uzoqligi va sun'iyligini tanqid qiladi. Uning fikricha, zamonaviy shoirlarning vazifasi buyuk irod namunalarini yaratgan o'tmishning buyuk ustalari yo'lidan borib, nafaqat an'anaga rioya qilish, balki o'z ijodida zamonaviy hayotning rivojlanish muammolarini yaratishdir.

²⁴ A.C. Сухочёв. От дастана к роману. –М., 1961; А.С. Сухочёв. Страница из истории раннего просветительства в литературе урду. ж. «Народы Азии и Африки», 1965, №5.

Ozod avval sheʼrlarini «anʼanaviy» uslubda yoza boshlagan, keyinchalik esa yozgan poemalari nafaqat badiiy qadriyatlarga, balki vatanparvarlik ruhining yangiligiga boydir.

1874 yilda Ozod ingliz hukumati koʻmagida Londonda Panjob jamiyatini («Anjiman-e Pandjab») tashkil qildi. Uning doirasida oʻz maʼrifatparvarlik gʻoyalarini amalga oshirishga harakat qildi. Bu jamiyat majlislarida yangi turdagi mushoiralar oʻtkazildi. Ularda misralar oldinda berilmas edi, ular hech kimni sharaflamagan va kuylamagan. Bu mushoiralar tez orada keng tarqalib, sifati boʻyicha yangi demokratik harakterga ega boʻldi. Keyinchalik aynan shu mushoiralardan 1940–1950 yillardagi mashhur demokratik mushoiralar kelib chiqdi. Ozod shoirlarni sodda va tabiiy tildan foydalanishga, tabiiylikning hindi tilidan oʻzlashtirilishiga, oʻz sheʼrlarida Jamna va Gangani kuylashga, Himolay togʻlari va Arjun hamda Bxima kabi qahramonlarni kuylashga chorladi. Ozod Eron va Qoboʻlga borganida, zamonaviy fors tilini oʻrgangan edi.

Mavlono Muhammad Husayn Ozod 1890 yil Laxorda «Obi hayot» nomi bilan chop etilgan urdu adabiyoti tarixi boʻyicha ilk kitobning muallifi edi. M.X. Ozod oʻz kitobida Amir Xusravdan Zavqiy va Gʻolibgacha boʻlgan, yaʼni XIII asrning oxiridan XIX asrning oʻrtalarigacha boʻlgan urdu sheʼriyati tarixini yoritib beradi. Uning kompozitsiyasida, albatta, anʼanaviy tazkiralarning taʼsiri mavjud, ammo Ozod adabiyotni davrlashtirishga harakat qilgan (sulola tamoyiliga asoslanib), bu davrlarni qisqa tavsiflashga harakat qilgan. Albatta, «Obi hayot»da xronologik xatolar koʻp, ammo toʻplangan material boydir, ayniqsa, keltirilgan sheʼrlarning soni boʻyicha (Ozod shoir haqida maʼlumot berganidan soʻng uning gʻazal, qitʼa, masnaviylaridan lavhalar keltiradi). Bu kitob unikaldir. M.X. Ozod sanskrit va forsiy tillarining umumiy manbalarini koʻzatgan ilk filolog urdushunosdir.

Altaf Xusayn Xoli (1837-1914) **ijodida maʼrifatparvarlik gʻoyalari**

Tayanch iboralar: Yodgor-e Gʻolib, tiklanish, Musadas-e Xali, Panjob jamiyati, yuksalish, Islom yuksalishi va pasayishi, Ayollar mavzusi.

Darsning maqsadi: Maʼrifatparvarlik gʻoyalari targʻibotchisi Altaf Xoli sheʼriyati haqida.

Sheʼriyatda alligarx harakatining eng koʻzga koʻringan vakili Xoʻja Altaf Husayndir, u Xoli taxallusi bilan ijod qilgan (1837-1914). Mavlono Xoli zodagon va boy edi, ammo Mavlono Panipatda kambagʻal boʻlib qolgan oilada toʻgʻilgan. U anʼanaviy taʼlim olgan, arab va fors tillarini yaxshi bilgan, fors mumtoz adabiyotini oʻrgangan. U 17 yoshidan Dehlida yashab, anʼanaviy fanlar diniy falsafa, mantiq va boshqalarni oʻrgangan. 18 yoshida u Gʻolib bilan uchrashadi. Gʻolib uning sheʼrlarini tinglab, agarda u sheʼriyatni tashlasa, u jinoyatchi boʻlishini aytadi. Yosh shoir mashhur boʻlgan saroy mushoiralarida ishtirok etadi. Bu davrda ham, keyingi davrda ham 40 yoshga toʻlguncha Xoli qadimgi «anʼanaviy» uslubda sheʼr yozadi.

Bir necha yilgi qiyinchiliklardan soʻng Xoli 1869 yilda Laxorga keladi, bu yerda u hukumat kitob omborida kichik lavozimda ishlay boshlaydi. U yerda ingliz tili va adabiyoti bilan tanishadi, ingliz tilidan tarjima qilishni boshlaydi. Xoli Laxorda Ozod bilan tanishdi. Ozod Xolini «Panjob jamiyati» mushoiralarida ishtirok etishga taklif qiladi.

1879 yili Xoli oʻzining mashhur boʻlgan «Islom yuksalishi va pasayishi» poemasini yozadi. Bu poema nafaqat Xoli ijodida, balki urdu sheʼriyatida ham muhim asardir. Bu poema olti misrali musaddasda yozilganligi sababli, uni «Musadas-e Xali» deb ham nomlashadi. U uch qismdan iborat boʻlib, birinchi qismda islomning avvalgi buyukligi haqida hikoya qilinadi. Poema islomning tiklanishi, yuksalishiga daʼvat bilan yakunlanadi. Unda nafaqat islom ideallarining tiklanishiga, balki oʻz Vatanining eng yaxshi kelajagiga ishonch yangraydi va shoir oʻz vatandoshlarini bunga intilishga daʼvat etadi.

Bu poema uchun mavzuni Said Ahmadxon taklif qilgani qiziqarlidir.

Xolining «Islom yuksalishi va pasayishi» poemasi yaxshi qabul qilindi. Xoli oʻz musaddasiga fuqarolik mohiyat ham berdi. Poemada islom madaniyati va sivilizatsiyasining pasayishi va zaif boʻlib qolishi haqida gapirilishiga qaramasdan, u hind aholisi haqida qaygʻurar edi. Shuning uchun u haqiqiy hissiyotlarga boy edi. Xolining bu asari badiiy munosabatda ham juda mukammal ekanligini taʼkidlashimiz lozim. U urdu adabiyotidagi bunday turdagi ilk sheʼriy asar boʻlib, undagi pasayish sahnalarida realistik tendensiyalar koʻzatiladi, shoirni «tiklanish», «yuksalishga» daʼvatda romantik tendensiyalar mavjud. Musaddasiga yozgan soʻz boshisida Xoli urdu sheʼriyatida anchadan beri saqlanib kelayotgan «sunʼiy taqlid uslubi»ni oʻzgartirish lozimligi haqida yozgan.

«Islom yuksalishi va pasayishi» asaridan soʻng avvalgi anʼanaviy «shartli uslubda biron bir satr ham yozmaydi». U urdu sheʼriyatida oʻsha

paytgacha ishlanmagan, hayot bilan bog'liq bo'lgan mavzularni oladi. Shoir vatanparvarlik hissiyotlarini «musulmon tiklanishi» da'vati bilan birga chorlagan bo'lsa-da, uning she'riyatida umumhind unsurlari ko'payadi.

Xoli she'riyati ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari bilan to'yingan, bu «Beva ibodati» va «Sokinlik hadyasi» kabi poemalarda o'z ifodasini topadi. Bu asarlarda Xoli urdu adabiyotida birinchi bo'lib hind musulmon ayoli ahvoli muammosiga murojaat etadi. «Ayollar mavzusi» g'arbiy va sharqiy ma'rifatparvar-yozuvchilar asarlari uchun xos hodisadir.

Xoli Said Ahmad g'oyalarining izdoshi bo'lib, u o'z she'riyatida ingliz mustamlakachilarni satirik fosh etgan.

A.X. Xoli she'riy shakllar sohasida ham novatorlik qildi. U g'azal va qasida uchun xos bo'lgan qat'iy monorifmani talab qilmagan «nazmiy» janr shaklini keng qo'llaydi.

Xoli urdu tilidagi adabiyotshunoslikka oid ilk yirik asarlar muallifidir. Uning qalamiga «Saadiy hayoti» (1882) asari mansubdir. Unda u buyuk Eron shoiri hayotini bayon etib, ijodini tahlil etadi. Bundan tashqari A.X. Xoli «Yodgor-e G'olib» asarining muallifi hamdir. Bu asar Mirzo G'olibga bag'ishlangan bo'lib, unda biografik material uning she'riy ijodi va yozishmalari tahlil qilinadi. O'zining ilmiy ahamiyati bo'yicha bu ish hozirda ham o'z qadriyatini yo'qotmadi va Hindistonda g'olibshunoslikka bag'ishlangan asarlar sarasi hisoblanadi.

Xoli Said Ahmad Xon haqida ham biografik asar yaratgan. U «Abadiy hayot» deb nomlanib, Said Ahmad vafot etgan paytda yozilgan. Bundan tashqari A. Xoli bir qator publitsistik harakterdagi asarlar muallifi hamdir.

Adabiyotshunoslikka oid asarlari ichida 1893 yili yozilgan «She'riyatga kirish» deb nomlangan asar alohida o'rin egallaydi. Bu asarda badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati qanchalik muhim ekanligi haqida Xolining nazariy qonsepsiyasi to'liq bayon etilgan. Bu qonsepsiyada me'rifatparvar Xolining dunyoqarashi yorqin namoyon bo'lgan. Bu yerda Xoli adabiyot va jamiyatning o'zaro tobe'ligi va o'zaro bog'liqligi haqidagi fikrni ilmiy tarafdin rivojlantirgan. Bu asarda Xoli o'z estetik ideallarini asoslab berib, go'zallik, reallik toifasiga mansubligini ta'kidlagan. Aynan shu nuqtai nazardan u g'azalning diniy-ishqiy lirikasi cheklanganligi va qasidaning panigerik to'yinganligini tanqid qilib, ularning yangi davrda jamiyatda hayotiy aks etmayotganini ta'kidlaydi. Xoli she'riy mavzularni kengaytirish tarafdori bo'lib, ular

qatoriga siyosiy hamda «milliy tiklanish» mavzularini kiritish lozimligini ham aytib o‘tdi.

Urdu tilidagi adabiyotshunoslik va tanqidni shakllanishiga Said Ahmad g‘oyalarining davomchisi bo‘lgan shoir va tarixchi M. Shibli Naomani (1857-1914) ham hissa qo‘shgan. U Alligarx kollejida arab tili va adabiyoti professori bo‘lgan. Tarixiy mavzularda yozgan asarlarida Shibli Naomani ham g‘arbiy fan va madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirish orqali «tiklanish» tarafdori bo‘lgan.

Bunda u musulmonlarning avvalgi «buyukligini» ta‘kidlagan.

Shibli Numoni Alligarx harakatining boshqa ko‘plab mualliflaridan farqli ravishda inglizlarga keskin qarshi bo‘lgan va Hindiston Milliy Qongress g‘oyalari tarafdori bo‘lgan²⁵.

Nazir Ahmad ijodida nasihatli roman

Darsning maqsadi: XIX asr 2-yarmida urdu adabiyotida roman-chilikning shakllanishi, didaktik roman janri taraqqiyoti va N.Ahmad ijodi

Tayanch so‘zlar: sarguzasht roman, tarixiy roman, ma‘rifiy-sentimental, tanho qahramonlar, romantizm, realistik unsurlar, shaxs va jamiyat.

60-90 yillarning badiiy nasrida ma‘rifatparvar realizmning ma‘rifatparvar g‘oyalari va tendensiyalarni shakllanishi to‘liq namoyon bo‘ldi. Realizmning bu yo‘nalishi urdu tilidagi adabiy jarayonda asosiy yetakchi rol ni o‘ynay boshladi.

Yangi nasriy janrlar – zamonaviy roman va zamonaviy hikoyaning shakllanishi ingliz adabiyotining ta‘siri ostida kechadi. Bu sharoitda ingliz tili, ta‘limning ingliz tizimi, ingliz tilidan badiiy tarjimalar, mamlakatda ingliz nashrlarning rivojlanishiga ko‘maklashdi. Bu ta‘sirni inkor etib bo‘lmaydi, bundan o‘laroq uning ijobiy rolini tan olmoq darkor. Abdul Latif kabi mualliflar ingliz adabiyotini urdu adabiyotiga ta‘siri haqida daliliy materiallar asosida yozgan edi.

Urdu tilidagi ilk roman boshqa adabiyotlariga nisbatan erta 1869 yilda paydo bo‘ladi. Romanning muallifi Nazir Ahmad (1836-1912) edi. N.Ahmad avvaliga an‘anaviy ta‘lim olgan, keyin Dehli kolledjini tamomlagan, ko‘p yillar mobaynida maktab inspektori, hattoki distrint kollektorining yordamchisi vazifasida, ma‘lum vaqt Haydarobod nozimi saroyida ham xizmat qilgan.

²⁵ М. Озод ва А.Х. Холи ижодига бағишланган тадқиқот рус олими Л.А. Васильева қаламига мансуб. «Благонравный мятежник». –М., 1997 г.

Uning birinchi romani “Kelinchak oynasi” axloqiy-tarbiyaviy asar bo‘lib, didaktika uning syujeti va obrazlar mazmunini, hattoki shaklini ham belgilab beradi. Nazir Ahmad mazkur asarni qizlariga nasihat sifatida yozgan. Uning uyiga mehmon bo‘lib, tez-tez kelib turadigan ingliz mansabdorlardan biri Ahmadning qizlariga nasihat o‘qiyotganini ko‘rib qiziqib qoladi va nashr etishni taklif qiladi. Roman muvaffaqiyatga erishadi va uch yildan so‘ng Nazir Ahmad uning davomini yozadi. U “Katta ayiq yulduzi” deb nomlangan bo‘lib, oilaviy mavzudagi diologiyaning ikkinchi qismidir.

Nazir Ahmad o‘zining ma‘rifatparvar g‘oyalar bo‘yicha hind musulmon ayolini obrazini ko‘rsatish uchun romanda ikki opa-singilni tasvirlaydi. “Akbari – opasi, salbiy qahramon, singlisi Asgari– ijobiy qahramondir. Akbari urf-odatlarida, kiyinishlarda, g‘arbiy tashqi ko‘rinishni o‘zlashtirgan, ammo o‘zi yengiltak va erka qiz bo‘lib, turmushga chiqqach eri haqida qayg‘urmaydi, uyni boshqarmaydi, hamma taqinchoqlarini noma‘lum odamga beradi, u odam esa ularni o‘g‘irlaydi. Buning barchasi oilaviy inqirozga olib keladi. Singlisi Asgari esa yosh ayol o‘zini qanday tutishi lozimligini namunasidir. Turmushga chiqib, u uy va oila haqida qayg‘urib, doimo eriga yordam beradi. Yosh ayolning to‘g‘ri xulq-atvori tushunchasiga Nazir Ahmad nafaqat mehnatkashlik va uy xo‘jaligini tejab boshqarishni, balki kattalarga hurmatni ham ko‘rsatadi. Uxlashga yotishdan oldin Asgari omborning eshigini qulflab, kalitni qaynonasiga beradi, unga betelni tayyorlab beradi. Shu bilan birga u aqlli, savodli, bermalol suhbat qura oladi. Atrofida qilarga e‘tiborli, kamtarin va chiroylidir.

Opa-singillarni otasi-chiroyli 45 yoshli nufuzli hukumat xizmatchisi-ning obrazi ishonchliroqdir. Agarda o‘zining oilaviy hayotida bobolardan qolgan an‘analari tarafdori bo‘lsa, xizmatda u yangi davrdagi inson, o‘z ishi bilarmoni, u o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishadi. Romandagi yoshlarni obrazi ham ishonchli yaratilgan. Nazir Ahmad ularning portretini yaratganda Dehli musulmonlarini o‘rta va oliy qatlaminig kundalik hayotining realistik tasvirini berishga erishgan.

Romanning ikkinchi qismida ijobiy qahramon bo‘lgan Asgari qizlar uchun tashkil qilgan maktab haqida hikoya qilinadi. Nazir Ahmad ayolning ma‘naviy sofliqi, erkinligi – uning olgan savodida, ta‘limida deb hisoblaydi.

Nazir Ahmadning ko‘plab boshqa romanlarida ham ma‘naviyat va axloq masalalari, ularni “to‘g‘ri” me‘yorlarga (shu bilan birga diniy qoidalarga) muvofiqligi ham aks etilgan. Ular ichida “Nasuxning pushaymoni” romani o‘z badiiy tomonlari bilan ajralib turadi. Biroq bu romanda ma‘rifatparvarlik g‘oyalari aniq ifodalanmagan.

Nasux – nufuzli, boy oilaning boshlig‘i, u kasal bo‘lganida tushida o‘z otasini ko‘radi. Otasi uni va oilasi “noto‘g‘ri” hayot kechirayotganida ayblaydi. Tuzalganidan so‘ng Nasux xotini va bolalarini “to‘g‘ri” hayotga chorlaydi. Ammo o‘g‘illaridan biri – Kalim otasining tanbehlariga quloq solmaydi. Kalim chiroyli yigit, u shoir, ammo u noto‘g‘ri yo‘ldan yuradi.

Kalim otasidan voz kechib, musulmon feodalining qo‘shiniga qo‘shilib jangda vafot etadi. Ammo o‘limidan oldin Kalim pushaymon bo‘ladi va otasining haq ekanligini tan oladi. Ammo aynan Kalim obrazi, “diniy me‘yorlarga” hurmatsizlik qilgan obraz asardagi eng haqiqiy real obrazdir. Uning xarakterini bir sxemaga tushurish qiyin. U tirik inson kabi ijobiy va salbiy fazilatlarga ega. Shuning uchun uni do‘stlari yaxshi ko‘radi.

Nazir Ahmadning 1884 yili nashr etilgan “Ibn ul-Vaqt” romani urdu tilidagi ilk ijtimoiy romandir. Ibn ul-Vaqt (“Davr farzandi”) bosh qahramonning o‘g‘li. U zodagon musulmon oilasidan bo‘lib, Dehli kolledjida o‘qiydi. 1857 yildagi isyon paytida u muhim ingliz xizmatchisining hayottini asrab qoladi va o‘z uyidan joy beradi. Bu odam – Mister Noubldir, inglizchadan tarjima qilganda u “mehribon” degan ma‘noni beradi. Ibn ul-Vaqt va mister Noubl ingliz va hindiyalar o‘rtasidagi munosabatlar haqida uzoq suhbatlar olib boradilar. Isyon bartaraf etilganidan so‘ng mister Noubl yordami bilan Ibn ul-Vaqt ingliz ma‘muriyatida lavozimga ega bo‘ladi. U xizmat bo‘yicha tez ko‘tariladi. Hayotning g‘arb madaniyatini tezda o‘zlashtirib oladi, biroq mister Noubl kasalligi tufayli uyga qaytishi lozim va uning o‘rnini boshqa ingliz mister Sharp egallaydi. U Ibn ul-Vaqtни yoqtirmadi va uni ishdan bo‘shatadi. Nufuzli lavozimdan mahrum bo‘lgan qahramon o‘zining ingliz do‘stlaridan ham mahrum bo‘ladi. U yolg‘izlikda qoladi – inglizlarning xizmatida bo‘lib, ularning do‘stligiga harakat qilganida u o‘zining vatandosh do‘stlarini yo‘qotgan edi.

Ibn ul-Vaqt kamchiliklarga ega, o‘z umid va qayg‘ulariga ega tirik insondir. Uning xulq-atvori atrof muhit ta‘siri bilan belgilanadi. Ammo Nazir Ahmad qo‘ygan muammo-realistik hayotiydir va bu ijtimoiy mojaroning hal etilishi ma‘rifatparvarlik realizmining doirasidan chiqib ketadi. Chunki u ma‘lum darajada ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq.

Nazir Ahmadning romanlari kompozitsiyasi bo‘yicha mukammal emas, yozuvchi tez-tez bir xil uslublarini qo‘llaydi.

Ammo, uning romanlarining qahramonlari o‘ziga xos xarakteriga ega, o‘z shaxsiy fazilatlariga ega. Ularning tili ham individuallashtirilgan. Masalan, Ibn ul-Vaqt o‘z nutqida ko‘plab ingliz so‘z va iboralarini qo‘llaydi.

Nazir Ahmadning romanlari – yangi zamonaviy janrning shakllanishidir, unda ma‘rifatparvar realizmning tendensiyalarini shakllanishi aniq kuzatiladi. Nazir Ahmad asarlari uchun xarakterli bo‘lgan ma‘rifiy realizmga jahon ma‘rifatparvar adabiyoti uchun xos bo‘lgan mazkur usulning ko‘plab tipik belgilari xosdir. Biroq, Nazir Ahmadning ijodida milliy chizgilar ham kuzatiladi.

Ratannatx Sarshar va sarguzashtli roman (1847-1902)

Darsning maqsadi: sarguzasht roman rivojlanish bosqichlarini o'rganish

Tayanch iboralar: hajviy jurnal, Audx Axbar, musulmonlar hayoti, Servantes romani, vafodorlik

XIX asrning 80-yillarida urdu adabiyotida realistik tendensiyalarning rivoji **Ratannatx Sarshar** (1847-1902) romanlarida ham namoyon bo'ladi. Sarshar ("mast, sarxush") Ratannatx Dar panditning taxallusidir. U Lakxnauga ko'chib kelgan kashmirlik braxmanlar oilasidandir.

70-yillarning boshida Sarshar Lakxnauning ingliz tili va adabiyotidan dars beriladigan yangi kollejlardan biriga kiradi. Dikkens, Tekkerey, Dj.Eliot, Valter Skott, Servanteslarning asarlari bilan tanishuvi unga katta ta'surot qoldirdi. Natijada Sarshar "Don Kixot"ni urdu tiliga tarjima qiladi va u "Kxudai faujdar" ("Ilohiy jangchi") nomi bilan chop etiladi. Shu bilan birga Sarshar ijodiga Said Ahmad tomonidan chop etilgan "Tahzib ul axloq" haftanomasi ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Sarsharning o'zi jurnalist bo'lib, ingliz oynomalaridan tarjima qilib, "Audx Panch" deb nomlangan Lakxnauda nashr etiladigan urdu tilidagi ilk hajviy oynomasining yetakchi mualliflaridan biri bo'ldi. "Audx Panch" 1877 yildan 1912 yilgacha nashr etildi. U urdu adabiyotida hajviy va satirik janrlarning shakllanishida muhim rol o'ynadi.

70-yillardan boshlab Sarshar Lakxnauda "Audx Axbar" ro'znomasini nashr eta boshladi. Bu ro'znomada u sarguzasht janridagi katta asarni alohida qismlarga bo'lib chop etadi, gazetxonlar esa qiziqish bilan uni o'qidilar. 1881 yilda bu asar 4 jildli "Ozod qissasi" deb nomlangan roman sifatida alohida nashr etildi. "Ozod qissasi" urdu tilidagi ilk romanlardan biridir. Unda nasriy janrdagi sarguzasht an'analari namoyon bo'ldi.

Romanning birinchi jildining hajmi 70 betdan iborat bo'lib, eng qiziqarli qismidir. Unda yosh, aqlli, xushsurat, jasur Ozod ismli musulmon Lakxnauga Kashmirdan boylik va baxt qidirib kelganligi, Xusn Aro ismli boy va zodagon oilaning go'zal qizini sevib qolgani haqida hikoya qilinadi. Uning xohishiga ko'ra shon-shuxratga erishib, unga mos yor bo'lish uchun u Turkiyaga 1877-78 yildagi rus-turk urushida turklar tomonida jang qilish uchun ketadi. Aynan shu jildda ikki g'oya yorqin namoyon bo'ladi: biri – ko'ngilochar, boshqasi esa – realistik qissa unsurlarining shakllanishi. Masalan, Lakxnauda zodagon musulmonlarining hayoti, boyligini ko'rsatib, Sarshar musulmon zodagonlari va ulamonlarining illatlarini ham namoyon

qiladi. Romanda sevgi sarguzashtlari, qotillik, o'g'rilik, urush-janjalning ko'p sonli sahnalari berilgan va shu bilan bir qatorda kundalik hayotning tasvirini ham ko'ramiz.

Sevgi sarguzashtlarining qahramoni bo'lgan Ozodni, hattoki, Yevropa go'zallari ham sevib qoladilar. Musulmon qahramonning bunday xulq-atvori musulmon axloqi va etikasi chegarasidan chiqmaydi. Unda 4 xotinlilikka ruxsat bor.

Romanning ikkinchi jildida Ozod turk armiyasining ofitseridir. U bir qator qahramonliklar ko'rsatadi. Hajmi 1000 betdan ortiq bo'lgan uchinchi jildda asosiy g'oya Ozodning sevgi sarguzashtlaridir. To'rtinchi jildning yakunida Ozod o'zining ikki yevropalik sevgilisi bilan Lakxnauga qaytib kelib Xusn Aroga uylanadi. Uning yevropalik yorlari o'zlarini foydali ishga bag'ishlab, bolalarni o'qitadilar.

Roman bosh qahramonlarining obrazlari to'liq berilmagan. Xarakterlari ochilmagan. Bosh qahramon Ozod va romanning ikki bosh qahramon bo'lgan ayol obrazi shunday tasvirlangan.

Romanning boshqa qahramonlari orasida Ozodning kichkinagina, maqtanchoq, ammo nashavand bo'lsa-da, oqil xizmatkori Xo'ja obrazi hayotiyli bilan ajralib turadi. Xo'ja o'z xo'jayiniga ishqiy sarguzashtlarda yordam beradi, o'zi ham har xil go'zallarni ko'p marotaba sevib qoladi, hayajon va azob tuyg'ularini boshidan o'tkazadi. Uning obrazi juda ishonchli, hattoki realistik deb atashimiz mumkin. Bundan tashqari Xo'ja obrazida satirik xarakterdagi unsurlar ham mavjud.

Hind adabiyotshunosligida Servantesning "Don Kixot" asarini Sarsharning "Ozod qissasi" romaniga ta'siri haqidagi masala bir necha bor ko'tarilgan.

"Ozod qissasi" romani urdu tilidan hind tiliga Premchand tomonidan qisqartirilib tarjima qilingan.

Sarsharning ma'rifiy konsepsiyalari va ideali uning boshqa "Kamini" romanida o'z ifodasini topgan. Rashannatx Sarshar Kamini obrazini o'zi ko'rishni xohlagandek beradi. Kamini ismli hind qizi suyukli yoriga ota-onasining rozilgisiz tegadi. Ota-onasi unga yoshi kattaroq, "munosib" erni tanlagan bo'lishadi. Kaminining eri urushga ketib, o'sha yerda vafot etadi. Kamini beva qoladi va yana hindularning axloq qonunlarini buzadi: u hindu bevalarning "tarki dunyo" qilish odatiga rioya qilmaydi, shaharning (asardagi voqealar Lakxnauda sodir bo'ladi) chetiga ko'chib ketib, kambag'al oilalardagi yosh onalarga yordam beradi, ya'ni ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanadi. Erining xotirasiga sodiq va vafodorligicha qoladi.

Mirza Rusva ijodida tarixiy roman (1858-1931)

Tayanch soʻzlar va iboralar: maʼrifat, umraojan, tanqidiy realizm, hindi, mantiq, matematika, ijtimoiy muammolar, astronomiya, sanskrit, fors, tavaif, arab, ingliz, diniy falsafa, ivrit, qadimgi yunon, diniy, maʼnaviy, axloqiy masalalar, feodal munosabatlar.

Darsning maqsadi: Mirza Rusva va uning jahonga tanilgan “Umraojan” romani haqida

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi adabiyoti uchun xos boʻlgan urdu adabiyotida realistik yoʻnalish shakllanishining boshqa muhim xususiyati – maʼrifatparvarlik negizida vujudga kelayotgan tanqidiy realizm uslubining jadal shakllanishidir. Tanqidiy realizm unsurlarining shakllanishi maʼrifiy realizm bilan bir paytda boʻlgan. Bu Mirza Rusva-ning «Umraojon-Ada» romani uchun xos. Rusva – bu yozuvchi Mirzo Muhammad Xadiyning (1858-1931) nasriy taxallusidir. Rusva Lakxnauda toʻgʻilgan, shu yerda u oʻrta maʼlumotga ega boʻlgan. Yoshligidanoq sheʼr yozgan va adabiyotni sevib qolgan. Biroq, adabiyot Rusvaning yagona qiziqishi emas edi, har xil turdagi faoliyat bilan mashgʻul boʻlgan, jumladan, Rusva tabiiy fanlar bilan ham qiziqqan. U hind, sanskrit, fors, arab, ingliz, ivrit va qadimgi yunon tillarini bilar edi. Shu bilan birga, u falsafa bilan, jumladan, diniy falsafa bilan shugʻullanar edi (falsafa doktori unvoniga ega edi). U mantiq, matematika, astronomiya bilan ham qiziqar edi. Ingliz tilidan bir qator ilmiy asarlarni tarjima qilgan.

Rusva bir qator sheʼriy asarlar yozgan, jumladan, «Layli va Majnun» mavzusida bitta asar, bir nechta roman. Ular ichida avtobiografik boʻlgan «Sharif-zoda» romani. U musulmon zodagonlarining avvalgi yuqori holatini yoʻqotganligi haqida. Biroq, muallifning «Umraojon» romani nafaqat Rusvaning eng yaxshi asari, u hind adabiyotshunoslarini fikricha, urdu tilidagi ilk haqiqiy badiiy romandir. «Umraojon Ada» romanida oʻziga toʻq, ammo oddiy oiladan boʻlgan musulmon ayol haqida hikoya qilinadi. Xayot uni tavaif boʻlib qolishiga majbur etdi. Bu voqea shunday sodir boʻladi. Kichkina qizcha provinsial shaharda oʻz ota-onasi va akasi bilan baxtli yashaydi. Qizning otasi bir jinoyatchiga qarshi sudda guvohlik beradi. Yovuz jinoyatchi qizning otasidan qasd olish niyatida qizni olib qochib ketadi va Lakxnaudagi «Quvonchli uy» egasiga sotadi. Kichik Amiranni bekasi unga Umraojon deb ism qoʻyadi va uni musiqa,

raqs, suhbat olib borish sanʼatiga oʻrgatadi, bular hindlarning tavaif kastasidan boʻlgan qizlarga zarur deb hisoblangan. Ammo roman qahramoni fohisha kasbidan koʻra, koʻproq sanʼat va fanga nisbatan qobiliyatli boʻladi. U boy uylardagi bayram va tantanalarga taklif qilinadigan qoʻshiqchi boʻladi, lekin shu bilan birga sheriyatga qiziqib mushoiralarda ishtirok etadi, musiqiy gʻazallar toʻqiydi. Bu asarlar nafaqat uning isteʼdodi, balki aql-zakovati haqida darak beradi. Yoshi ulgʻayganda, toʻkin yashash uchun mablagʻlar yigʻib, mustaqillikka erishadi, mutolaa qilish bilan oʻz dunyoqarashini kengaytiradi va sheʼriyat bilan shugʻullanadi. Ammo, isteʼdodli ekanligiga, xaqiqiy muhabbatni istashiga, ezgu ishlarga tayyorligiga qaramasdan, Umraojon hayotining oxirigacha yolgʻiz qoladi. Yoshligidayoq, u tasodifan ota-onasining uyiga borib qoladi. Uni yaxshi koʻrgan ukasining toʻyiga taklif qilishadi. Onasi qizini tanib qoladi, ular tun boʻyi yigʻlaydilar, ammo Umraojon oʻz oilasini sharmanda qilmaslik uchun uyda qola olmaydi. Opasidan xabar topgan ukasi Umraojonning oldiga bostirib kirib uni oʻldirmoqchi boʻladi. Biroq, u hoziroq ketsa va hech qachon bu yerga qaytib kelmaslikka soʻz bersa, oʻldirmaslikka soʻz beradi, lekin yana bir marta Umraojonning onasi bilan uchrashishiga ruxsat bermaydi. «Umraojon-Ada» romanida Rusva urdu yozuvchilaridan birinchi boʻlib oʻsha davrdagi Hindistonning ijtimoiy muammolaridan boʻlgan fohisha ayollar mavzusini adabiyotga kiritdi. Tavaif haqida hikoya qilganida muallif ularni haqiqiy tasvirlab, ular hayotini keng ijtimoiy fonda tasvirlaydi. Bu esa, romanda oʻsha davrdagi Hindiston uchun tipik boʻlgan holatlarda tipik qahramonlar paydo boʻlishiga olib keladi.

Mirza Rusva isteʼdodli, aqlli, savodli, qobiliyatli ayolni fohisha holatiga mahkum etgan ijtimoiy ahvolni tanqid qiladi. Shuning uchun Rusvaning «Umraojon»dagi uslubi maʼrifiy realizm chegarasidan chiqib ketadi. Rusva bu romanda diniy, maʼnaviy va axloqiy masalalarni ham koʻtaradi.

XIX va XX asr chegarasida, 1899 yilda yozilgan «Umraojon-Ada» romanidagi Mirza Rusvaning ijodiy usulini «aralash» harakterli, yaʼni maʼrifiy realizmning tanqidiy realizm bilan uygʻunligi tarixiy harakterdagi sabablar bilan ham shartlanadi. Bu ayniqsa, shimoliy Hindistonning markaziy hududlariga xos boʻlgan feodal munosabatlar saqlanib qolgan holda kapitalizmni rivojlanishidir.

«Umraojon Ada» romani urdu adabiyotidagi bu janrdagi birinchi haqiqiy badiiy asar boʻldi. Bu asarda doston poetikasi taʼsiri sezilib turadi. «Umraojon-Ada» bosh qahramon hikoya qiladigan qator kichik

hikoyalardan iborat. Ular muallif nomidan Umraojon bilan tanishganligi tarixi hikoya qilinadigan o'ziga xos ramka bilan birlashtiriladi. Hikoyalarning o'zi qissa mavzusi bilan birlashtirilgan alohida novellalar bo'lib, ular Umraojonning muallifga yozgan xatlari shaklida yozilgan. Adabiy an'analarni yangi, g'arbiy adabiyotdan o'zlashtirilgan janr shakli bilan muvaffaqiyatli sintezi Rusvaning «Umraojon Ada» romaniga o'ziga xos original harakterni kasb etadi, bu esa o'z navbatida, urdu adabiyotida realistik usul rivojlanishining o'ziga xosligini belgilab beradi.

«Umraojon Ada» romanida Mirza Rusva ijodiy uslubining tahlilidan kelib chiqib, urdu adabiyotida XX asrning chegarasidayoq tanqidiy realizmning genezisi haqida xulosa qilish mumkin. Bu paytda hind va boshqa ko'plab hindiy adabiyotlarda mazkur uslub hali rivojlanmagan, bengali adabiyoti bundan mustasno, chunki unda tanqidiy realizm chizgilari Tagorning hikoyalari va «Gora» romanida 1890 yildayoq shakllanadi.

Shunday qilib, XIX asrning so'nggi o'ttiz yilligida urdu adabiyotida Nazir Ahmad, Abdul Xalim Sharar romanlarida yorqin ifodasini topgan ma'rifiy realizm shakllanadi. Bu yillarda romantik yo'nalishning shakllanishi A.X. Shararning tarixiy romanlarida aniq namoyon bo'ladi. Mirza Rusva romani uchun esa ma'rifiy realizm chizgilarining tanqidiy realizm bilan uyg'unligi xos.

Muhammad Iqbol she'riyati

Tayanch so'zlar va iboralar: ma'rifatparvarlik, tanqidchilar, Alligarx harakati, milliy ozodlik harakati, vatanparvarlik, Sharq madaniyati, an'analar, ijtimoiy va siyosiy yangilanish, Sharq shoiri, mushoira, she'riy to'plam, hindu va musulmonlar birligi.

Darsning maqsadi: Shoir va faylaso'f Iqbol she'riyati va uning jahon miqyosidagi o'rni haqida

Mirzo G'olibdan keyin urdu adabiyoti asosan ma'rifatparvarlik xususiyatiga ega bo'ldi. Shoiralar Altaf Husayn, Xoliy, nasrchilikda Ratannatx Sarshar, Abdul Halim Sharar, Mirzo Rusva, urdu adabiyoti tanqidchilari Muhammad Husayn Ozod, Muhammad Shibliy Numoniyni kabi ijodkorlar o'sha davr urdu adabiyotining o'zagini tashkil etardi. Alligarx harakati qatnashchilari milliy ozodlik kurashida vatanparvarlik tuyg'usi bilan to'lib-toshgan jasur insonlarni tarbiyalab beruvchi milliy demokratik adabiyotga asos soldilar.

XIX asr oxirlari tarixda milliy ozodlik harakatining boshlanishi va hind xalqining o'zligini anglash davri bo'lib qoldi. XX asrda bu jarayon kuchayib, keng quloch yoydi. Ingliz mustamlakachilariga qarshi kurash hind xalqi hayotining mazmuni edi.

Bu davrga kelib urdu adabiyotining ijtimoiy belgilari o'zgardi. Endi Hindiston musulmonlarining milliy shakllanishi emas, balki umumiy g'oya – milliy ozodlik kurashi adabiyotning bosh mavzusiga aylandi. 10–20-yillar she'riyatida bo'lgani kabi nasrda ham bu mavzu keng o'rin egalladi. Bunday adabiyot vakillaridan biri Akbar Ollohobodiydir (1846-1921). U Alligarx harakati yozuvchilaridan edi, ammo, vatanparvarlik ruhidagi she'rlari siyosiyli bilan ajralib turar edi. Siyosatdan yaxshigina xabardor bo'lgan A. Ollohobodiy hind xalqi boshiga tushgan musibatlarning haqiqiy aybdorlarini ayovsiz fosh etib tashlaydi. Uning she'riyatining asosini yumoristik, hajviy she'rlar tashkil etardi. U Hindistonning qadimiy qudratiga ko'z yosh qilib o'tirmay, o'z she'riyati bilan mazlum Hindiston ko'ksidagi yaralarni ochib tashladi va bu yaralarni inqilob yo'li bilangina davolashga chaqirdi. Shoir Sharq madaniyati, urf-odati, an'analarini nihoyatda sevardi va boshqalarni ham uni sevishga o'rgatardi. Uning Sharqni ijtimoiy va siyosiy yangilash uchun chorlagan she'rlari, o'zining siyosiy uyg'onishidan darak berayotgan Osiyoning, yangi bir davrning sadosi edi. A. Ollohobodiyning taraqqiyparvar hajviy she'riyati M. Iqbol, Chakbasto, Hasrat Mohani va Josh Malihobadi kabi yangi avlod ijodida yanada rivojlantirildi.

«Sharq shoiri» – ulug' shoir va mutafakkir M. Iqbolni (1877-1938) Hindistonda shunday atashadi. Ko'pgina mamlakatlarda M. Iqbol ijodiga bo'lgan qiziqish katta – Sharq mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda, G'arbda – Angliya, Fransiya, Italiya, Chexoslovakiya, Rossiya kabi mamlakatlarda ham Iqbol haqida ko'plab izlanishlar olib borilgan²⁶.

Iqbol asarlari mashhurlikda Mirzo G'olib she'rlaridan qolishmaydi. U 1877 yilda Kashmir va Panjob chegarasida joylashgan Siyalkotning o'rtahol oilasida dunyoga keldi. Uning ajdodlari braxman bo'lishgan. Bundan uch yuz yil avval ular islom dinini qabul qilishgan. Otasi hurmatli, haqparvar, oqko'ngil, dindor, o'z davrining taniqli shaxslaridan bo'lib, ixtiyorida bir korxona bor edi. Oilaviy sharoit, ya'ni oila boshlig'ining tez-tez diniy kitoblar, e'tiqodga taalluqli hikoyalardan o'qib berishi yosh Iqbolga ta'sir etmasdan qolmadi. XIX asrning 50-yillari udumiga ko'ra, otasi o'g'lini masjid qoshidagi madrasaga berib, diniy

²⁶ Теоретические проблемы восточных литератур. –М., 1969; Пригарина М.И. Поэзия Мухаммада Икбала. М., 1972; Творчество Мухаммада Икбала. –М., 1982.

ta'lim bilan tarbiyalaydi. Iqbol madrasada fors, arab tillarini o'rganadi va Hofiz, Rumi kabi Sharqning taniqli shoirlarining she'rlari bilan tanishadi. U yoshligidan she'rlar mashq qila boshlaydi. Mushoiralarda qatnashib, yozgan g'azallarini (Haydarobodda) saroyda yashayotgan an'anaviy oqimining mashhur vakili, dehlilik shoir va qattiqqo'l tanqidchi Dog'ga (1831-1905) yuborib turadi.

Dog'ning to'rtta she'riy to'plami mavjud edi: «Gulzor-i Dog'» («Dog' gulzori»), «Oftob-i Dog'» («Dog' oftobi»), «Mohtobi Dog'» («Dog' oyi»), «Yadgori Dog'» («Dog' xotirasi»). G'azallari esa oddiy va jozibali tilda Dehli shoirlari uslubida yozilgan. U o'z she'rlari bilan shuhrat qozonadi va uning izdoshlari paydo bo'la boshlaydi. Dog' Iqbol she'rlarini diqqat bilan kuzatadi va unga qimmatli maslahatlar berib, shunday deb yozgandi: «She'rlari qayta ishlashga muhtoj emas». Chunki Iqbol shunday yuksak darajaga (mahoratga) erishgandiki, she'rlar o'zi quyilib kelar, u bir zumda she'r, hatto dostonlar yozib tashlardi. Iqbol ustozi xotirasiga yorqin misralar ham baxsh etgandi.

Iqbol diniy ta'limni to'liq ololmadi. Otasi uni diniy madrasadan olib, Panjob poytaxti Laxor shahriga M. Ozod muallimlik qilayotgan davlat kollejiga o'qishga yuboradi. Iqbol o'qishdan tashqari she'rlar yozib, mushoiralarda qatnashib turadi va sekin asta ko'pchilikka tanila boradi. Uning she'rlarida Vatanga va tabiatga (Kashmir va shimoliy Panjobga) bo'lgan muhabbat mavzusi o'z aksini topadi. Mushoiralardan birida Iqbol Himolayga bag'ishlangan she'rini o'qib beradi. Bu she'r 1901 yil aprel oyida «Mahzan» oynomasining birinchi sonida bosilib chiqqan edi.

Shundan so'ng Iqbolning urdu she'riyatidagi hayoti boshlanadi. 1900–1924-yillarni shoirning ilk ijodi va o'sish davri deb atash mumkin. Bu davrda uning she'rlari bir vaqtning o'zida ham urduda, ham forsiyda chop etila boshlaydi. Ayniqsa, shoirning Vatanga muhabbat haqidagi she'rlari qattiq jaranglay boshlaydi.

Uning asarlarida vatanparvarlik, hindu va musulmonlarni birlikka chorlash va ozodlik g'oyalari tobora bosh yo'nalishni egallaydi. Bu davrning eng kuchli she'rlaridan biri «Og'riq chinqirig'i» hisoblanadi. Iqbol bu she'rda mamlakat taqdiridan tashvishga tushgani yaqqol ko'zga tashlanadi. U odamlarga haqiqatni aytishga e'tiqod qilish lozimligini uqtiradi.

Vatanparvarlik kayfiyati Iqbol she'riyatida, ayniqsa, 1902–1905-yillarda yanada yorqinroq aks etadi. U «Yangi ibodatxona» she'rda hindu va musulmonlarga murojaat etib, yangi ibodatxona, ya'ni vatanga muhabbat ibodatxonasini yaratishga chaqiradi. «Hindiston bizniki» nomli

she'ri esa mustaqillik uchun kurash davrida hind xalqining milliy qo'shig'iga (madhiyasiga) aylanib qoldi.

Olam ichra eng go'zal joy,

Bizning Hindistonimiz

Biz uning bulbulimiz

Udir gulistonimiz.

Yovlik bo'lsa qardoshlikda, e'tiqod bo'zilgaydur,

Biz hindmiz, bizga vatan, bizning Hindistonimiz.

«Vatan» so'zi bu davr urdu adabiyotida, eng avvalo, siyosiy ohang kasb etgan edi. U mustaqillik, inglizlar hukmronligidan qutulish, millati va dinidan qat'iy nazar barcha insonlarni birlikka va tenglikka chorlashni o'zida ifodalar edi.

1905 yilda talabalik davridayoq tanishib olgan ingliz muallifi, faylasufi va sharqshunosi Tomas Arnold maslahati bilan Iqbol bilimini oshirish uchun Angliyaga jo'nab ketadi. U yerda u G'arb faylasuflarining qarashlari bilan tanishib (Kembrijda G'arb mamlakatlarining qonun-qoidalarini o'rganadi), 1907 yilda Germaniyaning Myunxen shahriga boradi va u yerda «Eronda metafizikaning taraqqiyoti» mavzusida doktorlik ilmiy ishini yoqlaydi. Ilmiy ish Eronda kechgan falsafiy oqimlar, ayniqsa, so'fiylarning qisqacha bosib o'tgan tarixiy yo'liga bag'ishlangandi. Iqbolning bu dissertatsiyasi shoirning 1905–1908-yillardagi dunyoqarashini aniqlashda manba vazifasini bajarishi mumkin. U shoirning so'fiylarga bo'lgan xayrixohligidan ular ta'limotini qabul qilish emas, balki ularni tanqid qilish yo'lini tanlaganligini ko'rsatadi. 1909 yilda Iqbol vataniga falsafa fanlari doktori unvoni olib qaytadi. Uni falsafa kafedrasining boshlig'i vazifasiga taklif etadilar. Iqbol yaxshi muallif va ajoyib ma'ruzachi edi. U 1911 yilda bu vazifadan bosh tortadi. Ehtimol bu davlatga xizmat qilish uning fuqarolik burchiga to'g'ri kelmagandir. Bundan tashqari Iqbol o'zini butunlay she'riyatga baxshida etmoqchi bo'ladi.

Muhammad Iqbol she'riyatida falsafiy qarashlar

Tayanch so'zlar va iboralar: Sharq madaniyati, an'analar, ijtimoiy va siyosiy yangilanish, Sharq shoiri, mushoira, she'riy to'plam, hindu va musulmonlar birligi.

Darsning maqsadi: Iqbol she'riyatida falsafiy mushoxadalar haqida.

Yevropa safaridan so‘ng Iqbolning she‘riyat mavzusi yanada boyidi. Insonga hurmat va sevgi-muhabbat Iqbol ijodining g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab beruvchi omillardan bo‘lib qoldi. Uning ijodkor qahramoni hatto, Tangriga qarshi bosh ko‘tarishga ham jur‘at etdi.

Muhammad Iqbol Yevropada bo‘lgan davrlarda uning she‘riyatida yangi mavzu – ishqiy lirika paydo bo‘ldi. Muhabbat haqida yozilgan avvalgi she‘rlarida shaxsiy iztiroblar yo‘q edi. Ularda asosan so‘fiyona kayfiyat va xudoga muhabbat kuylanar edi. Bu davrlarda yozilgan she‘rlarida inson qalbining tub-tubidan chiqqan qayg‘u-hasrat va shodliklari o‘z ifodasini topgan edi. «Go‘zallik va muhabbat» ana shunday she‘rlar jumlasidandir. Iqbol o‘z she‘rlarini urdu va forsiyda bitar edi.

U forsiyda falsafiy she‘rlar yaratdi. 1915 yil uning «Asrari-xudi» («Shaxs sirlari») asari masnaviy²⁷ shaklida chop etildi. «Xudi»²⁸ so‘zi ilk marotaba Iqbol tomonidan «o‘zlik» atamasi sifatida qo‘llanildi. «Ramo‘z-i baxudi» (1917) asari «Shaxs sirlari»ning davomi bo‘lib qoldi. Iqbol agar birinchi masnaviyda shaxsni barcha qadimiy an‘anaviy qarashlar asosida umumlashtirib, unga zamonaviy mazmun bergan bo‘lsa, ikkinchi masnaviyda inson shaxsining ijtimoiy hayotini yoritib beradi. Baxudi – jamiyat ravnaqi yo‘lida o‘z manfaatlaridan voz kechgan inson holatini ifodalaydi.

Nima uchun bu ikkala asar ham forsiyda yozilgan edi? Bu haqda shoirning o‘zi «men o‘z fikrlarimni ma‘lum bir doiraga birikkan odamlargina tushunsin va ular xalqqa yetkazsin, deb o‘ylagan edim» – deya yozadi. Shuningdek, ba‘zi adabiyotshunoslar Iqbol ijodida forsiy tilini qo‘llashini Iqbol keng musulmonlar ommasi orasida she‘rlarini targ‘ib qilish va o‘ziga muxlislar axtarish edi, chunki Yaqin va O‘rta Sharqda fors tili keng yoyilgan edi, deya izohlashadi. Inson shaxsi (xudi) muammosi Iqbol ijodining ilk davridayoq uni qiziqtirgan yetakchi mavzulardan biri edi. Bu sohada, uning qarashlarining shakllanishida G‘arb falsafasi muhim o‘rin tutdi. Hozirgi zamon g‘oyalari bilan yashayotgan ijodkor inson shaxsini aniqlashdagi uning qarashlari o‘rta asr faylasuflari va G‘arb falsafasi umumlashmasidan iborat edi (Gyotening shaxs haqidagi g‘oyasi). Xudi (shaxs) vaqt bilan murakkab munosabatda bo‘luvchi harakat, orzu, sabot

²⁷ Маснавий (арабча, иккилик) – ҳар икки мисраси ўзаро ҳамқофия бўлган байтлар асосида ёзилган шеър. Унинг фольклордаги илдизлари чуқур. Яссавий, Навоий, Бобур, кейинчалик Фурқат, Ҳамза, Нозимахоним, Чўлпон, Ҳамид Олимжон, Максуд Шайхзода, Миртемир, Ғофур Ғулом, Зулфия ўз ижодларида шу услубдан фойдаланганлар. Шунингдек, бу шакл эпос учун бопдир.

²⁸ Худи – олмашдан ясалган от – “ўзлик”.

kabi holatlarni o'zida jam etgan o'sib boruvchi markazdir. Kxudi (o'zlik) vaqtga bo'ysunmaydi, ammo uning borligi, haqiqati vaqtda ko'rinadi. Insonning ichki dunyosi va uni qurshab turgan butun borliq mana shu «kxudi»da (o'zlikda yoki «men»da) aks etadi.

Asar an'anaviy falsafiy-nasihat turida yaratilgan. Iqbol bu asariga yangi mazmun baxsh etib, o'z sohasining kashshofi sifatida harakat qiladi. U inson shaxsini ulug'lab, so'fiylar ta'limotiga qarshi chiqib, uni ilohiy darajaga olib chiqadi va «xudi»ga butun borliqni tortiq qilmoqchi bo'ladi. U shaxs va jamiyat oldidagi javobgarlik tuyg'usini yoqlab, inson shaxsini o'rta asrlar musulmon odob-axloq qoidalaridan ozod qiladi.

U Yevropadagi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ko'rganicha va uni anglab yetganicha o'z asarida tasvirlashga harakat qildi. U G'arb misolida insonni baxtga yetuvchi biron-bir jamiyat topa olmadi. U shunday bir davlat barpo etish lozimki, uning asosi islom sotsializmi g'oyasidan iborat bo'lsin, deydi. Bunday davlatni faqat o'zligini to'la anglab yetgan insongina yaratishi mumkin. Yangilik shundaki, u bor ovozi bilan «Inson tangrining yerdagi o'rinbosari va u tobora xudo darajasiga intilishi lozim», deya hayqiradi. U o'z zamondoshlarini faol bo'lishga chaqirib, ozodlik sari yo'l axtaradi.

Ayniqsa, bu sohada mumtoz adabiyotda keng tarqalgan parvona va sham hikoyati muhim o'rin tutadi. Sham an'anaga ko'ra go'zal ma'shuqa timsolida keladi. Parvona esa uning yorug'iga intilib, ko'yib o'ladi va shu yorug'likka intilar ekan ma'shuqasi bilan yolg'izlikda o'zini baxtiyor his etadi.

Iqbolning falsafiy qarashlari o'zbek olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan²⁹. U an'anani o'zgartiradi. Uning tasavvurida inson tangri bilan munosabatga kirishganda, u parvonadek o'tning qurboni bo'lmaydi, balki u ham xuddi xudo singari yog'du tarata boshlaydi. Inson qalbidagi sevgi uni o'lim sari emas, balki yorug'lik tomon eltuvchi kuch-quvvat bilan ta'minlashi kerak. Shu tariqa, Iqbol she'riyatida parvona o'tda ko'yib o'lmaydi. Tangri qoshida ojiz, unga bo'yin eggan timsol endi tabiat va ilohiyot kuchlariga dadil qarshi chiquvchi kuchga aylanadi.

1923 yilda «Bayam-e mashriq» («Sharq maktubi») kitobi chop etildi. Bu kitob ham forsiyda yozilgan bo'lib, Gyotening «G'arbi-Sharq devoni»ga javob edi.

²⁹ Йўлдошев С. Иқбол гуманизми. Шарқ Юлдузи. –Т., 1970, №10; Муҳаммад Иқбол. Хорижий Шарқ халқларининг илғор ижтимоий-фалсафий тарихи очерки. –Т., 1971; Идеальное общество в представлении Фараби и Фараби и Икбала. Общественные науки в Узбекистане. –Т., 1973, №6; Философские воззрения М. Икбала. Научные труды Ташкентского университета философии. –Т., 1973. Ашурбоев З. Озодлик куйчиси. Ҳиндистон халқлари адабиётидан очерклар. –Т., 1975.

1932 yilda forsiyda «Javidnoma» asari chop etildi. Bu asar koʻkda «etti osmon» oʻzra charx urayotgan olti sayyora – Rumiyning yorqin ruhi Zindarud (hayot qaynagan) harakati asosiga qurilgandir.

Shoirni yerdagi muammolar – islom va uning hozirgi zamondagi holati oʻylantiradi.

Shoir umrining oxirlarida asarlarini urduda chop eta boshlaydi. Iqbolning siyosiy-falsafiy qarashlarining shakllanishi Hindistonda milliy ozodlik harakatining kuchayishi va hind ziyolilarining milliy oʻzligini anglash davriga toʻgʻri keladi. U oʻz sheʼriyati bilan vatan ozodligi va zulmga qarshi kurashib, xalqni bu kurashda qatnashishga undadi. Iqbol dunyoqarashi anchagina murakkab hamdir. U bir vaqtning oʻzida diniy ziddiyatlarni bartaraf etishga urinadi va shunga qaramay islom dinining oldingi kuch-qudratini qaytarmoqchi boʻladi. Hindiston xalqi Iqbolni buyuk faylasuf, shoir, din arbobi va ozodlik yoʻlidagi otashin kurashchi sifatida taniydi.

Shoir Iqbol va siyosatchi, faylasuf Iqbol oʻrtasida birlik yoʻq edi. U faylasuf sifatida – idealist, siyosatda – faol kurashchi edi.

Musulmon jamoasining vakili sifatida kurashning inqilobiy usulidan voz kechadi. Islomning qudratiga ishonadi. U oʻz siyosiy taqdirini musulmonlar harakati va musulmon ligasi bilan bogʻlaydi.

Iqbol ulugʻ shoirdir. U sheʼriyati orqali nafaqat hindlarga, balki butun musulmon sharqiga murojaat qiladi. XX asrning 20-yillaridayoq u Hindistondan tashqarida ham mashhur edi. U «Hindustan hamara» («Hindiston bizniki») sheʼrini yangidan yozadi:

*Chinu arab biznikidir,
Biznikidir Hindiston.
Biz barchamiz musulmonmiz
Bu dunyo bizga Vatan.*

Butun Sharqda shuhrat qozongan bu sheʼri 1958 yilda Toshkentda gazetada eʼlon qilindi³⁰.

Abdul Xalim Sharar ijodida romannavislik

Tayanch soʻzlar va iboralar: olov, uchqun, jurnalist, roman, xristianlik, monastir, gʻaznaviy yurishlari, vatandoshlar, maʼrifiy realizm, ijtimoiy roman.

³⁰ Икбал М. Наша Индия. Перевод с урду. «Правда Востока», 6 июля 1958 г. Иқбол М. Кашмир. Шарқ Юлдузи. –Т., 1958, №9.

Darsning maqsadi: urdu romanchiligi, tarixiy romanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish (A.X. Sharar va M. Rusva ijodi misolida)

80-90 yillarning oxirida **Abdul Xalim Shararning** (1860-1926) urdu tilidagi romanlari nashr etildi. Sharar – “olov, uchqun”, ma‘noni anglatuvchi taxallus.

Sharar ijodi Said Ahmad, Xali, Ozod va Shibli ta‘siri ostida shakllandi.

Sharar o‘zi jurnalist edi va Lakxnauda Ratannatx Sarshar bilan uning “Audx axbar” deb nomlangan gazetasida hamkorlik qilgan, 1887 yildan boshlab Sharar “Dilgudaz” deb nomlangan jurnalini nashr etdi. Uning 100ga yaqin asarlari mavjud. Tarixiy-ijtimoiy mavzusidagi maqola va ocherklari 8 jildni tashkil qiladi. Sharar romanlarining aksariyati, (ularning umumiy soni 35 ta) tarixiy, aniqrog‘i islom xarakteriga ega, chunki muallif tarixiy haqiqatga rioya qilmagan holda musulmonlarni avvalgi buyukligi mavzusida yozgan. Uning tarixiy romanlarini mavzulari aksariyat holda Valter Skott romanlari mavzulariga yaqin, chunki Sharar V.Skott asarlari bilan tanish bo‘lgan. Uning tarixiy romanlarini asosiy g‘oyasi – islomni sobiq buyukligi, uning ma‘naviy va etik qadriyatlarini xristianlikka qarama-qarshi qo‘yish. Sharar o‘ziga xos qofiyali nasrda yozgan. Ammo Sharar romanlarida aniq va tekis kompozitsiyasini mavjudligini qayd etish lozim (“Jannat bog‘i”, “Arablarni islomdan avvalgi tarixi”, “Go‘zallik o‘g‘rilari” va hokazo).

Ispaniyada musulmonchilik hukmronlik davriga oid mavzuda yozilgan “Flora Florenda” romanida haqiqiy tarixiy hodisani, ya‘ni o‘sha davrda xristian dodaning salbiy tomonlarini aks etdi.

Roman qahramonlari Flora va Ziad – musulmon va xristian ayolni aralash nikohini farzandlari. Ziad – haqiqiy musulmon, Flora esa onasini diniga yaqin, Ziad qo‘pol ravishda singlisini xristianlikdan qaytarishga harakat qiladi, ammo tamoman boshqa natijaga erishadi – Flora xristianlik diniga yanada chuqurroq kirishadi. Xristianlar bundan foydalanishga harakat qiladilar. Rahiba ayol beva musulmon ayol qiyofasida Floraning uyiga kirib keladi va Ziad muhabbatini qozonib, hattoki unga turmushga chiqadi. Bularni barchasini u Floraga ta‘sir o‘tkazib uni xristian monastiriga olib ketish uchun qiladi. Monastirga kelgan Flora o‘z xatosini anglay boshlaydi. U rohiblarni axloqsiz xulqini ko‘radi va o‘zi ham xristian rohiblaridan birining nafsining qurboniga aylanadi. Nomus-sharmandagarchilikka dosh bera olmagan Flora nomusini poymol qilgan rohibni o‘ldirib, o‘z joniga qasd qiladi. Ammo, o‘limidan avval u monastirga singlisini qutqarish uchun akasini chaqirtiradi. Flora akasini qo‘lida kalima keltirib jon beradi.

“Mansur va Moxana” romanining voqealari Hindistonda Mahmud G‘aznaviy yurishlarining birida bo‘ladi (XXI asr). Bu romandagi ishqiy

aloqalar “Malik ul-Aziz va Varjana” romanidagidek kabi murakkab va chigal emas. Mansur Mahmud G‘aznaviyning qo‘mondonlaridan biri, Moxana – Ajmir rojasining qizi, u jasur rajput qizi, Mansurni sevganligi sabab islom dinini qabul qiladi. Roman fojeali tugaydi: bosh qahramonlar o‘ladilar: diniy ulamo bunday fojialar boshqa bo‘lmasligi uchun tinchlik-totuvlikda yashashga da‘vat etadi. Mazkur asarni fojeali nihoyasi tasodifiy emas. Sharar murakkab tarixiy vaziyatdan chiqib ketish yo‘lini izlab topa olmagan, Hind vatanparvari sifatida u o‘z vatandoshlarini mustaqillik uchun kurashida hamnafas edi va rojalar aro kelishmovchiliklarni qoralar edi. Musulmon sifatida u Hindistonga musulmonlar kirib kelganidan hursand edi.

Ma‘rifiy realizm tendensiyalarini rivoji ijtimoiy roman – qissalarida aniq ifodalangan. Masalan, “Badr un-niso ki musibat” (“Badr un-Nisoni musibati”) deb nomlangan roman qahramonini olti yoshligidan to‘qqiz yoshli xolasining o‘g‘li Asgarga turmushga beradilar, ya‘ni “bola nikohini” tuzadilar. Badr un-niso ulg‘ayganida, qaynotasi uni olib ketgani keladi. Qizning ota-onasi qaynotasiga uni yuzini ko‘rsata olmaydilar. Qaynota o‘g‘lini bu qizga uylanayotganidan norozi, shuning uchun u kelinini uchun “barot” –kelinni olib ketish marosimini o‘tkazishdan bosh tortib, qizni biron marotaba yuzi va qaddi-qomatiga qaramay olib ketadi. Badr un-Nisoni xafa bo‘lgan ota-onasi bunga rozi bo‘lib, qizni berib yuborishga majbur bo‘ladilar. Chunki qiz turmushga chiqqan va ularni unda hech qanday haq-huquqi qolmagan. Yo‘lda Badr un-Niso va uning qaynotasi bir qiz bilan uchrashadilar. U ham qaynotasi hamkorligida ketayotgan bo‘ladi, uning taqdiri Badr un-Niso taqdiri bilan o‘xshash, uning qaynotasi ham bu nikohdan norozilar, uni o‘g‘limni tengi emas, deb hisoblaydilar, u ham qizni yuzini ko‘rmagan. Shunday tasodif bo‘ladiki, ikkita qaynota “buyum” kabi olib ketayotgan kelinlarini adashtirib qo‘yadilar. Natijada fojea yuz beradi. Ikkinchi qizning eri bo‘lmish Asgarni xotinini “nomussiz” bo‘lganligi sabab o‘ldiradi, bu yigitni esa qotilligi uchun o‘lim jzosiga mahkum etadilar. Bu ijtimoiy romanda Sharar haqiqiylikka passiv munosabatni emas, balki yangi oliy ideallarni faol tasdiqlanishini ko‘rsatadi va nasihat qiladi, ammo bu nasihat ma‘naviyat, etika va axloqni yangi “aqlli” tamoyillarni olg‘a surish maqsadida qo‘llaniladi. Shararni bunday muhim ijtimoiy muammolarga, ya‘ni paranji kiyish, “bolalar nikohini” o‘tkazish va eng asosiysi “inson shaxsi sifatida emas, balki qimmatbaho buyum” sifatidagi musulmon aslini haq-huquqsiz holati masalasiga murojaat etish ma‘rifiy realizm doirasi chegarasidan chiqib ketadi, chunki bunday turdagi muammolar keng ijtimoiy xarakterga ega – bu esa tanqidiy realizm doirasi. Shunday qilib, 19

asrning 60-90 yillarida urdu adabiyotida deyarli bir paytda realizm va romantizm tendensiyalari shakllanadi, bu Yevropa adabiyoti bilan qiyoslaganda urdu adabiyotidagi yoʻnalishlar rivojining oʻziga xosligining namoyon boʻlishidir, ammo bu holat umuman olganda, Hindiston adabiyoti uchun xosdir. 19 asr oxiri 20 asr boshlaridagi adabiyoti uchun xos boʻlgan urdu adabiyotida realistik yoʻnalish shakllanishining boshqa muhim xususiyati –maʼrifatparvarlik negizida vujudga kelayotgan tanqidiy realizm uslubini jadal shakllanishidir.

Joʻsh Malixobodiy sheʼriyati

Tayanch soʻzlar va iboralar: sheʼrlar toʻplami, qoʻshiq va ssenariylar, shola o-shabnam, ocherk va lugʻatlar, fikr ye-nishat, falsafiy, tasavvuf, ishqiy sheʼrlar, hindu musulmonlar birligi, vatanparvarlik, demokratiya.

Darsning maqsadi: Urdu sheʼriyati rivojini taʼminlagan Joʻsh Malihabadi ijodi va sheʼrlarining uslubining oʻziga xosligi

Joʻsh Malihabadiy (Shabir Xasan Xan) 1896 yilda Malixabad (Lakxnau) shahrida tavallud topgan. Uning ota-bobolari shoir boʻlishgan va ularning sheʼrlar toʻplamlari nashr etilgan. Joʻsh 9 yoshlaridan yoza boshlagan. Ilk taʼlimni u uyida, soʻng Lakxnau, Singapur, Agra va Aligarxda ingliz taʼlimini oldi, biroq otasining oʻlimidan soʻng oʻqishni tugata olmadi, oilaga qarash uning zimmasiga tushdi. Qarindoshlari bilan kelishmovchiliklar va yer masalasi uni Xaydarobodga koʻchib oʻtishiga majbur etdi.

Bir qancha vaqt u Dehlida jurnal chop ettirdi, kinofilmlar uchun qoʻshiq va ssenariylar yozdi. Shoirning 14ga yaqin sheʼriy toʻplamlari bosmadan chiqqan, dastlabkisi «Rux-e adab» 1921 yilda qolgan «Naqsh o-nigar», «Shola o-shabnam», «Fikr ye-nishat», «Harf ye-hikayat», «Ramish ye-rang», «Sarade-kharosh», «Sumum ye-saba», «Harf-e axir» va boshqa toʻplamlar 1935 yildan soʻng chop etildi.

Joʻsh nafaqat shoir, balki u bir qancha ocherk va lugʻatlar muallifi hamdir. U ijodining ilk davrida Ritikal davri (XVIII asr) yozuvchilarining ijodiy uslublaridan foydalandi va bu narsa uning ijodidagi dunyo va xudoga boʻlgan fikrlari hamda sheʼrlarining chuqur falsafiy ekanligi bilan yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Bu vaqtda u koʻproq tasavvufga berilgan edi. Shu bilan birga uning ilk ijodiga Tagor va Iqbol ham yetarlicha taʼsir koʻrsatishdi. Shoir tabiat manzaralarini aks ettirishga va boshqa mualliflar kabi romantik yoʻnalishda ijod qildi.

Haydaroboddan ketgandan so'ng u ishqiy she'rlar ham yoza boshladi. Endi uning asarlarida vatanparvarlik g'oyalari ham ko'rina boshladi. Agar Jo'shni dastlab «tabiat kuychisi» deb atashgan bo'lsa, endi uni «yoshlik va inqilob kuychisi» deya boshlashdi. Jo'sh o'z she'rlarida milliy g'urur, hindu musulmonlar birligi, vatanparvarlik, demokratiya, dunyo haqidagi fikrlarni bayon etadi.

30-yillarda uning ijodida dinga qarshi g'oyalar va erkin fikrlilik g'oyalari paydo bo'lib, asta-sekin ijtimoiy islohotlar g'oyalariga aylana boshladi.

Jo'shning fikrlari tanqidchilar fikricha, goho insonning tabiat oldidagi ojizligini aytsa, goho xudoning borligini inkor etadi. Ayrim vaqtlarda u o'z qarashlari bilan terror tomonga og'sa, goho yetuk g'oyalarni ko'tarib chiqadi.

Jo'sh urdu she'rida so'zlarni shunday ishlatadiki, bu borada unga bas keladiganini topish amri maholdir.

Xo'ja Ahmad Abbos ijodida roman epopeya

Tayanch so'zlar va iboralar: hayotiy voqealar, milliy-ozodlik harakatlari, roman-epopeya, epik asar, shaxsiyat roli, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, ijtimoiy muammolar, shaxsiy muammolar, INK, trilogiya, mustamlakachilar, inqilobchilar.

Darsning maqsadi: Yozuvchi, ssenarist Xo'ja Axmad Abbosning ijodiy merosi, uning asarlarining adabit olamidagi ahamiyati haqida.

Tarixiylik tamoyilining chuqurlashishi, ommaviy ijtimoiy-siyosiy harakatlar vaqtida xalqning rolini ko'rib chiqishga murojaat qilinishi, tarixda shaxsiyat rolining badiiy tadqiq etilishi – ushbu mavzularning barchasi, shak-shubhasiz, yozuvchilarni katta epik asar – roman-epopeya janrini egallashga olib keldi, bunday asarlarda alohida qahramonlarning taqdirleri butun xalqning taqdiri bilan uzviy ravishda tutashgan.

Roman-epopeyaning sifat jihatidan farqi shundaki, nafaqat qahramon ko'plab insonlarning taqdirini ifoda etadi, balki muallif hikoyasi ulkan ijtimoiy harakatlar, hodisalarga bo'lgan munosabatni aks ettiradi. Tarix nafaqat kichik guruhdagi insonlar hayotini aks ettiruvchi fon bo'lib ishtirok etadi, balki mamlakat va xalq taqdirining o'zaro tadqiqoti bo'lib hisoblanadi.

Qahramonlar yoki ko'rib chiqilayotgan voqea-hodisalarning umumiyliigi bilan birlashgan romanlar siklining ayrim yozuvchilar tomonidan

yaratilishi roman-epopeya janrining paydo bo'lishiga eng yaqin asos bo'ldi. Shunday qilib, Mulk Radj Anand bosh qahramon Lalu Singxning taqdiri bilan birlashgan «Qishloq» (1939 y.), «Qora suvlar ortidan» (1940 y.) va «Qilich va o'roq» (1942 y.) romanlarida birinchi jahon urushi arafasida va urush vaqtida, urushdan keyingi milliy-ozodlik harakatlari avj olgan yillarda Hindiston, va ayniqsa Panjobni iztirobga solgan muhim muammolar haqida so'z yuritadi. Bengal yozuvchisi Gopal Haydar bengal inqilobchilari va mustamlakachilarining kurashi haqida trilogiya («Bir kuni» – 1939 y., «Boshqa kun» – 1950 y.) yaratdi. Bu asarlarning paydo bo'lishi 30–40-yillardayoq turli millatdagi hind yozuvchilarida epik asarlarni yaratishga bo'lgan intilishning mavjud ekanligidan dalolat bergan.

Hikoyaning epikligi va miqyosliligi, hayotiy voqealarni qamrab olishining ko'p qirraliligining kuchayishi odatda hajmi bo'yicha katta asarlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq bu janr uchun eng asosiysi – xalqni yirik miqyosda ko'rsatishdir. Roman-epopeyada faqat xalqgina barcha personajlar, ham bosh qahramonlar, ham ikkinchi darajali qahramonlarning harakatlariga baho berishda oliy sud bo'lib hisoblanadi. Roman-epopeya muallifi o'z qahramonlarining hatti-harakatlari to'g'risida biror-bir qahramon nomidan emas, balki o'z tarixidagi biror muhim bosqichidan o'tayotgan xalq nomidan fikr yuritadi. Aynan ushbu myozon unga chuqur asosli, epik tus beradi. Shunday qilib, Xoja Axmad Abbosning qalamiga mansub bo'lgan «Inqilob»³¹ (1955 y.) trilogiyasining birinchi qismi, Quadrat ul-Ayn Haydarning «Olovli daryo» (1959 y.) kitobi hamda Abdulla Husaynning «Ayro nasllar» (1963 y.) epopeyasini misol qilib keltirish mumkin.

Xoja Axmad Abbosning ingliz tilida yozilgan «Inqilob» romanining nomlanishi ham muallifning Hindistonning mustamlakachilik asoratidan ozod bo'lishiga olib kelgan chinakam umumxalq harakatini keng tasvirlashga bo'lgan maqsadidan darak beradi. Nafaqat ayrim qahramonlarning taqdirlari, balki mustaqillik uchun kurashishda keng ommaning, yirik ijtimoiy guruhlarining tutgan o'rinlari yozuvchini qiziqtirib qo'ydi. O'zbek kitobxonlari X.A. Abbos ijodi bilan 60-yillardan

³¹ Аббос Х.А. романи рус тилидаги таржимасида «Хиндистон фарзанди» номи билан чиққан. 1956. Ўзбек тилида Тошкентда 1962 йилда чоп этилган.

tanisha boshlashdi*. Yirik hindshunos U.M. Oripov qalamiga yozuvchi ijodiga bag'ishlangan bir necha maqolalar va kitoblar mansubdir**.

Romanning rus tilidagi nashrining muqaddimasida X.A. Abbos shunday yozgan edi: «Men yangi turdagi roman yaratmoqchi edimki, unda personajlar milliy ozodlik harakatimizning amaldagi arboblari bilan ro'baro' kelsin, chunki insoniy harakterlar va ularning taqdirleri ijtimoiy sabablar va tarixiy jarayonlar bilan yuzaga kelishini ko'rsatishni istadim».

Abbos kitobidagi hikoya o'n ikki yildan ortiq bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan. Asosiy voqealarning markazida turgan roman qahramoni Anvar Ali kitobxonning ko'z o'ngida ibratli musulmon oilasidan chiqqan to'qqiz yoshli bolakay sifatida namoyon bo'ladi. Trilogiyaning birinchi kitobi yakunida Anvar yigirma bir yoshga to'ladi. U balog'atga yetgan kurashchi bo'lib, dadillik bilan mitinglarda chiqishlar qiladi.

Anvar shaxs sifatida tezda shakllanishiga yordam bergan ko'plab voqea-hodisalarga duch kelgan. Shunday voqea-hodisalardan biri – 1919 yilning 13 aprelida Amritsarda o'z yetakchilari Sayfuddin Kitchlu va Satyapalning ozod qilinishini talab qilgan hindlar va musulmonlarning otib tashlanishidir. Amritsar atrofidagi voqea-hodisalar hind ozodlik harakatining ko'plab arboblari hayotida keskin o'zgarishga olib keldi. Ingliz generali Dayerning buyrug'iga ko'ra amalga oshirilgan qurolsiz odamlarning qatl etilishi o'z Vatanining ozodligi uchun kurashishga bel bog'lagan ommani qo'rqitmadi va qo'rqita olmasdi. Bu kun dushmanning makkorligi va zolimligi to'g'risidagi doimiy eslatmaga aylandi. Butun mamlakatdagi millionlab insonlar, shu jumladan kichik yoshdagi bolakay Anvarning qalbida ham ayollar, bolalar va chollarning sovuqqon qotillariga nisbatan nafrat olovi yondi.

Biroq Anvar qaysidir ma'noda bu voqea-hodisalarga baho berishga tayyor edi. Otasining uyida mamlakatda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida doimo suhbatlar olib borilar edi. Bolakay kattalarning suhbatlarini tinglar va voqealarning g'oyasini tushunishga harakat qilar edi.

O'sha vaqtda Hindistonning ijtimoiy hayotida yetakchi rol o'ynagan insonlar bilan uchrashuvlar unga ulkan ta'sir ko'rsatdi. U birinchi marta Maxatma Gandini ko'rdi va unga mayllik bilan yondashdi.

* Аббас Х.А. Кто я? Звезда Востока. –Т., 1957, №6; Аббас Х.А. Мои дети. Рассказ. Звезда Востока. –Т., 1957, №6; Аббас Х.А. Бхоли. Звезда Востока. –Т., 1959, №7; Аббас Х.А. Хиндистон фарзанди. Роман. –Т., 1962.

** Орипов У.М. Аҳмад Аббос — моҳир публицист. Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар. –Т., 1965; Хўжа Аҳмад Аббос ҳаёти ва ижоди ҳақида очерк. –Т., 1969, 262-б; Улуғ Октябрь ва Хорижий Шарқ Адабиёти (тўшлам) сўз боши. –Т., 1987.

Real tarixiy shaxslar – Javoharlal va Motilal Neru, Subhas Chandr Bos, Abdul G‘affor-xon, Bxagat Singx va boshqalarning hikoya mazmuniga kiritilishi, haqiqatda sodir bo‘lgan voqealar – Amritsardagi otishma, Gandining «to‘zli yurishi», Bxagat Singxning terrorchilik harakatining yoritilishi, haqiqiy hujjatlar – telegrammalar, Gandining xalqqa qilgan murojaatlari, Laxordagi INK majlisida qabul qilingan qasam matnining romanga kiritilishi – bularning barchasi an‘anaviy roman uchun noodatiy edi. Xronologiyaga rioya qilingan holda tarixiy voqealar bilan to‘yinganlik, tarixiy shaxslarning asl ismlari bilan asarga kiritilishi, haqiqiy hujjatlardan foydalanish «Inqilob» romanining qaysidir ma‘noda tarixiy romanga aylanishiga olib keldi. Uning tarixiydan farqi shundaki, u uzoq o‘tmish haqida emas, balki hozirgi zamonning eng dolzarb muammolari haqida hikoya qiladi. Bu esa roman-epopeyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Shaxsiy muammolarga emas, balki ijtimoiy muammolarga bo‘lgan yuqori e‘tibor roman-epopeyada publitsistik asosning kuchayishiga olib keladi.

Nafaqat 20-yillardagi Hindistonning siyosiy tarixidagi voqealar, balki mamlakat aholisining turli qatlamlari hayosi Abbos kitobining organik qismiga aylandi. Katta ijtimoiy hayotdagi hodisalar personajlarning hayotini belgilab berishini payqash mumkin. Mitingda Mustaqillik deklaratsiyasini o‘qiganligi sababli universitet haydalgan Anvarga universitet professorining qizi, u ko‘ngil qo‘ygan Salma maqsadidan qaytishni taklif etadi.

«Menga so‘z ber, sen siyosatdagi bu o‘yinni tashlaysan, otamning gapiga quloq solasan, Fuqarolik xizmatiga imtihon topshirasan va...

– Yo‘q!».

Tarixiy jarayonning qonuniyatlari o‘z oldiga shuhrat qozonishni maqsad qilgan Anvarni Salma bilan aloqani o‘zishga majbur etadi.

«Xayr, Salma. Men ketmoqdaman. O‘zingga kelganingdan so‘ng men haqimda yomon fikrga borma. Men har doim seni minnatdorchilik, muloyimlik bilan yodga olman».

Roman qahramonlarining psixologik holati tahlili, qahramon hayotining eng nozik kechinmalari va ishqiy munosabatlariga bo‘lgan diqqat-e‘tibor tarixiy jarayonning chuqur asosli tasvirlanishiga qarshilik ko‘rsatmaydi. Aksincha, tarixiy jarayonlarning borishi qahramonlarning ichki hayotida iz qoldiradi. Katta tarix muammolari va alohida shaxslarning taqdirларini bitta asarda aks ettira olishda X.A. Abbosning xizmatlari katta.

Xalq va alohida shaxslarning hayoti haqida epik jihatdan hikoya qilishning uyg'unligi muammosi Qudrat ul-Ayn Haydarning «Olovli daryo» nomli qiziqarli kitobida boshqacha tusda hal etiladi. X.A. Abbosda tarixiy jarayonlar kitobda aks ettirilgan ko'plab voqealarning ishtirokchisi yoki guvohi bo'lgan bosh qahramon Anvar Alining zehn-idroki orqali ko'rib chiqilgan bo'lsa, Haydarda esa tarix yanada umumlashgan ko'rinishda aks etadi. Epik chizma hikoyaning shaxsiy jihatini o'z ichiga oladi.

Roman Aleksandr Makedonskiyning Hindistonga qilgan yurishidan oldingi davrdan hozirgi vaqtgacha bo'lgan ulkan vaqt kesimini qamrab olgan. Bu yerda hind xalqi tarixi va uning madaniyatining asosiy falsafiy ma'nosini yetkazishga imqon Beradigan o'ziga xos hikoya usullari zarur.

«Olovli daryo» – ko'p asrli hind tarixining asosiy ziddiyatlarini anglashga va tarixiy taraqqiyotning qonuniyatlarini tushunishga intilayotgan dolzarb g'oyaviy romandir.

Haydar epopeyasining falsafiy mazmuni asar nomida ko'rsatilgan daryo obrazini alohida ta'kidlaydi. Asarning asosiy qahramonlarining biri Gautama bilan dastlabki uchrashuv Ayodxya yaqinidagi Sardja daryosi qirg'og'ida sodir bo'ladi. Taksildagi ko'p yillik tahsildan so'ng Gautama o'z ona shahriga, Koshal qirolligining poytaxti – Shrivasti shahriga qaytadi. Daryoning kechuv joyi unda Hindiston bo'ylab qilgan safarlari vaqtida u kechib o'tgan ko'p sonli daryolar to'g'risidagi xotiralarni yodga soladi. Keyingi hikoyalarda daryo obrazi Hindiston hayotidagi ulkan voqealar bilan bog'liq bo'lgan turli hodisalarni talqin qilishda uchraydi.

Asarning boshida daryo qabila va xalqlarning bir-biridan ajralib qolishini tasvirlaydi yoki u o'sha davrning yagona, murakkab bartaraf etiladigan chegaradir. Daryo – dushman hujumi vaqtidagi ishonchli muhofaza, biroq shu bilan birga u to'siq hamdir.

Keyinchalik daryo obrazi yanada ulkanlashadi, daryo butun mamlakat tarixining timsoliga aylanadi. Yozuvchi uchun daryo ko'p asrli hind madaniyatining timsoliga ham aylanadi. Turli hududlar va uzoq mamlakatlardan oqib kelayotgan jilg'alar ushbu qudratli daryo o'zanini to'ldirdi.

Kurrat ul-Ayn Haydar qadimgi Hindistonning ko'plab madaniyat va fan markazlarini yoritishga katta o'rin ajratadi. Haydarning xalq va alohida shaxslarning taqdirleri organik birlikda ifodalanishi lozim bo'lgan, chuqur asoslangan roman-epopeya sifatida maqsad qilingan asari alohida shaxslarning hayotini aks ettirishga ikkinchi darajali o'rin ajratib, asosan hind xalqi tarixini falsafiy talqin qilishga mo'ljallangan.

Zamonaviy urdu nasrnavisi

Ahmad Nodim Qosimiy

Tayanch soʻzlar va iboralar: badiiy uslub, oltin muhr, realistik sanʼat, panjob dehqonlari, qashshoq hayot, qishloq aholisi, bolalar, hikoya yozilayapti, koʻp maʼnoli, oddiy insonlar, taraqqiyparvar realistik adabiyot, adabiy faoliyat, uydan uyga.

Darsning maqsadi: urdu nasrnavisi A.N.Qosimiy va uning asarlarining uslubi va mavzular koʻlami.

Ahmad Nodim Qosimiy 1916 yili Panjobda toʻgʻilgan. Krishan Chandar Hindistonda urdu adabiyotining yetakchi yozuvchisi boʻlgani kabi, Qosimiy Pokistonning urdu tilidagi yetakchi yozuvchisidir. Ularning ijodida XX asrning oxirgi oʻn yilliklaridagi taraqqiyparvar adabiyot rivojining butun yoʻli mujassamlangan. Shu bois yozuvchi badiiy uslubining oʻziga xos tomonlarini aniqlash, uning asarlarini tadqiq etish adabiyot rivojining baʼzi umumiy qoidalarini koʻzatish imkoniyatini beradi.

Qosimiyning ijodiy yoʻli XX asr 40-yillarining ikkinchi yarmidan boshlanadi. Birinchi bosqichidayoq uning ijodining boʻlajak rivojlanish bosqichlari aniqlanadi. Ular oʻz mamlakatining muhim muammolariga, panjob dehqonlarining ogʻir ahvoliga alohida ahamiyat beradilar. Yozuvchi qishloq aholisining kambagʻalligi va ularning qashshoq hayotini koʻrsatadi, u hamma narsadan mahrum boʻlgan «oddiy odam»ni himoya qiladi. Mavjud boʻlgan tuzumning salbiy tomonlarini keskin tanqid qiladi, mehnatkash insonning yaxshi hayotga boʻlgan huquqini himoyalaydi. Bu bilan yozuvchi oʻsha davrda Hindiston uchun eng dolzarb va ahamiyatli boʻlgan masalalarni koʻtarib chiqadi va ularni hal qilishga harakat qiladi.

Bu davrda yozuvchining ustuvor qiziqishini kuchli shaxslarga, yaʼni oʻz insoniy gʻururini himoya qila oladigan, jasur insonlarga qaratadi. Ularni haqiqiy hayotda doimo koʻrmasa-da, Qosimiy ularni romantik tarzda oʻzi yaratadi. Biz bularni uning «Oltin muhr», «Bolalar», «Qasos», «Yolgʻiz» kabi novellalarida koʻrishimiz mumkin.

Realistik sanʼatga yoʻl Qosimiyda romantizmni inkor etish orqali boʻlmaydi, aksincha, yozuvchi oddiy hayotga zid boʻlgan romantik qahramonga hamdard boʻladi. Uning asarlarida keng maʼnoda sheʼriyat hayot nasriga qarshi qoʻyilgan, oliyjanob intilishlar – achchiq haqiqatga qarshi qoʻyilgan. Aynan shu xususiyatlar Qosimiy ijodining boshlangʻich bosqichining asosiy xususiyatini tashkil qiladi.

Ahmad Nodim Qosimiyning «Hikoya yozilayapti» nomli hikoyasi 40-yillar oxirida yozilgan, unda mamlakatda tarixiy voqealar aks etib, yozuvchi xalqning o'sib borayotgan imkoniyatlarining guvohi bo'ladi, va aynan, shu davrda yozuvchining ijodi yangi ishonch – xalq kuchiga ishonch ruhi bilan singiydi. Mazkur asarning asosiy qahramonlari dehqon oilasi a'zolari bo'lib, oila dehqon, uning ayoli Fotima va ularning Chiroq ismli o'g'lidan iborat. Zamindor bu oilani qishloqdan haydab yuborgan. Hikoyada ularni barcha anjomlari bilan Panjob qishloqlari yo'llarida ketayotgan holda uchratamiz. Yo'lda ularga o'zini yozuvchi deb atagan inson qo'shilib oladi. Hikoya personajlari qayoqlargadir yo'l olgan. Dehqon oilasi bug'doy o'sgan dalalar, kelinlar o'ynab quvnagan, zamindorlar yo'q, faqat tinchlik va farovonlik hukm surgan sehrli qishloqni qidiradilar. Yozuvchi esa, o'z asari uchun qahramon qidiradi.

Hikoya ko'p ma'noli sahna bilan yakunlanadi, uning qahramonlari ommaga qo'shiladi. Ular o'z maqsadlariga yetadilar. Fotima va uning eri zamindor yo'q bo'lgan sehrli dunyoga, yozuvchi esa, adabiyotning haqiqiy qahramonlariga ega bo'ladi.

Oddiy insonlar – ular hayot va adabiyotning asl qahramonlaridir. Hikoyaning «Hikoya yozilayapti» deb nomlanishi bejiz emas. U yozilib bo'lgan, u yozilayapti va bu esa uzoq muddatli jarayondir. U yozuvchiga haqiqiy voqelikdan o'tib, kelajakka qarashga va u yerda badiiy qadriyatlarining ijodkorlarini – oddiy xalq, mehnatkash insonlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

O'z mazmuniga ko'ra, «Hikoya yozilayapti» so'zsiz realistik asar emas, unda turli uslublar to'qnashadi. Bir tomondan, bu aniq va qisqa so'zlar bilan yozilgan haqiqiylikning qorong'u tasvirlaridir. U yozuvchining realistik uslubi uchun xos bo'lgan turmush unsurlari bilan boyitilgan. Ikkinchi tomondan, hikoyada romantik harakterdagi lahzalarni ham ko'ramiz, ularga, birinchi navbatda, hikoyaning syujeti, g'oyasi va lirik-falsafiy monologlari kiradi.

Qosimiy urdu taraqqiyparvar realistik adabiyoti an'analariining iste'dodli davomchilaridan biridir. Uning qalamiga 14 ta hikoyalar to'plami, 4 ta she'riy to'plam, bir qator adabiy-tanqidiy maqolalar mansubdir.

Tarixiy-adabiy maqolalarining aksariyat qismini Qosimiy Hindiston bo'linganidan so'ng yozgan. 1949 yili Pokistonning taraqqiyparvar yozuvchilari Umumpokiston assotsiatsiyasini tashkil qilish maqsadida anjuman tashkil etiladi. Assotsiatsiyaning bosh kotibi etib A.N. Qosimiy saylanadi. Bu davrda mamlakat va uning taraqqiyparvar kuchlari uchun

murakkab davr edi, bunda mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida reaksiya kuchlari bilan keskin kurash olib borilayotgan edi.

Aynan shu davrda Qosimiy faol ijtimoiy va adabiy faoliyatini olib boradi. Uning tashabbusiga ko'ra, taraqqiyparvar yozuvchilarning Umumpokiston assotsiatsiyasining rasmiy qo'mitasi bo'lgan «Nukush» deb nomlangan adabiy oynoma nashr etila boshlanadi. Mazkur oynomaning birinchi tuzuvchilari va muharriri sifatida Qosimiy va hozirda Pokistonning taniqli ayol yozuvchisi bo'lib qolgan Xajra Masrur tayinlanadilar. Oynoma sahifalarida esa Qosimiyning adabiy-tanqidiy maqolalari chop etilib bordi.

Ahmad Nodim Qosimiyning «Bir narsa deb javob bering» nomli maqolasi juda qiziqarli maqoladir. Bu maqola Qosimiyning o'sha davrdagi eng yorqin tanqidiy asarlari qatoriga kiradi. Maqolada yozuvchining inqilobiy zamon bilan aloqasi aniq aks etgan bo'lib, yozuvchi Pokistonning taraqqiyparvar yozuvchilari nomidan gapirgan.

40-yillarning oxirida Qosimiy adabiy muhitga to'liq kirib, yetakchi yozuvchilardan biriga aylanadi. Uning fikri yuqori baholanadi. U o'zining yonida mehnat qilayotganlar haqida maqolalar bilan chiqishni o'z burchi deb hisoblaydi. Navbatdagi «Nukush» jurnalining sonlarida Qosimiy o'z faoliyati davrida o'ziga yaqin bo'lgan taraqqiyparvar yozuvchilarning Umumpokiston assotsiatsiyasining eng faol a'zolari, urdu adabiyotining zamonaviy yozuvchi va shoirlariga bag'ishlangan maqola va chiqishlarini chop ettirib bordi. Ular ichida bizga tanish bo'lgan nomlar – Qosimiyning yaqin do'sti, adabiyotda taraqqiyparvar harakatning faol arbobi bo'lgan Fayz Ahmad Fayz, urdu nasri yangi avlodining vakillari Xajra Masrur va Xadicha Masrur, taniqli tanqidchi Mumtoz Husayni, shoir Abdulla Matin Araf, dramaturg Mirzo Adib, novellistlar Ibragim Jalis, Ahmad Raxi, Riyoz Javed, Xasan Toxir va boshqalar mavjud.

Qosimiy musavvirning ijodini tahlil qilganida, avvalambor, yozuvchi adabiyotga olib kirilgan yangilikka, zamonaviylikka e'tibor berdi. Uning fikricha, musavvir o'zi tasvir etayotgan hodisa yoki predmetga hali hech kim yondashmagan tomondan yondashib, o'zidan yangilik qo'shishi lozim.

Qosimiy adabiyotdagi an'anaga bir necha bor qaytadi va, har safar, u «Zamonaviy urdu adabiyoti bo'shliqda paydo bo'lmadi, u o'zida o'tmishning eng yaxshi yutuqlarini qamrab olgan», – deb ta'kidlaydi.

Qosimiyning katta ijodiy muvaffaqiyati 1959-1962 yillarda yaratilgan hikoyalarni qamrab olgan «Uydan uyga» nomli to'plami bilan bog'liq. Mualliflik g'oyasi, psixologik mahorati, chuqurligi, ishlov

berishning nafisligi bo'yicha to'plam hikoyalari nafaqat Qosimiy ijodining cho'qqisi, balki butun urdu zamonaviy novellistikasida ahamiyatli hodisadir.

To'plam «Uydan uyga» nomli birinchi hikoya nomi bilan atalgan. Bunday nomlanish tasodif emas. Hikoyalarni yozuvchi o'z fuqarolik burchini ado etib, har bir vatandoshining uyiga kirib, uning asl xayotini yaqindan o'rganish asosida yaratgan. Qosimiy qalami tobora kuchli bo'lib boradi, uning hikoyalarining hajviy ohangi kuchayib boradi va uning hikoyalaridagi obrazlarning yomon hislatlari ustidan kulish («Ishonch», «Uydan uyga»), yumshoq kulgu («Xudo inoyati bilan», «Soddalik va tobelik») va ba'zida esa, fojeali mojaroni («Prinsipial ish») kuzatish mumkin. Qosimiy nasridagi bu belgilar haqida pokistonlik adabiyotshunos Mo'zaffar Ali Said ham alohida yozganligi haqida ta'kidlashimiz lozim.

Avvalgidek, Qosimiy e'tiborining markazida ijtimoiy muammolar, jamiyatdagi kelishmovchilik masalalari qoladi. Qashshoqlik va boylik ziddiyati, zamonaviy jamiyatning moddiy jihatdan nomutanosibligi to'plam mazmuni va kompozitsiyasida o'z aksini topgan. Bizning nigohimizda ikki xil Pokiston: boylardan iborat mamlakat va qashshoq xalq yashaydigan mamlakat, undagi qishloqning qambag'al odamlarining og'ir hayoti bilan bir qatorda janoblarning ahloqsiz, ma'naviyatsiz hayotini ko'rsatuvchi hikoyalar bilan tanishishimiz mumkin.

«Uydan uyga» hikoyasining mavzusi an'anaviydir – ota-ona irodasiga ko'ra nikoh masalasi va unga Qosimiyning o'zgacha munosabati ko'rsatilgan. U o'rta qatlamga mansub bo'lgan ko'plab oilalarning psixologiyasini fosh etadi. Meshchanlikni tanqid qilganda Qosimiy hatto ijtimoiy norozilikka ko'tariladi, u insonlar hayotini faqatgina tashqi ko'rinishga: qiyofa, gapirish odati, kiyim-kechakka bo'ysundirish, o'zlikni yo'qotganini ko'rsatadi. Ya'ni ijaraga olingan qizil mashinada kelinning uyiga kelgan kuyov, kuyovni lol qoldirish uchun kelin ota-onasining qo'shnilaridan vaqtinchalik olingan narsalar bilan uyni byozatishi va shu kabi yolg'onlar haqida yozadi va hikoyaning yakunida muallif bu o'zaro aldov muhitini hajviy ravishda ochib beradi.

«Savob» – to'plamining eng yaxshi hikoyalaridan biri shunday nomlangan. Unda Qosimiy «yaxshi» zamindorning yolg'on insonparvarligini fosh etadi. Changa ismli bolaning ota-onasi qishloqda suv tashiydilar, ular o'g'lini savodli bo'lishini xohlaydilar. Biroq, oila boshlig'i vafot etadi va onasi o'g'lini savodli qilish uchun ikki kishi o'rniga mehnat qiladi. Bechora ayolning orzulari qayg'uga aylanadi: bola quduqqa tushib,

cho'kib o'ladi, baxtsiz ona esa aqldan ozadi. Voqea sodir bo'lgan joyga mahalliy zamindorni chaqirishadi, lekin uni ayol qayg'usi xavotirga solmaydi. Uning fikricha bolaning o'limi insonlarga qilgan gunohi uchun xudoning jazosidir. Uning o'y-fikrlari va hatti-harakatlari juda g'alati tasvirlangan. Masalan, u bolasi o'lgan onasiga yig'lashni maslahat beradi, lekin shu bilan birga me'yoridan ortiq yig'lash gunoh bo'lib xudoning g'azabini keltirishini ham ta'kidlaydi va shu yerdayoq, fojea joyida, don sotish haqida ham kelishib oladi. Keyin esa u dehqonlarni bolani tezroq dafn etishga chorlaydi, chunki murdani ertangi kunga qoldirish Qur'onga zid ish deb ta'kidlaydi. Quduqdagi suvni olib tashlash esa savob.

Ahmad Nodim Qosimiyning asosiy maqsadi qishloqlardagi ijtimoiy adolatsizlikni ko'rsatishdir. Uning bu qarashlari qahramonlarining ruhiyatiga singdirib yuborilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, hatto o'sha chekka Panjob qishloqlarida, qashshoqlikda kun kechirayotgan dehqonlarga ham oliy insoniy tuyg'u – sevgi, muhabbat tuyg'ulari begona emasligini A.N. Qosimiy ko'plab hikoyalarida qahramonlarining samimiy his-tuyg'ulari, go'zal tasvirlar orqali ifodalab beradi. Adib nigohida sevgi goh kuchli va sof tuyg'u, hayot manbai («O'lim» 1949 yil hiqoyasi), goh aldangan, toptalgan qadriyatlar («Ufq, «Yurak qoni», «Insof», «Sollar» kabi hikoyalar) tarzida ifodalanadi.

Sevgi haqidagi ajoyib hikoyalardan biri «Sol» hikoyasidir. Bu nasrda yozilgan o'ziga xos lirik poema deb atalsa ham bo'ladi. Unda oddiy qishloq qizi Ashining fojeali qismati tasvirlanadi. Voqea syujeti quyidagicha: «Har kuni atrofga qorong'ulik cho'kkach, ota-onasi uxlab qolganiga ishonch hosil qilgan Ashi sevgan yori Nazuning yoniga oshiqadi. Ashi uni qishloq yoshlarining ommaviy sport o'yinlaridan birida ko'rib yoqtirib qolgan edi. Kunlardan bir kun Ashu uchrashuv tayinlangan joyga vaqtidan ilgariroq keladi. Nogoh butalar orasidan shohlarning shitirlashi eshitiladi, ikki kishining soyasi ko'zga tashlanadi. Ular yaqinlashgan sari ovozlari yaqqolroq eshitila boshlaydi. Ishontirib aytmanki, – deydi Nazu – u hech qayoqqa qochib keta olmaydi, axir u uy kuchugi-ku, mening hukmim ostida ish tutadi. Lekin bilib qo'ying uning narxi 100 rupi».

Ashi nogoh ko'zi ochilganini, aldanganini, g'ururi, muhabbati poymol etilganini anglab yetadi. U o'zini sotib olgan odamga qarata: «Ashi – bu menman. Nega qarab turibsiz? Bu baxti qaroni ko'rgani ko'zim yo'q. Xo'sh, nega qarab turibsiz o'ping, quchoqlang, janob, Asha sizniki, egalik qiling». Dunyoda eng ishongan kishisi Nazu uni sotdi, unga xoinlik qildi. Endi Ashi uchun bu dunyoning ahamiyati qolmagan edi.

«Mening tanamni sotib oldim deb o‘ylaganmiding? Gapir? Qara, ko‘r tomosha qil, Ashaning sodda va laqmaligini ko‘rib huzur qil». Nazu qizga yetib kelolmadi. U zim-ziyo dara tomon yugurib ketdi. «To‘zg‘igan sochlar, silkinayotgan ko‘llar soyasi zimiston qo‘ynida yo‘qoldi. Va faqat tik qoyalar chetlaridan dumalagan toshlarning shiddatli sharsharaga otilgani eshitilar edi, xolos».

Hikoya qiz o‘limi bilan yakunlanadi. Realizm juda kuchli namoyon bo‘lgan bu hikoyada hayotning achchiq haqiqati shuki, qizni politsiyachi zamindor yoxud xo‘jayini emas, balki o‘zi singari kambag‘al oiladan chiqqan yigit aldadi. Hikoyaning badiiy xususiyatlari ham tahsinga sazovor desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, muallif visol damlarini ajoyib lirik sahnalar yordamida tasvirlab bergan.

Premchand urdu adabiyotida tanqidiy realizm asoschisi

Tayanch so‘zlar va iboralar: Xo‘ri, qishloq, dehqon, godan. Nirmala, tanqidiy ralizm, HTYoU.

Darsning maqsadi: Hindi adabitisha qishloq mavzusini olib kirgan nasrnavis Premchand, uning hikoyalarida oddiy qishloq xalqi xayotning tasviri.

Rabindranat Tagor tomonidan yorqin ifodalangan va uning nasriy asarlarida ochib berilgan hind voqeligining harakterli jihatlari nafaqat bengal, balki Hindistonning boshqa adabiyotlarida ham tanqidiy realizm tendensiyalarining rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Hindiy adabiyotida bu tendensiyalarning rivojlanishida Premchandning xizmati kattadir.

Premchand (1880-1936) o‘zining ilk asarlarini urdu tilida yozgan. Ular keyinchalik «Soze Vatan» to‘plamiga kirgan vatanparvarlik ruhidagi hikoyalar edi. Ijodining asosiy mavzusi – hind dehqonlarining og‘ir hayoti, huquqi yo‘q ayolning ahvoli – uning hikoya va romanlarida o‘z aksini topgan.

Premchand bakalavr bosqichini 1919 yilda muvaffaqiyatli tamomlaydi va shundan so‘ng u Gorakxpur, Kanpur, Banoras va boshqa joylarga borib o‘qituvchilik qiladi va shu bilan birga umumiy maktablar bo‘yicha inspektor yordamchisi bo‘lib ishlay boshlaydi, uning bu faoliyati xalqning qanday hayot kechirayotganligini va ularning juda ham nochor ahvolda kun kechirayotganliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish imkoniyatini beradi va bu hol

uning hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki bolalik yillarida uning boshidan juda ko'p qiyinchiliklar o'tgan edi. Shu taassurotlar uning butun hayoti va ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Premchand yoshligidanoq urdu tilida kichik-kichik hikoyalar yozib, adabiyot sohasidagi o'z faoliyatini asta-sekinlik bilan boshlaydi. U Kashmirdagi bir oliygohda o'qituvchi bo'lib ham ishlaydi. Shu bilan bir qatorda u vaqti-vaqti bilan bir qancha xatlarni ham tahlil qila boshlaydi. Urdu tilida u Navabray taxallusi bilan ijod qilar edi. U 25 yillik hayoti davomida boshidan o'tkazgan qiyinchiliklari va atrof-muhit taassurotlari hayotini, ayniqsa ijodiy yo'lini keskin o'zgartirib yuboradi. U o'z ijodini xuddi mana shu olgan taassurotlaridan boshlaydi. Premchand qishloq odamlari, ularning taqdiri, ayol taqdiri va shunga o'xshash muammolarni o'z ijodining asosiy mavzusi qilib oladi.

Premchand XX asrning birinchi va ikkinchi o'n yilliklarida, ayniqsa milliy ozodlik harakatiga o'zining juda katta hissasini qo'shdi. Premchand ijodi rus hindshunoslarining ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritib berilgan³².

Premchand ijodiy yo'lini uch qismga ajratish mumkin. *Birinchi davri* 1919 yilgacha davom etadi. Bu davrgacha bo'lgan ijodida u asosan inson ichki dunyosi, kundalik hayot, ayollar, bolalar va oilaga bag'ishlangan hikoya hamda romanlar yozgan bo'lsa, undan *keyingi davrda* u ko'proq realistik romanlar yoza boshladi. U o'z davrda bo'layotgan ozodlik harakatiga bag'ishlangan romanlarni yoza boshladi. Masalan: u 1920–1921-yillarda «Kurash» dramasi va «Muhabbat makoni» romanlarini yozdi va ularni 1922 yilda nashr ettirdi. Bu ikkala asarning ham asosiy mavzusi qishloq xalqining o'zaro aloqalari masalasi edi. U o'z ijodining ikkinchi davrida, ya'ni 1920–1928-yillarda bir qancha nashriyotlar tashkil etishga ham harakat qiladi. Bu masalada u ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki, nashr etish mashinalari kamyob bo'lib, bori ham juda qimmat edi. Uning do'sti Nigam Angliyadan mashinalar yuboradi va 1923 yilda «Sarasvati press» degan nashriyotni ochib, o'z ishini boshlaydi.

Premchand o'z ijodining so'nggi, ya'ni uchinchi davrida (1928-1936) ham bir qancha asarlar yozadi. «Godan» nomli shoh asari aynan shu davrda (1936) yozilgan.

³² Балин В. Премчанд и его романы «Обитель любви» и «Воздаяние». Литературы Индии. –М., 1958; Начало творческого пути Премчанда и сборник «Созе Ватан». Современная индийская проза. –М., 1962. Чельшев Е.П. Литература хинди. –М., 1968; Современная индийская литература. –М., 1981., Гаврюшина Н.Д. Премчанд и роман XX века. –М., 2006.

Premchand Hindiston adabiyotida ilk bor XX asrning birinchi o'n yilligidan boshlab tanila boshladi.

Premchand 1907 yilda «Zamana» jurnalida ishlab yurgan paytida o'zining ikkita hikoyasini chop ettirgan edi. Ulardan biri «Dunyodagi eng qimmatbaho narsa» hikoyasi, 1908 yilning aprel oyida esa o'zining ikkinchi «Muhabbat» nomli hikoyasini «Vatanparvarlik» nomi bilan bosmadan chiqaradi.

Oradan bir yil o'tganidan so'ng u o'zining «Vatanga muhabbat» («Soz-e Vatan») nomli hikoyalar to'plamini Navabray taxallusi bilan nashrdan chiqaradi. Bu kitob «Zamana press» nashriyotida Rayanarayan Nigam³³ tomonidan chop etiladi.

«Vatanga muhabbat» hikoyalar to'plami Premchand ijodining ilk davri hikoyalaridan tashkil topgan bo'lib, u urdu tilida nashr etilgan. To'plam bir necha hikoyalarni o'z ichiga olgan, ular: «Dunyoda eng katta qimmatbaho toshlar», «Shayx Maxmur», «Mana mening Ona Vatanim», «Motam mukofoti».

1920 yilda Premchand o'zining «Jang maydoni» nomli romanini urdu tilida yozadi, uni o'zi 1924 yilda hindiy tiliga tarjima qiladi va 1925 yili uni bosmadan chiqaradi va 1927 yilda urdu tilida ham chop ettiradi.

1922 yilda «Kurash» dramasi va «Sevgi maskani» romanini chiqaradi. Bu ikkala asarning mavzusi hind qishloqlaridagi o'zaro munosabatlar masalasiga bag'ishlangan.

Premchandning «Jang maydoni» romani 20-yillardagi voqealarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu roman yashash uchun kurashga o'tlanayotgan odamlar haqidadir. O'sha paytda Hindistonning o'zi jang maydoni tusini olgan, mustamlaka mamlakatda inson yashashi dahshatga aylangani va xalqning bu azobni tugatish uchun qilgan qarorini ko'rsatadi.

Premchand «Jang maydoni» romanida Vatanga xizmat, uning ozodligi yo'lidagi kurashga bo'lgan o'z munosabatini tasvirlaydi. U kambag'al xalqning peshona terisi bilan topgan pulini ularning o'zlariga qaytarib berishlarini so'raydi. 1918–1922-yillarda bo'lib turgan moddiy kurash uni shunga javoban ijtimoiy kelishmovchiliklar to'g'risida roman yozishga undadi.

1923 yilda Premchand Kashmirda Sarasvati bosmaxonasini ochadi. To shu davrgacha uning uchta hikoyalar to'plami, ikkita romani va bitta pesasi chop etilib chiqarilgan edi va bundan tashqari u bir qancha maqola, ocherk va avtobiografik asarlar yozgan, shuningdek, mashhur rus

³³ Раянараян Нигам – Премчанд 1903 йилда Оллоҳободда таниқли журналистларни рўйхатга олиш бўлимида ишлаб юрган пайтида учрашиб, дўст тутинган канпурлик журналист.

yozuvchisi Tolstoyning bir qancha hikoyalarini hindiy tiliga tarjima qilib bosmadan chiqargan. 1928 yilda «Jagran» nomli siyosiy-ommaviy gazetani chiqaradi.

1930 yilga kelib 1923 yilda ochgan Sarasvati bosmaxonasi «Xans» oylik jurnalini chiqarish bilan o'z ishini davom ettiradi. Jurnalning birinchi soni 1931 yilda chiqdi. Bu davrda Premchand avvalgi idealistik g'oyalardan uzoqlashadi va dunyoni qayta qurish uchun nafosat, insonparvarlik, soflik, vafodorlik fazilatlarini lozim bo'lib qolmay, balki ijtimoiy masalalarni ochish va hal qilish lozimligi haqida ham fikr yuritadi.

1932 yilda uning «Jangovor yo'l» nomli hikoyalar to'plami nashr etiladi. Bunda ish tashlash, miting, sadaqa olish, qamoqqa olish kabi muammolar ko'tarilgan edi. Premchandning birinchi romanlaridayoq M. Gandi g'oyalarining ta'siri juda ham seziladi.

Premchand butun ijodiy hayoti davomida uch yuzdan ortiq hikoya, o'nlab romanlar va bir qancha pesalarni va o'zining bir qancha gazeta va jurnallarini hindiy va urdu tillarida chop etib chiqardi. U R. Tagor, L. Tolstoy, Dj. Elliot, B. Shou, A. Frans va shu kabi bir qancha mashhur yozuvchi va olimlarning asarlarini tarjima qildi va ularning asarlarini gazeta va jurnallarda chop etdi. U o'z asarlarida hind xalqining keng doiradagi eng muhim, katta masalalarini qo'yib tasvirladi. U butun hind va urdu adabiyotiga ta'sir ko'rsatdi. Uning ijodi 40–50-yillardan keyingi avlod yozuvchilariga o'z ta'sirini ko'rsatdi, jumladan K. Chandar, Dj. Kumar, Yashpal, Upendranatx Ashk, Rajendra Yadav (1929 y.t.), Moxan Rakesh (1925 y.t.), Kamleshvar (1932 y.t.), Mannu Bhandari (1931 y.t.), Nirmal Varma (1929 y.t.) va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Premchand ijodi nafaqat o'z Vataniga, balki butun Sharqiy Osiyo mamlakatlari hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki, u ijodida inson hayotining eng murakkab, yechilmagan muammolarini ko'rsatishga harakat qildi. Bundan tashqari u hindiy nasrchiligida insonning ichki dunyosini yoritib berishga harakat qildi. Past tabaqali aholining hayotini, ularning jamiyatdagi o'rnini va oila muammolarini, ayollarning oilada tutgan o'rnini va beva qolgan ayollarning hayotini, eskirib qolgan urf-odatlarini o'z ijodining mavzusi qilib oldi.

Premchand hayoti bilan juda ko'plab sharqshunos, hindshunos olimlar, qolaversa, bir qancha Angliya, Yevropa mamlakatlari olimlari qiziqib kelmoqdalar va u haqida ilmiy ishlar qilmoqdalar. O'zbekistonda Premchand ijodi o'rganilgan bo'lib, bir nechta maqolalar, kitoblar chop etilgan³⁴.

³⁴ Полинова О.С. Премчанд — демократ ёзувчи. Шарқ Юлдузи. —Т., 1951, №7; Прогрессив хинд ёзувчиси. Шарқ Юлдузи. —Т., 1955, №3; Реализм в современном индийском романе. —Т., 1984.

Yozuvchi dunyoqarashining shakllanishida ijodining ilk davrida qadimgi hind diniy-falsafiy ta'limotlarning ta'siri kattadir.

«Soz-e vatan» («Vatanga muhabbat») to'plamiga kirgan hikoyalar vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Unda Premchand an'anaviy ertak syujetlaridan keng foydalangan. Biroq dunyoni real ko'rish musavvirga kechroq va mehnat orqali keldi. Uning ijodida romantik va real qarashlar uzoq vaqt birgalikda mavjud bo'lgan. U an'anaviy romantik personajlarni zamonaviy hind milliy hayotidagi yangi qahramonlari bilan birlashtirdi. Premchand o'z personajlarining shaxsiy hayotini ijtimoiy manfaatlarga tobe qilishga intilgan holda uni milliy ozodlik kurashi qurboniga aylantiradi.

Premchand xalqning mustamlakachilik hukmronligiga qarshi kurashi mavzusiga o'tadi. Haqiqiylik, zamonaviylikning dolzarb muammolarini tasviriy, badiiy talqin qilishga bo'lgan intilish yozuvchida borliqning mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini anglashga bo'lgan qiziqishi bilan uyg'unlashib ketadi. Premchandning hikoyalari mohiyatan urdu va hindiy adabiyotida mazkur janrning rivojlanishiga zamin hozirladi. 1920–1928-yillar – Premchand ijodiy yo'lining ikkinchi bosqichidir («Kurash» dramasi va «Sevgi maskani» romani). Bu davrda yozuvchi tomonidan mustamlakachilik tizimini keskin qoralash, siyosiy, ijtimoiy, ahloqiy muammolar ko'tarilgan ko'plab hikoyalar yaratildi. Uning badiiy vositalari boyib bordi, Premchandning asosan satiraga bo'lgan qobiliyati kuchaydi. Premchand ijodida hind adabiyotida birinchilardan bo'lib quyi kastadagi, xususan, hazar qilingan kastalarning muammolari yorqin o'z aksini topdi («Txakurning qudug'i» (1932) hikoyasi 1955 yilda rus tiliga tarjima qilingan).

1928 yilda milliy ozodlik harakatining qaytadan ko'tarilishi yozuvchi ijodiy yo'lining uchinchi bosqichini belgilab berdi. Bu yillarda u dunyoni qayta qurishga urinish faqat yaxshilik va insonparvarlik orqali amalga oshirish mumkinligini anglay boshladi va bu miting, ish tashlash, namoyishlar, otishmalar, qamoqqa olishlar, terror haqida gap boradigan asarlarida o'z aksini topdi («Jangovor yo'l» 1932 yil hikoyalar to'plami). Ularda qudratli fuqarolik ohangi sezilib turadi.

Xalq, mehnatkash insonlarning hayoti va kurash mavzusi Premchandning butun ijodida yetakchi o'rinda turadi. Hind ayoli ahvolini aks ettirgan asarlar alohida ahamiyat kasb etadi («Nirmala» va «Godan» (1936) romanlari va boshqalar). Ushbu romanlar O'zbekistonda 1962 yilda («Qismat» – «Godan») va 1967 yilda («Nirmala») o'zbek tilida chop etildi. Bundan tashqari «Jang maydoni» (1985), «Rama haqida qissa»

(1970) kabi qissa va hikoyalari («Sut haqi», «Ikki ho‘kiz», «Najot yo‘li», «Qamoq», «Yuvoshlik») ham nashr etilgan.

Krishan Chvelar ijodida tanqidiy realizmning rivojlanishi

Tayanch so‘zlar va iboralar: sariq kasal, ratannatx sarshar, xumoyun, adab-e dunyo, tafakkur tumori, roman, mag‘lubiyat, drama

Darsning maqsadi: Hind va urdu adabiyotlarida Krishan Chandar ijodining tanqidiy realizmni rivoantirgani haqida.

Krishan Chandarning adabiy merosi ulkan va xilma-xildir. Uning qissa va romanlari, hikoyalar to‘plamlari va bir pardali dramalari, adabiyotshunoslikka oid maqolalari va bolalarga atab yozilgan 80 dan ortiq asarlari mavjud. Uning hikoyalarini nafaqat o‘z yurtida, balki chet ellarda ham mutolaa qiladilar, ular ko‘plab Yevropa va Sharq tillarida nashr qilingan va nashr qilinishda davom etmoqda. Ajoyib hind yozuvchisining ijodi allaqachon jahon adabiy jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Uning ijodi rus hindshunoslari Glebov V.N., Suxochev A.S. ishlarida ochib berilgan³⁵.

K. Chandar 1913 yilning 13 noyabrida hozirgi Pokistonning shimolidagi Vazirobod shaharchasida dunyoga kelgan. Bo‘lg‘usi yozuvchining otasi Gori Shankar nasabiga ko‘ra kshatriy-harbiy kastaga mansub bo‘lib, eng tinch kasb vakili, ya‘ni doktor bo‘lgan. U barcha dinga birdek qarashi bilan ajralib turgan, oliy ma‘lumotli bo‘lgan, urdu adabiyotini yaxshi bilgan. Ikki o‘g‘li va qizi yozuvchi bo‘lganlar.

K. Chandarning onasi hinduizm diniga e‘tiqodi baland bo‘lgan, barcha diniy marosim va urf-odatlariga qat‘iy rioya qilgan, farzandlari ham diniy ruhda tarbiyalanishlarini diqqat bilan nazorat qilib borgan.

K. Chandarning adabiy faoliyati 30-yillarning o‘rtalarida boshlangan. Uning ilk hikoyalari – «Sariq kasal», «Qayiqda Dxelamdan o‘tish», «Laxordan Baxramgalagacha», «Xumoyun», «Adab-e dunyo», «Adab-e latif» o‘quvchilarning e‘tiborini o‘ziga qaratdi.

U paytda urdu nasri hali juda yosh edi. Roman janri Nazir Ahmad, Ratannatx Sarshar, Abdul Halim Sharar, Mirzo Rusva ijodida katta muvaffaqiyatga erishib, XIX asrning oxirgi uchinchi choragida tan olingan bo‘lsa, urdu tilidagi hikoyaning paydo bo‘lishi XIX asrning birinchi o‘n yilligi – Premchand ijodi bilan bog‘liq.

³⁵ Глебов В.Н., Сухочев А.С. Литература урду. –М., 1967., Сухочев А.С. Кришан Чандар. –М., 1983.

30-yillar urdu adabiyoti va boshqa hind adabiyotlari tarixi uchun umuman o'ziga xos davr bo'lgan. Adabiy qonunlardagi hal qiluvchi o'zgarishlar, estetik ideallarning almashinuvi yuz berayotgan edi. Ko'plab iqtidorli yosh urdu shoirlar va yozuvchilar adabiyotga jo'shqin 30-yillar – milliy ozodlik kurashi davrida kirib keldilar.

O'sha paytdagi yosh shoirlar Majoz, Fayz Ahmad Fayz, Maxdum Maxiuddin, Ali Sardor Jafriy, nasrda ijod qiluvchilar – K. Chandar, Saadat Xasan Manto, Radjendra Singx Bedi, Ahmad Nodim Kasmilar ayniqsa yoshlar orasida juda tez muhabbat va obro' qozondilar. Ularning ko'pchiligi 1936 yilda asos solingan Hindiston taraqqiyparvar yozuvchilar uyushmasining (HTYoU) asosini tashkil qilardilar, unda o'z asarlari bilan ibrat ko'rsatar edilar.

«Tafakkur tumori» (1937) ilk hikoyalar to'plami yosh K. Chandarning adabiy nufuzini mustahkamladi. Keyin esa «Suratlar» (1939) va «Xom xayol» to'plamlari chiqdi. Ular K. Chandarning yoshligi o'tgan Kashmir bilan mavzu jihatdan bog'liq bo'lgan lirik hikoyalardan tashkil topgandi.

Ideallashtirilgan va tabiatiga ko'ra uyg'unlashib ketgan dehqonlar taqdiri hamda inson ruhini majruh qiluvchi zamonaviy kapitalistik shahardagi hayot mavzulari qarama-qarshi qo'yiladigan hikoyalar («Agni», «Gurjondagi kecha») asta-sekin ijtimoiy-oshkora ruhdagi asarlar bilan o'rin almashadi.

«Mag'lubiyat» romani (1939) yozuvchi ijodining dastlabki davridagi yangi yaxshi ijtimoiy muvaffaqiyat hisoblanadi. Bu yerda, hoyna-hoy, urdu adabiyotida an'anaviy hind jamiyati axloqiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqilgan. Romanda katta amaldorning o'g'li – talaba Shyam bilan bechorahol oiladan bo'lgan Vantining muhabbati haqida gap boradi. Shyamning to'yi kuni Vanti zahar ichib o'ladi. Shyam to'y marosimini bo'zib, uning uyiga yuguradi. Bir qarashda roman qahramonlari mag'lubiyatga uchragandek tuyuladi. Aslida esa o'tmishga aylanuvchi, o'z davrini surib bo'lgan dunyo mag'lubiyatga uchragan. «Mag'lubiyat» romanining dunyoga kelishi K. Chandar ijodida yangi bosqichning boshlanishiga olib keldi. Roman janrini o'zlashtirib olish yozuvchiga yanada murakkab badiiy masalalarning yechimini topishga murojaat qilishi uchun imqon berdi, nasrning ko'lamini kengaytdi va epik ohangi kuchaytdi. Hikoyalarda epik jihatdan yengil lirizm bilan bo'linmas uyg'unligi, realistik ibtidoaning romantik bo'yoqlar bilan muvofiqligi harakterli bo'lgan o'ziga xos uslubining shakllanishi o'z nihoyasiga yetmoqda edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida yozuvchi ijodida uning Hindiston taraqqiyparvar adabiyotchilari harakatidagi safdoshlarida bo'lgani kabi antifashist mavzusi rivojlandi.

Hindistonning mustaqillikka erishishi hind va musulmonlar o'rtasidagi qonli birodarkushlik qirg'ini bilan bo'yaldi. Ana shu fojeaga bag'ishlangan K. Chandarning bir qator asarlari – «Sotqin» qissasi, «Amritsar», «Mister Jekson», «Peshovar ekspressi» hikoyalari va boshqalarda beayb qurbonlarga hamdardlik va yovvoyiga aylangan odamlardan uyalish aks etgan (K. Chandarning o'sha paytda yozilgan dramalaridan biri «Biz – yovvoyilar» deb nomlangan).

50-yillar K. Chandarning ijodi gullab-yashnagan davrdir. U barakali ijod qiladi. «Yo'l ortga olib boradi», «Bir qiz va ming oshiq», «52 qarta», «Azoblar kanali» romanlari chiqadi. «Kalu Bxangi», «Ayvon», «Maxalakshmi ko'prigi», «To'y», «Gullar – qizildir» kabi yozuvchining eng muhim kichik asarlari – hikoyalari paydo bo'ladi. K. Chandarning bu hikoyalarida ijodining ilk davridagi romantik ko'tarinqilik o'z o'rnini tobora chuqurlashib boruvchi tanqidiy realizmga bo'shatib beradi. Ba'zi asarlarida sotsialistik realizm tendensiyalari paydo bo'ladi. Ular «Dalalar uyg'onganda» (1951) qissasida yorqinroq ifodalangan. «Dalalar uyg'onganda» – bu qo'zg'olonda ishtiroki uchun o'lim jazosiga mahkum etingan yosh inqilobchining tavbasidir. Tong otishini kutgan holda osib o'ldirilguncha Ragxu Rao qisqa hayotidagi eng yorqin voqealarni esga oladi.

Inqilobchi Maqbo'l topib bergan qog'oz fabrikasidagi ish Ragxu Rao uchun ajoyib hayotiy maktab vazifasini o'tadi, qishloqi bir yigitni ishchilarning ulkan jamiyatiga qo'shdi. K. Chandar qissasida hind adabiyotida ilk marotaba mehnatkashlarning stixiyali chiqishlariga qanday qilib ongli ibtidoning aralashtirilishi, rahbariyatning dehqonlar kurashini qay tarzda tartibga solishi ko'rsatib berilgan.

Qissaning yakunlovchi satrlari timsoliy ifodalangan. «Qo'riqchilar Ragxu Raoni kameradan chiqarishadi va shu payt quyosh tor qamoq hovlisiga suqulib kiradi».

50-yillarda Hindistonda tinchlik tarafdorlari harakatining faol ishtirokchisi bo'lgan K. Chandarni borgan sari urushga qarshi mavzu xavotirga soladi. U satirik hikoyalar, «Musaffo osmon» qissasini yozadi. 1953 yilda XTYoUning bosh kotibi etib saylanadi.

K. Chandar ijodida san'at masalalari katta o'rin egallaydi. U zamonaviy burjua jamiyatidagi yozuvchi, rassom, artistning roli, ular duch keladigan muammolar haqida yozadi. Bu muammolar «Ummon

sohilidagi skripka», «52 qarta», «Kumush jarohat» romanlarida markaziy hisoblanadi. Ularda K. Chandar burjua sanʼat dunyosida hech kim agar oʻz vijdoni bilan bitim tuzmasa, agar oʻz iqtidorini «oltin buzoq» manfaatlariga boʻysundirmasa, agar ijodkor oʻz qalbini «sariq dev»ga sotmasa, muvaffaqiyat qozona olmasligini alam bilan yozadi.

50-yillarning oxiri va 60-yillarda Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy harakterdagi bir qator sabablarga koʻra skeptitsizm (ishonchsizlik), bexafsalalilik va ikqilanish kayfiyati kuchayib boradi. Monopolistik sarmoyaning oʻsishi, yirik zodagonlarning mustahkam maqomlari, ilgʻor kuchlarni siqib chiqarishga urinuvchi oʻnglar harakati – bularning barchasi burjuaziyaning mafkuraviy tus olishida oziqlanuvchi muhit vazifasini oʻtadi.

Shuni taʼkidlash joizki, urdu adabiyotida satira qadimdan ahamiyatli oʻrin egallab kelgan. Biroq aynan K. Chandar unda haqiqiy tashabbuskorlik koʻrsatdi, uni yanada ijtimoiy ahamiyatli va muammoli qildi. Agar uning avvalgi kitoblarida faqat satirik tendensiya koʻzlangan boʻlsa, endilikda yozuvchi chuqur satirik yoʻnaltirilgan yirik asarlar yarata boshladi. Ulardan eng ahamiyatlilari – «Eshak haqida trilogiya» (1958, 1962, 1965), «Dadar koʻprigi bolalari» (1960), «Qogʻoz kemacha» (1966).

70-yillarda u, shuningdek, detektiv roman janriga murojaat qiladi. Unda yozuvchi realistik uslubning yangi shartli-formal texnika bilan muvaffaqiyatli uygʻunlashtiradi. K. Chandar 1977 yilda vafot etdi.

Oʻzbekistonda K. Chandar ijodi Kayumova R.³⁶, Polinova O.S.³⁷. kabi hindshunoslar tomonidan ochib berilgan boʻlsa, kitobxonlar esa uning ijodi bilan 50-yillarda tanishishadi³⁸.

Saadat Xasan Mantoʻ ijodi va urdu hikoyanavisligi

Tayanch soʻzlar va iboralar: hikoya janri, radiodramma, qissa, adabiy esse, ocherk, publitsistik chiqishlar, qisqa ocherk, mustaqillik gʻoyalari, ozod insonlar, loʻlilar, oʻgʻrilar, kontrabandistlar, daydilar, sof tabiiyligi.

³⁶ Каюмова Р. Социальная направленность романа К. Чандара «Одна девушка и тысяча безумцев». Нальчик. Ученые записки Кабардино-Балкарского научно-исследовательского института. 1964, т.20; К характеристике этапов творческого пути К. Чандара. Краткие сообщения Института народов Азии. –М., 1985.

³⁷ Полинова О.С. Принцип социальности в романах К. Чандара. Научные труды Ташкентского университета. 1972.

³⁸ К. Чандар. Бир дублёр киз. Шарқ Юлдузи. –Т., 1957, №8; К. Чандар. Шамоллар онаси. Шарқ Юлдузи. –Т., 1958, №9; К. Чандар. Танланган асарлар. –Т., 1960.

Darsning maqsadi: XX asr urdu hikoyanavisligi rivojiga katta hissa qo'shgan Saadat Xasan Manto ijodi va uning hikoyalarining asosiy mavzu, obraz va g'oyalari haqida ma'lumot berish.

Urdu adabiyotida hikoya janri XX asr boshida adabiy sahnada paydo bo'lib, unga Premchand asos solgan edi. 30-yillarda urdu hikoyanavisligiga K. Chandar (1913), Radjendra Singx Bedi (1916), G'ulom Abbos (1909), Sadat Xasan Manto (1912) kabi yozuvchilar kirib keldi.

Hindiston-Pokiston yozuvchisi bo'lgan Sadat Xasan Manto (1912-1955) urdu adabiyotiga hikoya ustasi sifatida kirib keldi. Uning urdu tiliga o'g'irilgan rus va G'arbiy Yevropa yozuvchilari asarlarining tarjimai, kinossenariylar, ko'plab radiodramma, qissa, adabiy esse, ocherk, publitsistik chiqishlar kabi asarlari mavjuddir. Ammo, aynan novellistikada adibning iste'dodi yorqin namoyon bo'ldi. Hindiston va Pokistonning adabiy tanqidchiligi urdu tilidagi hikoya janrining rivojlanishi davrini Sadat Xasan Manto nomi bilan bog'laydi. Yozuvchi, asosan, tanqidiy realizm yo'nalishida ijod qilib, ahamiyatli badiiy yutuqlarga erishdi. Shu bilan bir qatorda, uning badiiy tizimida ayniqsa, ijodining kechki davrida modernizm poetikasi tomoniga o'zgarish ko'zatiladi. Bu tendensiya 50–60-yillar chegarasida vujudga kelgan va hozirgi paytgacha ham adabiyotda o'zining mustahkam istehkomlarini saqlab kelayotgan urdu «yangi hikoya»sining shakllanishiga asos bo'ldi. O'zbek kitobxonlari uning ijodi bilan ilk bor 50-yillarda tanishishadi*.

Sadat Xasan Manto haqidagi ilk asarlar bu M.T. Stepanyansning maqolalari bo'ldi. Uning ijodi haqida ma'lumot N.V. Glebov va A.S. Suxochevning «Urdu adabiyoti – qisqa ocherk» (1967 y.) hamda R.A. Yelizarova va A.S. Suxachevlarning «Pokistonning taraqqiyparvar yozuvchilari (urdu adabiyoti materialida)» deb nomlangan kitoblarida berilgan. O'zbek hindshunosi Z.D. Ashurbayev qalamiga 1970 yilda yozilgan «Sadat Xasan Manto va uning novelistikasi» nomli tadqiqoti va bir nechta maqolalari mansubdir³⁹. Hindiston va Pokiston adabiyotlari bo'yicha ko'plab asarlarda biz yozuvchi haqidagi mulohazalarni uchratishimiz mumkin. Mantoning ijodi bu bosqichda urdu taraqqiyparvar adabiyoti kontekstida o'rganildi. Tadqiqotchilar Mantoni mazkur yo'nalish mafkurasi bilan bog'lovchi eng harakterli, umumiy

* Манто С.Х. Извозчик и новая конституция. Звезда Востока. –Т., 1952, №8.

³⁹ Манто С.Х. Янги қонун. Ҳикоя. «Ўзбекистон маданияти». –Т., 1967, 12 август; Манто С.Х. Музил. Ҳикоя. Шарқ Юлдузи. –Т., 1970, №10; Ашурбоев З. Саодат Хасан Манто. Гулистон. –Т., 1972, №9; Ашурбоев З. Ҳаёт нақши нигорлари. Шарқ Юлдузи. –Т., 1975, №6.

chizgilarni aniqlashga intildilar. Tabiiyki, bunda kun tartibiga yozilgan va ijtimoiy keskinlik bilan ajralib turgan asarlar afzalroq ko‘rilar edi. Biroq Mantoning poetikasi har tomonlama o‘rganilmagan, shuning uchun ijodining evolyutsiyasini o‘rganish masalasi ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

1979 yili amerikalik tadqiqotchi L.A. Flemming Manto novelistikasi haqidagi monografiyani chop etdi. Mazkur ishda Manto asarlarining g‘oyaviy tematik tahlili berilgan. Flemming asarining asosiy kamchiligi – Manto ijodidagi tanholik, yolg‘izlik mavzusiga haddan ziyod ahamiyatni qaratganidir.

Mantoni Yevropa yozuvchilari asarlarida insonparvarlik mavzusi qiziqtirgan. Bu mavzu taraqqiyparvar adabiyotning g‘oyaviy izlanishlariga hamnafas bo‘lgan. Rus novellistikasi bilan tanishganligi natijasida yozuvchi hayotiy haqiqatga to‘la obrazlarni yaratishga erishdi. Yosh Manto uchun Gorkiyning ilk hikoyalarining qahramonlari, ayniqsa, jozibador edi. Ular jamiyat va uning mustaqillik g‘oyasini ifoda etar edi, bular «Ozod insonlar», lo‘lilar, o‘g‘rilar, kontrabandistlar, daydilar. Mantoning qahramonlari esa, butun umr shaharda yashagan bo‘lib, odatda, shahar muhitida qolar edilar. Mantoning umumbashariy qadriyatlarni izlashi uni Mopassan bilan yaqinlashtiradi. Hind yozuvchisiga juda yaxshi tanish bo‘lgan Mopassan va Ko‘prin asarlarida hamda Yevropa adabiyotida yorqin ifoda etilgan fohisha ayol mavzusi Manto ijodida ham o‘z rivojini topdi.

G‘arb yozuvchilaridan Manto voqelikni ochib berishda ob‘ektiv uslubi, hikoyaning syujet tuzilmasida dinamizm tamoyili, yoki aksincha, syujetning kuchsizligi tamoyili kabi badiiy uslublarni o‘rgandi. Chexov va Mopassan uchun xos bo‘lgan kutilmagan yakunlar Mantoning sevimli uslubi bo‘lib qoldi. Chexov kabi, Mantoning hikoyalarida fojeali hodisalar komik hodisalar bilan uyg‘unlashadi.

Sadat Xasan Mantoning hikoyalar to‘plami bo‘lgan ilk kitobi «Uchqunlar» 1936 yilda nashr etildi. U yozuvchining novellistik mahoratini ko‘z tatish mumkin bo‘lgan bu davr uning ijodidagi shogirdlik davrini aniqlash imkoniyatini beradi.

1938 yilda yozilgan «Yangi qonun» hikoyasi alohida diqqatga sazovordir, undagi markaziy harakter individual xislatlarga ega, haqiqatda mavjud inson sifatida ko‘rsatilgan.

1939 yilda yozilgan «Qichqiriq» hikoyasida katta shahardagi «kichik inson» mavzusi ko‘tarilgan. Bu hikoyada Manto tasvirning realistik uslubini ekspressionizm unsurlari – qahramonning ichki kechinmalarida

o'z ifodasini topgan haddan ziyod emotsionallik bilan uyg'unlashtirib mohirona tarzda yaratib yaxshi samaraga erishadi.

Shu davrning ko'plab hikoyalari fohishalik mavzusi ijtimoiy masala sifatida ochib berilgan. Bunga «Manto hikoyalari» (1940) to'plamidagi «Tanishuv» hikoyasi misol bo'la oladi. Bu hikoya Chexov hikoyalari bilan hamnafasdir. «Haqorat» (1940) hikoyasida muallifning e'tibori, asosan, qahramon ayolning ichki dunyosini ochib berishda, uning psixologik portretini ochib berishda mujassamlashgan. Unda naturalizm unsurlarining belgilari, ko'rimsiz haqiqiylik tasviri, qahramon kechinmalaridan to'qilgan va atrofdagi muhitga ta'sir etuvchi Saugandxi obrazining lirikligi uyg'unlashgan. Shuni ta'kidlash lozimki, turmush va qahramonning tashqi ko'rinishining yoqimsiz unsurlari nafaqat uning ichki mohiyatini ko'rsatmaydi, balki bu mohiyatga ziddir. Saugandxi harakterining ba'zi bir taraflari, ya'ni ishonuvchanlik, tabiiylik, beg'arazlik Mantoning ko'plab boshqa asarlaridagi fohishalar obrazida u yoki bu uyg'unlikda mavjuddir. Biroq, shu bilan bir qatorda, Manto o'z qahramonlarining madaniyatsizligini atayin ta'kidlaydi, ularning nutqlari qo'pol va madaniyatsiz, ular passiv va harakatsizdir.

Manto o'z asarlarida insonning haqiqiy yuzini ochib beruvchi vaziyatlarni yaratgan. Manto insonning mohiyatini to'sqinlik qiluvchi to'siqlar, ya'ni tashqi qiyofa, atrof-muhit, urf-odatlarini bartaraf etib, ochib berishga harakat qilgan. Yozuvchi insonlarda ezgulikni – haqiqiylik, insonparvarlik, yaxshilik kabi xislatlarni izlagan. Bu xislatlar ko'r-ko'rona emas, balki insonning «sof tabiiyligi» tufayli mavjud bo'lganini ochib bergan. Manto jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimini shubha ostiga qo'yib, qadriyatlarni baholashdagi o'z mezonini ilgari surgan, unga muvofiq, zamonaviy madaniyaning o'ziga xos salbiy tomonlari bordir. Tabiat bilan hamnafaslikdagi hayot esa, ijobiy hodisadir. Agarda Mantoning ilk hikoyalari ekspluatatsiya va siyosiy kurash muammosini keskinlashtirsa, keyinchalik urg'u asosan, haqiqat va yolg'on muammosiga berilib, bu muammo axloqiy-ma'naviy ko'rinishda hal qilinadi.

Yozuvchining ijodiy uslubi ma'lum evolyutsiyani boshidan kechirdi. Romantizm va ma'naviy turdagi adabiyot ta'siridan ozod bo'lgan Manto tanqidiy realizm vakillarining mohirligini o'zlashtirdi.

1947 yildan boshlab, ya'ni mamlakatning ikki davlatga bo'linishi-ning qonli fojeasi ta'siri ostida yozuvchining dunyoqarashi ahamiyatli darajada o'zgaradi. Bu o'zgarishni aks etgan ilk hikoyalar «Ahmoq» to'plamiga kirdi. Mantoning Pokistonga majburiy ko'chib ketganidan

keyin, nashr etilgan ilk kitobi bu «Qora dalalar» (1948) to'plamidir. Bu asarda insonlar vaziyatga to'liq tobedurlar, ular qotil, o'g'ri, zo'ravonlarning hatti-harakatlariga chidashga majburdirlar. «Mozel», «Saxay», «Oxirgi salyut» hikoyalarida turli millat va e'tiqodda bo'lgan insonlar doimo yordamga kelishga tayyor ekanliklari, zarur bo'lganda esa, boshqa millat va e'tiqoddagi insonlarni hayoti uchun o'z hayotlarini berishga tayyorliklari haqida hikoya qilinadi. Bu harakatlarni ular «Qalb amri» bilan qilganliklari e'tiborga loyiqdir, ya'ni ular o'z tabiiy ezgulik hislatini namoyon qiladilar. «Tobatek Singx» hikoyasi urdu novellistikasida eng yaxshi hikoyalardan biri hisoblanadi. Mamlakatning bo'linganligi haqida xabarlar yetib bo'lgan Laxordagi jinnixona Hindiston va Pokistonda bo'layotgan ahmaqona hodisalarning aksi bo'lib qoldi. Yozuvchi mazkur mavzuni «Saxay» hikoyasida ham ko'targan: «musulmon yoki hinduni o'ldirayotganingda sen ularning dinini o'ldiryapman deb o'ylamagin. Sen qo'lingni dinga emas, insonga ko'tarayotganingni yodingda tut».

Yolg'izlik, tanholik mavzusi, bo'shlik motivi 1950 yilda yozilgan «Bo'sh shishalar, bo'sh qutilar» deb nomlangan to'plamdagi xuddi shu nomli novellada ko'tarilgan. Hikoya to'liqligicha realistik voqeaviy novella ruhida yozilgan. Bo'ydoq aktyor Ram Svarup bo'sh kerakmas narsalarni o'z hayotining tanholigini to'ldirishga intilib to'plagan. Kunlardan birida uylanishga qaror qilib, u bu bo'sh narsalarning barchasini tashlab yuboradi.

Sadat Xasan Manto adabiyotga 30-yillarning o'rtasida, ya'ni taraqqiyparvar yozuvchilarning harakati birlashish bosqichida bo'lgan davrda kirib keldi. Manto adabiy faoliyatining boshlanishi, xuddi uning zamondoshlariniki kabidir, ya'ni gazeta va jurnallarida muharrirlik ishlari, hindiy tiliga g'arb yozuvchilari asarlarining tarjimasi va boshqalar. Mantoning shogirdlik davri qisqa muddatda bo'ldi. Ilk hikoyalaridagi qahramonlarning nutqiga ma'rifat adabiyotiga xos bo'lgan va ko'plab taraqqiyparvar yozuvchilar meros qilib qoldirgan publitsistik tomonlar xosdir.

Ijodining birinchi davrida Manto tasvirning realistik uslubida ijod qilgan. U ma'rifiy adabiyot va romantizm unsurlaridan tez ozod bo'ldi, ammo zaruriyatga ko'ra, naturalizm, ekspressionizm, impressionizm unsurlarini kirita boshlagan. Manto ijodiy faoliyatining ikkinchi davrida tanqidiy realizm unsurlari rivojlandi, biroq uning asarlarining bir qatorida modernizm poetikasiga tobelik ko'zatiladi. Bu asarlar urdu adabiyotida «yangi hikoya» paydo bo'lishining asosi edi.

Shunday qilib, Sadat Xasan Manto ijodiga bugungi kun nauqtai nazardan murojaat qilish, Manto hikoyasi o‘z rivojlanishining barcha bosqichlarida urdu adabiyoti janrining keyingi rivojlanish istiqbolini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiy tur va janrlar. Toshkent , 1992.
2. Glebov N., Suxochev A. Literatura urdu. M., 1967.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 1982.
4. Boboyev To'xta. Adabiyotshunoslik asoslari. T. "O'zbekiston", 2002
5. Said Extisham Xuseyn. Istoriya literaturı urdu. M.: 1961.
6. Persoyazqchnaya literatura Indii. M.: 19...
7. Premchand. Jertvennaya korova. M., 19...
8. Sharq mumtoz poetikasi. Manba va talqinlar. Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. T.: 2016.
2. Grinser P.A. Основные категории классической индийской поэзии. M., 1987.

Hindi tilida manbalar:

1. Kamleshvar, "Nai kaxani ki bxumika" ("Yangi hikoyaning ahamiyati"), Dexli, 1978.
2. Kamleshvar, "Meri chuni xui kaxaniyan" ("Mening tanlangan hikoyalarim"), Dexli, 1987. Moxan Rakesh, "Moxan Rakesh ki sampuran kaxaniyan" ("Mohan Rakeshning to'liq hikoyalar to'plami"), Dexli, 2001.
3. Rajendra Yadav, "Meri priya kaxaniyan" ("Mening sevimli hikoyalarim"), Dexli, 2000.

GLOSSARIY

avangardizm — XX asr san'ati va adabiyotdagi so'1 oqimlarni ifodalaydi. Germaniyadagi ekspressionizm, Chexoslovakiyadagi avangardlarning turli ko'rinishidir va burjua madaniyatiga qarshi chiqadilar. Hozirgi kunda yangi avangardizm yuzaga chiqdi.

Allegoriya — so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishidir.

antologiya – bir nechta shoir va yozuvchilarning tanlangan asarlari to'plami.

bilingvizm – ikki tillik

barot – kelinni olib ketish marosimi

vedalar – qadimgi Hindiston adabiy yodgorliklari

Gyanpitr — adabiyot bo'yicha Hindistonda Nobel mukofoti hisoblanadi

dxvani natak – ovozli pesa.

kxudi – urdu adabiyotiga birinchi marta M.Iqbol tomonidan kiritilgan atama, “o'zlik” ma'nosini anglatadi..

Intellektual janrlar — so'nggi yillarda adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan atamadir. Unda muallifning e'tibori nafaqat hayot, insoniy xarakterlar, balki g'oyaviy, nazariy nizolarga qaratilgan (roman-konsepsiya, drama-konsepsiya).

Kundalik — xotira daftari — badiiy asar shakllaridan bo'lib, u yozuvchining o'zi qatnashgan hayotiy voqea-hodisalarni, fikr-mulohazalari va ichki kechinmalarni aks ettiradi.

lakonizm – asar tilining lo'nda, aniqligi.

lirika – “lirika” atamasi III-II asrlarda ellinstik madaniyat zaminida paydo bo'lgan. “Lira” – qadimgi Gresiyada musiqali asbobning nomi.

mistitsizm – tasavvuf, ilohiyotga, g'ayritabiiy kuchlarga ishonish

nayi kavita – “yangi she'riyat” oqimi

nandi – hind adabiyotlarida an'anaviy so'zboshi

naturalizm – realizmning bir oqimi, Yevropada vujudga kelgan, borliqni bor mayda-chuyda, ikir-chikirlarigacha ochiq ko'rsatish.

nasriy drama – muallif va qahramonlar nutqi nasrda yozilgan drama

Neoromantizm — yangi romantizm

Neorealizm — yangi realizm

Naya samiksha — yangi tanqidchilik.

novella – italyan tilidan novelette – “qisqa hikoya”, g'arb adabiyotshunoslarining fikricha, novellaning hajmi 7500 ta so'zdan kam bo'lishi lozim.

ocherk – o‘z hajmi jihatidan hikoyaga yaqin turgan, epik turga mansub badiiy publitsistik janrlardan biri.

prayogvad – izlanish oqimi

pragativad – taraqqiyparvarlik ham harakat ham yo‘nalish.

praxasana – sanskrit adabiyotidagi bir pardali pesaning bir turi.

Pritcha — ma‘naviy yoki diniy nasihatni o‘z ichiga olgan kinoya ko‘rinishidagi kichik hikoya bo‘lib, shakliga ko‘ra masalga o‘xshaydi.

psixoxanaliz – qahramonlarning ichki dunyosini o‘rganish hamda e‘tiborni ko‘proq biologik, fiziologik va seksual fazilatlariga qaratish.

puranalar – qadimgi hindlarning afsonalari, qissalari.

radionatak – radioda ovoz va musiqa orqali ijro etiladigan drama

Rekxachitra — hikoya, ocherk va nasrchilikning unga o‘xshash boshqa janrlari qatoriga kiritilgan bo‘lib, unda voqelikka atrofdan solingan nazar aks ettiriladi.

ritorika – notiqlik san‘ati

ritikal davri – hind zaminida XVIII asrda rivoj topgan adabiyot

sanskrit – qadimgi Hindiston yodgorliklari tili

sati – qadimgi hinduizm diniga ko‘ra marxum erining jasadi bilan birga ayolini ham yoqish odati.

cvarali – milliy ozodlik harakati.

tamil adabiyoti – Janubiy Hindiston adabiyotlaridan biri.

tavaif – maxsus uylarda tarbiyalangan raqqo

traktat – muayyan yozuvchining asarlar majmui

TYoU – Taraqqiyparvar yozuvchilar uyushmasi. 1936-1954 yillarda faoliyat olib borgan.

trazm oqimi – hind adabiyotidagi an‘anachilik oqimi.

uslub – til vositalaridan foydalanishning ma‘lum bir yozuvchi, asar, janr uchun xos bo‘lgan usullar majmui.

hikoya – kichik bir epik janr bo‘lib, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladi va birgina voqea asogsiga quriladi. Bu janrning zamonaviy namunalari bizda XX asr boshlarida paydo bo‘ldi.

harijan – eng past kasta

chxayavad – hindiy she‘riyatida romantizmning ifodasi, umumiy xususiyatlari romantizmga tegishli bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos, farqli jihatlari ham bor.

TYoU – Taraqqiyparvar yozuvchilar uyushmasi. 1936-1954 yillarda faoliyat olib borgan.

epistolyar janr – xat shaklida yozilgan asar.

ekanki – bir pardali drama shakli.

eksperimentalizm – izlanish oqimi

Ekspozitiv — taʼrif, yoritib berish uslubi, muallif subʼektiv, oshkora hikoya qiluvchi sifatida ishtirok etadi.

shravya natak – eshitish uchun yaratilgan pesa.

qissa – Yaqin va Oʻrta Sharqda keng tarqalgan folklor va yozma adabiyot asarlari

MUNDARIJA

Kirish soʻzi.....	3
Hindistonda urdu tili va adabiyotining shakllanishi.....	4
Urdu adabiyotining yetakchi maktablari. (1400-1700yy).....	8
Hindistonda forsiyzabon adabiyot (13-15 asr).....	17
Amir Xusrav Dexlaviy (1253 -1325).....	24
Hind tasavvuf adabiyoti.....	33
Bijopur sultonligi davrida urdu (dakhniy) adabiyoti.....	41
Golkonda sultonligi urdu (dakhniy) adabiyoti.....	49
17 asr urdu adabiyoti vakillari.....	57
Avadh rojaligida urdu adabiyoti rivoji (18 asr).....	64
XVIII asr Mirzo Sulaymon Shukuh saroyining shoirlari.....	67
Vali Muhammad Nazir Akbarobodiy va uning uslubi.....	72
Urdu sheʼriyatining toʻrt ustuni (18 asr).....	76
1700-1850yy. urdu adabiyotining rivoji.....	99
Mirza Gʻolib sheʼriyati (1797-1869).....	113
XIX asr urdu adabiyotining Lakxnau va Dehli maktablari).....	124
Alligarx maʼrifatparvarlik harakati. Said Ahmad Xon faoliyati.....	126
Maʼrifatparvarlik shoiri Mavlono Ozod ijodi.....	134
Altaf Xusayn Xoli ijodida maʼrifatparvarlik gʻoyalari.....	136
Nazir Ahmad ijodida nasixatli roman.....	139
Ratannatx Sarshar va sarguzashtli roman.....	141
Mirza Rusva ijodida tarixiy roman.....	143
Muhammad Iqbol sheʼriyati.....	146
Muhammad Iqbol sheʼriyatida falsafiy qarashlar.....	150
Abdul Xalim Sharar ijodida romannavislik.....	153
Joʻsh Malixobodiy sheʼriyati.....	156
Xoʻja Ahmad Abbos ijodida roman epopeya	157
Zamonaviy urdu nasrnavisi Ahmad Nodim Qosimiy.....	162
Premchand urdu adabiyotida tanqidiy realizmning asoschisi.....	168
Krishan Chandar ijodida tanqidiy realizmning rivojlanishi.....	173
Saadat Xasan Mantoʻ ijodi va urdu hikoyanavisligi.....	177
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	182
Glossariy.....	183

Muxibova U.U. Urdu adabiyoti // Darslik. T.: TDShU, 31 may 2025y. 187 b.

Mas'ul muharrir:
Abduraxmonova M.X.
Fil.f.n., professor

Taqrizchilar:
PhD M.Sharaxmetova
F.f.d. G.Xallieva

*Ushbu monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy
Kengashining 2025-yil 31-maydagi 10-sonli kengaytirilgan majlis bayonnomasi
qaroriga ko'ra nashrga tavsiya etilgan*

Bosishga ruxsat etildi: 31.05.2025
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 5, 5 6.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma № 50.
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.